

TURSUNOV S.N., UMAROV I.I., TURSUNOV A.S.

JAHON TARIXI
(O‘RTA ASRLAR DAVRI)
D A R S L I K

TerDU NMM nashriyoti

Termiz – 2022

UO‘K: 94(100)(075)

KBK: 63.3(0)ya7

T 91

Ushbu darslik Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 12-dekabrdagi 365-PO-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Tursunov S.N., Umarov I.I., Tursunov A.S. Jahon tarixi (o‘rta asrlar davri). Darslik. T.: - 2022, 300.b.

Darslik 60220300 — Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasida belgilangan Jahon tarixi (o‘rta asrlar davri) fan dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat tarix yo‘nalishi talabalariga, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining tarix fani o‘qituvchilari hamda Jahon tarixining o‘rta asrlar davrini o‘rganishga qiziquvchi kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:

t.f.d., dos T.R.Pardayev

Taqrizchilar:

E.O. Qobulov– tarix fanlari doktori, professor.

Dj.Z.Mirzayev – tarix fanlari nomzodi, dotsent

B.S.Rahimov – tarix fanlari nomzodi, dotsent

ISBN: 978-9943-8899-6-5

© Tursunov S.N., va boshq.

© TerDU NMM nashriyoti, 2022-y.

KIRISH

Aziz o'quvchi! Qo'lingizdagi ushbu kitob Jahon tarixining o'rta asrlar davrini yoritadigan darslikdir.

«O'rta asrlar» degan atamani XVI—XVII asrlarda yashagan gumanist tarixchilar kiritgan bo'lib, ular ham buni o'z navbatida gumanist filologlardan olganlar. Gumanist filologlar lotin tilini qadimgi, o'rta va yangi yoki uyg'onish davri tili deb atalgan uch qismga bo'lganlar. Bu atama XVIII asrga kelib uzil-kesil qaror topgan.

O'rta asrlar davri 476 yil, ya'ni G'arbiy Rim imperiyasi qulashidan boshlanib to 1640 yilgi Angiliya burjua inqilobigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. O'rta asrlar davrining o'zi uchta katta davrga bo'linadi.

1. Ilk o'rta asrlar — V asrda boshlanib, taxminan XI asr o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr insoniyat tarixida yerga egalik munosabatlari bilan bog'liq iqtisodiy usul, ya'ni feodalizmga o'tish, feodal tabaqalarning tashkil topishi, G'arbiy Yevropada katolik cherkovi ta'sirining yoyilishi, islom dinining paydo bo'lishi va keng tarqalishi davridir.

2. Rivojlangan o'rta asrlar — XI asr o'rtalaridan to XV asr oxirigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, feodal tuzumi to'la qaror topgan, sex hunarmandchiligi va o'rta asrlar shaharlari rivojlangan, mehnat taqsimoti o'sgan, savdo rivojlangan, salib yurishlari amalga oshirilgan davr sanaladi.

3. So'nggi o'rta asrlar — XVI—XVII asrning birinchi yarmini o'z ichiga olib, Buyuk geografik kashfiyotlar amalga oshirilgan, diniy reformatsiyalar bo'lib o'tgan davrdir.

O'rta asrlar davriga oid manbalarni 3 turga bo'lamiz:

1) Tarixiy yilnoma yoki qissalar. Bularga Sali haqiqati, Rus haqiqati, ingliz-saks haqiqatlari va boshqalar kiradi.

2) Hujjatlar. Bunga ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy hayotni ko'rsatuvchi, jarimalar, soliqlar, boshqaruv va sud faoliyatlari bilan bog'liq yozma majmualar kiradi.

3) Qonunchilik bilan bog'liq manbalar. Bu guruhga imperator yoki qirollarning farmonlari, parlament qarorlari va hokazolar kiradi.

Ushbu darslikni yaratishda so'nggi yillarda chop etilgan adabiyotlar va internet resurslaridan foydalanildi. Darslik rangli xaritalar, suratlar, atamalar izohi va topshiriqlar bilan to'ldirilgan.

I BOB. ILK O'RTA ASRLAR DAVRI

1-§. Varvar qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti

Quldorlik tuzumining inqirozi va Rim imperiyasida feodal munosabatlarning yuzaga kelishi. IV asr so'ngida Rim imperiyasi tarkibiga G'arbiy Yevropaning deyarli barcha hududlari, Dunayning o'ng qirg'oq provinsiyalari, Bolqon yarim oroli, O'rta Yer dengizi orollari, Shimoliy Afrika, Misr, Mesopotamiyaning bir qismi, Suriya va Falastin kirgan.

III asrdan boshlab Rim imperiyasi xo'jaligida tushkunlik sodir bo'ldi. Savdo qisqardi, dehqonchilik darajasi pasaydi. Bozorga mahsulot chiqaruvchi xo'jaliklar soni kamaydi. Davlat aholidan mahsulot solig'ini olib, amaldorlar va qo'shinga mahsulot tarzida oylik to'lashga o'tdi. Savdo izdan chiqib, hunarmandchilik tushkunlikka uchradi. Provinsiyalar o'rtasida iqtisodiy aloqalar susaydi.

Imperiyaning g'arbiy viloyatlarida kuzatilgan iqtisodiy tuskunlik milodning II asri so'ngidayoq boshlangan quldorlik tuzumining inqirozi bilan bog'liq edi. Qul mehnati va quldorlik munosabatiga asoslangan ishlab chiqarishning imkoniyati tugadi. Qulchilik ishlab chiqaruvchi kuchlarning keyingi rivoji uchun to'siq bo'lib qoldi. Qulning o'z mehnati natijasidan manfaatdor emasligi biron-bir texnik rivojlanishga imkon bermadi. Yirik yer egaligi o'sib, katta mulklarda qul mehnatini nazorat qilish qiyinlashdi va qul mehnati unumdorligi pasaydi.

Quldorlik tuzumini barqaror saqlab turish uchun ichki bozorni bosib olingan o'lkalar aholisini qulga aylantirish orqaligina ta'minlash mumkin edi. Qul mehnatiga asoslangan yirik yer egaligining o'sishi rim qo'shinining asosiy manbai bo'lgan erkin dehqonlarni xonavayron qildi. Bularning barchasi Rim davlatining harbiy qudratiga putur yetkazmoqda edi. Qulchilikka asoslangan mehnat samarasiz ekanligi oydinlashgach, boshqa usullarga o'tishni taqozo etdi. Chunonchi, hosilning bir qismini xo'jayinga berish yoki xo'jayin yerida ishlash sharti bilan qullarni yer va ish qurollari bilan ta'minlash boshlandi. Ayrim qullarga o'z xo'jaligini yuritish uchun hatto qul sotib olishga ham ruxsat berildi. Biroq, shunga qaramay, qul va uning mulki hali ham xo'jayinga tegishli edi.

Milodimizning boshlarida Rim imperiyasida **kolonat** tartibi keng tarqaladi. **Kolon** (lotincha colonus, coloni – «dehqon») — Rim imperiyasi va Vizantiyadagi qaram dehqon. Yirik va o'rta mulklarda yer olib

ishlovchi kolonlar xo‘jayinga obrok to‘lab, ba’zi majburiyatlarni o‘taganlar. Shunday bo‘lsa-da, ular to‘la huquqli erkin kishi sanalganlar. Xonavayron bo‘lgan dehqonlar va tutqunlikka tushgan varvarlar kolonlarga aylanganlar. Kolonlar xo‘jalik jihatdan mustaqil bo‘lganlar, o‘z mahsulotlarini sotganlar. Kolonlar davlat solig‘ini to‘laganlar, harbiy xizmatni o‘taganlar, sudyalarga murojaat qilishga huquqli bo‘lganlar. Rim qonunchiligiga ko‘ra, kolonlar o‘z tabaqasini o‘zboshimchalik bilan tark etib, boshqasiga ko‘chib o‘tishni taqiqlangan.

Kolonlikdan tashqari «prekariy» usuli asosida yerni dehqonlarga berish tartibi ham tarqalgan. **Prekariy**—(lot. «precarium», «precarius»— «muvaqqat», «o‘tkinchi» degani, vaqtinchalik foydalanish uchun berilgan narsa) Rim huquqida biron narsa yoki huquqlarga egalik qilish shakli (odatda – ko‘chmas mulk va ular bilan bog‘liq huquqlar, masalan mulkni ishlatish, biron joydan o‘tish huquqi, sug‘orish va boshqalar). Bunda biron shaxsning iltimosiga binoan mulkdor o‘ziga tegishli bo‘lgan mulkni vaqtincha foydalanish uchun beradi va uni istalgan vaqtda qaytarib oladi. Mulkni oluvchi shaxs «prekarist» deyilgan.

Prekariy — muddatli (5 yil), umrbod va merosiy qilib berilgan.

G‘arbiy provinsiyalarda yirik senator yer egaliklari ham muhim o‘rin tutgan. III–V asrlarda uning tuzilishi o‘zgaradi. Senatorlar va imperator yerlari parsellatsiyaga uchraydi. **Parsellatsiya** (ital. *parcella* — bo‘lak, lot. *particula*) — yer uchastkasining kichikroq qismlarga bo‘lish tartibidir. Bo‘lingan yerlar **parsella** deb atalgan. Bundan maqsad har qanday hududni soddalashtirish va kichikroq qismlarga bo‘lishdir. Shunda bu qismlar bilan yerni qayta ishlash va chorvani saqlash qulayroq bo‘lgan.

Parsellalar qullarga, prekariychilarga, kolonlarga berilgan. Qullar mehnatiga asoslangan eski ko‘rinishdagi villalar ham saqlangan, lekin ular ham yangi ko‘rinishdagi munosabatlarga o‘rnini bo‘shata bordi va feodal jamiyatiga xos bo‘lgan xo‘jalik shakli va iqtisodiy munosabatlar kirib kela boshlaydi.

So‘nggi Rim imperiyasida **emfitevzis** (lot. «emphyteusis», grek. «ἐμφύτευσις» — payvand qilish, ekish) deb nomlangan yerga egalik shakli ham mavjud bo‘lgan. Uni olgan shaxs «emfitevt» deb atalgan. Emfitevtlar har yili mulk egasiga belgilangan to‘lovni berib, xo‘jalikni yaxshi yuritishi kerak bo‘lgan. Ular yerni ijaraga berishi, meros qoldirishi va hatto sotishi mumkin edi. Agar emfitevt uch yil ichida to‘lovni to‘lamasa, o‘lsa va merosxo‘ri bo‘lmasa, yoki muddat tugasa yer egasiga qaytarilgan. Emfitevzis feodal jamiyatiga xos shartli yer egaligining boshlanishi edi.

Quldorlik tuzumi inqirozi Rim jamiyatining siyosiy, huquqiy idoralarida o'z aksini topdi. Mamlakat ichidagi sinfiy ziddiyatlar, provinsiyalarda ayirmachilik harakatlarining kuchayishi va tashqi hujumlar davlatni yangi sharoitlarga moslashishga majbur qildi. Mamlakatni boshqarish imperator va u tomonidan tayinlangan amaldorlar qo'lida to'plandi. Senatning ahamiyati yo'qolib, shaharlarning mustaqilligi tugaydi. Yollanma varvarlardan tuzilgan qo'shin soni oshdi. Ko'p sonli amaldorlar va qo'shinni boqish uchun soliqlar miqdori oshirildi. Soliqlarni muntazam tushishini ta'minlash uchun hunarmandlar o'z kollegiya(uyushma)lariga birlashtiriladi va undan chiqishi man etiladi. 293 yilgi imperator Diokletian edikti(farmon)ga ko'ra, hunarmandlar davlat foydasiga natural soliq to'lashlari shart edi.

Biroq bu tadbirlar quldorlik davlatining inqirozini to'xtata olmadi. G'arbiy provinsiyalarda quldorlik tuzumi inqirozi keskinlashib, provinsiyalarda ayirmachilik harakatlari kuchayadi. Hukumat aholini oldingi usullar bilan boshqara olmay, mahalliy aristokratlardan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Kolonlarning davlat majburiyatlarini o'tashini nazorat qilish yirik yer egalariga yuklandi. Ular o'zlarining sud-ma'muriy idoralarini tashkil qilib, harbiy drujinalarini tuzdilar. Davlat apparatining yemirilishi va magnatlarning shaxsiy hokimiyati shakllanishi shu ko'rinishda sodir bo'ldi. Markaziy hokimiyat kuchsizlanib, provinsiyalarni boshqarish mahalliy magnatlar qo'lga o'tdi. Harbiy boshliqlar hukumatdan mustaqil bo'la borib, endi yangi boshliqlarga xizmat qila boshlaydilar

Varvarlarning ijtimoiy tuzumi. Italiyadan shimolga juda ko'plab varvar qabilalari yashashgan. Rimda «varvarlar» deb grek va lotin bo'lmagan xalqlar atalgan. Varvarlarning ijtimoiy tuzumi Rim quldorlik tuzumiga butunlay teskari edi. Ularda hali ijtimoiy sinflar tarkib topmagan va aholining asosiy qismi erkin kishilardan iborat edi.

Rim chegarasiga tutash hududlarda yashagan varvarlar 3 ta katta guruh – keltlar, germanlar va slavyanlarga bo'linganlar. Keltlar Shimoliy Italiya, Galliya, Ispaniya, Britaniya va Irlandiyada yashaganlar. Rim davlati Shimoliy Italiya, Galliya va Ispaniyani bosib olganidan keyin ularning aholisi rimliklar bilan qo'shib bir xalq bo'lib ketadilar (gall-rim va gall-isan). Rimliklar tomonidan Britaniya egallab olingach, u yerda yashovchi keltlarning katta qismi bo'ysundirilgan bo'lsa-da, rim madaniyati Britaniyada unchalik tarqalmaydi.



Kelt jangchilari

Britaniyaning kelt aholisi bu vaqtda ibtidoiy munosabatlar yemirilib ilk sinfiy jamiyatga o'tish bosqichidagi patriarxal tartiblarni boshidan kechirayotgan edi. Rim imperiyasi tomonidan ishg'ol qilinmagan Irlandiya va Shotlandiyaning kelt aholisi o'ziga xosligini yanada ko'proq saqlab qolgan edi.

Keltlardan sharqdagi hududlarda germanlar yashar edilar. Milodimiz boshlarida german qabilalari g'arbda Reyn va sharqda Visla daryolari, janubda Alp tog'lari va Dunay daryosi, shimolda esa Shimoliy va Boltiq dengizi oralig'igacha bo'lgan hududda o'rnamashganlar. Ular Skandinaviyaning janubida ham yashaganlar.

Germanlar to'g'risidagi ilk xabar miloddan oldingi 325 yilda grek savdogari Piteas (Pifiy) tomonidan keltiriladi. U Shimoliy dengizdagi Qahrabo qirg'og'iga qadar suzib borib, o'sha yerda yashovchi guton va tevton urug'lari to'g'risida yozib qoldirgan.

Bundan tashqari, Gay Yuliy Sezarning «Galliya urushi to'g'risidagi yozishmalar» va Publiy Korneliy Tatsitning «Germaniya xalqlarining kelib chiqishi, yashash joyi va urf-odatlari to'g'risida»gi asarlarda germanlarning ijtimoiy turmushi haqida qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi. Germanlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni Katta Pliniyning «Tabiiy tarix» va Strabonning «Geografiya» asarlaridan ham bilib olish mumkin.

Tatsit germanlarni o'zlari yashab turgan yerlarning tub aholisi deb hisoblaydi. Sesar va Tatsit ma'lumotlariga ko'ra, germanlarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan. Dehqonchilik yordamchi xo'jalik

sifatida mavjud bo'lgan. Biroq, arxeologik ma'lumotlar miloddan oldingi II-I asrlarda Germaniyaning katta qismi va Yutlandiya yarim orolida dehqonchilik madaniyati ancha rivojlanganligidan guvohlik beradi. Ekish oldidan yerni yengil plug yoki so'qa bilan ikki marta haydashgan.



German oilasi

Germanlar suli, bug'doy, arpa, tariq, zig'ir ekanlar. Dehqonchilik madaniyati ularda ancha sodda ko'rinishda bo'lgan. Ammo bog'dorchilikni hali bilmaganlar. Germanlarning o'rmonli va botqoqli yerlarda yashagan urug'lari faqat chorvachilik va yovvoyi hayvonlarni ovlab tirikchilik qilganlar.

Tatsitning yozishicha, germanlarning qishloqlari tarqoq bo'lib, uylari yog'ochdan qurilgan va loy bilan suvalgan. Bu bir necha o'n metrlik uzun uylar ko'rinishida bo'lgan. Oziq-ovqat mahsulotlarini yerto'lalarda saqlaganlar.

Germanlarda shahar ko'rinishidagi turar joylar bo'lmagan. Biroq himoya maqsadida tuproq va yog'ochdan devorlar ko'targanlar.

Baliqchilik va termachilik ham germanlar xo'jaligida muhim o'rin tutgan. Dengizbo'yi qabilalarida esa dengiz bilan bog'liq hunarlar va qahrabo terish bilan shug'ullanilgan. Germanlar hayoti natural xo'jalikka asoslangan edi. Har bir urug' jamoasi yoki katta oila o'ziga kerakli mehnat qurollari, harbiy aslahalarni, kiyim-kechak va xo'jalik buyumlarini o'zlari tayyorlar edi. Hali hunarmandchilik alohida tarmoqqa aylanmagan edi.

Tatsitning aytishicha, germanlar temir olib, undan mehnat va harbiy qurollar tayyorlashni bilganlar. Lekin temir oz bo'lgani uchun yuqori darajada qadrlangan. Shuningdek, germanlarda kumush, qalay va mis bo'lganligi arxeologik materiallarda aks etadi.

Germanlarda kulolchilik va to'qimachilik ancha yuksalgan edi. Matolarga o'simliklardan olinadigan bo'yoqlar bilan ishlov berilgan. Qirg'oq bo'yida yashovchi urug'larda kemasozlik rivojlanganligi so'nggi bronza davriga oid qoya tasvirlarda aks etgan. Svionlar (shvedlar), frizlar, sakslar mohir dengizchilar bo'lishgan.



Markoman jangchilarining urush kiyimi



Rimliklarning markomanlar bilan jangi

Miloddan oldingi I asr oʻrtalaridan boshlab rimliklarning germanlar bilan savdo munosabatlari qizgʻinlashib bordi. Reyn va Dunay boʻylaridagi rim manzilgohlari — Kyoln, Trir, Augsburg, Regensburg, Vena asosiy savdo markazlari boʻlgan. Shu vaqtda rimliklar germanlar bilan chegaralarda yoʻllar tizimini barpo qilganlar. Germanlar rimliklardan bronza buyumlar, shisha, mehnat va harbiy qurollarni sotib olganlar. Rimliklar germanlardan qullar, chorva, qahrabo, teri, moʻyna, oʻsimlik boʻyoqlari olganlar.

Germanlarda ishlab chiqaruvchi kuchlar va aholi soni oʻsgan sari qabilalarning ichida sinfiy tabaqalanish jadallashuvi natijasida ularning imperiyaga tazyiqi tobora kuchayib bordi. Reyn ortida Rim mudofaa devorlarini yorib oʻtib, boy hududlarni egallashni maqsad qilgan qabilalar ittifoqi paydo boʻldi. 166—180 yillarda Markoman urushi boʻlib oʻtdi. Unda varvarlarning katta toʻdalari – markomanlar, kvadlar, vandallar, germundurlar ishtirok etdilar. German qabilalari Retsiya, Norik, Pannoniya, Dakiya, Illiriyaga bostirib kirib, Shimoliy Italiyagacha yetib keladilar. Ammo milodiy 178 yilda germanlar Rim imperatori Mark Avreliy tomonidan tor-mor keltiriladi. Bu urush rimliklarning soʻnggi yirik gʻalabasi boʻldi. Keyingi yillarda varvarlar bilan kelishish yoki hududlarni yon berishga toʻgʻri keldi. Imperatorlar germanlarga imperiyaning chegara hududlariga ittifoqchi (federat) sifatida koʻchib kelib joylashishga ruxsat berdilar. Rim hukumati ularga Reyn va Dunayning yuqori oqimi oʻrtasidagi yerlarni ajratib berishga majbur boʻldi.



Rimliklarning jangovor tuzilishi

Varvarlarning Rim chegara hududlariga ko‘chib kelishi ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojiga ta’sir ko‘rsatdi. Erkin dehqon aholisining miqdori ortib, qul mehnatining ahamiyati ozayadi. Germanlar rimliklarning moddiy va ma’naviy hayotidagi ko‘pgina jihatlarini o‘zlashtirib oldilar. Bu germanlarda urug‘-jamo’a munosabatlarining yemirilishiga,

rim huquqining kirib kelishiga, xususiyl mulkchilikning qaror topishi yoki mustahkamlanishida ko‘zga tashlanadi.

Imperiyaning harbiy tuzilishi ham o‘zgardi, ya’ni federat varvarlardan tuzilgan qo‘shinning ahamiyati ortib bordi. Rim xizmatidagi german qo‘shinboshilari imperatorlarni o‘z istaklariga ko‘ra almashtirib turdilar. Ularning saroy hayoti bilan bog‘liq ishlarga aralashishi va imperiyaning siyosiy hayotiga ta’siri kuchayib boradi. Bu holat kelgusida rim provinsiyalarining germanlar tomonidan bosib olinishini yengillashtiradi.


Varvar qirolliklarining tashkil topishi. IV—VI asrlar Yevropa tarixiga xalqlarning buyuk ko‘chishi nomi bilan kirdi. Ko‘chish natijasida xalqlarning yashash hududlari keskin o‘zgarib ketdi. Ushbu ko‘chishga quyidagilar sabab bo‘ldi:

yangi-yangi yerlarga talabning kuchayishi;

sharqda yashovchi ko‘chmanchi xunn aymoqlarining G‘arbga ko‘chishi;

iqlimning keskin o‘zgarishi, ekin maydonlari aksariyat qismining yaroqsiz holga kelishi.

Ayniqsa, turkiy xunnlarning yurishi imperiya uchun juda halokatli bo‘ldi. Xunnlar germanlarning yerlariga bosqin uyushtirar ekan, ularni ko‘plab qirib tashlar, tirik qolganlarni qulga aylantirar edilar. Qirg‘inga uchrash xavfi ostida qolgan millionlab germanlar jon saqlash ilinjida Rim imperiyasining turli provinsiyalariga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘ldilar. Rimliklar ularning yurishini to‘xtatishga ilojlari yetmay qoldi. 476 yilda esa so‘nggi Rim imperatori ham taxtdan ag‘darildi. G‘arbiy Rim imperiyasi yerlarida bir qator varvar qirolliklari tashkil topdi. Bular quyidagilardir:



Vestgotlar qirolligi — 418 yilda vestgot yo‘lboshchisi Valiyaning imperator Gonoriy bilan tuzgan ittifoqchilik bitimi natijasida vujudga kelgan. Unga ko‘ra, imperator janubda Pireney tog‘i etaklaridan shimolda Luara daryosigacha bo‘lgan yerlarni federat sifatida vestgot (g‘arbiy got)larga ajratib bergan. Bu yerda tez orada birinchi mustaqil varvar qirolligi tashkil topgan. VI—VII asrlarda Pireney yarim orolining bosib olinishi bilan o‘z taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisiga erishgan. 718 yilda arablar tomonidan tugatilgan.

Vandallar va Alanlar qirolligi — 429 yilda vestgotlar tomonidan siqib chiqarilgan vandallar va alanlar Iberiyani tark etib, Gibraltar orqali Shimoliy Afrikaga ko‘chib o‘tishadi. 435 yilga kelib, vandallar Rimga tegishli bo‘lgan Shimoliy Afrikaning ko‘p qismida o‘z hukmronliklarini o‘rnatadilar. 435 yilda rimliklar bilan tinchlik bitimini tuzib, federat maqomini oladilar. 534 yilda Vizantiya tomonidan bosib olingan.

Burgund qirolligi — 413 yilda imperator Gonoriy burgundlarni federat sifatida tan olib, Reynning chap qirg‘og‘ida Vorms hududida o‘rnashish uchun joy beradi. 435 yilda xunlar bu davlatni vayron qilib, qirol Gundaharni o‘ldiradilar. Burgundlarning qoldiqlari rim qo‘mondoni Aetsiy tomonidan Savoyaga ko‘chiriladi. 534 yilda franklar tomonidan bosib olindi.



Vestgotlar xunn otliqlarining hujumini qaytarmoqdalar

Franklar qirolligi — 481 yilda qirol Xlodvig I tomonidan asos solingan va uch asr davomida Gʻarbiy Yevropaning eng qudratli davlatiga aylangan.

Alemannlar qirolligi — III asrda alemannlar Rim chegarasini buzib, Retsiya provinsiyasini egallab olishdi. III-V asrlarda alemannlar Rim federati boʻlishgan. Shunga qaramay, ular bir necha bor ittifoqchilik shartnomalarini buzishgan. Oqibatda 357 yili imperator Yulian tomonidan Argentorat jangida toʻliq tor-mor etilgan.

V asrda alemannlar yana siyosiy jihatdan birlashadilar. 496 yilda Sulpix va 506 yilda Strasburgdagi magʻlubiyatlardan soʻng alemannlar frank qirolli tomonidan boʻysundirilgan va bu hududlarda Allemaniya gersogligiga asos solingan.

Ostgotlar qirolligi — 488 yilda Vizantiya imperatori Flaviy Zenon ostgot qirolli Teodorix bilan bitim tuzdi. Unga koʻra Teodorix Odoakr ustidan gʻalaba qozongan taqdirda imperatorning vakili sifatida Italiya hukmdori boʻlishi lozim edi. 493 yilda kelishuv maqsadlariga erishildi. 555 yilda imperator Yustinian I davrida Italiyadagi Ostrogotlar qirolligi Vizantiya tomonidan tugatildi.

Svevlar qirolligi — 409 yilda Pireney yarim orolining shimoli-gʻarbiy qismida svev qabilalari joylashgan. Bu davlat mintaqadagi boshqa varvar qirolliklaridan koʻra kuchsizroq boʻlgan. Shu bois 585 yilda ularning qirolligi vestgotlar tomonidan bosib olingan.

Britaniyadagi angl-saks qirolliklari — V asrning oʻrtalariga kelib Britaniyani angl, saks, yut va friz qabilalari bosib oladilar. Natijada VI asrga kelib Britaniya hududida yettita qirollik vujudga keldi. IX asrda ular asta-sekin bir davlatga birlashganlar.

Odoakr qirolligi — 476 yilda german harbiy yoʻlboshchisi boʻlmish Odoakr Rim imperatori Romul Avgustni taxtdan agʻdarib, oʻzini Italiya qiroli deb eʼlon qildi. 477 yilda imperator Flaviy Zenon Odoakrni patritsiy va Rim noibi sifatida tan oldi. Odoakr Rim maʼmuriy tizimini saqlab qoldi va Senat bilan faol hamkorlik qildi. 477 yilda u vandallarni Sitsiliyadan haydab chiqarishga muvaffaq boʻldi. 480 yilda Dalmatsiyani egalladi. Lekin ostgotlarga qarshi urushda oʻldiriladi va uning davlati ostgotlar qoʻliga oʻtadi.

Langobardlar qirolligi — Yevropada vujudga kelgan soʻnggi varvar qirolligi. 566 yilda lombardlar Shimoliy Italiyaga bostirib kirishdi. VIII asrning oʻrtalarida ularning qirolligi deyarli butun Apennin yarim orolini, Istriya, Korsikani qamrab olgan edi. 774 yilda Buyuk Karl tomonidan bosib olinib, Franklar davlati tarkibiga kiritildi.

Xulosa qilganda, hech qanday moddiy qiziqishga asoslanmagan qullar mehnatining samarasizligi Gʻarbiy Rim imperiyasini tobora kuchsizlantirgan. Qolaversa, tinimsiz urushlar imperiyani holdan toydirgan. Oqibatda, imperiya oʻz chegaralarini qoʻriqlashda juda katta qiyinchiliklarga duch kelgan. Kuchdan qolgan Gʻarbiy Rim imperiyasi german qabilalari siquviga bardosh bera olmagan va qulab tushgan. Buyuk koʻchish natijasida asrlar davomida hukm surib kelgan quldorlik jamiyati tugab, oʻrniga yangi feodal jamiyati qaror topa boshlagan.

Savol va topshiriqlar

1. Oʻrta asrlar tarixining mazmuni va xronologik chegaralarini koʻrsatib bering.
2. Nima uchun qadimgi Rimda quldorlik tuzumi inqirozga uchradi?
3. Rim imperiyasida feodal munosabatlarning yuzaga kelishi haqida soʻzlab bering.
4. Varvarlarning ijtimoiy tuzumi qanday boʻlgan?
5. Qaysi omillar xalqlarning buyuk koʻchishiga sabab boʻlgan?
6. Rim imperiyasi yerlarida qanday varvar qirolliklari tashkil topgan?

2-§. Franklar davlati

Frank qirolligining tashkil topishi. Buyuk ko'chishlar boshlanishiga qadar frank urug'lari Reyn daryosi quyi oqimidagi hududlarda yashaganlar. Franklar ikki guruhga bo'linishgan. Birinchisi g'arbiy bo'lib, uning negizini sali (dengiz bo'yi; keltcha «sal» — dengiz) franklari tashkil etgan. Ular dastlab Eysel daryosi bo'ylarida, IV asr o'rtalarida esa Reyn daryosi qirg'oqlarida o'rnashganlar. Ikkinchisi, Reynning o'rta oqimida yashagan franklar bo'lib, daryoning har ikki qirg'og'ida yashashgan va ripuar franklari deb (lotincha «ripa»- qirg'oq so'zidan) atalganlar. Bulardan eng kuchlisi sali franklari edi. Sali franklarini merovinglar urug'i boshqarar edi.

V asrda frank qirollari juda uzun soch qo'yishlari kerak edi. Qisqa soch turmagi qirollar uchun uyat sanalgan. Qirol sochlarini kesish nafaqat ularning layoqatsizligini, balki qirollik ishlarini ham bajara olmasligini anglatardi. Bunday holatda qirol o'z lavozimidan tushirilar va o'rniga boshqasi saylanar edi.

Sali urug'ining asoschisi Merovey kattagina hudud, shu jumladan, bugungi Belgiyani ham o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Uning poytaxti Turna shahri edi. Merovey o'limidan keyin hokimiyatga Xilderik degan o'g'li chiqdi. Buzuqligi bois o'z urug'i tomonidan quvib yuborilgan. Xilderik turinglar yerida qirolicha Bazinaga uylanadi va bu nikohdan bo'lg'usi qirol Xlodvig tug'iladi.

Ko'p o'tmay franklar yana Xilderikni chaqirib olishadi. 481 yilda Xilderik o'limidan keyin uning 15 yoshli o'g'li Xlodvig (481—511) qirol bo'ladi. Xlodvig (frankcha «Hlodowig») — «hlod» («taniqli», «mashhur») va «wig» («jang») so'zlaridan iborat bo'lib «janglarda tanilgan» degan tushunchani bildiradi.

Shu davrda Galliyaning katta qismi rim noibi Siagriy tomonidan boshqarilar, uning markazi Suasson shahrida joylashgan edi. Rimning ushbu provinsiyasi shimolda franklar bilan chegaradosh bo'lgan. Franklar, qariyb besh asr davomida Rimga sadoqat bilan xizmat qilganlar. Shu muddat ichida ular rimliklarning harbiy tajribasini o'zlashtirib olishga muvaffaq bo'ldilar. Xlodvig yuzaga kelgan vaziyatda rimliklarning kuchsizligini tushunib, Galliyaning egallashga kirishdi. 486 yilda Siagriyga qarshi uyushtirgan yurishida 20 yoshli Xlodvigni qarindoshi qirol Ragnaxar ham qo'llab-quvvatladi. Natijada, Suassondagi hal qiluvchi jangda ularning qo'shinlari rimliklarni mag'lub etishdi. Yutqazib qo'ygan Siagriy jon saqlash umidida Tuluzaga, vestgot qirolli Alarix II oldiga

ketishga majbur bo'ldi. Ko'p o'tmay, Xlodvigning talabi bilan Siagriy qaytarib beriladi va o'ldiriladi.



Biroq, bu Siagriyning yerlari darhol franklar qo'liga o'tganligini anglatmaydi. Xlodvig yana bir necha yil davomida Galliya shaharlari uchun kurash olib bordi. Bundan tashqari, franklar butparastlar edilar. Shuning uchun Xlodvig xristian ruhoniylari bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishga qaror qildi.

Jumladan, Xlodvig Suassonda g'alaba qozongach, qo'lga kiritilgan o'ljalarni barcha askarlari o'rtasida teng taqsimlayotgan paytda qaysidir cherkovdan tortib olingan bir go'zal kosani Reyms arxiyepiskopi Remigiy o'ziga berishni so'raydi. Xlodvig Remigiyning iltimosiga rozi bo'ldi, qo'shin qirol bilan bahslashmadi, lekin to'satdan askarlardan biri


achchiqlanib, kosani Xlodvigning oldida sindirar ekan: «Sen, bu yerdan faqat qur'a bo'yicha o'zingga tegishli bo'lgan narsani olishing mumkin», deydi. Noiloj qolgan Xlodvig kosaning bo'laklarini yepiskopga topshiradi.

Qirol o'z jangchisining haqligi va shijoatini tushundi, lekin bu ishni unutmadi. Oradan bir yil o'tgach, u qo'shinlarini ko'rikdan o'tkazayotganida boyagi jangchini ko'rdi. Xlodvig uning boltasini yerga tashladi va bu qurol unda juda yomon saqlanganini aytdi. Askar qurolni yerdan olish uchun egilganda Xlodvig uning boshini bolta bilan ikkiga bo'ldi va: «Suassondagi kosa bilan ham shunday qilgan eding!» deydi. Bu voqea barchaga ta'sir qildi. Jangchilar Xlodvigdan qo'rqa boshladilar. Ruhoniylar, o'z navbatida, franklar qirolining xayrixohligini yuqori baholadilar va Remigiy uni Rim provinsiyasining boshlig'i sifatida tan oldi.

Xlodvig xristianlikdan siyosiy maqsadda foydalanish mumkinligini yaxshi bilardi. Xristianlikni qabul qilish franklar va ularga bo'ysunadigan aholi o'rtasidagi farqni bartaraf etishga yordam berardi. Shu bois 496 yil 25 dekabrda Reyms shahrida Xlodvig, uning 6000 kishilik askari va singlisi xristianlikni qabul qildi. Yepiskop Remigiy cho'qintirish paytida Xlodvigni mirra qatroni bilan suvagan. Keyinchalik, Fransiyaning deyarli barcha qirollari taxtga o'tirguncha ushbu shishadagi mirra bilan suvalgan. Bu idish Muqaddas shisha deb atalgan va fransuzlarning eng muhim yodgorligiga aylangan. Xristianlikni qabul qilganidan so'ng, Xlodvig

poklanish ramzi sifatida nilufar gulini tanladi va u fransuz qirollarining geraldik ramziga aylandi.

Xlodvig va uning qo'shini, keyinroq esa oddiy franklar va ularning oila a'zolari tomonidan xristianlikning qabul qilinishi qirollik taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Galliya va Rimdagi e'tiborli ruhoniylar Xlodvigni qo'llab-quvvatladilar. Bu narsa franklarning Galliya janubidagi qolgan yerlarni - Vestgotiya va Burgundiyaning bo'ysundirishini ancha osonlashtirib, franklarning o'z orasidan ham qirol hokimiyati ta'sirining ortishiga yordam berdi. Xlodvig qolgan barcha sali va ripuar qirolliklarini tugatib, yangi qirollikning yolg'iz qirol bo'lib oldi. Uning hukmronligi Reynning sharqiy qismlaridagi yerlardan tashqari, Galliyaning to'rtinchi uch qismiga yoyildi.



Xlodvig Burgundiya qirol bilan sulolaviy ittifoq tuzdi, bu uning mavqeini mustahkamladi. Allemanlar bilan urush boshlab, g'alaba qozonishga muvaffaq bo'ldi. 500 yilda franklar qirol Burgundiya ishlariga aralashdi va hatto qirol Gundobaldga soliq to'lashni buyurdi.

506 yili u Janubiy Galliyaga, vestgotlarga qarshi yurishga chiqib, Janubiy Galliyaga bostirib kirdi. Galliyaning xristian aholisi Xlodvig tomoniga o'tib ketdi. U o'z navbatida jangchilarga ularni talon-taroj qilishni taqiqladi. Xlodvig vestgot qirol Alarix II bilan yuzma-yuz urushib, uni o'ldirdi va deyarli butun Akvitanianing Franklar qirolligiga qo'shib oldi. So'ng u Provans uchun ostgotlar bilan urush boshlamoqchi bo'ldi. Ammo nizo tinch yo'l bilan hal qilindi. Vizantiya imperatori Xlodvig bilan ittifoq tuzib, uni konsul etib tayinladi. Bu voqea franklar davlatining xristian aholisi ko'z o'ngida qirol hokimiyati qonuniyligini yana bir tasdiqladi. Vestgotlar bilan urushdan keyin Xlodvig Parijga keldi va uni o'z qarorgohiga aylantirdi.

«**Sali haqiqati**». Xlodvig davlatini kengaytirib borar ekan, undagi tartib-intizomni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratdi. Shu maqsadda uning hukmronligi yillarida «Sali haqiqati» (lot. «Lex Salica»; ilk tahrirdagi ko'rinishi «Pactus legis Salicae») deb atalgan qonunlar to'plami joriy etiladi. «Sali haqiqati» yoki «Sali qonuni» – bu sali franklarining odatiy huquqiy to'plami hamda varvar haqiqatlarining eng qadimgi va keng qamrovlisi sanaladi. Yodgorlikning lotin tilidagi ilk nusxasi VI asrda yozilgan bo'lib, 65 bob (titul) dan iborat. Unda qonunbuzarliklar uchun

jarimalar ro'yxati keltirilgan, turli prosessual jarayonlar bayon etilgan. Shuningdek oilaviy, mulkiy majburiyatlar va meros bilan bog'liq munosabatlar tartibga solingan.



«Sali haqiqati»
yozilgan manuskript

«Sali haqiqati» aholini erkin, yarim erkin va qullarga ajratgan. Faqat erkin kishilargina shaxsiy huquq layoqatiga ega bo'lishgan. Qul har qanday huquqdan mahrum edi. Agar qul o'g'irlik qilsa, uni ot yoki qoramol o'g'irlaganlik qatori jazolashgan. Qul tomonidan erkin kishi o'ldirilsa, qonunda birovning hayvoni tomonidan o'ldirish bilan bir qatorda ko'rib chiqilgan. Bunday hollarda quldor faqat belgilangan tovonning yarmini to'lagan. Qolgan yarmini to'lamaslik uchun qul yoki hayvonni o'lganning qarindoshlariga bergan. Qonun bo'yicha faqat qullargina qiynoqqa solingan, kaltaklangan yoki mayib qilingan. Qul o'zini sudda himoya qilishga haqli bo'lmagan, huquqiy va muomala jihatidan

layoqatsiz hisoblanib, buyum sifatida qaralgan.

Yarim erkin kishilar **lit** deb atalgan. Ular qaram dehqonlarning aynan o'zi edi. Lit, o'z yer uchastkasiga yuklangan majburiyatlardan tashqari, yer egasiga obrok to'lashi va barshchinani o'tashi shart edi. Litlar erkin harakatlanish huquqidan foydalanmas, egasi roziligisiz yerdan keta olmas, shu bilan birga, o'z uylarisiz sotilmas edilar. Agar qulni lit huquqi bilan ozod qilishsa, unga yer uchastkasi berilishi kerak edi. Litlar qullar kabi buyum hisoblanmas, to'la huquqiy layoqatiga ega kishilar sifatida bitimlar tuzishar, sudda mustaqil ravishda ishlarni olib borar, jarimada qatnashar, o'zaro nikohga kirishar, harbiy xizmatga borishar edi. Lit o'z egasining hokimiyati ostida yashar, to'liq erkinlikka chiqish uchun yorliq olishi kerak edi. Erkin kishilarning litlar va qullar bilan nikohga kirishi taqiqlangan. Agar lit erkin xotin-qizni o'g'irlasa, u o'ldirilgan.

Xlodvig urug'lararo qonli o'ch olish va ichki nizolar kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun **vergeld** to'lashni joriy etdi. Vergeld — (nemischa «wergeld», qadimgi germancha «wër» — «odam» + gëlt — «narx», ingliz-saksoncha «were») german haqiqatlarida erkin kishini o'ldirganlik uchun to'lanadigan pul kompensatsiyasi, tovon. Erkin germanlar badan jazosiga tortilishi mumkin emas edi. Jazoning birgina yo'li pullik jarima — vergeld bo'lgan. Uni butun urug' jamoasi yig'ib,

o'ldirilganning oilasiga to'lagan. Shu tariqa qonli o'ch olishga yo'l qo'yilmagan.

Vergeld o'lgan kishining ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi yoki yoshi, shuningdek, etnik kelib chiqishiga qarab belgilangan. Bunda franklarning vergeldi gall-rimliklarga qaraganda yuqori turgan. Chunonchi, qirol xizmatidagi kishilarga nazar solsak, erkin kishilardan chiqqan grafga 600 solid, qirol qullaridan chiqqan grafga 300 solid, sud yig'ilishida qatnashuvchi erkin sasebaronlarga 600 solid, qirol qulidan chiqqan sasebaronlarga 300 solid vergeld tayinlangan.

Qirol qullari egallab turgan lavozimlariga hukmdor tomonidan yarim erkin kishilar orasidan tayinlangan va qirolga qaram erkin kishilarga aylanishgan. Bu kishilar to'liq erkli bo'lmasalarda, qirol xizmatida bo'lish ularning nufuzini oshirgan.

Shuningdek, qirol xizmatidagi kishilar — antrustionlarga 600 solid, qirol xizmatidagi gall-romanlarga (lotincha «conviva regis») 300 solid, qirol drujinasi a'zosi bo'lmish franklarga 1800 solid belgilangan.

Xlodvig xristianlikni qabul qilishi bilan ruhoniylarning jamiyatdagi nufuzini oshirgan. Masalan, diakonga (birinchi (kichik) darajali cherkov vakili) 300 solid, ruhoniya (iyerey yoki presviter) — 600 solid, yepiskopga 900 solid tayinlangan.

Erkin franklar bilan gall-rim aholisi vergeldida ham katta farq kuzatiladi. Xususan, erkin franklarga 200 solid, erkin rimlikka 100 solid vergeld berilgan. Bundan tashqari, erkin frankni tunagani uchun 63 solid, gall-rimlik uchun 35 solid, frankni qul qilib sotsa — 200 solid, xuddi shunday holat erkin rimlik bilan sodir bo'lsa — 63 solid jarima solingan. Agar rimlik hech bir sababsiz frankni bog'lab qo'ysa, unga 30 solid, frank rimlikni bog'lasa — 15 solid jarima urilgan.

Huquqiy tabaqalanish gall-rimliklarning o'zida ham joriy etilgan. Unga asosan, soliq to'lovchi rimlikning vergeldi 63 solid, rimlik yer egasini (lotincha Romani possessores) 100 solid, rimlik qirol hamrohini o'ldirganlik uchun 300 solid belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqiladigan bo'lsa, «Sali haqiqati» franklarning mavqeini yerli aholidan yuqori qo'ygan. Bu esa, franklarning hukmron tabaqa ekanligi va ularning gall-rimliklardan hali ham bo'lak yashaganligini ko'rsatadi.

«Sali haqiqati»da xotin-qizlar va bolalarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Qonun xotin-qizlarning obro'yini saqlagan. Masalan erkaklarni haqorat qilganlik uchun 3 solid jarima solingan bo'lsa, ayolni buzuqlikda ayblab, uni isbotlab bera olmagan erkakka 45 solid jarima urilgan.

Og'iroyoq xotinni o'ldirganlik uchun oldiniga 700 solid tayinlangan, keyinchalik 1200 solidgacha yetkazilgan.

12 yoshga to'lgan frank bolasi balog'atga yetgan deb hisoblangan va shu yoshdan boshlab huquqiy layoqatga ega bo'lgan. Ungacha o'g'il bolalar uzun soch qo'yib yurishlari lozim edi. Sochi olinishi bilan bolalik davri tugadi deb sanalgan. Biron kimsa erkin o'g'il yoki qizning sochini ularning ota-onasidan so'ramay qirib tashlasa, unga 45 solid jarima belgilangan. Uzun sochli bolani o'ldirganlik uchun 600 solid vergeld tayinlangan.

Franklar xo'jaligida chorvachilik (ayniqsa, cho'chqa boqish) katta rol o'ynagan. «Sali haqiqati»da yana baliqchilik, asalarichilik, bog'dorchilik va dehqonchilikka oid bo'lgan asosiy hunarlar to'g'risida ham gapiriladi. Unda dehqonning hovlisi va undagi turli xo'jalik binolari, asbob-uskunalar to'la tasvirlab berilgan. Jamoa a'zosi bo'lgan frank dehqonlari shaxsiy mulk tarzida tomorqa yerga ega bo'lganlar, jamoaga qarashli bo'lgan dalada ma'lum yer uchastkalarida ishlaganlar, jamoaga tegishli o'rmon va yaylovlardan birgalikda foydalanganlar.

«Sali haqiqati»da yerni sotish va sotib olish to'g'risida, uni birovga sovg'a qilish yoki vasiyat yo'li bilan boshqa kishiga topshirish to'g'risida hech narsa deyilmaydi. Chindan ham, franklarda yer o'sha vaqtda xususiy mulk emas edi. Yer jamoaning mulki bo'lib, ayrimlar o'z yer uchastkalaridan ma'lum shartlar asosida foydalanardi, xolos. Hosil yig'ib olingandan keyin dalalarda hamma birgalikda mol boqardi.

Qonunda o'rmon va yaylovdan, suvdan birgalikda foydalanish to'g'risida moddalar ham bor. Qishloq jamoasi (marka) ushbu qonunga ko'ra, o'z hayotining ilk bosqichida hali urug'chilik tuzumiga xos belgilarga ega edi. Urug' – jamoaga qarashli yerlarning bosh egasi bo'lishi bilan birga, yana siyosiy tashkilot ham edi. Urug' a'zolarining hammasi kafillikda qatnashar va sudda aybdor qarindoshi uchun kafolat berardi. Yer urug'dan tashqariga chiqib ketmasligi uchun uni ayollarga berish yoki meros qilib qoldirish taqiqlangan edi. Bolasiz frank o'lsa, uning yeri akaukalariga va o'zining urug'idagi boshqa erkak qarindoshlariga o'tkazilgan.

Siyosiy ziddiyatlarning kuchayishi va karolinglar hukmronligining boshlanishi. Xlodvigdan keyin mamlakatni birlashtirish uchun ayovsiz kurash boshlanib ketdi. Xlodvigning o'g'li Xlotar o'lgan akasining bolalarini shaxsan qatl ettirgan. Chunki ular taxtga da'vogar edilar. Xlotar bu bilan cheklanib qolmay, yuqoridagilarning o'limi uchun o'ch olishi mumkin bo'lgan barcha kishilarni qirib tashlashga buyruq bergan.

Xlodvigning o'g'il va nevaralari o'zaro urushlar olib borishlariga qaramay, qirollik chegaralarini kengaytirishda davom etdilar. 534 yilda ular Burgundiyaning egalladilar, 542 yilda vestgotlarning Galliyadagi so'nggi yerlari ham bosib olindi, Reynning narigi tomonidagi Allemaniya, Tyuringiya, Bavariya hamda saks qabilalarining ayrimlari franklarga bo'ysundirildi. VI asrning ikkinchi yarmida Franklar davlati barcha varvar qirolliklari ichida eng yirigi edi.

Xlodvigning evarasi Xlotar II 614 yilda farmon chiqarib, aristokratiyaning o'zaro urushlar vaqtida olgan mulklarini o'sha aristokrat qo'lida qoldirish majburiyatini o'z bo'yniga oldi va graflarni (okrug hokimlarini) faqat mahalliy yer egalari orasidan tayinlashga so'z berdi. Shunday qilib, aristokratiya Merovinglar urug'iga mansub bo'lgan qirollarning o'zaro urushlaridan o'z manfaatlari uchun to'la foydalandilar.

Merovinglar urug'i o'zaro urushlar natijasida kuchsizlashib bordi. Xlotar II ning hokimiyati kuchli bo'lmadi. Qirol Dagoberg (629—639 yillar) mamlakatni qisqa vaqt birlashtirib turishga qaramay, franklar monarxiyasi inqirozga yuz tuta boshladi. Qirol davlat yerlarini o'z askarlariga taqsimlayverishi natijasida hokimiyati kuchsizlanib, yer egalari mavqei ortib ketdi. Dagoberg o'lganidan keyin shunday bir davr boshlandiki, 639—751 yillar oralig'i «yalqov qirollar» davri deb ataldi. Bu davrda merovinglar nomigagina qirol bo'lib, qo'llarida real hokimiyat yo'q edi. Butun ma'muriy, sud va harbiy hokimiyatni mahalliy yer egalari tortib olgan edi. Xususan, Neystriya, Burgundiya va Avstraziya juda katta aristokratik uylar yetishib chiqib, qirol mayordamlari sifatida butun hokimiyatni o'z qo'llariga to'plagan edilar.

Mayordam – merovinglar saroyida bosh ish yurituvchi edi. Oldiniga u faqat qirol saroyining boshqaruvchisi sanalib, keyinchalik uning hokimiyati kuchaygan va davlatda oliy mansabdor shaxs – birinchi ministr darajasiga erishgan. Mazkur mansabdor shaxs oldin qirol tomonidan tayinlangan, keyinchalik yer egalari tomonidan saylab qo'yiladigan bo'lgan. Mayordamning qudrati o'sishi bilan markaziy va mahalliy hokimiyat vakillarini tayinlashda qirolni chetga surib qo'ygan.

Mayordam saroyga tegishli barcha ishlar bo'yicha farmoyishlar chiqargan. Saroy amaldorlari ustidan sud hokimiyatini amalga oshirgan. Hukmdor yo'qligida qirol sudiga raislik qilgan. Armiyaga qo'mondonlik qilish ham uning bo'ynida edi. U qirollik mulklarini boshqarib, ulardan soliqlar kelib tushishini nazorat qilgan. Butun mahalliy hokimiyat unga qarashli edi. Amalda mayordam qirol nomidan graf va gersoglarni tayinlagan, almashtirgan va ularga farmoyishlar bergan. Qirol yosh bo'lsa,


mayordam uning tarbiyasi bilan shug'ullanib, haqiqatda davlat boshlig'i mavqeiga ega bo'lgan.

Uch mayordamdan eng kuchlisi Neystriya mayordami edi. U Burgundiya mayordamini ham o'ziga bo'ysundirdi, lekin Neystriya mayordami tez orada Avstraziya mayordamining qarshiligiga uchradi. Sharqiy frank mayordamining ahvoli qulayroq edi. Avstraziya mayordamlari ko'p sonli harbiy kuchga tayanish imkoniga ega bo'lganlar, qo'shinning bir qismi bu yerda ham saqlanib turgan erkin dehqonlardan iborat bo'lgan. Shu bilan birga, Avstraziya aristokratiya birmuncha kuchsiz bo'lib, ular o'z gersogi— mayordamga bo'ysunishga majbur edilar. Neystriyada esa, aksincha, ko'pgina yirik feodal uylari bir-biri bilan raqobat qilmoqda edilar. Oxiri, Avstraziyaning Pipinlar xonadonidan chiqqan mayordami gersog Pipin III Geristalskiy 687 yilgi jangda Neystriya mayordamini tor-mor qilib, butun qirollikni bir o'zi idora qila boshladi. Pipin Geristalskiy yangi sulolani boshlab berdi. Bu sulola keyinchalik uning eng mashhur namoyandasi bo'lgan Buyuk Karl nomi bilan Karolinglar urug'i deb ataldi.

Pipin Geristalskiy g'alaba qozongan bo'lishiga qaramay, Neystriya va Burgundiya boylari hali ham markaziy hokimiyatga u qadar bo'ysunmas edilar. Reynning narigi tomonidagi alleman, friz, saks va bavar qabilalari ham qirollikdan ajralib chiqdilar. Janubi-g'arbda arablar xavf tug'dira boshladilar, hatto VIII asrning 20- va 30-yillarida Franklar davlati arablar tomonidan bosib olinish xavfi ostida qolgandi. Faqat Pipin Geristalskiyning o'g'li Karl (717—741) o'z vaqtida ko'rgan choralar davlatni saqlab qolishda muhin ahamiyat kasb etdi.

732 yil ko'klamida arab amiri Abdurahmon katta qo'shin bilan Akvitaniyaga bostirib kiradi. Uning qo'shinlari bu yurtda deyarli qarshilikka duch kelmadilar. Juda katta o'ljalarni qo'lga kiritgan arablar Puatye va Tur shaharlarini qamal qiladilar. Nihoyat, Akvitaniya qiroli Buyuk Edning iltimosiga binoan Karl o'z qo'shini bilan Puatyega yo'l oladi. 732 yilning 10 oktabrida bo'lib o'tgan jangda Karl g'alaba qozondi. Abdurahmon halok bo'ldi.

Shunga qaramay, arablar Galliyani bosib olish niyatidan qaytishmadi. 736 yilda arablar Avinyon shahrini egallab olishdi. Natijada Karl yangi yurishni tashkil qildi. 737 yilgi janglardan so'ng Karl arablarni yengib, Avinyonni qaytarib oladi.



Pipin Geristalskiy davrida Franklar davlati



Karl Martell

Bu g'alabalar Karlni butun Galliya hukmdori bo'lib olishiga imkon berdi. Unga **Martell** — «Yanchuvchi» unvoni berilgan. Uning mavqei qirolnikidan ham ko'ra yuqori bo'lgan. Hatto papa Grigoriy III unga vitse-qirol deb murojaat qilgan.

Karl Martell o'limidan so'ng uning vorisi Pipin III Qisqa (741—768 yillar) dastlab faqat mayordam unvoni bilan yurgan bo'lsa-da, lekin davlatni boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynar edi. Nihoyat, Pipin davlat o'zgarishi yasab, har qanday hokimiyatdan mahrum bo'lgan eski sulolani taxtdan tushirib, 751 yilda franklarning qirol deb e'lon qilindi. Karolinglar sulolasi shu tariqa rasmiylashtirildi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, papaning buyrug'iga ko'ra Pipinni qirol deb tanish marosimi o'tkazildi. Shunday qilib, yangi sulola cherkovdan o'ziga kerakli yordam olishga erishdi.

Franklar davlatida ijtimoiy munosabatlar. Davlat boshqaruvi. Franklarda urug'chilik tuzumining yemirilishi feodal jamiyatining ildizlari paydo bo'lishi bilan birga kechdi. Jamiyatning feodallashuv jarayoni V asr so'ngidan boshlab kuchaydi. Asta-sekin yer egalari paydo bo'ldi va tub aholiga nisbatan siyosiy hokimiyatga ega bo'lib bordi. Erkin franklar qaram dehqonlarga aylandi.

VI asrning ikkinchi yarmidan franklar jamiyatida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Xlodvigning nabirasi qirol Xilperikning (561—584) farmoniga ko'ra, yer egasi o'limidan keyin uning ulushi o'g'illaridan tashqari, urug'jamoasiga emas, balki qizlari, aka-uka va opa-singillariga ham berilishi

mumkin bo'lib qoldi. Bu tarixda «Allod qonuni» deb ataldi. **Allod** — erkin franklarning ajraladigan, meros qilib olinadigan yerga egaligidir. Bundan keyin allodlar vasiyatnomalar, hadyalar va sotish obyektlariga aylandi. Bu jamiyat ichidagi ijtimoiy tabaqalanishni chuqurlashtirdi.

Yerning yirik mulkdorlar qo'lida to'planishi oddiy jamoa a'zolarining yerdan ajralib qolishiga sababchi bo'ldi. VII asrdan feodal votchinalari (senyoriya) shakllana boshladi. Ularning uchdan bir qismini feodal mulki — **domen** (lotincha «dominus» — «xo'jayin») tashkil qilar, qolgani xo'jayin (senyor) foydasiga majburiyatlar o'tash sharti bilan dehqonlarga taqsimlanar edi. Votchina vaqtlar o'tishi bilan feodal jamiyatining bosh ijtimoiy va xo'jalik tuzilmasiga aylandi.

Mayordom Karl Martel feodallarning qo'zg'olonlarini bostirish paytida ularning mol-mulkini to'liq musodara qildi. Bundan tashqari, qo'shnilariga qarshi olib borilgan urushlar natijasida ko'plab yerlar egallangan edi. Shu tariqa, davlat qo'lida yirik yer fondi shakllantirilgan edi. Karl bu yerlarni hukumatga sodiq feodallarga umrbod emas, balki vaqtinchalik foydalanish uchun berdi. Bunday yerlar — **benefitsiy** (lotincha «beneficium» — «xayr-saxovat», «ezgulik») deb ataldi. Uni olgan kishi qirol foydasiga harbiy xizmatni o'tab berishi shart edi. Benefitsiya egasi **benefitsiar** deb atalgan.

Islohotni o'tkazishdan maqsad, mamlakat qurolli kuchlarini qayta tashki qilish edi. Buning natijasida qirol hokimiyati bilan bog'liq yangi harbiy qatlam paydo bo'ldi. Benefitsiylar professional jangchilar — ritsarlarning vujudga kelishi hamda yer beruvchi bilan benefitsiar o'rtasida shaxsiy sodiqlik va homiylik (vassalitet) munosabatlarining shakllanishiga olib keldi.

Amalga oshirilgan xizmatlar hajmi benefitsiyning kattaligi va benefitsiarning yoshiga bog'liq edi. Benefitsiar nafaqat harbiy xizmatga borgan, balki o'zi bilan ma'lum sondagi askarlarni ham olib kelgan.

Benefitsiar yerni o'sha joyda o'tirgan dehqonlar bilan birga olgan, ular benefitsiar foydasiga majburiyatlarni (barshchina yoki obrok) o'tashgan. Benefitsiyani berish sodiqlik qasamyodi bitimi bilan rasmiylashtirilgan. Shartnomaga ko'ra, qirol benefitsiarning senyori (syuzereni), ikkinchisi esa qirolning vassaliga aylangan.

Benefitsiylarni nafaqat qirollar, balki yirik feodallar ham berishgan. Vaqtlar o'tishi bilan ko'plab benefitsiarlarning o'zlari qirollardan ko'ra kattaroq kuchga ega bo'lishgan.

Benefisiarlarning o'z yerlaridagi qudrati cheksiz edi. Ular o'z mulklarini merosiy mulkka (feodga) aylantirishga muvaffaq bo'lishlari bilan qirol hokimiyatiga bog'liqlik jihatlari yo'qoldi.

Buni yodda tuting!

Feod — senyor tomonidan o'z vassaliga harbiy, ma'muriy yoki xo'jalik xizmati evaziga meros qilib qoldirish huquqi asosida berilgan yer-mulk.

Qirollar odatda o'z mulklari — villalarida yashaganlar. Villalar ko'pincha o'rmonlarning o'rtasida joylashar edi. Qirol saroyi — **palatsiy** mamlakat siyosiy hayotining markazi hisoblangan. Qirol atrofini soqchilar — antrustionlar o'rab turishgan. Ular qirolning yaqin kishilari bo'lib, muhim topshiriqlarni bajarishgan.


Qirol o'z yaqinlaridan iborat saroy amaldorlari va ruhoniylar bilan kengashlar o'tkazib turgan. Bu qirollik kengashi garchand doimiy organ bo'lmasa-da, mamlakat siyosiy hayotida juda katta o'rin tutgan. Qirol o'z qonunlarini ana shu kengash orqali qabul qilgan. Bu qonunlar har yili mart oyida va qo'shinlar ko'rigi vaqtida maydonda e'lon qilingan.

Graflar o'zlariga o'rinbosarlar va yordamchilar tayinlaganlar. Ular vikariylar yoki vitse-graflar deb yuritilgan. Karolinglar davrida vikariylarga o'zlarining hududiy okruglari ajratib berilgan edi. Shu tariqa ular yuzboshilardan biroz farq qilib, keyinchalik ularning mavqei bilan tenglashtirilgan. Ayrim joylarga (odatda chegara tumanlarga) qirol gersoglarni tayinlagan. Gersogning vakolati bir necha (2—12) graflikkacha yoyilgan. Uning asosiy vazifasi mudofaani tashkil etish va mamlakatni himoya qilish edi.

Savol va topshiriqlar.

1. Frank qabilalarining joylashuv o'rnini ko'rsating?
2. Frank qirolligining tashkil topishida Xlodvig qanday rol o'ynadi?
3. Mayordomlik tushinchasiga ta'rif bering?
4. Benefitsiyalar qanday maqsadda tarqatilgan?

3-§. Buyuk Karl davlati



Buyuk Karl

Karlning hokimiyat tepasiga chiqishi. Buyuk Karl 742 yili tug‘ilgan bo‘lib, Pipin II ning o‘g‘li edi. Uning onasi Lan grafi Kalibertaning qizi Bertrad edi. U karolinglar imperiyasining asoschisi sifatida Rim imperiyasi qulaganidan so‘ng Yevropaning G‘arbiy va Markaziy qismlarini birlashtira olgan ilk davlat arbobi sanaladi.

Karl tirikligi paytida «Buyuk» laqabini olgan. U mansub bo‘lgan pipinlar urug‘i **karolinglar** deb atalgan va aynan uning nomidan slavyancha «король» (qirol) so‘zi shakllangan. Karl yirik odam edi, uning bo‘yi taxminan 190 sm bo‘lgan. Bir necha tilni bilgan. Olimlarni hurmat qilar, ularga har tomonlama yordam berar edi. Cherkovni ham e‘zozlagan. U oddiy, ammo aqlli odam hisoblangan. Mastlikni yomon ko‘rar, o‘zi sharobni me‘yorida ichardi.

768 yili Pipin II o‘limidan keyin davlat uning o‘g‘illari — Karl va Karloman tomonidan bo‘lib olindi. Karlga Sharqiy Avstraziya, Karlomanga – Burgundiya, Septimaniya va Elzas tegdi. Akvitaniya aka-ukalar tomonidan birgalikda boshqariladigan bo‘ldi. Shundan so‘ng ular o‘rtasida nizo boshlandi. Ammo 771 yilda Karlomanning to‘satdan o‘limi bu raqobatni to‘xtatdi. Karl o‘z tomoniga akasining nufuzli amaldorlarini og‘dirib olib, ularning yordamida hokimiyatni to‘liq egalladi.

Otasining butun merosini qo‘lga kiritgan Karl diqqatini qo‘shni mamlakatlarga qaratdi. 773 yilda Rim papasi Adrianning iltimosiga binoan Buyuk Karl katta qo‘shin bilan Italiyaga, o‘ziga yov bo‘lgan langobardlar qiroli Dezideriyga qarshi yurishga chiqdi. 774 yilda Dezideriyni tor-mor etgach, Karl franklar va langobardlar qiroli deb e‘lon qilindi.

Sakslarga qarshi kurash. Karl o‘zining sharqiy qo‘shnilari — saks qabilalari bilan uzoq va og‘ir urushlar olib bordi. Sakslarga qarshi kurash otasi Pipin davridayoq boshlangan va chegarada tez-tez to‘qnashuvlar bo‘lib turardi. 772 yilda qirol sakslarga qarshi yurish boshladi. Franklar Irminsul qishlog‘ini egallab, sakslar uchun muqaddas hisoblangan yog‘och kundani buzib tashladilar. Shundan keyin sakslar Karl bilan sulh tuzib, unga garovga odam berishgan.



Buyuk Karl jangchilari

Karl Italiyada bo'lganida, sakslar qo'zg'olon ko'tardilar. Sakslar Fritslar shahrini yoqib yuborib, Avliyo Pyotr cherkovini talon-taroj qildilar. Natijada Karl sakslar ustiga qo'shin tortishga majbur bo'ldi. Bu gal Karl sakslarni xristianlikka o'girib, ulardagi majusiylilik udumlarini yo'qotish hamda ularning yerlarini o'z davlatiga kiritishni maqsad qilib qo'ygan edi. Buning uchun chegarada missionerlik markazlari tuzildi, u yerdan xristian targ'ibotchilari majusiylarning yerlariga borishardi. Missionerlar har doim ham tinch yo'l bilan harakat qilmaganlar. Ularning harbiy bo'linmalari majusiylarning butxonalarini yo'q qilgan.

776 yilda Karl yana sakslarning yeriga bostirib kirdi. Dovdirab qolgan sakslar taslim bo'lishdi. Saks yerlarida Karlsburg qo'rg'oni qurildi. Yengilgan sakslar qirolga bo'ysunish belgisi sifatida temir tayoqchani berdilar va Karl bilan franklarga sodiqlik to'g'risida qasamyod qildilar.

Shunga qaramay, sakslarni bo'ysundirish ishlari hali tugamagan edi. Franklarga qarshi kurashni saks aristokrati Vidukind boshqardi. 779 yilda qirol Reyn ortiga yangi yurish uyushtirdi. Keyingi yili u Saksoniyaning prelatlar o'rtasida taqsimladi, ular sakslar o'rtasida xristian dinini yanada kengroq tarqatishlari kerak edi. Qirolning buyrug'i bilan saks tutqunlari va garovdagilar monastirlarga taqsimlangan, ulardan ruhoniylar va missionerlar tayyorlangan.

782 yili bosib olingan yerlarda yangi rejimi o'rnatildi. Mamlakat qirollik graflari nazoratiga berildi. Sakslardan butparastlikdan voz kechish, yod etish ziyofatlarini o'tkazmaslik, o'liklarini qo'rg'on dahmalariga emas, xristian qabristonlarga ko'mish talab qilindi. Saksoniyadagi aholi punktlarining cherkovga ushr to'lashi shart qilib qo'yildi.

783—785 yillarda Saksoniyadagi urushlar davom etdi. 785 yilda Karl o'zining murosasiz dushmani gersog Vidukind bilan shaxsan uchrashishga muvaffaq bo'ldi. Vidukind va boshqa saks yetakchilari Attinyida turgan Karlning oldiga kelib, xristianlikni qabul qilishdi. Karlning o'zi Vidukindni cho'qintirgan otasi bo'ldi. Bundan keyingi manbalarda Vidukindning nomi tilga olinmaydi, lekin uning avlodlari Saksoniyada nufuzli gersoglar va karolinglarning vassallari bo'lishgan.

Sakslarning hammasi ham qurolli kurashni to'xtatgan emas. 799 yilda Karl o'g'illari bilan birga sakslarga qarshi so'nggi yurishga chiqdi va ularni o'ziga bo'ysundirdi. Karl saks yetakchilari bilan sulh tuzdi, unga ko'ra bu mamlakat uning qirolligi tarkibiga kirar, franklar va sakslar bitta qonunga bo'ysunar edilar. Shimoliy yerlardagi eng o'jar sakslar janubga ko'chirildi, ularning yerlariga frank kolonistlari ko'chirib keltirildi. Jumladan, 804 yili Karl 10 ming saks oilasini butun mamlakat bo'ylab tarqatdi. Sakslardan tashqari, majusiy frizlar ham Karlga bo'ysunib, nasroniylikni qabul qildilar.

Ispaniyadagi urushlar. 777 yili Karl Padebornda bo'lgan paytida Saragosadagi musulmonlar noibidan kelgan elchilarni qabul qildi. Saragosa hokimi Qurdoba amiri Abdurahmonga qarshi kurashda Karlidan yordam so'ragan edi. Buning evaziga Karlga Shimoliy Ispaniyadagi yerlarni berishni taklif qilishdi. 778 yilda Karl katta qo'shin bilan Saragosaga qarab yo'lga chiqdi. Lekin Saragosada muvaffaqiyatsizlikka uchradi. U yerda kechagi ittifoqchilar unga sotqinlik qilishdi. Keyin franklar Vaskoniyaga yo'l olib, Pamplona shahrini yo'q qildilar. Bu bilan basklarni o'zlariga qarshu qo'yidilar.

778 yil 15 avgustida Ronseval daralaridan o'tayotgan frank askarlariga basklar qo'qqisidan hujum qilishdi. Tarixchi Eynxardning yozishicha, bu hujumda frank qo'shinini orqadan yopib kelayotgan askarlar bo'linmasi to'liq qirib tashlandi. Jangda Bretan markasining grafi Roland ham halok bo'ldi. Ushbu muvaffaqiyatsiz jang fransuz dostoni — «Roland to'g'risidagi qo'shiq»qa asos bo'ldi. Keyinchalik, franklar Barselonani egallab, Pireneyda Ispan markasini tuzishga muvaffaq bo'lishadi.

Avarlarga qarshi kurash. VI asr o'rtalarida Yevropaning markaziy qismlarida o'rnashib olgan turkiy xalq — avarlar o'z hoqonliklariga asos solishadi. Bu yerdan turib ular tez-tez qo'shni slavyan va german yerlariga bosqinchilik yurishlarini uyushtirib turishgan.



Avar askarlari. Muzey eksponatidan

Karl o'zining sharqiy chegaralarini saqlash uchun avarlar bosqinini to'xtatishi lozim edi. Karl sakslar va bavarlar ustiga qo'shin tortgan vaqtda Bavariya gersogi Tassilon III avarlardan yordam so'radi. Bunga rozi bo'lgan avarlar 788 yilda frank yerlariga bostirib kirishdi. Xuddi shu yili Karl Tassilonni qo'lga olib, uni hokimiyatdan mahrum etdi, uni xotini va o'g'illari bilan birga monastirga qamadi.

791 yilning yozida Karlning qo'shini uch yo'nalish bo'ylab avarlar yeriga bostirib kirdi. Vena o'rmonlarida avarlarning istehkomlari bor edi. Franklarning hujumiga dosh bera olmagan avarlar qochib ketishdi. 796 yilgi yurishdan keyin Karlning o'g'li Pipin avar hoqonining Dunay va Tissa orasida joylashgan o'rdasini bosib oladi. Bu yerda qo'lga kiritilgan o'lja 15 ta katta aravaga yuk bo'ldi. Olingan o'lja Karlga umrining oxiriga qadar saroylar va cherkovlar qurilishi uchun xizmat qildi.

Franklarning avarlarga qarshi yurishidan so'ng Pannoniyada birorta ham tirik jon qolmadi. Hoqon o'rdasi butunlay yo'q qilindi. Avar xalqi yashagan yerlar oradan yuz yil o'tgach ko'chmanchi mojarlar (vengrlar) tomonidan egallandi. Bosib olingan joylarda franklarning Sharqiy markasi tashkil topdi.



Imperiyaning tashkil topishi. 799 yilda muhim voqea sodir bo‘ldi. Papa Lev III rimlik boylar tomonidan qamoqqa olinadi. Ko‘zini ko‘r qilish bilan qo‘rqitib, papani o‘z lavozimidan kechishini talab qildilar. Lekin u qochishga muvaffaq bo‘ldi va yordam so‘rab Karlga murojaat qildi. Karl papani o‘z himoyasiga olishga rozi bo‘ldi. 800 yilning kuzida Karl Rimga keldi. O‘sha yilning 25 dekabrda Avliyo Petr soborida rojdestvo marosimi o‘tkazilayotgan vaqtda papa uning boshiga imperatorlik tojini kiydiradi. Soborda yig‘ilgan franklar va rimliklar baravariga: «Yashasin va g‘olib bo‘layotgan Karl Avgust, Tangri tomonidan toj kiydirilgan buyuk va tinchliksevar Rim imperatori», deb aytishdi.

Oldiniga Karlning imperatorlik maqomini Vizantiya imperiyasi tan olmadi. Bir necha yil davom etgan kurashlardan so‘ng Vizantiya nihoyat uni tan oldi. Karlning unvoni to‘lig‘icha quyidagicha bo‘lgan: «*Karolus serenissimus augustus a Deo coronatus magnus pacificus imperator Romanum imperium gubernans qui et per misericordiam dei rex Francorum atque Langobardorum*» (taxminan: «Eng mehribon muqaddas Karl, Tangri tomonida toj kiydirilgan buyuk hukmdor-tinchliksevar, Rim imperiyasining hukmdori, Tangrining inoyati ila franklar va langobardlar qiroli»).

Buyuk Karl davri «karolinglar Uyg‘onishi» deb ataladi. Uning hukmronligi davrida ko‘plab maktablar ochildi, ularda nafaqat boylar, balki o‘rta sinf bolalari ham o‘qishi mumkin edi. Qadimgi yilnomalar to‘planib, yangilari yozila boshlandi. Karl atrofiga ko‘plab olimlarni to‘pladi, ilm-fanni rivojlantirishga harakat qildi, yangi shaharlar, yo‘llar va ko‘priklar qurdirdi, ilgari tashlab ketilgan yerlar gullab-yashnadi.



**Imperator Karl va uning o'g'li
Lyudovik**

Imperiyaning bo'linishi. 814 yilning 28 yanvarida Buyuk Karl vafot etdi. Taxtga uning o'g'li Lyudovik Oliyjanob o'tirdi. Ammo Lyudovik Oliyjanob tinchlikni saqlab qololmaydi. Uning o'g'illari birin-ketin bosh ko'tarishlari oqibatida mamlakat amalda bo'linib ketdi. 840 yilda imperator o'limidan so'ng ham ichki kurash to'xtamadi. Nihoyat, 843 yili Lyudovik Oliyjanobning uch o'g'li – Lotar I, Lyudovik II Nemis va Karl II Kal Verden shahrida uchrashib, imperiyani bo'lishga

kelishib olishadi.

Katta o'g'il Lotarga markaziy hududlar: Rona havzasi va Reynning g'arbidagi yerlar: Avstraziyaning g'arbiy qismi, Friziya, Elzas, Burgundiya, Provans, Lombardiya, Shimoliy Italiya va boshqa hududlar berildi. Shuningdek, imperator unvonini o'zida saqlab qoldi.

O'rtancha o'g'il Lyudovik Nemisga Reyndan sharqidagi yerlar: Frankoniya, Saksoniya, Turing markasi, Allemaniya, Bavariya, Avstriya, Karintiya va boshqa joylar tegdi.

Kenja o'g'il Karl Kalga markaziy viloyatlardan g'arbdagi yerlar: Neystriya, Avstraziyaning shimoli-g'arbidagi uncha katta bo'lmagan joylar, Akvitanিয়া, Vaskoniya, Septimaniya, Ispan markasi va boshqa yerlar o'tdi.

Shu tariqa, sobiq imperiya o'rnida uchta davlat tashkil topdi. O'rta Frank davlati 855 yilda Lotar I o'limidan keyin uchta qirollikka – Lotaringiya, Italiya va Provansga bo'lindi. G'arbiy Franklar yerida Fransiya qirolligi vujudga keldi. Sharqiy Franklar hududi o'rnida Germaniya qirolligi tuzildi. Shu bilan birga, ushbu bo'linish natijasida keyinchalik nemis, fransuz va italyan xalqlari shakllanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Karlning hokimiyat tepasiga chiqishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Buyuk Karlning harbiy yurishlari haqida gapirib bering.
3. Nima uchun Buyuk Karl dan so'ng franklar davlati inqirozga uchradi?
4. Verdendagi bo'linish oqibatida qanday davlatlar vujudga keldi?

4-§. Ilk o'rta asrlarda Angliya


Angl-sakslar bosqini. Qirol Artur. Angliya feodal davlatining tashkil topishi Britaniya orollariga german va skandinav qabilalarning ko'p sonli bosqinchilik yurishlari bilan bog'liq bo'lgan. Ma'lumki, Rim legionlari Britaniyadan 407 yildayoq chiqib ketgan edi. Biroq oradan V asrning o'rtalaridan boshlab bu orolga turli german qabilalari – angllar, sakslar, yutlar bostirib kira boshlaydilar. Bu yurish VI asr ikkinchi yarmigacha cho'zilib, orol oz-ozdan egallab borildi.

Angl-sakslar bosqini Britaniyada yashagan qabilalarni birlashishga majbur etdi. Taxminan 800 yillarda yozilgan «Brittlar tarixi» yilnomasida monax Nenniy ilk bor qirol Arturni tilga oladi. Bu asarda Arturning sakslar ustidan qozongan o'n ikki g'alabasi va Badon tog'idagi hal qiluvchi g'alabasi to'g'risida hikoya qilinadi. Qirol Artur haqidagi yana bir tarixiy ma'lumotni X asrda yozilgan «Kambriya annallari»da topish mumkin. Unda aytishlaricha, Artur degan shaxs 516 yilda Badon va 537 yilda Kampllan janglarida qatnashgan.

Rivoyatlarga ko'ra, Artur sakslarni yenggan brittlarning qo'rqmas yetakchisi bo'lgan. Qirol Artur kelt botirlarining eng mashhuri, Britaniya eposi hamda ko'plab ritsarlik afsonalari va romanlarining bosh qahramoni sanaladi. Tarixchilar Arturning tarixiy prototipi chindanam mavjud bo'lgan versiyani tan olishadi. Olimlarning ta'kidlashicha, Artur keltlarning britt urug'i yetakchisi bo'lishi mumkin.

VI asr boshlarida Britaniya saks qabilalarining bosqinini boshdan kechirayotgan edi. Ularning bosqinlari faqat VIII asrda orolning janubiy qismini bosib olish bilan to'xtadi. Bosqinchilar britt madaniyatini deyarli yo'q qilishdi va orolning bu qismida o'z hukmronliklarini o'rnatdilar.

Angliya davlatining tashkil topishi. Angl-sakslar bosqini natijasida Britaniya orolida o'ndan ortiq mayda varvar qirolliklari vujudga keldi. Bu qirolliklar chekka Uels, Kornuel va Shotlandiyadan tashqari, orolning butun hududini egallab olgan edi. VII asrga kelib angl-sakslar xristianlikni qabul qilib, o'zlarining bir qadar yirikroq yettita (geptarxiya deb ataladigan) qirolliklarini barpo etdilar. Bular: janubda sakslarning Uesseks, Sesseks, Esseks (g'arbiy, janubiy va sharqiy saks) qirolliklari, markazda va shimoli-sharqda angllarning Mersiya, Nortumbriya va Sharqiy Angliya qirolliklari hamda chekka janubi-g'arbda yutlarning Kent qirolligi edi. Angliya tarixidagi geptarxiya davri 500 yildan to 850 yilgacha, ya'ni Daniya huquqi o'rnatilguniga qadar davom etdi.



**Angl-sakslarning jangovor
kiyimlari**

Angl-saks qirolliklari oʻrtasida doimiy kurash ketgan. 830 yilda Uesseks qirolli Egbert (802—839) angl-sakslarni bitta Angliya qirolligiga birlashtiradi. Mamlakatning ichki va tashqi siyosiy ahvolini yaxshilash uchun Egbert franklar bilan doʻstona aloqlar oʻrnatdi. Umrining soʻngiga qadar u Frank imperatori Lyudovik Oliyjanob bilan yozishmalar olib bordi. Bularning barchasi Uesseks qirolligining obroʻyi koʻtarilishiga sabab boʻldi.

VIII asr oxiridan skandinaviyalik shved, norveg va daniyalik vikinglarining Angliyaga hujumlari kuchayadi. Bu xalqlar tarixda normannlar deb atalgan. Angliyaning janubi-gʻarbidagi Uesseks

qirolligi joylashuviga koʻra daniyaliklar bosqiniga koʻproq duch keldi va qarshilik koʻrsatish markaziga aylandi. Daniyaliklar butun shimoli-sharqni bosib olib, oʻz huquq va tartiblarini oʻrnatdilar.

865 yilda Uesseksda Etelred hukmronligi boshlandi. Geptarxiya oʻz tarixida normannlarning bir necha hujumiga duch kelgan, lekin bu galgisi chinakam bosqin edi. Normannlar oldiniga Sharqiy Angliyani, 866 yil 1 noyabrda Yorkni osongina egallab oldilar. Keyingi yilda Nortumbriya bosib olinadi, uning qirolli Ella odamlarning koʻz oʻngicha yovuzlarcha oʻldiriladi.

Yuzaga kelgan vaziyat angl-saks qirolliklari oldida harbiy ittifoq tuzish zaruratini koʻndalang qilib qoʻydi. Mersiya hukmdori Burgred Uesseks qiroliga normannlarga qarshi ittifoq tuzish taklifi bilan chiqdi. 868 yilga kelib, normann yoʻlboshchilari aka-uka Ivar, Xalfdan va Ubba Mersiyaga bosqin uyushtirishdi. Bir yil oʻtgach, normannlar yana Sharqiy Angliyaga hujum qilib, qirol Edmundni oʻldirishdi.

Angliyaning butun sharqini egallab olgan bosqinchilar Uesseksni vayron qilish niyatida edilar. 870 yilning kuzida vikinglar Riding tomon harakatlandilar. 871 yil 8 yanvar kuni Eshdaun yaqinida normannlar angl-sakslar bilan jang qilishdi. Qattiq jangda boʻlgʻusi qirol Alfred katta jasorat koʻrsatdi. Vikinglar yutqazib qochib ketishdi. Bu Uesseksning bosqinchilar ustidan qozongan ilk gʻalabasi edi.



**Qirol Alfredning
haykali. Uinchester.
Angliya.**

Ammo muvaffaqiyat uzoqqa choʻzilmadi. Mertondagi jangda angllar yengilishdi. Jangda ogʻir yaralangan qirol Etelred vafot etdi. Uning oʻrniga ukasi Alfred oʻtirdi.

Qirol Alfred (871—899) vikinglar bilan bitim tuzishga urinib koʻrdi. Ularga yillik oʻlpon toʻlashga ham rozi boʻldi. Lekin vikinglar yoʻlboshchisi Gutrum kelishuvni bir necha bor buzib, Uesseksga bosqin uyushtirdi. Alfred qoʻshinlari ogʻir talofatlar koʻrdi. Nihoyat, 878 yil may oyida Alfred 4000 kishilik qoʻshin bilan Edingtonda vikinglarga juda qattiq zarba berdi. Natijada Gutrum tinchlik soʻrashga majbur boʻldi. Uedmorda tuzilgan bitimga koʻra, normanlar Uesseksdan ketishdi. Nortumbriya,

Sharqiy Angliya, Mersiyaning bir qismi va London daniyaliklar qoʻlida qoldi. London 886 yilda Alfred tomonidan qaytarib olindi. Gutrum xristianlikni qabul qildi. Uni Alfredning oʻzi choʻqintirdi. Shu tariqa Britaniya orolida «Daniya huquqi viloyati» («Denlo») tashkil etildi.

Taxminan 879 yilda qirol Alfred harbiy islohotlarni oʻtkaza boshladi. Angl-sakslarning piyoda qoʻshini boʻlgan **frida** ogʻir qurollangan professional armiya bilan almashtirildi. Alfred yerni kichik feodallarga boʻlib berdi, ular otliqlar tarkibiga kirib, jang maydoniga oʻzlari bilan 4-5 ta yengil piyoda askarlarini olib kelish majburiyatini oldilar. Nayza va qalqon bilan qurollangan sovutli otliqlarning paydo boʻlishi bilan angl-saks qoʻshinlari yanada harakatchan boʻldi. Jangovor flot barpo etishda ham muvaffaqiyatga erishildi. Shuningdek, istehkomlar tarmogʻini yaratishga eʼtibor qaratildi. Burglar Uesseks chegaralarini ancha mustahkamladi. IX asrning oxiriga kelib, Uesseks yetarlicha qudratga ega boʻldi.

Qirol Edgar davrida (959—975) angl-sakslar daniyaliklarni boʻysundiradi va Angliya yerlari yana yaxlit davlatga aylandi. Natijada, daniyaliklar va boshqa kelgindi skandinaviyaliklar oʻzlariga tili va ijtimoiy tuzumi yaqin boʻlgan angl-sakslar bilan qoʻshilib ketdi.

Angliyada ijtimoiy tuzum. Britaniyada feodal jamiyatining shakllanishi juda sekinlik bilan yuz bergan. Bu maʼlum darajada angl-sakslarning qabilaviy urf-odatlarini saqlanib qolganligi va skandinaviyaliklarning taʼsiri bilan bogʻliq edi.

Ilk o'rta asrlar davrida Angliya qirollari tomonidan qabul qilingan «Angl-saks haqiqatlari»da aholi erkin, yarim erkin kishilarga va qullarga bo'lingan edi. Aholining asosiy qismi **kyorllar**, ya'ni erkin kishilardan iborat edi. Bular mustaqil xo'jalik yurituvchi jamoachi dehqonlar bo'lib, **gayda** deb atalgan katta-katta yer uchastkalariga ega edilar. Ayrim qirolliklarda har bir kyorl oilasiga tegishli chek yerning miqdori 120 akr (50 gektar) ga to'g'ri kelardi. Kyorlning vergeldi 200 shilling edi. Urug'-qabila oqsuyaklari — erllar bo'lib, ular jamiyatning hukmron tabaqasini tashkil etishgan. Erlning vergeldi oldiniga 400 shilling, keyinchalik 600 shilling, so'ngra yanada oshib 1200 shillingga yetgan. Erllar va kyorllar jamiyatda erkin kishilar edi.

Angliya jamiyatida **letlar** yoki **uillar** tilga olinadi. Bular o'z ahvoli jihatidan frank litlariga o'xshagan yarim erkin kishilar edi. Ularning o'z yeri bo'lmay, ma'lum majburiyat evaziga erllarning yerini ishlab berar edilar. Ularning vergeldi 80 shilling bo'lgan.

Erllar va hatto ayrim kyorllarning qullari ham bo'lib, ularning bir qismi hovlida xizmat qilgan, yana bir qismi obrok to'lovchi qullar bo'lib, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Qullar jamiyatning eng quyi pog'onasida turishgan. Harbiy tutqunlar, qullarning bolalari va og'ir jinoyatlar uchun qullikka sotilgan kishilar qulchilikning manbai edi. Qulni o'ldirish qul egasining mulkiga yetkazilgan zarar sifatida ko'rilgan va aybdorga faqat yetkazilgan zararni to'lash majburiyati yuklatilgan, xolos. Shuni ta'kidlash joizki, cherkov qullarga nisbatan o'zboshimchalik va shafqatsizlikni qoralagan. Xo'jayinning buyrug'i bilan yakshanba kuni ishlagan qul erkinlikka chiqarilardi.

VI—VII asrlarda Britaniyada aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan, lekin chorvachilik ham xo'jalikda muhim o'rin tutgan. Baliqchilik, ovchilik, tuz, temir, qo'rg'oshin qazib olish bilan shug'ullanganlar. Dehqonlar yerni 4-8 ta ho'kiz qo'shilgan og'ir plugda haydaganlar. Ba'zida yengil plug ham ishlatilgan. Ikki dalali almashlab ekish tarqalgan. Bug'doy, arpa, no'xat ekilgan. Yerlar hosil yig'ib olingandan keyin jamoa yayloviga aylangan.

Yerga egalik qilishni jamoa tartiblari belgilagan. Hujjatlarda jamoa huquqi boyicha egalik qilinadigan oila yeri «folklend» deyilgan. Uni meros qoldirish, ayol tomonidan bo'ladigan qarindoshlarga uzatish va begonaga berish man qilingan. Folklendga egalik qilishdagi to'siqlar Angliyada xususiy mulkchilik va feodal yer egaliklari paydo bo'lishini sekinlashtirdi.

VII asrda bo'sh va kerllar egallagan yerlarni qirol tomonidan vassallarga hadya etish odatga aylanadi. Shunday yerlar **boklend** deb atalgan («bok» – yorliq, «land» – yer) va xususiy milk maqomiga ega bo'lib, to'lovlardan ozod etildi. Bu yer o'z egasiga immunitet huquqini bergan.

Angliyada asosiy ma'muriy-hududiy birlik **graflik (shire)** bo'lgan. Taxminan o'sha vaqtda mamlakat hududi, asosan harbiy maqsadlarda 32 ta katta graflikka (okrugga) bo'lingan edi. Graflikning markazi, odatda, mustahkamlangan shahar bo'lgan. Ayrim grafliklar ilgarigi kichik qirolliklarning hududini to'liq qamrab olgan bo'lsa, boshqalari ancha yirik qirolliklarning bir qancha grafliklarga bo'linishi natijasida tashkil topgan edi.

Grafliklar tepasida **eldormenlar** turgan. Eldormenlar qirol tomonidan mahalliy feodallar orasidan tayinlanib, qirollik himoyasi ostida bo'lgan. Eldormen asosan graflik yig'iniga va uning qurolli kuchlariga boshchilik qilgan. Grafliklardagi sud jarimalarining bir qismi eldormenlarga xizmat vazifalarini ado etganligi uchun mukofot tariqasida kelib tushgan. Eldormenlar qirolning rasmiy vakillari bo'lishiga qaramay, amalda mahalliy yer egalarining manfaatlarini himoya qilardilar. Shu sababli qirollar grafliklarga o'zlarining shaxsiy vakillari — **sheriflarni** tayinlay boshladilar. Sheriflar dastlab faqat qirol xazinasi uchun pul yig'ish bilan shug'ullanardilar.

X asrdan boshlab, qirol hokimiyatining kuchayishi bilan sheriflar eldormenlarning birinchi yordamchilariga aylanganlar va graflikni boshqarish tizginlarini o'z qo'llariga olganlar. Sherif barcha moliya masalalarida va sudda qirol hokimiyatining vakili sifatida qatnashgan. Unga politsiyachilik funksiyalari ham yuklangan edi.

Savol va topshiriqlar

1. Qaysi qabilalar Britaniya orolini bosib olishda qatnashgan?
2. Qirol Artur haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Britaniyada tashkil topgan ingliz-saks qirolliklarini ko'rsatib bering.
4. Vikinglar kimlar va ularga qarshi qanday kurash olib borilgan?
5. Qirol Alfredning vikinglar bosqiniga qarshi kurashini bayon eting.

5-§. IX—XI asrlarda Germaniya

Germaniya saksoniyaliklar sulolasi hukmronligi davrida. 843 yili Verden shahrida sodir bo'lgan taqsimotga muvofiq «Sharqiy Frank yerlari» Lyudovik Nemisga o'tdi. Keyinroq g'arbda joylashgan Lotaringiya, shuningdek, qator fransuz, italyan va slavyan yerlari – Burgundiya, Shimoliy Italiya, Bogemiya, Avstriya va boshqalar ham tez orada Germaniyaga qo'shib olindi. Shu tariqa, Germaniya qirolligi tashkil topdi. Dastlab bu qirollik «Sharqiy franklar qirolligi», X asr o'rtalaridan Tevton, XI asrdan Germaniya deb yuritila boshlandi.

Lyudovik Nemis vorislari davrida karolinglar sulolasining sharqiy bo'limi tezda yo'q bo'lib ketdi. Qirol Arnulf normanlar bilan ko'p jang qilishiga to'g'ri keldi. 899 yilda vengrlar birinchi marta Germaniya yerlariga bostirib, monastirlarni vayron qildilar. Natijada, Sharqiy Franklar davlatini chuqur siyosiy inqiroz qamrab olib, undan chiqishning iloji bo'lmadi.

911 yilda Frankoniyadagi Forxxayme shahrida german feodallari Frankoniya gersogi Konradni qirol deb e'lon qildilar. Uning davrida ichki urushlar avj olib ketdi. Yepiskoplar kuchli qirol hokimiyati o'rnatishni, gersoglar esa, kuchsiz bo'lishini yoqlab chiqdilar. Qolaversa, 915 yili Eresburgda franklar bilan sakslar o'rtasida jang bo'lib o'tdi. Qulay imkoniyatdan foydalangan vengrlar Janubiy Germaniyaga bostirib kirishdi. Bosqin qaytarildi, lekin u barcha kuchlarni birlashtirish lozimligini ko'rsatdi. Qonli to'qnashuvlar Konrad hukmronligi tugaguniga qadar (918 yil) davom etdi. O'limi oldidan u Saksoniya gersogi Genrix Qushtutarni (876—936) o'z vorisi etib tayinladi.

919 yil may oyida Fritslar shahrida Genrix I ning toj kiyish marosimi bo'lib o'tdi. Hujjatlarda yozilishicha, Genrix tarixda ilk marta Tevton davlatining qiroli («in regno teutonico») deb e'lon qilindi. Yangi qirol mohir diplomat edi. Itoatsiz Shvabiya va Bavariya gersoglarini o'ziga bo'sundirib oldi.

Genrix o'z obro'yini oshirish uchun zudlik bilan jiddiy harbiy g'alabaga erishmog'i kerak edi. 924 yilda vengr yo'l boshchilaridan biri qo'lga olindi. To'lov sifatida Genrix vengrlardan 9 yil davomida bosqin qilmaslik va shu muddat ichida ularga o'lpon to'lash to'g'risida bitim tuzdi. Bu vaqtdan unumli foydalanish uchun 926 yilning noyabrida Vormsda bo'lib o'tgan yig'inda «Burgenordnung» nizomi qabul qilindi. Unga ko'ra, mamlakat bo'ylab **burglar**, ya'ni qo'rg'onlar qurilishi boshlanib ketadi. Ularning garnizonlari mahalliy dehqonlardan iborat

bo'lgan. Bunda har to'qqiz dehqondan bir kishi harbiy xizmatni o'tashi, qolgan sakkiz nafari esa uni boqishi lozim edi. Burglar hujum paytida aholi uchun boshpana bo'lib xizmat qilgan. Shuning uchun hosilning uchdan bir qismi burglarda yig'ilib, oziq-ovqat zaxiralari tashkil etilgan. Ilgari mudofaa istehkomlari bo'lmagan ko'plab shaharlar tosh devorlar bilan o'rab olingan.

928—929 yillarda Genrix I polab slavyanlariga qarshi kutilmagan zarbalar berdi, ularning markazi Branibor egallandi. Buning ortidan Chexiyaga qarshi yurish boshlandi, uning hukmdori sakslarning hukmronligini tan oldi. Bosib olingan yerlarda Genrix karolinglar udumiga amal qilib, markgrafliklarni tuzdi. Bulardan birinchisi Meysen edi. 929 yilda Genrix chexlarga qarshi qo'shin tortib, Pragaga yetib keldi. Knyaz Vatslav unga o'z tobeligini bildirdi. Shu tariqa, Germaniyaning «Sharqiy kolonizatsiyasi» boshlanib, slavyan aholisiga nisbatan misli ko'rilmagan zo'ravonliklar bilan birga olib borildi.

Slavyanlar masalasi hal etilgach, Genrix o'z diqqatini vengrlarga qaratdi. 933 yilda vengrlar birinchi marta Riade degan joyda mag'lubiyatga uchradilar. Bu g'alaba qirol hokimiyatining obro'sini keskin oshirdi va hokimiyatni o'g'li Ottonga o'tishini osonlashtirdi.

936 yilda Otton I (912—973) taxtga o'tirdi. Hukmronligining boshlarida gersoglarning qo'zg'olonlari boshlanib ketdi. Ichki urushlarni tugatgandan so'ng, Otton I 955 yilda Lexfeld jangida vengrlarni mag'lub etib, ularning bosqiniga chek qo'ydi. Majusiy vengrlarning tor-mor etilishi Ottonga xristian olamining qutqaruvchisi sifatida shuhrat keltirdi va uning hokimiyatini mustahkamladi.

Otton I otasi singari qirol hokimiyatini mustahkamlash siyosatini davom ettirdi. U gersoglar ustidan nazoratni kuchaytirdi, buning uchun nikoh va boshqa qarindoshlik aloqalaridan foydalandi. Qirol ta'sirining butun mamlakatga yoyishning ikkinchi bir usuli yepiskoplik tizimi bo'ldi. Otton cherkov bilan do'stona aloqa bog'ladi. U yepiskoplarga keng miqyosda immunitet huquqlarini berdi va ularga juda ko'plab yerlar ulashdi. Shu bilan birga, yepiskoplarni o'zi tayinlardi. Cherkov yerlaridan keladigan daromadlardan qirol xazinasiga ko'pdan-ko'p hissalar ajratildi. Shunday qilib, Germaniyada cherkov bilan davlat manfaatlari bir-biriga chirmashib ketdi. Germaniyaning turli o'lkalaridagi yepiskoplar gersoglarga e'tibor bermay, bevosita qirolga bo'ysundilar. Yepiskoplarning qirolga tobeligi ularning Rim papasiga deyarli bo'ysunmay qolishiga olib keldi.

Otton I agressiv tashqi siyosat yuritib, slavyanlar va vengrlarni o'z ta'siriga oldi, ularni xristianlashtira boshladi. Lekin asosiy e'tiborni Italiyaga qaratgan edi. Chunki Italiya german imperatorining «dunyoga hokim bo'lish» rejalarida asosiy o'rin tutar edi. Otton I dastlab 951 yilda Italiyaning Paviya shahrini bosib oldi, shimoliy Italiya knyazlaridan bir nechtasini tor-mor qildi. So'ngra, Provans va Italiya qiroli Lotarning bevasi — qirolicha Adelgeydaga uylandi. Germaniyaning shimoliy Italiyaga ta'siri shundan boshlanadi.

«Muqaddas Rim imperiyasi» davrida Germaniya. 961 yilda Otton I Italiyaga yana yurish qildi. Bu gal Ottonni papa Ioann XII ning o'zi yordamga chaqirgan edi. Chunki papaga uning vassallari – rim baronlari xavf solayotgan edi. Otton I Rim ga kelib, papani taxtga o'tkazdi. Bunga minnatdorchilik sifatida papa 962 yilning boshida Ottonga imperatorlik tojini kiygizdi. Shunday qilib, yangi «imperiya tiklandi». Shu narsa xarakterliki, ilgari Buyuk Karl bo'lgani kabi, bu gal Otton ham Rim imperatori deb e'lon qilindi. Yangi imperiyaga «Muqaddas Rim imperiyasi» nomi berildi. Shundan keyin german imperatorlari o'zlarini rim sezarlari (imperatorlari) ning vorislari deb hisoblay boshladilar. Faqat XII asrdagina bu iboraga ikki so'z qo'shilib, «German millatining muqaddas Rim imperiyasi» deb ataladigan bo'ldi va bu nom 1806 yilgacha saqlanib qoldi. «Muqaddas» deb atalishining asosiy sababi shunda ediki, davlat tepasida rasman imperator va papa turgan. Amalda esa butun hokimiyat imperator qo'lida to'plangan edi.

Otton I hayotining so'nggi yillari papalar bilan to'qnashuvlar va Italiyada hokimiyatini mustahkamlash uchun kurashda kechdi. Rimdan turib boshqarar ekan, Otton I Vizantiya bilan munosabatlarni yaxshilashga intildi. Chunki uning imperatorlikka da'vo qilishi va nemis mulklarining janubga yanada kengayishiga Vizantiya qarshi edi. Ushbu mojaroni hal qilish uchun Vizantiya malikasi Feofano 972 yil aprel oyida taxt vorisi Otton II Mallaga erga tegdi. 972 yil avgustda Otton I Germaniyaga qaytib keldi va 973 yil may oyida Memlebenda o'ldi. 18 yoshli Otton II Muqaddas Rim imperiyasi taxtiga o'tirdi.

O'zining ilk boshqaruvi paytida Otton II ichki isyonlarni bostirish bilan band bo'ldi. 978 yilda G'arbiy Frank qiroli Lotar katta qo'shin bilan Germaniyaga yurish qilganda u 60 ming kishilik qo'shin to'plab, Parijga qadar yetib bordi. 980 yilda tuzilgan tinchlik bitimiga ko'ra, Lotar Germaniyaga nisbatan hududiy da'volaridan voz kechdi. O'sha yilning o'zida Polsha knyazi Meshko I unga o'z tobeligini bildirdi.

980 yilning kuzida Otton I xotini va go'dak o'g'li bilan Italiyaga yo'l oldi. Rimga kelishi bilan mahalliy baronlar tomonidan ag'darilgan Benedikt VII ni yana papalik taxtiga o'tqazdi. 982 yilning mayida u Italiya janubidagi arablarga qarshi harbiy yurishga chiqdi. Bu darakni eshitgan arab noibi Abulqosim jihod e'lon qildi. 982 yilning 13 va 16 iyulida Kolonna burnida qattiq jang bo'lib o'tdi. Jangda Abulqosim o'ldirildi, lekin musulmonlarning otliq qo'shini pistirmadan turib bergan kuchli zarba natijasida Otton II qo'shinlari yengildi. Ko'pchiligi qirib tashlandi yoki qo'lga olindi. Ozchilik qismi Otton II boshchiligida arang qochib qutulishdi. Uning mag'lubiyati to'g'risidagi daraklar butun imperiya bo'ylab yoyildi.



Arablarga qarshi yangi yurishga tayyorgarlik ko'rishga ulgurmay, 983 yilda daniyaliklar va slavyanlar qo'zg'olon ko'tarishadi. Ko'plab xristian monastirlari buzib tashlandi. Shunday vaziyatda imperator og'ir kasallikka chalindi va 983 yilning 7 dekabrda, 28 yoshida o'ldi. Taxtga uning 3 yashar o'g'li Otton III chiqdi.

Otton III yosh bo'lganligi uchun davlatni uning nomidan oldin onasi keyin buvisi Adalgeyda boshqardi. 996 yilda Otton III Italiyaga kelib, Rim ustidan o'z hokimiyatini o'rnatdi va amakvachchasi Bruno Karintiyskiyni Grigoriy V nomi bilan papalik taxtiga o'tqazdi. 996 yilning 21 mayida Otton III ga imperatorlik toji kiydirildi. Otton III Rimda saroy qurdirdi, uning amaldorlari vizantiya va rim unvonlari bilan yuritildilar.

Otton III ni Germaniya va Italiyada hech kim yoqtirmas edi. 1001 yili Rimda qo'zg'olon ko'tarildi. Otton III shaharni tark etishga majbur bo'ldi. Uning Rim imperiyasini to'liq tiklash orzusi amalga oshmadi. Otton III 1002 yilning yanvarida Italiyadagi Paterno qo'rg'onida o'ldi. Shu bilan sakson urug'ining erkak liniyasi uzilib qoldi.

Germaniyada ijtimoiy-siyosiy tuzum. X—XII asrlarda Germaniya iqtisodiy jihatdan Yevropa mamlakatlari ichida qoloq davlatlardan biri edi. Bu yerda feodal munosabatlar Fransiya nisbatan ancha kech — XI asrdan rivojlana boshladi. Feodalizmning rivojlanishi turli german

gersogliklarida juda notekis suratda kechdi. Ayni paytda urug‘doshlik tuzumining qoldiqlari mustahkam saqlanib qoldi. Masalan, Saksoniyada aholi eski urug‘chilik odatlariga qattiq amal qilardi. Germaniyada jamoalarga – markalarga uyushgan erkin dehqonlar uzoq vaqtgacha o‘z mustaqilliklarini saqlab keldilar. Krepostnoylashtirish yo‘lidagi urinishlarga dehqonlar katta qo‘zg‘olonlar ko‘tarish bilan javob berdilar. Shunday katta qo‘zg‘olonlardan biri, masalan, 841—842 yillarda Saksoniyada sodir bo‘lib, «Stelling» degan nom bilan shuhrat qozondi. Qo‘zg‘olonchilar eski majusiylilik bayrog‘i ostida ish ko‘rib, kelgindi franklar va mahalliy saks feodallariga qarshi kurash olib bordilar.

XI—XII asrlarda Germaniyada jamiyatning asosiy tabaqalari shakllandi. Jamiyat ikki asosiy tabaqa: harbiy-ritsarlar hamda soliq to‘laydigan dehqonlarga ajraldi. Ritsarlar tabaqasi kichik yer egalari – dvoryanlar va erkin dehqonlarning yuqori qismidan shakllandi. Tabaqalarning paydo bo‘lishida Genrix I ning islohotlari muhim o‘rin tutadi. Uning harbiy islohotiga ko‘ra, ot minib urusha oladigan har qanday erkin kishi harbiylar (ritsarlar – otliqlar) tabaqasiga kiritildi, boshqa kishilar esa soliq to‘laydiganlar tabaqasiga kiritilgan.

Xulosa qilganda, X—XI asrlarda feodal yer egaligining o‘sishi va mamlakat aholisining etnik jipslashuvi natijasida ilk feodal tashkilotlar tizimi yemirildi. Gersogliklar yopiq siyosiy tashkilotlar bo‘lmish hududiy knyazliklarga aylandi. Knyazlar deyarli to‘la suverenitetga ega edi va faqat nomigagina qiroлга itoat etardilar. Feodallarning knyazlarga aylanishi ularning o‘z hududlari doirasida butun yerlarga nisbatan oliy huquqlarining o‘rnatilishi va immunitet imtiyozlarini qo‘lga kiritish yo‘li bilan amalga oshirildi.

Savol va topshiriqlar

1. Sharqiy Frank qirolligida karolinglar sulolasi hukmronligining to‘xtash sabablarini ko‘rsating.
2. Saksoniyaliklar sulolasi qanday qilib hokimiyat tepasiga chiqib oldi?
3. Muqaddas Rim imperiyasining qadimgi Rim yoki Vizantiya imperiyalaridan farqi nimada?
4. Otton III muvaffaqiyatsizligining sabablari nimalarda ko‘rinadi?

6-§. Vizantiya imperiyasi

Vizantiya atamasi haqida. Vizantiya qadimgi Rim imperiyasining merosxo‘ri sanaladi. Shu sabab vizantiyaliklar o‘zlarini rimliklar (grek. romeylar), davlatlarini Romaniya (Ῥωμανία) deb ataganlar. Vizantiyaning rasmiy nomi «Rim imperiyasi», «rimliklarning imperiyasi» (lot. Imperium Romanum, Imperium Romanōrum; grek. Βασιλεία τῶν Ῥωμαίων, Ἀρχὴ τῶν Ῥωμαίων) bo‘lgan.

Vizantiya imperiyasining ilk davrlarida grek tili pravoslaviya dinida rasmiy til bo‘lgan. VII asr oxiridan boshlab esa grek tili davlat tiliga aylanib, aholi va madaniyat ellinlashgan edi. Shu bois g‘arbiy yevropaliklar Vizantiyani «Greklar imperiyasi» deyishgan. Qadimgi Rusda Vizantiyaning poytaxti Sargrad deb atalgan.

Vizantiya atamasi Konstantinopolning ilk nomi — Vizantiydan kelib chiqqan. Milodiy 330 yilda Konstantin I Rim imperiyasining poytaxtini shu yerga ko‘chirib, uni rasman «Yangi Rim» deb atagan. Sharqiy Rim imperiyasi tezda rim tarixchilarining asarlarida Vizantiya nomini olgan. Bu bilan ular uni G‘arbiy Rim imperiyasidan ajratib turmoqchi bo‘lishgan. Lekin, 476 yilda Rim qulaganidan so‘ng imperiyani sharq va g‘arbga ajratish ehtiyoji yo‘qoladi. Bundan keyin imperiya yana Rim deyiladigan bo‘ldi. Faqat Vizantiya qulaganidan so‘ng (1453) bir asr o‘tgach, 1557 yili nemis tarixchisi Iyeronim Volf Vizantiya atamasini qayta tiklaydi. Bundan ko‘zlangan siyosiy maqsad, Qadimgi Rim imperiyasining yolg‘iz vorisi Vizantiya emas, balki german millatining Muqaddas Rim imperiyasi ekanligiga urg‘u berish edi. Bu g‘oya ma‘lum izdoshlarga ham ega bo‘ldi. Biroq, Yevropa tarixchilari tomonidan to‘liq qabul qilinmadi.

Vizantiyaning kuchayishi. Konstantinopol shahri geografik jihatdan qulay yerda o‘rnashganligi tufayli Sharq bilan G‘arb o‘rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalarning kuchayishiga sabab bo‘ldi, siyosiy va harbiy markazga aylandi. Rim imperiyasi bo‘lingach, uning iqtisodiy jihatdan rivojlangan sharqiy qismlari — Bolqon yarim orolining katta qismi, Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Misr, Kirenaika, Mesopotamiyaning bir qismi, G‘arbiy Armaniston va Gruziya, Xersones, Kipr va Krit orollari Vizantiya tarkibiga kirdi. Aholisi — greklar, suryoniyalar, qibtiylar, armanlar, gruzinlar va boshqalar bo‘lgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanish darajasi, shahar turmushining jo‘shqinligi jihatidan o‘sha davrda Vizantiya G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridan ancha ilgarilab ketgan edi. Arabiston, Qora dengiz bo‘yi, Eron, Hindiston, Xitoy bilan savdo-sotiq ancha ko‘paydi.



Yustinian I

V—VI asrlarda Vizantiya bir tomondan shimollik ko'chmanchilarga, ikkinchi tomondan, sosoniylarga qarshi kurashga majbur edi. Vizantiyada davlat dini xristianlik bo'lib, u ham turli mazhablarga bo'linib ketgan va ular o'rtasida tez-tez to'qnashuvlar sodir bo'lar edi. Shunday sharoitda imperiyaning saqlab qolishga qodir bo'lgan kuchli yetakchining chiqishi hayotiy zaruratga aylandi.

518 yilda imperator Anastasiya I o'limidan keyin taxtga makedoniyalik dehqonlardan bo'lgan gvardiya boshlig'i Yustin o'tirdi. Yustin savodsiz bo'lganligi uchun yoniga jiyani Yustinianni olib yurdi. Mukammal ta'lim olgan va ajoyib qobiliyatlarga ega bo'lgan Yustinian tez orada o'z qobiliyatini ko'rsata oldi. 527 yilda hokimiyatni qo'lga kiritgan Yustinian imperator hokimiyatini mustahkamlash rejalarini amalga oshirishga kirishdi. U cherkov bilan ittifoq tuzdi. Yustinian davrida imperatorning o'zi rasmiy e'tiqodni o'rnatdi. Natijada butparastlar, dahriylar va samariylar (yahudiylarning bir mazhabi) fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish, hatto o'lim jazosi tahdidi ostida rasmiy dinga o'tishga majbur bo'ldilar.

Yustinian I ichki isyonlarni bostirdi, markaziy davlat mustahkamlandi, kuchli armiya vujudga keltirildi. Bu esa Yustinianga 533—534 yillarda Shimoliy Afrikadagi vandallar davlatini, 555 yilda Italiyadagi ostgotlar qirolligini, Janubi-Sharqiy Ispaniyani bosib olish imkonini berdi. Yurishlar natijasida imperiya yerlari deyarli ikki baravarga kengaydi. Ammo yurishlar juda ko'p chiqimni talab qildi, bu esa forslar, slavyanlar, avarlar va xunnlar qo'l keldi. Garchi ular muhim hududlarni bosib olmagan bo'lsalar ham, imperiyaning sharqidagi ko'plab yerlarni vayron qildilar.

Vizantiya diplomatiyasi imperiyaning obro'-e'tibori va ta'sirini kengaytirishga intildi. Sovg'alar va pullarni mohirona tarqatish, imperiya dushmanlari o'rtasida nizo qo'zg'ash yo'li bilan chegaralarda aylanib yurgan avar, xazar, bulg'or va boshqa turkiy ko'chmanchi qabilalarni kuchsizlantirishga erishdi. Shuningdek, xristianlikni targ'ib qilish orqali ularni Vizantiya ta'sir doirasiga kiritdi. Xristian dinini Qora dengiz sohillaridan Habashiston cho'llari va Sahroi Kabir vohalarigacha tarqatgan missionerlarning faoliyati Vizantiya siyosatining eng xarakterli xususiyatlaridan biri edi.

Harbiy yurishlardan tashqari, Yustinian ma'muriy va moliyaviy islohotlar o'tkazdi. Imperiya iqtisodiyoti og'ir tushkunlikka uchragan edi. Yustinian boshqaruvni qayta tashkil etish maqsadida qonun hujjatlarini kodifikatsiya qildi va bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Garchi ular muammoni tubdan hal qilmasa ham, shubhasiz, ijobiy natijalarga olib keldi. Qadimgi Rimdagi antoninlar sulolasining «oltin davri» dan keyin butun imperiya bo'ylab keng ko'lamli qurilishlar boshlandi. Madaniyat yangi bosqichni boshdan kechirdi.

Vizantiyaning inqirozga uchrashi. VI asrning so'nggi o'n yilligi va VII asr boshlarida ichki inqiroz va tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizliklar ro'y berdi. Armiyada g'alayonlar boshlandi, keng xalq ommasi unga qo'shildi. VI asr oxiri—VII asr boshlarida Vizantiya yerlarining anchagina qismini slavyanlar ishg'ol etdi.

610 yilda Karfagen ekzarxining o'g'li Herakliy imperator Fokani ag'darib tashladi va o'z hokimiyatini o'rnatdi. Bu Vizantiya tarixidagi eng og'ir davrlardan biri bo'ldi. Forslar Misr, Suriya, Kichik Osiyoning bir qismini bosib oldilar va Konstantinopolga tahdid soldilar; avarlar, slavyanlar va langobardlar chegaralarga har tomondan hujum qildilar.

626 yilda Konstantinopol avarlar, slavyanlar va ularga ittifoqchi forslar tomonidan qamal qilindi. Shaharni egallashga urinish muvaffaqiyatsizlikka uchradi, avarlar va slavyanlar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga chiqdi va ular chekinishga majbur bo'ldilar. Herakliy forslar ustidan bir qancha g'alabalarni qo'lga kiritdi, urushni ularning hududiga o'tkazdi. Shoh Xisrov II ning o'limi va bir qator qo'zg'olonlar forslarni barcha bosqinchiliklardan voz kechishga, tinchlik o'rnatishga va o'zlarini Vizantiyaning vassallari deb tan olishga majbur qildi. Ammo bu urushda har ikki tomonning haddan tashqari holdan toyganligi arab istilolari uchun qulay sharoit tayyorladi.

634 yilda xalifa Umar Suriyaga bostirib kirdi. 635 yilda arablar Damashqni egallab oldilar. 636 yilning 20 avgustida Suriya uchun Vizantiya va Arab xalifaligi o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Vizantiya armiyasi ko'p millatli edi. Bolqonda yashovchi grek va lotin tilida so'zlashuvchi xalqlar bilan bir qatorda, imperator bayrog'i ostida armanlar va Yaqin Sharqdagi xristianlar ham to'plandilar. Bu jangda arablar g'alaba qozondilar. Herakliy Konstantinopolga chekindi.

Arablarining diniy bag'rikenglik siyosati va soliqlarning sezilarli darajada kamaytirilishi Misr, Shimoliy Afrika, Suriya, Falastin va Yuqori Mesopotamiya aholisini ularning tomoniga o'tib ketishiga sabab bo'ldi. Arablar flot tuzdilar va hatto Konstantinopolni qamal qildilar. Biroq yangi

imperator Konstantin IV Pogonat (668—685) ularning hujumini qaytardi. Konstantinopol (673—678) besh yil davomida quruqlik va dengiz orqali qamal qilinishiga qaramay, arablar uni qo'lga kiritishga olmadi. «Grek olovi» (yonuvchi aralashma) bilan qurollantirilgan flot musulmon qo'shinlarini chekinishga majbur qildi. Quruqlikda xalifalik qo'shinlari ham mag'lubiyatga uchradi.

Arablar bilan olib borilgan urushlar tufayli Vizantiya ko'plab yerlarini yo'qotgan bo'lsa-da, imperiya bu inqirozdan yanada uyushgan va yaxlit holda chiqdi. Uning milliy tarkibi bir hil bo'ldi, diniy tafovutlar o'tmishga aylandi. VII asrning oxiriga kelib, Vizantiya yerlari Yustinian imperiyasining uchdan bir qismidan ko'p emas edi. Uning o'zagini greklar yoki ellinlashgan qabilalar tashkil etdi. Imperator Herakliy davridan boshlab armiyada lotin tilida so'zlashuvchi aholi o'rniga asosan greklar va armanlar xizmat qila boshladilar. Grek tili davlat tiliga aylandi. Kichik Osiyoning sharqiy qismida ham aholining etnik tarkibi o'zgardi: armanlardan tashqari forslar, suriyaliklar va arablarning qishloqlari paydo bo'ldi.

Vizantiyaning kuchsizlanishi bu bilan tugamadi. VII asrning 70 yillarida Vizantiyaning shimoli-g'arbiy chegarasida qadar bulg'orlar davlati barpo bo'ldi. Italiyadagi langobardlar Vizantiya hududining anchagina qismini bosib oldilar.

VIII—IX asrlarda Vizantiya hududiga slavyanlarning ko'chib kelishi munosabati bilan ulardagi hukmron jamoa munosabatlari ta'sirida erkin qishloq jamoalari mustahkamlandi. Biroq X asrda Vizantiya shaharlari yana yuksala boshladi, savdo-hunarmandchilik uyushmalari vujudga keldi, davlat ularning faoliyatini qo'llab-quvvatladi. X asr o'rtalarida Vizantiya arablardan Yuqori Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Suriyaning bir qismini, Krit va Kipr orollarini qaytarib oldi. Armaniston va Gruziyada Vizantiyaning ta'siri kuchaydi.

Vizantiya madaniyati. Vizantiya rim, grek va ellinizm an'analari ta'sirida vujudga kelgan o'ziga xos madaniyat markazi edi. Vizantiyada antik davr ta'limi an'analari saqlanib qoldi. XII asrgacha maorif Yevropaning boshqa mamlakatlariga qaraganda yuqori edi. Boshlang'ich ta'lim (o'qish va yozishni o'rgatish) xususiy maktablarda 2-3 yil davomida amalga oshirilgan. O'rta ma'lumot grammatika o'qituvchisi boshchiligidagi olingan. Dasturga orfografiya (imlo qoidalari), grammatika normalari, talaffuz, she'r yozish qoidalari, notiqlik san'ati, shuningdek hujjatlar tuzish uslubi kiritilgan. Falsafa ham o'quv darslari jumlasiga kirgan. Ayrim maktablardan tarix fani o'qitilgan.



Konstantinopol. Yuqoridan ko‘rinishi. Rekonstruksiya

IV—VI asrlarda Iskandariya, Bayrut, Antioxiya, G‘azo, Falastin Kesariyasida qadimgi davrdan qolgan oliy maktablar o‘z faoliyatini davom ettirganlar. 425 yili Konstantinopolda barpo etilgan oliy maktab (auditoriya) boshqa oliy maktablarni siqib chiqardi. Konstantinopol auditoriysi davlat muassasasi, uning professorlari davlat xizmatchilari hisoblanar, poytaxtda dars berish faqat ularga ruxsat etilgan edi.

IX asr o‘rtalariga kelib, Magnavr oliy maktabi ishlay boshladi. Bu maktab oliy dunyoviy amaldor va din peshvolarini tayyorlagan. XI asr o‘rtalarida Konstantinopolda yuridik va falsafiy maktablar davlat muassasasi sifatida ochildi. XII asrda oliy maktabda tibbiyot fani ham o‘qitila boshladi.

1204 yildan keyin Vizantiyada oliy maktab tugatildi. Monastirlar huzuridagi maktablar davlat maktablarini tobora siqib chiqaraverdi. Bunday maktablar, odatda, muallimning o‘limidan keyin yoki u quvg‘inga uchragach, yopilib qolardi.

Vizantiyaning qadimgi kutubxonalari ilk davrdan nari o‘tmadi. Iskandariya kutubxonasi 391 yili vayron etildi. Konstantinopol kutubxonasi (356 yilda asos solingan) 475 yilgi yong‘inda kuyib ketdi. Keyingi davr kutubxonalari haqidagi ma‘lumotlar kam bo‘lsa ham imperator, patriarx, monastirlar kutubxonalari, oliy maktablarning va xususiy shaxslarning kutubxonalari bo‘lganligi ma‘lum.



Grek olovining qo‘llanilishi



Xirosifon

Konstantinopoldagi Ayo Sofiya ibodatxonasi 532 yilda Yustinian buyrug‘i bilan qurila boshlangan. Qurilishni boshqarish uchun imperator o‘sha davrning eng yaxshi me‘morlari – Isidor bilan Antimiyni taklif qildi. Ularning boshchiligida har kuni 10 000 kishi ishlagan. Bino qurilishi davlatning uch yillik daromadini yutib yuborgan. Nihoyat, 537 yilning 27 dekabrda ibodatxonaning ochilish marosimi bo‘lib o‘tgan. Uning ochilishida ko‘plab hayvonlar qurbonlikka keltirilgan, kambag‘allarga g‘alla tarqatilgan.

Vizantiyaliklar harbiy ishda ham kattagina yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. Jumladan, vizantiyaliklar tomonidan yaratilgan «grek olovi» dengiz janglari va qo‘rgo‘nlarni qamal qilishda keng qo‘llanilgan. Olov mis quvurlar (kemalarda) va xirosifonlar (qo‘l o‘tcocharlari) yordamida purkalgan. Xirosifonlar quruqlikdagi janglar va qo‘rg‘on qamali vaqtida ishlatilgan. «Grek olovi»ni suv bilan ochirishning iloji bo‘lmagan. Bu qurol bir necha asrlar davomida Vizantiyaning dengizdagi ustunligini ta‘minlab kelgan.

Umuman olganda, V—IX asrlarda Vizantiyada feodal tuzum uzil-kesil qaror topdi. To‘g‘ri, Vizantiyada yirik imperiya tashkil etish uchun harakatlar bo‘ldi. Lekin markazlashgan davlatni tuzish uchun sharoit yetilmadi. Natijada Vizantiya bo‘linib, turli davlatlar qo‘liga o‘tib ketdi.

Savol va topshiriqlar

1. Vizantiya atamasi qanday paydo bo‘ldi?
2. Yustinianning Vizantiya tarixidagi o‘rnini ko‘rsating.
3. Vizantiyaning arablar bilan kurashi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Vizantiya madaniyati to‘g‘risida so‘zlab bering.

7-§. Slavyan davlatlarining tashkil topishi

Slavyan qabilalari haqida umumiy ma'lumot. Slavyanlar to'g'risidagi ilk ma'lumotlar I—II asrlarda uchraydi. Bularni biz Rim tarixchilari bo'lgan katta Pliniy, Tatsit va yana grek geografi Ptolomey asarlarida uchratamiz. Ularning asarlarida slavyanlar venedlar deb ataladi. Nisbatan to'liqroq ma'lumotlarni V-VII asrlarga oid asarlarda ko'rish mumkin.

Milodimizning I asrida slavyanlar o'rta Dnepr va yuqori Dnestr, Shimoliy Karpatorti va Visla havzasida yashar edilar. VI—VII asrlarda slavyanlar Bolqon yarim orolida joylashganlaridan keyin uning mahalliy aholisi bo'lgan frakiylar va illiriylar bilan qo'shilib ketadi.

Slavyanlar turli tarixiy sharoit natijasida uch yirik guruh — g'arbiy, sharqiy va janubiy slavyanlarga bo'lindilar. G'arbiy slavyanlarga—polyak, chex, slovaklar; sharqiy slavyanlarga—rus, ukrain va beloruslar; janubiy slavyanlarga—bolgar, makedon, serb va xorvatlar mansub bo'lishgan.

Slavyanlar xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil qilgan. Ular bug'doy, tariq, suli va boshqa ekinlarni ekanlar. Slavyanlar yerlarini uchi temirdan bo'lgan temir pluglar bilan haydaganlar. Hosilni o'roqlar va chalg'ilar bilan yig'ib olganlar. Un tayyorlashda qo'l tegirmonidan foydalanganlar.

Slavyanlarda davlatning vujudga kelishida ichki urushlar, shuningdek, avar, frank, vengrlar hamda german bosqinchilariga qarshi olib borilgan kurashlar muhim rol o'ynadi. Chet el bosqiniga qarshi kurash slavyanlarni davlat bo'lib birlashishlariga majbur qildi.

Samo knyazligi. G'arbiy slavyanlarning ilk uyushmasi Bogemiya (yoki Chexiya) qabilalari ittifoqi bo'lib, u VII asrning o'rtalarida hukm surgan edi. Bu ittifoq slavyanlarning avarlarga qarshi olib borgan kurashi jarayonida vujudga keldi. Avarlar Dunayga VI asrning ikkinchi yarmida keldilar. So'ng ular qo'shni slavyan qabilalarini o'zlariga bo'ysundirib, ularga o'lpon soldilar. Slavyanlarning avarlarga qarshi qo'zg'oloni jarayonida siyosiy ittifoq vujudga keladi. Unga Samo degan knyaz bosh bo'ldi. Samo bu davlatni 35 yil idora qildi (623—658). Uning o'limidan keyin ittifoq tarqalib ketdi. Chunki avarlar xavfi oldingidek qo'rqinchli emas edi.

Ulug' Moraviya. G'arbiy slavyan ittifoqlari ichida mustahkamrog'i Ulug' Moraviya edi. Bu davlat bo'lajak Chexiya yerlarida shakllanib,

qariyb bir asr hukm surdi. Unga morav, chex, serb, Elbaning yuqori va qisman o'rta oqimida yashagan slavyanlar, polyaklarning bir qismi, Pannoniya, Slovakiya va Galitsiya slavyanlari kirgan edi. Davlatga knyaz Moymir (818—846) asos solgan. Poytaxti Velegrad shahri bo'lgan.

Ulug' Moraviya davlati Rostislav (846—870) va Svyatopolk (870—894) zamonida katta yutuqlarga erishdi. Rostislav katolik cherkovi orqali kirayotgan nemislar ta'siriga qarshi turish maqsadida Vizantiya bilan aloqa bog'laydi. Xristianlikni targ'ib qilish uchun grek missionerlari Kiril va Mefodiyi taklif etadi. Kiril bilan Mefodiy grek bo'lib, slavyan tilini yaxshi bilishar edi. Kiril slavyanlar uchun alifbe tuzdi va u **kirilitsa** deb ataldi. Bu alifbega grek alifbosidagi harflar asos qilib olindi. Kiril bilan



Knyaz Rostislav

Mefodiy Moraviyaga 863 yilda kelib, muvaffaqiyat qozondilar. Rostislav ularga har jihatdan yordam berdi. Bir necha ming moravlar va chexlar ular tomonidan cho'qintirildi. Xristianlikni qabul qilgan moravlarning ko'pi o'qishni o'rganib, ruhoniylar bo'ldilar. Shunday qilib, Moraviyada nemislarning vositachiligisiz mustaqil slavyan cherkovi vujudga kela boshladi.

Biroq, oradan ko'p o'tmay, Kiril va Mefodiy katta qiyinchiliklarga duch keldilar. Katolik nemis ruhoniylari ularning ishiga har qanday yo'llar bilan to'sqinlik qilishga urindilar. Buning uchun papaga ular ustidan shikoyat qildilar. Kiril bilan Mefodiy javob berish uchun Rimga borishga majbur bo'ldilar. Kiril 869 yilda vafot etdi. Mefodiy moravlar o'rtasida targ'ibot ishlarini davom ettirish uchun papadan ruxsat oldi va Moraviyaga arxiyepiskop qilib tayinlandi. Biroq Moraviya davlatidagi siyosiy ahvol juda murakkabligicha qolaverdi.

870 yilda Rostislavning jiyani Svyatopolk nemislarning yordami bilan uni taxtdan tushirdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, nemislar Svyatopolkni taxtdan tushirib, Germaniyaga olib ketishdi. Moraviyani idora qilish uchun nemislardan ikkita graf tayinlandi. Lekin Moraviya slavyanlari 871 yilda nemislar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olonchilarga Slavomir boshchilik qildi. Nemis feodallari bu qo'zg'olonni bostirish uchun Svyatopolkning o'zidan foydalanishga urindilar. Lekin Svyatopolk yolg'ondan nemislarga yordam berishga rozi

bo'ldi-yu, keyin o'zi ham xalqi tomoniga o'tib, ular bilan birga nemis feodallariga qarshi kurash olib bordi. Oqibatda Germaniya qiroli Lyudovik Nemis yon berdi va 874 yilda Svyatopolkni mustaqil Moraviya knyazi deb tan oldi.

Knyaz Svyatopolk Moraviya chegaralarini ancha kengaytirdi. Harbiy yurishlar natijasida Elba va Oder bo'ylarida, Karpat etaklarida yashovchi slavyanlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Shu bilan birga nemis feodallariga ham bir muncha yon bosib, katolik cherkovining faoliyatiga erkinlik berildi. Mefodiy o'limidan keyin (885 yil) uning shogirdlarini Moraviyadan butunlay haydab chiqardi. Ular Bolgariyaga ketdilar va u yerda slavyan-bolgar cherkovini vujudga keltirish hamda ilk slavyan-bolgar yozuvini rivojlantirishga yordam berdilar.

Svyatopolkdan keyin uning o'gillari bir-biri bilan urushib, knyazlikni tezda kuchsizlantirdilar. Bundan foydalangan vengrlar 906 yilda Moraviyaga bostirib kirib, uni talon-taroj qildilar. Vengrlar bosqinidan so'ng Moraviya ittifoqi tarix sahifalaridan o'chib ketdi.

Chexiya qirolligining tashkil topishi. X asrning boshlarida Ulug' Moraviya davlatining bir qismidan Chexiya knyazligi vujudga keldi. Chex knyazlari IX asrda ham bor edi. Unda ular hali Moraviyaga qaram edilar. Chunonchi, tarixiy manbalarda knyaz Borivoy (874—879) va uning xotini Lyudmilo tilga olinadi. Ular yepiskop Mefodiydan xristianlikni qabul qilganlar.

X asrda Chexiyada prjemislovichlar va slavnikovichlar o'rtasida keskin kurash olib borildi. Prjemislovichlar chex ittifoqiga bosh bo'lib, markazi Pragada joylashgan edi. Slavnikovlar esa, zlichenlar urug'idan kelib chiqib, Libitsa shahrini o'zlariga siyosiy markaz qilib olgan edilar. Ayniqsa, knyazlar — Boleslav I Qo'rqinchli (936—937) va Boleslav II (967—999) zamonida bu kurash keskin tus oldi. Oxir-oqibat, 996 yilda Libitsa shahri egallanib, slavnikovichlar qirib tashlanadi.

Knyazlarning o'zaro urushlari Germaniya imperiyasiga Chexiyaning ichki ishlariga aralashishga imkon berdi. Lekin Chexiya knyazligi mustahkamlanishi bilan Germaniyaning unga bo'lgan munosabati o'zgardi. Chunonchi, 1086 yilda imperator Genrix IV Rim papasiga qarshi olib borgan kurashida bergan yordami uchun knyaz Bratislav II ga (1061—1092) qirollik unvonini berdi. Chexiya qirollikka aylandi, biroq imperiya tizimida qolaverdi.

Polsha davlatining vujudga kelishi. Bu davlat dastlab Visla daryosi havzasida yashovchi polyak, slezan, kuyav, mazur va boshqa qabilalar ittifoqidan tarkib topgan. Unga knyaz Meshko (960—992) asos

solgan. Meshko Buyuk Polsha, Sileziya, Mezoviya va Kuyaviyaning bir qismini boshqardi.

966 yilda Meshko o'z drujinasi bilan birga xristianlikni qabul qildi. Meshkoning o'g'li Boleslav I Botir (992—1025) davrida Krakov, Malach shaharlari, shuningdek butun Sileziya Polsha davlati tarkibiga kiritildi. Boleslav pomor va polab slavyanlarini bo'ysundirdi, Chervan shaharlarini (hozirgi G'arbiy Ukraina) ham egalladi. Chexiya bilan Moraviya birmuncha vaqt unga tobe bo'ldi. Boleslav papadan qirollik unvonini oldi.

Bolgariya podsholigi. Bu davlatning boshlanishi turkiy bulg'orlar nomi bilan bog'liq. 632 yilda Qubratxon Azov bo'yida yashovchi turkiy aymoqlarni birlashtirib Buyuk Bulg'oriyaga asos soldi. Bu davlat xazarlar tomonidan tugatilgach, Qubratxonning besh o'g'lidan to'rttasi turli o'lkalar tomon ketdilar. Bulg'orlarning bir qismi Asparux yetakchiligida Bolqonga qarab siljidi. Ongal degan joyda bo'lib o'tgan jangda Asparux Vizantiya imperatori Konstantin IV qo'shinlarini tor-mor keltirdi. So'ng Dunaydan kechib o'tib, u yerdagi slavyanlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Asparux Vizantiyani yillik o'lpon to'lashga majbur qildi. Vizantiya bilan tuzilgan bitim Bolgariya davlatining rasman tan olinishini anglatar edi. Bolgar podsholigi Vizantiya yerlarida vujudga kelgan birinchi varvar davlatiga aylandi. Uning shimoli-sharqdagi chegarari Dnepr daryosiga qadar yetgan, poytaxti Pliska shahri edi.

VIII—IX asrlar davomida slavyanlar bilan bulg'orlar juda tez yaqinlashib ketdilar. Ular slavyanlardan dehqonchilik, hunarmandchilik, slavyan dini va urf-odatlarini, hattoki tilini ham o'zlashtirib oldilar. Feodal munosabatlar tarkib topa borgan sari slavyan va bulg'or oqsuyaklari bitta hukmron sinfga aylandilar.

IX asrda son jihatdan birmuncha ozchilikni tashkil etgan bulg'orlar slavyan tili ta'sirida «bolgar» nomini oldilar va slavyanlar bilan aralashib ketdilar. «Bolgar» atamasi ularga tobe bo'lgan slavyanlarning umumiy nomiga aylandi. Bolgarlar va slavyanlar bir-biri bilan shu qadar yaqinlashdilar, «bolgarin» degan atama vizantiyaliklar bilan ruslar nazarida chinakam slavyan tushunchasiga ega bo'lib qoldi.

IX asrning boshlarida Bolgariya juda katta bir davlatga aylandi. Qurumxon hukmronlik qilgan davrda (802—815) Bolgariya podsholigi hozirgi Ruminiya va Vengriyaning bir qismini egallab oldi. Knyaz Boris (852—888) zamonida Bolgariya xristianlikni qabul qildi.



**Vasiliy II Bolgaroboya.
Miniatyura**

Bolgariya podsholigi Buyuk Simeon (893—927) davrida juda qudratli podsholikka aylandi. Simeon Konstinapolga bir necha marta yurish qildi va uni bosib olishga urindi. Lekin bu maqsadini amalga oshira olmadi. Shunga qaramay, 919 yili «barcha bolgarlar va greklarning podshosi va mutloq hokimi» degan unvonni oldi. Uning podsholik yillari Bolgariya uchun «oltin davr» bo‘lib hisoblanadi.

Simeon o‘lgandan keyin Bolgariya tushkunlikka uchradi. Simeon bosib olgan yerlarning katta bir qismi qo‘shnilari qo‘liga o‘tdi. Bolgariyada feodal tarqoqligi yuz berib, podsho hokimiyati kuchsizlandi.

Bolgariyadagi ichki kelishmovchilikdan Vizantiya foydalandi. Imperator Ioann Simisxiy Sharqiy Bolgariyani ishg‘ol qilib, uni Vizantiyaga qo‘shib oldi. 1014 yilda Vasiliy II G‘arbiy Bolgariyani bosib oldi. Vasiliy II jangdan keyin qo‘lga olingan 15 ming bolgarning ko‘zini o‘yishga buyruq berdi. So‘ng har yuz kishiga bir ko‘zi qoldirilgan kishini bosh qilib uylariga jo‘natadi. Bu ishi uchun unga «Bolgaroboya» laqabini berdilar.

Bolgariya podsholigi 1018 yilda to‘liq tugatildi. Shundan keyin to XII asrning oxirigacha Vizantiya asoratiga tushib qoldi.

Savol va topshiriqlar

1. Slavyan qabilalari haqida ma’lumot bering.
2. Qanday omillar slavyanlarda davlatchilikni tashkil etishlariga sabab bo‘lgan?
3. Samo knyazligi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Ulug‘ Moraviya va Chexiya davlatlari haqida so‘zlab bering?
5. Polsha davlatining tashkil topishida Meshkoning rolini ko‘rsating.
6. Bolgariya va Vizantiya munosabatlari qanday bo‘lgan?

8-§. IX—XI asrlarda Kiyev Rusi

Kiyev Rusining tashkil topishi. Mulkiy tengsizlikning kelib chiqishi va qo'shni davlatlardan himoya qilish zaruriyati natijasida sharqiy slavyanlarda ilk davlat birlashmalari vujudga keldi. Bular: Kuyaba (Kiyev), Slaviya (slovenlar viloyati) va Artaniya (Ryazan) edi. Dastlabki davlat birlashmalari knyazliklar deb atalgan. Ular qabilalarning harbiy ittifoqi asosida tashkil topgan. Dastlab qabilaviy knyazliklar, so'ngra hududiy knyazliklar vujudga keladi. Bunday knyazliklarning markazlari Kiyev, Novgorod, Chernigov, Smolensk, Polotsk va boshqa shaharlar edi.

IX asrda sharqiy slavyanlarning bir qismi Xazar hoqonligi ta'sirida edi. Xazar hoqonligi Dneprdan to Orol dengizigacha bo'lgan hududda joylashgan hamda slavyan qabilalari unga o'lpon to'lab turishgan. Xazar hoqonligining siyosiy tizimida bir nechta «kichik hoqonlar» mavjud bo'lgan. Ana shulardan biri Rus hoqonligi («Русский каганат») edi. Qadimgi ruslar uchun «hoqon» unvoni podsho tushunchasida kelgan. Shu sabab, ushbu unvon ruslarda to XII asr oxiriga qadar saqlanib turgan.

Ruslar tashqi xavfdan himoyalaniish uchun harbiy ittifoqlar tuzishgan. Ayrim hollarda qo'shnilaridan yordam ham so'raganlar. Masalan, 862 yilda krivich va sloven urug'lari Ryurik boshchiligidagi skandinavlarni (varyag) o'z yerlarida knyazlik qilish uchun chaqirishadi. Ryurik oldiniga Ladogada, keyin Novgorodda hukmronlik qildi va ukalari Sineusni Beloozeroga, Truvorni Izborskga knyaz qilib qo'ydi. Xuddi shu davrda, Ryurikdan Vizantiyaga qarshi yurish uchun ruxsat berishni so'ragan boyarlar — Askold va Dir yo'lda xazarlarga o'lpon to'lovchi Kiyev shahrini egallab, o'sha yerga qolishadi. 866 yilda Askoldning 200 ta qayiqli floti Konstantinopolni qamal qildi. Ammo dengizda turgan bo'ron tufayli buning iloji bo'lmadi.

879 yilda Ryurikning o'limidan keyin Novgorodda hokimiyat tepasiga uning yaqin qarindoshi Oleg chiqadi. U o'z yerlarini kengaytirishga intilib, Smolensk va Lyubech shaharlarini egallaydi. 882 yilda esa, Kiyevga yo'l olib, Askold va Dirni o'ldiradi. Kiyevni Rus shaharlarining onasi, deb jar soldiradi. Shu tariqa Kiyev Rusi tarixi boshlanadi.

O'z boshqaruvi davrida Oleg deyarli barcha sharqiy slavyanlarni birlashtirib, ularga yengil o'lpon soladi. Bu bilan ularni xazarlarga soliq to'lashdan qutqaradi. 907 yilda katta qo'shin bilan Konstantinopolga yurish qiladi va imperator Mixailni Rus uchun juda foydali bo'lgan bitim tuzishga majbur etadi.

Oleg o'limidan keyin Ryurikning o'g'li Igor davlatni kengaytirish ishini davom ettirdi. Drevlyanlarni Kiyevga bo'ysundirdi, Qrim va Tamanga ta'sirini kengaytirdi, Dneprning quyi oqimida paydo bo'lgan bijanaklar bilan jang qildi. X asrning 40 yillarida Igor Konstantinopolga ikki marta yurish qildi. Birinchi yurishda vizantiyaliklar rus flotini «grek olovi» yordamida yoqib, ularni chekinishga majbur qilganlar. Uch yil o'tgach, Igor yana yurish boshlaydi va Vizantiya bilan harbiy-savdo shartnomasini imzolash bilan yakunlaydi.

945 yilda o'lpon yig'ish paytida Igor drevlyanlar tomonidan o'ldirildi va hokimiyat uning bevasi Olgaga o'tdi. Olga drevlyanlar qo'zg'olonini bostirdi, soliqlar yig'ishni tartibga keltirdi. Tashqi siyosatda urushni emas, balki diplomatiyani qo'lladi. 957 yilda Konstantinopolga kelib, imperator Konstantin bilan uchrashadi va Sofiya cherkovida cho'qintiriladi.

960 yilda Olganing balog'atga yetgan o'g'li Svyatoslav Kiyevda hokimiyatni qo'lga oladi. U davlatni kengaytirdi va mustahkamladi. 968 yilda rus yerlariga doimo tahdid solib, savdoga to'sqinlik qilayotgan Xazar hoqonligini qattiq mag'lubiyatga uchratadi. Keyin knyaz Vizantiya va Bolgariya o'rtasidagi urushga qo'shiladi. Dorostol yaqinida bolgar armiyasini mag'lub etib, Dunaydagi Pereyaslavesda yaxshilab o'rnatilib oladi. 969 yilda Svyatoslav kelishuvni buzgan Vizantiyaning yangi imperatori Ioann Simisxiy bilan ham urushdi. Bir necha oy davomida ruslar va vizantiyaliklar Dorostol devorlari oldida jang qildilar. Lekin har ikki tomonning kuchi yetmay tinchlik bitimini imzoladilar. Uyga qaytayotganda, Dnepr bo'yida, Kureyxon boshchiligidagi bijanaklarning hujumiga duch keldi. Svyatoslav jangda o'ldirildi, xon uning bosh suyagidan o'ziga kosa yasatib oldi.

Svyatoslavdan keyin uning o'g'illari o'rtasida hokimiyat uchun shiddatli kurash boshlandi. Oleg va Vladimir o'zlarining katta akasi Yaropolkni Buyuk knyaz sifatida tan olishni istamadilar. Oldindan zarba berish maqsadida Yaropolk birinchi bo'lib qo'shin bilan Oleg yerlariga bordi. Jang paytida Oleg ko'prikdan xandaqqa tushib, fojiali tarzda o'ladi. Vladimir esa, Skandinaviyaga qochib ketadi va u yerda varyaglardan qo'shin yig'ib, yana Rusga qaytadi. Og'a-inilar o'rtasidagi qisqa muddatli urushda Yaropolk o'ldiriladi va 978 yil 11 iyunda Vladimir Kiyevda knyazlik taxtiga chiqadi.

Vladimir Svyatoslavovich o'z hukmronligi davrida rus yerlarini kuchaytirishga intildi. U amakisi Dobrinyani Novgorodni boshqarish uchun yubordi va 12 nafar o'g'illarini barcha asosiy shaharlarga noib qilib qo'ydi.



Ayni shu vaqtda Vizantiya imperatori Vasiliy II Vladimirga murojaat qilib, fitnachi Varda Fokiga qarshi kurashda yordam so'raydi. Vladimir yordam evaziga uning singlisi Annaning qo'lini talab qildi. Lol qolgan imperator butparast knyazga cho'qinish sharti bilan singlisini berishga rozi bo'ldi. Natijada, 6000 kishilik rus askari Konstantinopolga yetib keldi, isyonchilar mag'lub etildi, ammo knyaz va'da qilingan kelinni ololmadi. Shundan keyin Vladimir Qrimga yurish qilib, Vizantiyaga qarashli Korsun shahrini egallab oldi. Bu esa imperatorni shoshilinch ravishda malikani yuborishga majbur qildi. Korsunda Vladimir

xristianlikni qabul qilib, Annaga uylanadi. Kiyevga qaytgach, 988 yilda kiyevliklarni va ulardan keyin butun ruslarni xristianlikka o'tkazadi.

1015 yilda Vladimirning o'limidan so'ng hokimiyat uchun kurash boshlandi. Svyatopolk o'z og'a-inilari bo'lmish Boris, Gleb, Svyatoslavlarni o'ldirdi. Svyatopolkka qarshi ukasi Yaroslav kurash olib bordi va Kiyevni egallab, o'zining hukmronligini o'rnatdi.

Knyaz Yaroslav (1019—1054) rus yerlarini birlashtirishda davom etdi. 1036 yilda bijanaklar Kiyevni qamal qilganlarida, Yaroslav ularni tormor keltirdi va rus xalqini bu xavfdan butunlay xalos etdi.

Yaroslav shaharsozlik bilan ham shug'ullangan, monastirlar va cherkovlar qurgan. Uning davrida Kiyevda ulug'vor Avliyo Sofya ibodatxonasi qurildi. Uni bezash uchun Konstantinopolning eng yaxshi rassomlari taklif qilindi. Soborda kutubxonasi bo'lgan maktab ochildi, u yerda knyazning tashabbusi bilan grek va boshqa kitoblarni slavyan tiliga o'girish boshlandi.

Rusda ijtimoiy munosabatlar. X asrda qadimgi Rusda feodal munosabatlar, ya'ni feodallarning yerga egaligi paydo bo'ldi. Feodal yer egalariga knyaz, boyarlar va ruhoniylar kirardi. Knyaz eng yirik yer egasi bo'lib, uning mulki jamoa yerlari va bo'sh yerlarni egallab olish orqali kengayib bordi. Urug' ichidan o'sib chiqqan savdogarlar, jamoa a'zolari, boy hunarmandlar asta-sekinlik boyarlarga, ya'ni rus feodal jamiyatining yuqori tabaqasiga aylanib borganlar. Knyaz drujinachilari ham boyarlarga aylandilar. Ular xizmat uchun yer olib, tobora boyib borardilar.



Donishmand Yaroslav

Feodallarning hayoti, sog'ligi, mulki qattiq himoya qilinardi. Aholining asosiy qismini **smerdlar** (feodallar tomonidan asoratga solingan qishloq aholisi) tashkil etardi. **Zakuplar** ham bo'lib, ular feodallardan pul summasi yoki natural yordam olib, buning evaziga ularga ishlab berishi lozim edi. Zakupni urish, xoloplikka sotish mumkin bo'lmagan, uning sudga shikoyat qilish huquqi mavjud edi. Zakupning mulki ham daxlsiz hisoblanar edi. Lekin zakup qochib ketsa, u holda uni xolopga aylantirishgan.

Qadimgi Rus davlatida qullar ham bo'lgan. Ular **xoloplar**, **chelyadinlar** deb atalgan. Kiyev Rusida qulning mehnati uy bilan bog'liq edi. Dehqonlar qarzini o'z vaqtida to'lay olmasa, ruxsatsiz uylansa, xo'jayinini haqorat qilsa xolopga aylanishi mumkin edi. Qullar umuman huquqsiz bo'lib, ular uchun xo'jayini javob berardi.

Davlat boshqaruvi. Kiyev Rusi qat'iy markazlashgan davlat emas edi. U boshqarish shakliga ko'ra ilk feodal monarxiyasi bo'lib, u syuzerenitet — vassalitet prinsipiga asoslanardi. Kiyev hukmdori buyuk knyaz hisoblanib, joylardagi knyazlar unga vassal hisoblanardi. Buyuk knyaz sud, harbiy va qonun chiqarish hokimiyatiga ega edi. Tashqi aloqalar ham uning tomonidan olib borilgan. Taxt katta o'g'ilga meros bo'lib o'tgan.

Kiyev knyazi va mahalliy knyazlar o'rtasida krest (xoch, but) ni o'pib, qasam ichish orqali shartnomalar tuzilgan. Knyazlararo bitimlarni buzganlik uchun vassallar yeridan mahrum qilinardi.

Buyuk knyaz Boyarlar kengashiga tayanib ish olib borgan. Boyarlar kengashi maslahatchi organ sanalgan. U knyaz tomonidan vaqti-vaqti bilan chaqirilgan. Kengash yirik boyarlar, oliy ruhoniylar — mitropolitlar, yepiskoplar va boshqalardan iborat tarkibda edi. Kengashda urush, sulh, boshqa davlatlar bilan ittifoq tuzish masalalari hal qilingan. U qonunlarni muhokama qilar, ba'zi sud funksiyalarini ham amalga oshirar, harbiy, ma'muriy, moliyaviy va boshqa masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etardi. Knyaz yo'qligida yoki o'limidan keyin Kengash asosiy hokimiyat organi bo'lib qolardi. Shunga qaramay, kengash doimiy organ bo'lmagan, vakolatlari ham aniq o'rnatilmagan.

Buyuk knyaz zarur hollarda **veche** — shahar aholisining yig'ilishini ham o'tkazardi. Vecheda asosan erkaklar qatnashardi. Xoloplar va oila boshlig'iga bo'ysunuvchilar qatnasha olmasdi. Veche knyazni saylash, tasdiqlash yoki ishdan olish, urush va tinchlik, yuqori mansabdor shaxslarni tayinlash masalalarini hal qilgan. Unda qarorlar baqirishlar yo'li bilan qabul qilingan. Keyinchalik feodalizm rivojlanishi bilan veche o'z ahamiyatini yo'qotgan.

Joylarda boshqaruv juda sodda tashkil etilgan. O'lkalarda mahalliy knyazlardan tashqari, noiblar («наместник») va volost boshqaruvchilari ham mavjud edi. Ular o'z xizmatlari evaziga aholidan yegulik («корм») olardilar. Shu tariqa, boquvchilik («кормления») tizimi vujudga keldi.

Qo'shin asosini buyuk knyaz drujinasi tashkil etgan. Drujinniklar professional jangchilar bo'lib, ayni vaqtda knyazning maslahatchilari ham edi. Yollanma jangchilardan ham foydalanilgan.

«**Rus haqiqati**». Kiyev Rusi tashkil topganidan keyin uzoq vaqt davomida knyazlar ichki va tashqi dushmanlar bilan doimiy kurash olib bordilar. Bunday sharoitda davlatda qonunchilik faoliyati bilan shug'ullanishga imkon bo'lmas edi. Faqat knyaz Yaroslav hukmronligi davrida mamlakatga uzoq kutilgan tinchlik keldi va «Yaroslav haqiqati» yoki «Donishmand Yaroslavning Rus haqiqati» deb nomlangan birinchi yozma qonunlar to'plami paydo bo'ldi. Ushbu qonunchilik to'plamida Yaroslav o'sha paytda Kiyev Rusida mavjud bo'lgan qonunlar va urf-odatlarini tizimga solishga harakat qildi. Hammasi bo'lib Yaroslavning haqiqati 35 bobdan iborat bo'lib, ular fuqarolik va jinoiy qonunlarga ajratilgan.

«Rus haqiqati»ning birinchi bobida qotilliklarga qarshi kurash choralari ko'rsatilgan. Qonunda ko'rsatilishicha, har qanday qotillik uchun jazoga tortilish muqarrar edi. O'lganning qarindoshlari qotilni o'zlari o'ldirishga haqli bo'lishgan. Agar qotildan o'ch oladigan hech kim bo'lmasa, undan davlat foydasiga **vira** deb atalgan jarima undirilgan. Yaroslavning «Rus haqiqati» viralarning to'liq ro'yxatini o'z ichiga olgan va uni qotil o'ldirilganlarning jinsi hamda tabaqasiga qarab davlat xazinasiga to'lashi kerak edi. Chunonchi, boyarning o'limi uchun 80 grivna to'lashi lozim bo'lgan. Jangchi, dehqon, savdogar yoki saroy a'zosini o'ldirganlik uchun 40 grivnalik vira talab qilingan. Hunarmand uchun—12 grivna, smerd yoki xolopga 5 grivna, cho'riga 6 grivna, erkin ayolni o'ldirganlik uchun 20 grivna jarima undirilgan.

Bunday jarimalar bilan ular urushlar tufayli unchalik ko'p bo'lmagan Kiyev Rusi aholisining hayotini saqlab qolishga harakat qilishgan.

Ta'kidlash kerakki, o'sha davrda odamlarning puli juda oz bo'lib, talab qilingan virani to'lashga kamdam-kam kishining qurbi yetar edi. Shu bois, mamlakatdagi qotilliklar to'loqini to'xtatish uchun shunday oddiy choraning o'zi ham yetarli bo'ldi.

Yaroslav tomonidan qabul qilingan qonunlarning talabi qattiq edi. Ayni paytda bu mamlakatda tartibni tiklashning birdan-bir yo'li edi. Tortishuv yoki mastlikda sodir etilgan va qotil yashiringan holatda — virani butun qishloq ahli to'lagan. Agar qotil qo'lga olingan bo'lsa, viraning yarmini qishloq aholisi, qolgan yarmini esa qotilning o'zi to'lagan. Bu chora odamlar janjal paytida qotilliklarga yo'l qo'ymasliklari, har bir kishi boshqalarning harakatlari uchun javobgarlikni his qilishlari uchun juda muhim edi.

Sud jarayonida jinoyat va fuqarolik ishlari bir-biridan ajratilmagan. Ikkalasi bo'yicha ham yagona sud jarayoni mavjud edi. Rus haqiqati bo'yicha sud jarayoni tortishuvdan iborat edi. Ikkala tomon ham da'vogar hisoblangan va deyarli bir xil huquqlarga ega bo'lgan. Sudda ular o'z qarindoshlari va qo'shnilar o'rtasida so'zga chiqqanlar. Qarindosh va qo'shnilar sudda ularning yordamchilari sifatida qatnashishgan.

Yaroslavning mana shunday qonunchilik faoliyati va davlatni idora qilishdagi mahorati uchun unga Donishmand unvoni berilgan. Uning islohotlari jamiyatda tartib o'rnatib, mamlakat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan.

Savol va topshiriqlar

1. Sharqiy slavyanlar qanday shaharlarga asos soldilar?
2. Ryurukning Rus tarixidagi o'rnini ko'rsatib bering?
3. Olegning knyazligiga baho bering.
4. Rus nima sababdan xristianlikni qabul qildi?
5. Yaroslavning islohotchilik ishlari haqida gapirib bering.

9-§. Ilk o'rta asrlarda sosoniylar Eroni

Sosoniylar davlatining tashkil topishi. Eronning katta qismi dasht va yassi tog'liklardan iborat bo'lib, yaylovlar ko'p edi. Eron shahar va qishloqlarini bir-biri bilan bog'lovchi karvon yo'llari sertarmoq bo'lgan. Ularda doimo savdo karvonlari qatnab turgan. Eron savdogarlari va shohlari Misr, Suriya, Kichik Osiyo, Kavkaz, Turon va Hindiston bilan qizg'in savdo ishlarini olib borganlar.

II asr oxiri — III asr boshlariga kelib o'zaro ichki urushlar Parfiya davlatining kuchsizlanib qolishiga sabab bo'ldi. Bundan Eronning janubi-g'arbida joylashgan pars qabilalari foydalanib, Staxr shahrida hokimiyatni qo'lga kiritdilar. Parslarga soson urug'idan bo'lgan Bobak yetakchilik qildi. Bobak o'limidan so'ng Pars viloyati taxtiga uning o'g'li Ardasher I (224—239) o'tirdi. 224 yilda bo'lib o'tgan jangda u Parfiya shohi Artabon V qo'shinlarini yengib, uning mulkini o'ziga qo'shib oladi.

226 yilda Ardasher I poytaxtni Staxr shahridan Dajla daryosi bo'yidagi Ktesifonga ko'chirdi. Ktesifonda Ardasher I taxtga chiqish marosimini o'tkazgach, Sosoniylar davlatining chegaralarini kengaytirishga harakat qildi. 230 yilda u o'z qo'shinlari bilan Suriya va Kichik Osiyoga bostirib kirdi. Bu yerlar Rim imperiyasiga tegishli edi. 232 yili Rim imperatori Aleksandr Sever katta qo'shin bilan Shimoliy Mesopotamiyaga kelib tushdi. Ardasher I qo'shinlari Rim legionlari bilan uzoq vaqt mobaynida qonli urushlar olib bordi.

Ardasher I o'lganidan keyin taxtga Shopur I (243—273) chiqdi. Shu vaqtdan boshlab taxtga chiqqan sosoniylar «shahanshoh» unvoniga ega bo'ldilar. Sosoniylar davlati esa Eronshahr — oriylar podsholigi yoki eroniylar shohligi deb ataladi. Shopur I davrida Eron qo'shinlari rimliklar bilan janglar olib borib, ularni bir necha bor mag'lubiyatga uchratdi. Bu urushlarning birida Rim imperatori Gordian halok bo'lib, juda ko'p rimliklar qo'lga tushdi. Ular Eron shohiga 500 ming dinor aqcha to'lashga majbur bo'ldilar.

244—251 yillar orasida bo'lib o'tgan urushlar natijasida sosoniy qo'shinlari Janubiy Armaniston va Ossuriyani bosib olganlar. Shopur I Suriyada Rim qo'shinlari bilan to'qnashib, ularni tor-mor etadi. Shimoliy Mesopotamiyaning Xarran va Edessa shaharlari yonida bo'lgan jangda ham sosoniy qo'shinlari rimliklar ustidan g'alaba qozonadilar. Bu jangda Rim imperatori Valerian, ko'pgina senatorlar va aristokratlar qo'lga tushadi. Rim bilan olib borilgan urushlar natijasida Shopur I qo'shinlari

Suriya va Frot daryosining yuqori oqimidagi 36 ta qo'rg'on va shaharni ishg'ol qiladi. Rim imperiyasi hech qachon bunday katta mag'lubiyatni ko'rmagan edi.



Flaviy Klavdiy Yulian


III asrning 60 yillarida sosoniy qo'shinlari rimliklar bilan yana to'qnashdilar. 263 yilda Rim imperatori — Flaviy Klavdiy Yulian 83 minglik qo'shin bilan Eron poytaxti Ktesifonga qarab yuradi. Ammo mag'lubiyatga uchrab, jangda halok bo'ladi.

Shopur I Sharqda Kushonlar podsholigi bilan ham shiddatli janglar olib borib, uni mag'lubiyatga uchratadi. Kushon podsholigi tugatilib, u yerda Eronga qaram Kushonshahr davlatini barpo etadi. Uni Eron shahzodalari boshqarganlar. Shopur I ning Naqshi

Rustamdagi Kaabaye Zardushtda yozdirgan g'alaba bitigida Kushonshahrdan to Peshovargacha, Turon, Kesh, So'g'd va Shoshiston o'lkalari bosib olinganligi qayd etiladi. Shunday qilib, III asrning ikkinchi yarmi va IV asrda sosoniylar Eroni Sharqdagi eng qudratli davlatga aylanadi.

Sosoniylarning Sharqiy yerlar uchun kurashi. IV asr o'rtalaridan Eron uchun sharqiy chegarani ushlab turish bosh masala bo'lib qoldi. O'sha paytda ularning barcha kuchlari g'arbiy chegaralardagi og'ir urushdan toliqqan edi. 356 yilda sosoniylar shohi Shopur II o'z davlatining sharqiy chegaralariga keladi. Bu yerda u xioniylar va kushonlarga qarshi urush olib borgan. Shundan so'ng Shopur II rimliklarga qarshi kurashish uchun urushni to'xtatib, xioniylar bilan harbiy ittifoq tuzadi. Mazkur ittifoqqa muvofiq, 359 yilda xioniylar Shopur II qo'shini tarkibida Mesopotamiyaga bostirib kiradilar. Suriyaning Amida shahrini qamal qilishganda Grumbat muzokara olib borish uchun shahar devoriga keladi. Shu vaqt qal'a ortidan turgan mergan uning yosh va go'zal o'g'lini halok qiladi. Shu voqeadan keyin ular o'rtasidagi ittifoq buziladi.

V asr boshlarida kushon yerlarini ko'chmanchi kidariylar bosib oladi. Xuddi shu davrda, ushbu hududlarda eftallarning ko'chmanchi davlati paydo bo'ladi. Sosoniylar faqat Marv, Hirot va boshqa ayrim shaharlarni ushlab qololdilar, xolos. 449—450 yillarda bo'lib o'tgan urushda Yazdigard II kidariylarni yengib, Janubiy Baqtriyaning egallaydi. Biroq,



**Xisrov I mazdakiylar bilan
kurashmoqda. O'rta asrlar
miniatyurasi**

457—459 yillarda eftallar Perozga taxt uchun bo'lgan kurashda bergan yordamlari evaziga Sharqiy Toxaristonni (Baqtriyani) va Balx shahrini olishadi.

V asrning 70 yillarida Peroz eftallarga qarshi kurashda mag'lubiyatga uchradi. So'nggi yurishda (484 yil) Peroz o'ldiriladi. G'oliblar shohning haramini, xazina bilan birga karvonni va ko'plab tutqunlarni qo'lga kiritdilar. Sosoniylar Eroni VI asrning 60 yillarigacha eftaliylarga og'ir soliqlar to'lashga majbur bo'lganlar. Biroq, Rim imperiyasidan farqli o'laroq, Eron davlati ko'chmanchi qabilalarning bosimi ostida qulab tushmadi.

Mazdakiylar harakati. Perozning o'limidan so'ng uning o'g'li Qubod eftallarning qo'lga garovga olinadi. Perozning vorisi zodagonlar tomonidan

ko'r qilinib, taxtdan ag'darilganida, Qubod taxtga chiqariladi. U eftaliy otryadlari bilan birga yetib keldi. Aqlli va nozik siyosatchi Qubod kuchli oqsuyaklar qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib qolish xavfini yaqqol anglab yetdi. Ularni kuchsizlantirish uchun, bir tomondan, saroy fitnalarini uyushtirsa, ikkinchi tomondan, zardushtiylik ruhoniysi Mazdakning demagogik shiorlaridan foydalanmoqchi bo'lib, uning ta'limotini targ'ib qila boshlaydi.

Mazdak chorlagan din, albatta, zardushtiylik edi. Faqat Mazdak «yorug'lik saltanati»ning yakuniy g'alabasi uchun dindorlarni faol harakatga chaqirdi. Uning ta'limotiga ko'ra, chinakam «kuch va aql» saltanati umumbashariy tenglik, hayot ne'matlarini teng taqsimlash asosida qurilishi va yaqin kelajakda kelishi kerak edi. Ko'rinib turibdiki, Mazdakning o'zini birinchi o'rinda e'tiqod masalalari, zardushtiy ruhoniylarining podsho atrofida bo'lishi, markaziy hokimiyatning xususiyati qiziqtirgan. Ammo tashqi siyosatdagi mag'lubiyatlar, ocharchilik, hosilsizlik yangi diniy ta'limotni dehqonlar va shahar kambag'allari uchun g'oyaviy bayroqqa aylantirdi.

Mazdakni o'zining eng yaqin maslahatchisi qilib, unga bosh kohinlik unvonini berish orqali Qubod saroy amaldorlari va ruhoniylarning qarshiligini yengmoqchi bo'ldi. Uning bu ishlari o'sha davrda o'z yurtlarida deyarli mustaqil hukmdorga aylangan qudratli feodallar mavqeini kuchsizlantirish, saroy xizmatchilarining qo'llab-quvvatlanishiga qaratilgan vaqtinchalik siyosiy harakat edi. Ammo tez orada harakat nazoratdan chiqib ketdi. Boylar va kambag'allar o'rtasidagi mulkiy tenglik to'g'risidagi shior juda mashhur bo'lib, hukmron tabaqani qattiq qo'rqitib qo'ydi.

499 yilda shohlik kengashi Qubodni taxtdan chetlatib, qamoqqa oldi. Taxtga uning ukasi Zamasp chiqarildi. Biroq Qubod qamoqdan qochib, eftaliy podshosining yordamida yana Eron taxtini qaytarib oldi. Ammo yangi sharoitda u mazdakiylarni qo'llab-quvvatlay olmadi. Qubod tomonidan e'lon qilingan keng ko'lamli soliq islohotlari (ularni uning o'g'li Xisrov I amalga oshirgan) mayda yer egalarini ashaddiy mazdakiylardan ajratib qo'yadi. O'tgan o'n yilliklarda kichik yer egalari ham qo'shinda, ham boshqaruvda muhim o'rinlarni egalladi va markaziy hukumatning kuchli tayanchiga aylanadi. Qubod mazdakiylardan chiqib ketdi. 528 yilda zardushtiy ruhoniylari bilan munozaradan so'ng, Mazdak «chin e'tiqoddan qaytgan» degan ayb bilan o'ldirildi.

Mazdakiylar harakatining bostirilishi bilan Eronning feodallashuv jarayoni tugallandi. Mamlakatda kuchli markazlashgan shoh hokimiyati yuzaga keldi. Kichik yer egalarining himoya qilinishi yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

So'nggi sosoniylar. VI asr ikkinchi yarmi davlatning misli ko'rilmagan gullab-yashnagan davri bo'ldi. Qubod o'g'li Xisrov I (531—579) harbiy va soliq tizimini tartibga solish uchun qat'iy choralar ko'rdi. Turk hoqonligi bilan birga eftallarni tor-mor keltirdi. Yengilgan eftallarning yerlari ittifoqchilar o'rtasida bo'lib olindi. Amudaryodan janubdagi yerlar Eronga, undan shimoldagi yerlar esa Turk hoqonligiga o'tdi.

570 yilda forslar Arabiston yarim orolidagi Yamanni bosib oldilar va Qizil dengizdagi savdo yo'llari ustidan o'z nazoratlarini o'rnatdilar. Bu yurish natijasida Vizantiyaning Sharq mamlakatlari bilan bo'ladigan savdosiga katta talofat yetkazilgan. Savdo yo'llarini ochish uchun Vizantiya va Turk hoqonligi sosoniylar bilan tez-tez to'qnashib turganlar. Qo'shni davlatlarga qarshi olib borilgan tinimsiz urushlar sosoniylar davlatini kuchsizlantirib qo'ygan.



Xisrov I Anushirvon davridagi Sosoniylar davlati xaritasi

VII asrning 30—40 yillarida Arab xalifaligining harbiy yurishlari natijasida sosoniylar sulolasi uchun halokatli bo‘ldi. 643 yilda so‘nggi sosoniy Yazdigard III arab qo‘shinlaridan mag‘lubiyatga uchrab, Raydan Isfahonga, undan Kirmonga qochib ketadi. Arablar Hirot, Marv, Nishopur, Saraxs va Balx shaharlarini egallaydilar. Mag‘lubiyatga uchragan Yazdigard III Turk hoqoni, So‘g‘d podshosi va Xitoydan yordam so‘raydi.

Tez orada turk hoqoni katta qo‘shin to‘plab, Yazdigard bilan birga arablarga qarshi yurishga chiqadi. Birga daryodan o‘tib Balxni egallashadi. Ittifoqchi qo‘shinlar Marvgga yetib kelib, arablar bilan uzoq muddatli janglar olib bordilar. Oxir-oqibat bu urush arablarning g‘alabasi bilan tugaydi. Yazdigard III ichki nizolar tufayli o‘ldiriladi. Shu bilan sosoniylar hukmronligi tugaydi.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun Parfiya davlati inqirozga uchradi?
2. Sosoniylar davlatining tashqi siyosatini gapirib bering.
3. Mazdakiylar harakatining mohiyati nimalardan iborat edi?
4. So‘nggi sosoniylar to‘g‘risida nimalarni bilib oldingiz?

10-§. Arab xalifaligi

Islomdan oldin Arabistonda ijtimoiy-siyosiy holat. Arab xalifaligi vujudga kelguniga qadar Arabiston yarim oroli Yaman, Hijoz va Najd viloyatlaridan iborat bo'lgan. Arabistonning janubiy-g'arbiy qismi joylashgan Yamanda dehqonchilik, chorvachilik taraqqiy etgan, aholisi qo'shni mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini yuritardi. Yarim orolning Qizil dengiz bo'ylab cho'zilib ketgan qismi Hijoz («chegara») deb atalib, uning ayrim vohalaridagina dehqonchilik qilish mumkin edi. Hijoz aholisining bir qismi ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanardi. Bu yerda, shuningdek, Yamandan keltiriladigan qishloq xo'jalik mahsulotlari, Eron va Vizantiyada ishlab chiqariladigan hunarmandchilik buyumlari bilan savdo qilinardi.

Yamandan Misr, Suriya va Ikki daryo oralig'iga qadar savdo yo'llari o'tgan edi. Yarim orolning eng katta qismi Najd bo'lib, g'oyat katta yassi tog'liklardan iborat bir joy edi. Bu yerda cho'l aholisi - badaviylar yashagan.

VI—VII asrlardagi arablarning ijtimoiy tuzumida hali urug'chilik belgilari kuchli edi. Arablarda qonli o'ch olish odati bor edi. Urug'ning boyroq a'zolari kuchsiz qarindoshlariga iqtisodiy jihatdan yordam berishi lozim bo'lgan. Har bir qabilaning o'z diniy marosimi bo'lgan. Qabila va urug'larning boshida shayx va saidlar turib, hokimiyat faqat shularning qo'lida edi. Biroq urug'chilik tuzumi yemirilib borayotgan edi. Urug'-qabila boylari eng yaxshi yaylovlarni va dehqonchilik uchun yaroqli vohalarni o'z qo'llariga kirgizib olmoqda edilar. Boy oilalarning ko'pdan-ko'p mollari, shuningdek, qullari bor edi. Shayx va saidlar shu oilalardan chiqardi. Urushda qo'lga kiritilgan o'ljalarning eng ko'p qismi ularga ajratilardi. Arablarda urug'-qabila boylaridan tashqari, yana shaharlik savdogar-sudxo'rlardan iborat boshqa bir yuqori tabaqa ham kuchayib bordi. Bu tabaqa muayyan bir qabila va urug'ga kirgan bo'lib, badaviy qabilalari boshliqlari bilan qattiq bog'langandi.

O'rta dengizdan Hindistonga boradigan muhim savdo yo'li qadimdan Arabistondan o'tardi. Shu savdo yo'lida ilk vaqtlardayoq katta-katta savdo punktlari — Makka, Yasrib va boshqalar vujudga keldi. Makka shahri ayniqsa katta ahamiyatga ega edi. Arablar o'rtasida juda dong'i ketgan ibodatxona bo'lmish Ka'ba va undagi muqaddas qoratosh (hajari asvad) Makkada edi. Makkaning savdogar-sudxo'rlardan iborat yuqori tabaqasi tashqi savdodan katta foyda ko'rardi. Shahardagi mayda hunarmandlar shu

savdogarlardan hamma vaqt qarzdor bo'lib, iqtisodiy jihatdan ularga qaram edi.

VI asr oxiri — VII asr boshlarida arablar iqtisodiy va ijtimoiy inqirozga uchradi. Yarim orolning aholisi ko'payib, yer yetishmay qoldi. Oddiy arablar uchun katta madad bo'lib kelgan karvon savdosi ham tushkunlikka uchradi. VI asrda forslar bilan habashlar o'rtasidagi uzoq davom etgan urushlar Yamanni deyarli xonavayron qildi.

Islom dinining vujudga kelishi. Islom jahon dinlari ichida eng yoshi hisoblanadi. «Islom» — (arabcha — «bo'ysunish», «itoat etish») Allohga til bilan imon keltirib, dil bilan tasdiqlash, uning ko'rsatmalariga bo'ysunishni anglatadi.

Misrlik astronom Mahmud poshoning ta'kidlashicha, Muhammad (s.a.v.) tug'ilgan kuni milodiy 571 yil 21 aprelga to'g'ri keladi. Otasi Abdulloh o'z o'g'li Muhammad tug'ilmasidan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib Yasribda (hozirgi Madina shahrida) vafot etgan. Onasi Omina bint Vahb bo'lib, Banu Zuhra urug'idan edi.

Arablarda bola sog'lom va ziyrak bo'lib o'sishi uchun sahroyi ayollardan sut-ona topib emizish odati bor edi. Ana shu odatga ko'ra, Muhammad(s.a.v.)ga Bakriy qabilasidan bo'lgan Halima ismli ayol sut-ona bo'ldi. Rasulullohni to'rt yildan ortiq vaqt ichida emizgan Halimaning oilasiga baraka yog'ilib turgan edi.

Besh yoshida onasi vafot etadi. Shundan so'ng Muhammadni sakkiz yoshgacha bobosi Abdulmuttalib o'z qo'lida tarbiyaladi. Uning o'limidan keyin amakisi Abu Tolib Muhammadni o'z qaramog'iga oldi. Muhammad amakisi yonida turib savdo ishlari bilan shug'ullandi. 25 yoshda o'sha davrning boy ayoli Hadicha bilan oila quradi va bu nikohdan 6 nafar bola — ikki o'g'il va to'rt qiz ko'rganlar.

Muhammad 40 yoshga borganida unga ilk vahiy kela boshladi. Ana shu davrdan Muhammad Ollohning rasuliga — elchisiga aylandi. Bu faoliyat 23 yil davom etdi. Uning bir qismi Makkada (610—622), ikkinchi qismi Madinada (622—632) o'tgan.

Kelgan vahiylar Muhammad (s.a.v) ni insonlarni johiliyadan qutqarish va Olloh ko'rsatgan to'g'ri yo'lga chaqirishga da'vat etadi.

Muhammad (s.a.v.) makkaliklarni but va sanamlarga sig'inishdan qaytarish va yolg'iz Olloh e'tiqodiga olib kirish uchun harakat qildi. Makkalik mushriklar 12 yil davomida yangi dinga tish-tirnoqlari bilan qarshi chiqdilar. Natijada u zot o'zga yerlardan tarafdorlar izlashga majbur bo'ldi. Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga ko'chdilar. Makkalik qurayshiylar bilan raqobatlashib kelayotgan Yasrib

(Madina)dagi Avs va Hazraj qabilalarining vakillari musulmon jamoasini o'ziga qabul qilish, Muhammad (s.a.v.) ni umumiy yetakchi sifatida tan olishga rozi bo'ldilar. Shu tariqa, 622 yil 16 iyulda musulmonlar jamoasi Makkadan Madinaga ko'chadi. Buni tarixda «hijrat» — ko'chish deb yuritiladi. Musulmon Hijriy yil sanog'i shu kundan boshlanishi rasmiy tan olingan. Ko'chib kelgan kishilar muhojirlar (ko'chib kelganlar), Madinada islomni qabul qilganlar ansorlar (tarafdorlar) deb ataldilar. Bu yerda qisqa vaqt ichida tarqoq arab qabilalari muhojirlar bilan birlashib bir jamoa — ummani tashkil etdi. Musulmonlar jamoasi qisqa vaqt ichida kichik, lekin kuchli davlatga aylandi. Madina atrofidagi barcha arab urug'lari musulmonlarga bo'ysundirildi.

Ayni vaqtda Madina va Makka o'rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etdi hamda Badr, Uhud, Handoq kabi janglar bo'lib o'tdi. Nihoyat, Makka qurayshiylari 628 yilda musulmonlar bilan kelishishga majbur bo'ldilar. Lekin bu bitim mushriklarning aybi bilan buzildi. 630 yilda musulmonlar qo'shini hech qanday qarshiliksiz Makkaga kirib keldi. Makka aholisi yoppasiga Islomni qabul qildi. Ana shundan boshlab Makka Islom dini markaziga, Ka'ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan.

Bu davrga kelib Arabiston yarim oroli to'la birlashtirilgan, uning aksariyat aholisi Islom dinini qabul qilgan edi. Arabistonning siyosiy, iqtisodiy, etnik va madaniy jihatlardan birlashishida Islom dini muhim omil bo'lib xizmat qildi va kelajakda vujudga kelgan musulmon olamining mafkurasiga aylandi.

Islom dinining besh asosiy rukni bor: 1. Imon, ya'ni shahodat (arabcha—guvohlik berish); 2. Namoz o'qish; 3. Zakot (arabcha — poklash, o'sish, ortib borish); 4. Ro'za tutish; 5. Haj — qodir bo'lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka'bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o'z ichiga oladigan arkonlarni ado etish.

Arab xalifaligi. Muhammad Rasululloh 632 yil 8 iyunda kasallanib vafot etgach, musulmonlar davlatini uning yordamchilari — xalifalar boshqarganlar. Shu munosabat bilan bu davlat tarixda «Arab xalifaligi» nomini olgan.

Birinchi xalifa Abu Bakr pay'gambar (s.a.v.) ning safdoshlaridan, uning qaynotasi (Oyshaning otasi) bo'lib, yirik savdogar edi. Uning davrida sosoniylar (633 yil) va vizantiyaliklarga qarshi (Falastin yerlariga, 634 yil) qo'shinlar yuborilgan, Arabistonda islom dini mustahkamlangan. U o'zi hukmronlik qilgan ikki yil ichida ridda nomli arab qabilasining kuchli va xavfli qo'zg'oloniga duch kelgan. O'limi oldidan kengash

chaqirib yaqin safdoshi Umarni vasiyat yo‘li bilan o‘ziga voris etib tayinlagan (634 yil).

Umar xalifaligi davrida Suriya, Falastin, Misr, Iroq va Eronning katta qismi bosib olingan va Arab xalifaligiga qo‘shilgan. U davlat apparatini ancha mustahkamlagan, soliq tizimini tartibga solgan, davlat xizmatchilari va harbiy boshliqlar oyligini aniq belgilagan. Aynan shu davrda yangi musulmon yil hisobi – hijriy kalendari joriy etiladi. Islom an‘anasida Umar hukmronligi davri islomning «oltin asri» deb hisoblanadi.

644 yilda xalifa Umarga xristian qullardan biri suiqasd qiladi. O‘limi oldidan atrofidagi 6 kishidan iborat kengashga (shuuraga) o‘z oralaridan voris saylashni topshiradi. Kengash Madina aholisi fikrini o‘rganib chiqadi va Usmonni uchinchi xalifa sifatida tasdiqlaydi.

Xalifa Usmon quraysh qabilasining ummaviylar urug‘idan kelib chiqqan edi. Uning davrida xalifalik hududi ancha kengaydi. Usmonning buyrug‘i bilan Qur‘on matnlari to‘plandi. U makkaliklar, ayniqsa ummaviylarga homiylik qiladi, qarindosh va yaqinlariga davlat mansablarini, katta-katta yerlarni, xazina mablag‘larini bo‘lib beradi. Natijada norozilik kelib chiqadi va 656 yilda o‘ldiriladi.

Shundan so‘ng, Madinadagi masjidda musulmonlarning ulkan jamoasi – ummada Muhammad payg‘ambarning jiyani va kuyovi Ali xalifa etib saylanadi. Lekin ummaviylar uning hokimiyatiga bo‘ysunmadilar. Ular eski arab qabilalari qonunlariga binoan, Usmonning o‘limi uchun qonli o‘ch olishni talab qildilar. Bu harakat tez orada Aliga qarshi muxolifatning asosiy shiori bo‘lib qoladi, unga Suriyaning ummaviy noibi Muoviya boshchilik qiladi. U yangi xalifani tan olish va unga bo‘ysunishdan voz kechadi hamda 658 yilda Damashqda o‘zini xalifa deb e‘lon qiladi. Ali taxt uchun kurashda g‘alaba qozonolmay, ummaviylar bilan kelishishga rozi bo‘ladi. Ali davlat poytaxtini Madinadan Iroqning Kufa shahriga ko‘chiradi. Alining murosa siyosatidan norozi bo‘lgan kishilar (xorijiylar) suiqasd uyushtirib, 661 yilda uni o‘ldiradilar. Shu bilan «to‘rt xalifa» davri tugaydi.

Ali vafotidan keyin hokimiyat ummaviylar sulolasi qo‘liga o‘tadi (661—750). Sulola vakili bo‘lmish Muoviya arab oqsuyaklari va harbiy boshliqlar yordamida yagona hukmron bo‘lib qoladi. 661-685 yillarda ummaviylar Ali tarafdorlari va xorijiylar ustidan g‘alaba qozonib, hokimiyatni mustahkamlab oladilar. Ummaviylar qator islohotlar o‘tkazadilar. Ular xalifa lavozimini nasliy mulkka aylantirish, davlat xazinasini va davlat arxivini tashkil etish, arab tilini davlat tili deb e‘lon qilish, yangi oltin, kumush va mis pul chiqarish, harbiy-dengiz floti tashkil

etish va boshqalar bo'yicha islohotlar o'tkazadilar. Bu tadbirlar davlatning harbiy-siyosiy hamda iqtisodiy qudratini oshiradi. Poytaxt Damashqda qoladi. Suriya xalifalikning markaziy viloyatiga aylanadi. Ummaviylar davrida arablar shimolda Armaniston, Gruziya, sharqda Movarounnahr va Hindistonning shimoliy qismi, g'arbda Shimoliy Afrika va Ispaniyaning katta qismini bosib oladilar.

Ummaviylar sulolasi VIII asrning o'rtasidagi Abu Muslim boshchiligidagi qo'zg'olon natijasida ag'dariladi. Xalifalik taxtiga Muhammad (s.a.v.)ning amakisi avlodlaridan bo'lgan Abul Abbos as-Saffoh (749—754 yillar) o'tiradi va abbosiylar sulolasiga asos soladi. Poytaxt Damashqdan Bag'dodga ko'chiriladi. Bu sulola 750—1258 yillarda mamlakatni idora etadi. Abbosiylar davrida Arab xalifaligi markazlashgan qudratli davlatga aylanadi, unda feodal munosabatlar rivojlanadi.

Feodallar zulmining kuchayishi xalq qo'zg'olonlarining (masalan, Bobak, Muqanna, Sumbod, zinjiylar va boshqalar) ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Natijada, xalifalik tarkibida bir necha mustaqil davlatlar vujudga keladi. Xususan, 756 yilda Ispaniyada Qurdoba amirligi tashkil topadi. IX asrda Afrikada Ag'labiylar davlati, Xuroson va Movarounnahrda Somoniylar davlati, Marokash, Tunis, Misrda mustaqil davlatlar vujudga keladi. 945 yilda Erondagi buvayhiylar Bag'dodni egallab, abbosiylarni siyosiy hokimiyatdan chetlashtiradilar.

Arab xalifaligida davlat boshqaruvi. Xalifalar diniy vazifalar bilan birga dunyoviy ishlarni ham bajarardilar. Shu tariqa, ular davlat va hukumat boshlig'i, shuningdek, musulmonlar ommaviy ibodatlarining ma'naviy yetakchisi ham edilar.

Arab xalifaligining birinchi davrida xalifa saylanib qo'yilardi. Ummaviylar va Abbosiylar davrida xalifa lavozimi nasldan naslga meros bo'lib o'tadigan bo'ldi. Arab xalifaligining boshlarida xalifalar kamtarona hayot kechirgan bo'lsalar, Ummaviylar va Abbosiylar juda boy-badavlat yashaganlar.

Xalifalik davrida ancha keng va nisbatan markazlashgan byurokratik apparat tashkil etilgan. Xalifa huzurida kengash (shuura) mavjud bo'lib, muhim ishlarni hal etgan. Davlat boshqaruvining markaziy organlari devon deb atalardi. Arab xalifaligida quyidagicha devonlar bo'lgan:

Al-Xiroj — ichki ishlar devoni — moliyaviy ishlarga boshchilik qilgan;

Al-Xatim — xalifa kotibiyati hisoblangan, yashirin politsiya funksiyasini ham bajargan;

Al-Rasoil — pochta va aloqa devoni bo'lgan. U pochталarni va davlat yuklarini yetkazib bergan. Yo'llarni, karvonsaroylarni, quduqlarni qurilishiga bosh bo'lgan;

Al-Mustaqilot — harbiylarni hisobga olish, armiyani ta'minlab turish vazifasini bajargan.

Ushbu ko'rsatilgan to'rtta devon Ummaviylar davrida tashkil etilgan edi. Abbosiylar davrida devonlarning soni 10 taga yetadi. Devonlarning boshida xalifa tomonidan tayinlanadigan ministr, ya'ni rais-ud-devon turgan. Davlat xazinasini — Baytul-mol bo'lib, u zakot solig'ini undirish ishlarini yuritgan.

Xalifalik qo'shini oldiniga arab urug'lari va ko'ngillilardan iborat edi. Xalifa oliy bosh qo'mondon hisoblangan. U qo'shindagi oliy va o'rta darajadagi lashkarboshilar tarkibini tayinlagan va almashtirib turgan. Ummaviylar davrida har bir viloyatning o'z qurolli kuchlari mavjud edi. Ularga tegishli viloyat hukmdorlari boshchilik qilgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Arablarning yurishlari xalifalik tarkibiga kirgan Sharq mamlakatlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan birlashtirishda muhim rol o'ynadi. O'tmishda tarqoq bo'lgan hududlar va mamlakatlarning siyosiy birlashishi yagona iqtisodiy hamjamiyatning shakllanishiga olib keldi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning sezilarli o'sishiga yordam berdi.

Xalifalikda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik ishlab chiqarishning asosiy tarmog'i bo'lib qoldi. Dehqonchilik xo'jaligi Iroqda, ayniqsa uning quyi qismida (Savad) va Misrda, Nil bo'yida yuksak taraqqiyotga erishdi. Bu yerda sun'iy sug'orishning rivojlangan tizimi yiliga ikki marta hosil olish imkonini berdi.

Yerga ishlov berish usullari ancha ibtidoiy edi. Tomorqa va bog'dorchilik ekinlarini yetishtirish uchun bel, dalalarda esa yengil omochdan foydalanilgan. Dalalarda almashlab ekin ekilgan. Shamol va suv tegirmonlaridan foydalanilgan.

Abbosiylar hokimiyat tepasiga kelgan paytda xalifalikning barcha hududlarida, xususan, Iroqda sug'orish tizimi izdan chiqqan edi. Shu bois ilk abbosiy hukmdorlari sun'iy sug'orish tizimini takomillashtirish, kanallar, to'g'onlar, suv omborlari qurish uchun ko'p kuch sarfladilar.

Arablar yangi viloyatlarni bosib olar ekanlar, aholini o'z tomonlariga og'dirib olish uchun yerning eski egalariga dehqonchilik qilish va muntazam ravishda soliq to'lash sharti bilan mulklarini saqlab qolganlar. Faqat Vizantiya imperatorlari, Eron shahanshohlari va hukmron sulola a'zolarining mulklari, urush paytida o'ldirilgan raqiblarning yerlari

hamda egasiz bo'lib qolgan yerlar xazina foydasiga musodara qilinardi. Yerning bir qismi xalifa va uning oila a'zolariga, shuningdek, davlatga alohida xizmat qilgan yoki muqaddas urushda o'zini ko'rsatgan musulmonlarning qo'liga o'tdi.

Davlat yerlarining bir qismi feodallarga harbiy xizmatni o'tash evaziga berilgan. Bunday yer egaligi «iqto» deb atalgan. «Iqto» tushunchasi Yevropadagi «benefitsiy»ga yaqin turgan. Faqat «iqto» oluvchi o'ziga ajratilgan hududdan olinadigan xiroj solig'ining bir qismiga egalik qilishi mumkin edi. Shunday qilib, «iqto» yer egaligi dehqonning mavqeini rasman o'zgartirmadi, u oldingidek soliqlarni yo davlat soliqchilariga, yoki «iqto» egasi – «muqto»ga to'lashi kerak edi. Soliqlarni yig'ish huquqining berilishi xalifalikning markaziy yerlarida Abbosiylar, keyinchalik Buvayhiylar va Saljuqiylar hukmronligi davrida amalga oshirildi. Natijada harbiy xizmatchining ma'lum yerlardan o'zi uchun undirib olgan yer solig'i keyinchalik feodal rentasiga aylandi. Yangi yer egasi olingan mulkni ishlatib turishga mas'ul edi. «Iqto» xizmat muddati yoki umrbod taqdim etilgan. Lavozimlarni meros qilib olish udumi tufayli «iqto» oxir-oqibat merosiy bo'lib qoldi.

Bundan tashqari, xususiy yerlar — «mulk» ham bo'lgan. Bular xalifa va uning qarindoshlari, shuningdek, «muqaddas urush»dagi xizmatlari uchun yoki hukmron sulolani qo'llab-quvvatlagan yuqori martabali shaxslarning yerlari edi. Xususiy yer egaligi xalifalikning sharqiy qismlarida, birinchi galda, Eron viloyatlarida keng tarqalgan edi. «MulK» egalari o'z yerlarini sotishlari, sovg'a qilishlari yoki meros qilib berishlari mumkin edi.

Yirik yer egalari yerni dehqonlar — fallohlarga ijaraga berganlar. Bunday dehqonlar «muzoriy» deb atalgan. Tabiiy sharoitga qarab, ijara haqi ba'zan hosilning yarmiga to'g'ri kelar edi.

Xalifalik yer fondining salmoqli qismi turli diniy muassasalar: masjidlar, madrasalar, xayriya tashkilotlari, so'fiylar qo'lida bo'lgan. Bunday yerlar «vaqf» deb atalgan. Diniy va xayriya muassasalarining mol-mulkiga teginilmagan. Shu bois o'z mulkini hokimiyat tajovuzlaridan himoya qilish yoki og'ir soliqlardan qutulish uchun ko'plab yer egalari ularni xayriya maqsadlarida vaqfga berish to'g'risida vasiyat qilganlar.

Hunarmandchilik va savdo. VIII—XII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari shaharlarida an'anaviy hunarmandchilik taraqqiy etdi. Har bir viloyat o'zining maxsus hunarmandchilik buyumi bilan mashhur bo'lib, ular o'rtasida keng ayirboshlash yo'lga qo'yilgan edi. Misrda erkin hunarmandchilik bilan davlat sanoati o'rtasida farq bor edi. Bu yerda

davlat hunarmandchilik va savdo ustidan nazoratni saqlab qolgan edi. Qurol va harbiy kemalar ishlab chiqarish davlat nazorati ostida bo'lgan. Erkin hunarmandlar o'z mahsulotlarini to'liq yoki bir qismini davlatga yetkazib berishga majbur edilar.

Xalifalik mamlakatlarida zig'ir, paxta, ipak va jundan gazlamalar to'qish yuqori darajada rivojlandi. Suriyalik hunarmandlar ipak gazlamalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, Misr shaharlari va Fors viloyati hunarmandlari zig'ir matolari bilan mashhur bo'lishgan. Ipak gazlamalar ishlab chiqarish Eronning Xuziston va Fors shaharlarida, xususan, Sheroz, Isfaxon va Rayda keng rivojlangan. Paxtadan gazlama ishlab chiqarish xalifalik sharqidagi Marv, Nishopur va Kobul shaharlarida yoyilgan edi.

Xalifalikning barcha shaharlarida charm buyumlar, qimmatbaho matolar, metall bezaklar va hatto qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan egarlar ishlab chiqarilgan. Suriyalik hunarmandlar po'latning yuqori sifatli navlarini yasash bilan butun dunyoga tanilganlar. Ular mashhur Damashq qilichlari va pichoqlari, qalqonlar, sovutlar, dubulg'alar, shuningdek, turli xil metall idishlar – kosalar, ko'zalar va qimmatbaho naqshli idish-tovoqlar yasaganlar. Fors shaharlari o'zining xushbo'y hidli attorlik tovarlari bilan shuhrat qozonganlar.

Xulosa qilganda, arab xalifaligi VII—X asrlarda hukmronlik qilib, yuksak taraqqiy etgan madaniyatni yarata oldi. Arab xalifaligida ilm-fan va maorif, diniy bilimlar, me'morchilik va xattotlik san'ati gullab-yashnadi hamda tarixda islom madaniyati nomi bilan kirdi.

Savol va topshiriqlar

1. Arabiston yarim orolining tarixiy o'lkalari to'g'risida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?
2. Islom dinining arkonlarini sanab bering?
3. Arab xalifaligining tashkil topishi va kuchayishi omillarini ko'rsatib bering?
4. Arab xalifaligining boshqaruvi haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Hunarmandchilikning qaysi turlari taraqqiy etgan edi?

11-§. Ilk o'rta asrlarda Hindiston

Feodal munosabatlarning o'rnatilishi. Guptalar davlati.

Hindistonda feodalizm uchun zarur shart-sharoitlar qadimgi davrdayoq paydo bo'lgan edi. Feodal munosabatlarining shakllanishi taxminan I—V asrlarga to'g'ri keldi. VI—VII asrlarda esa uzil-kesil qaror topdi.

Shimoliy Hindistondagi Magadha o'lkasi (bugungi janubiy Bihar) bir necha bor yirik davlat tuzilmalari tashkil topgan hududga aylandi. Manbalarda Magadha yerlarining unumdorligi va yog'ingarchilikning haddan tashqari ko'pligi to'g'risida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Yomg'irning ko'pligi sholi kabi serhosil va suvni yaxshi ko'radigan ekinni yetishtirishga imkon berdi. Bundan tashqari, foydali qazilmalar, xususan, metallarning boy konlari mavjud edi.

IV asr boshlarida Magadha yirik siyosiy uyushma — Gupta davlatining markaziga aylandi. 320 yilda Chandragupta I (320—340 yil) o'ziga qo'shni rojalarni bo'ysundirib, Gang daryosi havzasida katta davlatga, Gupta davlatiga asos soldi. Poytaxti Pataliputra shahri edi. Bu davlat VI asr boshlarigacha yashadi. Chandragupta I ning vorislari — Samudragupta (340—380) va Chandragupta II (380—414) davrida guptalar davlati o'z qudratining cho'qqisiga ko'tarildi. Gupta davlati



Chandragupta II tangasi

Gang daryosining dengizga quyiladigan joyigacha, shuningdek Dekan yassi tog'laridan to Norbad daryosigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olar edi.

IV—VI asrlarda qishloq xo'jaligida sezilarli yutuqlarga erishildi. Yangi yerlar o'zlashtirildi, botqoqliklar quritildi. Davlat tashlandiq yerlarni o'zlashtirish va o'rmonlarni tozalashni rag'batlantirdi. Qishloq xo'jaligida temirdan yasalgan asbob-uskunalar, xususan, temir uchli omoch keng qo'llanildi. Sug'orish rivojlandi: kanallar, suv omborlari va quduqlar qurildi, chig'ir paydo bo'ldi. Lalmi va sug'orma dehqonchilik keng tarqaldi. Suvlash odatda, uncha katta bo'lmagan sug'orish inshootlari orqali amalga oshirilar va kichik ariqlarni qazish qishloq jamoalariga og'irlik qilmas edi.

Guptalar imperiyasi



Hindistondagi davlatlar o'zlariga tegishli hududlarning barcha yerlarini tasarruf qilib, ularda yashovchi aholidan o'z foydasiga soliqlar solganlar. Alohida yer uchastkalari davlat tomonidan xususiy shaxslarga sovg'a qilingan. Uni olgan shaxslarning ushbu yerlarga bo'lgan huquqi «quyosh va oy charaqlaguncha» mangu deb e'lon qilingan. Sovg'alar maxsus mis plastinalarga yozilgan. Xususiy yer egaligi mana shunday shakllana boshlagan edi.

Guptalar davrida yerlarni sotib olish va sotishni ro'yxatdan o'tkazuvchi yorliqlar paydo bo'ldi, bu esa yerlarni xususiy qo'llarga to'plash jarayonini yanada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Milodning birinchi asrlarida «qishloqlarni sovg'a qilish» amaliyoti keng tarqala boshladi. Bunda yer boshqa qo'lga o'tib ketmadi. U o'sha dehqonlarning o'zida qolaverdi, lekin sovg'a qilingan qishloqlardan olinadigan soliqlar endi davlatga emas, balki «sovg'a» olgan shaxslarga ketadigan bo'ldi. Erkin jamoa a'zolari asta-sekin shaxsiy qaramlikka tushib qoldilar. Shunday qilib, ilgari xususiy shaxslarga faqatgina yer berilgan bo'lsa, keyinchalik, IV—VI asrlarda yer bilan bir qatorda unga ishlov beruvchilarni ham qo'shib sovg'a qilish odatga aylandi.

Qullarning ahvoli o'zgardi. Mamlakatning erkin aholisini qullikka aylantirishga cheklovlar qo'yildi, qullarni erkinlikka chiqarish uchun sotib olish ishlari amalga oshirildi. Qullarga o'z dehqonchiligi uchun yer ajratish keng tarqaldi. Manbalarda qullarga tegishli bo'lgan mulk va qul oilalari to'g'risida xabar beriladi. Bu esa qulchilik institutining tanazzulga uchraganligidan dalolat beradi.

Eftaliylar bosqini. Xarsha davlati. Qariyb ikki asr davomida mavjud bo'lgan Gupta imperiyasi VI asrga kelib inqirozga uchradi. Unga oxirgi zarbani turkiy el – eftaliylar (oq xunlar) berdilar. V asrda vujudga kelgan eftaliy qabilalari ittifoqi O'rta Osiyoda kushon hukmdorlarini, sosoniylar Eronini jiddiy mag'lubiyatga uchratib, Shimoliy-G'arbiy Hindistonga yopirilib kirdilar.



Eftaliylar hujumi. Zamonamizda chizilgan surat

V asr o'rtalaridagi birinchi bosqinni Guptalar qaytarishdi. Ammo VI asrning boshlarida eftallar nafaqat G'arbiy Hindistonni, balki Jamna-Gang vodiysining muhim qismini ham bosib olishga muvaffaq bo'lishdi. Ko'chmanchi eftaliylar V asr oxiri VI asrning boshlarida Hindistonning shahar va qishloqlarini nihoyatda vayron qilib tashlashdi. 530 yilda eftaliylar Guptalar vassali roja Yasadxarma tomonidan tor-mor qilindi. Shundan keyin Yasadxarma Gupta sulolasiga bo'ysunishdan bosh tortib, «maxaroja» unvonini oldi. Lekin unga Gupta davlatining faqat bir qismigina bo'ysundi.

Shundan keyin Shimoliy Hindistonda bir-biri bilan yovlashayotgan ko'plab knyazliklar paydo bo'ldi. Ular orasida VII asrning birinchi yarmida Xarsha (aniqrog'i, Harshavardhana) boshchilik qilgan davlat kuchayib ketdi (616—647). Xarsha Kanaujaning rojasi edi. Urushning olti yili ichida u deyarli butun Shimoliy Hindistonni egallashga muvaffaq bo'ldi. Yilnomachining so'zlariga ko'ra, shu yillarda «fillardan jabduqlar, askarlardan dubulg'alar olib tashlanmagan». Xarsha davlati Gang daryosi vodiysi bo'ylab Sharqiy Panjobdan to Bengaliya qo'ltig'igacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oldi. Markaziy Hindistonning knyazlari ham Xarshaga qaramlikda edi. Uning hokimiyati rojalar qudratining ortib borishi natijasida uzoq yashamadi. Harsha o'limidan keyin bu davlat bo'linib ketdi. Mamlakatda o'zaro ichki urushlar avj oldi.

Eftallar va ular bilan birga kelgan gujar qabilalari Shimoli-Gʻarbiy va Gʻarbiy Hindistonning mahalliy aholisi bilan aralashib, **rajputlar** deb ataluvchi yangi qabilalar jamoasini tuzdilar va oʻz knyazliklarini barpo qildilar.

VII asrning soʻngida Eron va Xurosonni bosib olgan arablar Hindistonga bevosita yaqinlashib qolgan edilar. Hindistonga Fors qoʻltigʻi orqali ham hujum qilish imkoniyati bor edi. 712 yilda ummaviylarning qoʻshinboshilaridan biri Muhammad ibn Qosim, Basradan suzib borib, Hindistondagi Sind mamlakatini bosib oldi. Lekin oradan bir necha oʻn yil oʻtgach, arablar Hindistondan butunlay quvib chiqarildi.

Musulmonlarning ikkinchi hujumi XI asrdan boshlandi. Qudratli turk hukmdori Sulton Mahmud Gʻaznaviy (998—1030) Hindistonga oʻn yetti marta yurish qilib, mamlakatni taladi. Juda koʻplab miqdorda oltin-kumush va boyliklar, oʻn minglab erkak va ayollar qul qilib olib ketildi. Poytaxt Gʻazna shahri muhtasham binolar bilan bezaldi, bu binolarning koʻpini hind ustalari qurib berdilar. Yurishlar natijasida hozirgi Afgʻoniston, Panjob, Sind oʻlkalari, shuningdek, Eron va Oʻrta Osiyoning bir qismini oʻz ichiga olgan Gʻaznaviylar davlati tuzildi.

Ilk oʻrta asrlarda Hindistonda ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Oʻrta asrlarda hind jamiyatining asosiy xususiyati kastachilik tizimi edi. Qadim zamonlardayoq jamiyat toʻrtta varnaga (tabaqaga)—braxmanlar (ruhoniylar), kshatriyalar (jangchilar), vayshyalar (dehqonlar) va shudralarga boʻlingan edi. Kasta tizimi umuman jamiyatning sinfiy boʻlinishiga toʻgʻri kelar edi. U kastalarning bir-birlari uchun oʻzaro zarurligini va tengsizlikning muqarrarligi, «muqaddasligi» ni tasdiqlab, ijtimoiy mojarolarni yumshatdi. Bularning barchasi Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sekinlatib qoʻydi.

Guptalar davri va hatto undan oldinroq tabaqaviy boʻlinishda sezilarli oʻzgarishlar yuz berdi. Agar ilgari odamning jamiyatdagi mavqei uning kelib chiqishiga qarab belgilangan boʻlsa, keyinchalik moddiy ahvoli tobora koʻproq ahamiyat kasb eta boshladi. Koʻpchilik braxman va kshatriya urugʻlari sindilar. Vayshyalar orasida tabaqalanish jarayoni sodir boʻldi. Shudralar ahvoli birmuncha yaxshilandi.

Ilk oʻrta asrlarda jamoalar muhim siyosiy rol oʻynagan. Hindiston shimolida ular bir nechta qishloqlarni oʻz ichiga olgan, janubda esa alohida jamoalar baʼzan butun viloyatlarni birlashtirgan edi. Jamoalar sugʻorish ishlarini olib borar, oʻzaro yordam koʻrsatish va qishloqlar mudofaasini tashkil qilar edilar. Jamoalarning qarorlari koʻpincha tosh taxtachalarda oʻyilib, ibodatxonalar devorlariga oʻrnatilar edi. Feodallar jamoa ishlariga

aralashmaganlar, ular faqat jamoa egallab turgan yerdan feodal rentasini olib turishgan xolos.

Jamoa a'zosi o'ziga tegishli yer uchastkasiga ega bo'lgan, uni meros orqali o'tkazgan, yerni sotishi va sotib olishi mumkin edi. Shunday bo'lsada, jamoa yerning yotlashtirilishini nazorat qilish huquqini saqlab qolgan edi. Yerdan davlat foydasiga soliq undirilgan. Qishloqda to'laqonli jamoa a'zolaridan tashqari, to'liq bo'lmagan dehqonlar ham bor edi, ammo ular ilk o'rta asrlarda ozroq edi. XI—XII asrlardan boshlab qishloq aholisining umumiy qismidan qishloq hunarmandlari ajralib chiqa boshladilar, ular jamoaga xizmat qilar va undan ta'minot olardilar.

Ilk o'rta asrlarda Hindistonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — shaharlar va savdoning nisbatan yuqori rivojlangani bo'ldi. Shimoliy Hindistondagi eng qulay savdo arteriyasi Gang daryosi va uning irmoqlari edi. Gang vodiysidan boshlangan karvon yo'llari g'arbiy qirg'oq portlari va Janubiy Hindistonga olib borardi. Hindistonning qirg'oqbo'yi mintaqalari uzoq vaqtlar Yaqin Sharq mamlakatlari (ular orqali Yevropa bilan) va Janubi-Sharqiy Osiyo bilan dengiz savdosini olib borganlar.

Ilk o'rta asrlarda Hindiston madaniyati. Milodning birinchi asrlarida Hindistonda buddizmning tanazzulga uchrashi kuzatiladi. Hindistonning janubida VIII asrda, shimolda XII asrda buddizm o'rnini hinduizm egalladi.

Hinduizmda diniy marosim va urf-odatlarida farq qiluvchi ko'plab sekta va yo'nalishlar mavjud edi. Ammo bu yo'nalishlarning barchasi bir-biri bilan tinch-totuv yashagan, chunki ularni **dxarma, karma va ahimsa** kabi umumiy tushunchalar birlashtirar edi.

Dxarma (burch) bu kastaga xos bo'lgan burchlar va xulq-atvor qoidalariga to'liq rioya qilishni anglatardi. Jamiyatning tabaqalarga bo'linishini ilohiy deb o'rgatadi. Insonning ma'lum bir kastaga mansubligi uning oldingi tug'ilishdagi xatti-harakati bilan belgilanadi. Hinduizm ta'limotiga ko'ra, ruh o'lmaydi, lekin o'limdan keyin u boshqa mavjudotga o'tadi. Bu qanday jonzot bo'lishi **karmaga** bog'liq (amallar, ya'ni inson hayoti davomida qilgan barcha yaxshi va yomon ishlari). Agar biror kishi ezgu hayot kechirgan bo'lsa, keyingi tug'ilishda uning kastaviy tabaqasi oshadi, agar yovuz bo'lsa, u biron bir jirkanch mavjudot bo'lib tug'ilishi mumkin, deb o'ylaganlar.

Ahimsa tirik mavjudotga zarar yetkazmaslikdir. Ushbu aqidaga ko'ra, tirik mavjudotlarga zarar yetkazish mumkin emas, chunki ularda o'lgan odamlarning ruhlari joylashgan bo'lishi mumkin. Bu esa ayrim

hayvonlarga, birinchi navbatda, butun hindlar tomonidan hurmat qilinadigan sigirga sigʻinish bilan bogʻliqdir.

Shunday qilib, hinduizm kasta tizimini va umuman mavjud ijtimoiy tizimni oqlaydi, kamtarlikni targʻib qiladi, oʻz pozitsiyasini zoʻravonlik bilan oʻzgartirishga yoʻl qoʻymaydi.

Ilk oʻrta asrlar davrida Hindistonda matematika, astronomiya va tibbiyot sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Hindiston mashhur matematiklarning butun guruhini yetishtirib chiqardi. Ularning kashfiyotlari yangi davrning koʻplab ilmiy yutuqlarini oldindan belgilab berdi. Masalan, Aryabxata p ning qiymatini 3,1416 ga teng ekanligini sanab chiqqan. Hind matematiklari biz Pifagor teoremasi deb ataydigan teoremani bilishgan, sinus va kosinus tushunchalari bilan ishlaydigan butun bir qator tenglamalar yechimini taklif qilganlar. Trigonometrik funksiyalardan foydalanish va oʻnlik sanoq tizimini joriy etish matematik fikrning keyingi rivojlanishiga taʼsir koʻrsatdi.

Oʻrta asrlarda sanskrit adabiyoti rivojlanishda davom etdi, lekin u ataylab tozalangan, saroy xarakteriga ega boʻldi. Mahalliy tillarda adabiyot, ayniqsa, sheʼriyat rivojlandi.

VI—VIII asrlarda arxitektura va haykaltaroshlikning sezilarli yuksalishi kuzatildi. Gʻor ibodatxonalari va toshdan oʻyilgan ibodatxonalar (Ellora, Elephanta, Ajanta va boshqalar) qurilgan boʻlib, ular barelyeflari, haykallari va rassomchiligi bilan mashhur edi. Shu davrda yoʻnilgan toshlardan diniy binolar qurila boshlandi. Bu ibodatxonalarining ichki qismi past va qorongʻi edi. U yerga faqat ruhoniylar kirishi mumkin edi. Ibodatxonaning tashqi bezagi katta qiziqish uygʻotadi. Ibodatxona hovlisi va devor tokchalarida maʼbudlarning haykallari yoki dostonlardan sahnalar oʻrnatilgan. Bunday haykallar shunchalik koʻp ediki, ibodatxonaning oʻzi ular uchun faqat poydevor sifatida qabul qilingan. Keyinchalik monumental haykaltaroshlikning inqirozga yuz tutishi bilan uning jozibadorligi va turli-tumanligi yoʻqoldi.

Savol va topshiriqlar

1. Hindistonda feodalizm taraqqiyoti uchun qanday zarur shart-sharoitlar vujudga kelgan edi?
2. Guptalar davlatida qanday ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar yuz bergan?
3. Xarsha davlatining nima uchun uzoq yashamadi?
4. Ilk oʻrta asrlarda Hindistonda ilm-fan va madaniyatning qaysi tarmoqlari rivojlangan edi?

12-§. Ilk o'rta asrlarda Xitoy

Xitoyni birlashtirish uchun kurash. Xitoyda 184 yilgi «Sariq ro'mollilar» qo'zg'oloni mamlakatni inqirozga uchratdi. Xan sulolasining mamlakatdagi obro'yi tushub ketdi. Nihoyat, 220 yili qo'mondon Sao Pey so'nggi Xan imperatorini taxtdan ag'daradi va o'zini butun mamlakat hukmdori deb e'lon qiladi.

Lekin boshlanib ketgan ichki urushlar natijasida Xitoy uch qismga bo'linadi. Mamlakat shimolida Vey, janubi-g'arbda Shu, janubiy sharqda U davlati paydo bo'ldi. Uch podsholik davri 220—280 yillarni o'z ichiga oladi.

Uch podsholik ichida eng kuchlisi Vey edi. Bu yerda hukmdor Sao Sao o'tkazgan islohotlar tufayli mustahkam davlat asoslari va kuchli qo'shin shakllantirilgan, qishloq xo'jaligi tiklangan edi. Veyda qochoq dehqonlar emin-erkin qabul qilinar, ularga yer berilar, evaziga juda katta soliq to'lash talab qilinar edi. Bundan tashqari, Sao Sao harbiy qishloqlarni tashkil qilgan bo'lib, unda yashovchi askarlar harbiy xizmatdan bo'sh vaqtlarida yerga ishlov berishlari lozim edi.

Amalga oshirilgan islohotlar Vey davlatiga qo'shnilari va ko'chmanchilarga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib borish imkonini berdi. Lekin Sao Sao o'limidan keyin Vey podsholigida ichki kurashlar boshlanib ketdi. 249 yilda bu kurash Sima urug'ining g'alabasi bilan yakunlandi.

263 yilda Sima Yan janubiy podsholiklarga qarshi kurash boshladi. Shu podsholigi bosib olingach, 265 yili Sima Yan yangi sulola — Szin asos solinganligi hamda o'ziga U-Di ismini olganligini e'lon qildi. Bu davlat 420 yilga qadar mavjud bo'ldi. 280 yilda Szin qo'shinlari U podsholigini bosib olishlari bilan mamlakat qisqa muddatga birlashtiriladi.

O'zaro urushlar mamlakatni og'ir ahvolga tushirib qo'ygan edi. 100 yil mobaynida soliq to'lovchilar soni 56 mln dan 17 mln ga tushib qoldi. Sug'orish tizimi buzildi. Ahvolni o'nglash uchun Sima Yan 280 yili farmon chiqardi. Unga ko'ra, xazina foydasiga ma'lum shartlarni bajargan mehnatga layoqatli 16-60 yoshli erkak va ayol yer olishga haqli bo'lgan. 13-15 va 61-65 yoshlilar belgilangan yerlarning yarmini olganlar. Bolalar va qariyalar yer ololmas va soliq to'lamas edilar. Yer oluvchilar hosilning 2/5 qismi miqdorida soliq to'laganlar.



Milodiy III asrdagi Xitoyning siyosiy xaritasi

289 yili Sima Yan o'limidan so'ng taxt uchun kurash boshlandi. Unga ko'chmanchi syanbi, uxuan va xunlar aralashgan. Shimoldan millionlab aholi janubga qochgan. Shimoliy Xitoyga ko'chmanchilarning bostirib kirishi an'anaviy tarixshunoslikda Janubiy va Shimoliy sulolalar davri deb nomlangan bosqichni boshlab berdi. Ular o'rtasida tez-tez bo'lib turgan urushlar mamlakatni kuchsizlantirib qo'ydi.

Xitoy Suy sulolasi hukmronligi davrida. VI asrning ikkinchi yarmida Shimol va Janub munosabatlari yumshadi. Ko'chmanchilar xanlar orasiga singib ketdi. Buning ustiga Turk hoqonligi hujumi xavfi paydo bo'ldi. Bunday sharoitda shimol butun mamlakatni birlashtirish tarafdori edi.

Shimoldagi davlatlardan biri Chjou birlashuv markaziga aylandi. 581 yili shimol lashkarboshisi Yan Szyan (Ven Di) Suy sulolasining imperatori deb e'lon qilindi. Siyosiy va iqtisodiy vaziyat ulkan mamlakatni harbiy yo'l bilan birlashtirishni taqozo etardi.

Yangi sulolaning tashkil topishi bilan Xitoyda 4 asr davom etgan qarama-qarshilik tugadi. Iqtisodiy va madaniy rivojlanish boshlandi. Yangi hokimiyat soliqlarni ozaytirib tartibga soldi, tuz va vino monopoliyasini bekor qildi, yangi tanga zarb etdi, o'lchov va standartni bir shaklga soldi.

Yan Szyan 604 yili o'z o'g'li Yan Guan (Yan Di) tomonidan o'ldirildi. Yan Guan iqtisodiy va siyosiy markazlashuv tizimini davom ettirdi. Poytaxtni va 10 ming boy oilani Loyanga ko'chirdi. Shimol va janub o'rtasidagi aloqani kuchaytirish maqsadida Xuanxe bilan Yanszi daryolarini bog'lovchi Buyuk kanal qurildi. Ko'chmanchilar bosqiniga chek qo'yish uchun Buyuk Xitoy devori qayta qurildi.



Katta tosh ko'pri. Suy sulolasi davri

Yan Guan tomonidan boshlangan urushlar paytida ilgarigi boylar va amaldorlarga tegishli bo'lgan ko'plab yerlar davlat mulkiga aylandi. Nizolarning to'xtatilishi tashlandiq va qo'riq yerlarning o'zlashtirish, shuningdek, sug'orish tizimini keng ko'lamda tiklashga yordam berdi. Mamlakatda yagona hokimiyatning tashkil etilishi aholini ro'yxatga olishni tartibga solish imkonini berdi. Yan Guan davrida ilgari soliq ro'yxatiga kiritilmagan 1,5 milliondan

ortiq dehqon aniqlandi, ajratiladigan yer hajmi rasman qisqartirildi. Soliqlar ko'tarildi, yillik mehnat majburiyati 30 kunga oshirildi. Ilk bor qullarga erkin dehqonlarga ajratiladigan ulushlardan berildi. Shu bilan birga, qullarning egalariga imtiyozlar berildi: ularning ulushidan olinadigan soliq ikki baravar kam edi. Dehqonlardan olinadigan soliqning katta qismi xazinaga, ozroq qismi esa ichki omborlarga tushardi.

Yan Guan davrida mehnat majburiyatlari yanada ortdi. Jumladan, Loyan shahri qurilishida 2 million kishi, Buyuk kanal va Buyuk devor barpo etilishiga 1 million kishi ishtirok etdi.

Suy imperiyasining ulush tizimida «amaldorlarning yerlari» deb ataluvchi mulklar qayta tiklandi. Ulardan tushgan daromad amaldorlarni boqish uchun sarflandi. Bundan tashqari, davlat fondidan imperator oilasi a'zolariga 10 ming mugacha (1 mu – 0,6 ga) bo'lgan yerlar ajratilgan. Yan Guan unvonli feodallar safini to'qqizdan uchga qisqartirib, shu bilan bu mulklarni cheklashga harakat qildi.

Suy-Koguryo urushlari. Xitoy tashqi siyosatidagi asosiy yo'nalishlardan biri bu Koreya yarim oroli shimoli va janubi-g'arbiy qismidagi Koguryo va Pekche davlatlarini egallash edi. Suy sulolasi hokimiyat tepasiga chiqqanidan so'ng, Koguryo davlati 581—597 yillarda Suyga rasmiy qaramligini ifodalash maqsadida muntazam ravishda o'z elchilarini o'lpon bilan birga yuborgan. Boshqa tomondan, Koguryo Xitoyning janubidagi Chen davlatiga ham xuddi shunga o'xshash elchiliklar yuborishni davom ettirgan. Koguryo ikki tomonlama diplomatiya siyosatini olib borib, qudratli qo'shnilar bilan tinchlikni saqlashga harakat qilgan. Biroq, 589 yilda Suy imperiyasi Chenni bosib olganidan keyin Koguryo tez orada suyliklarning o'zlariga qarshi bosqin

uyushtirishini tushunib yetgan. Shu sababli, Koguryo hukumati Xitoyning mumkin bo'lgan tajovuziga qarshi oldindan tayyorgarlik ko'rishni boshlagan. Ular Xitoydan harbiy texnika bo'yicha mutaxassislarni taklif qilib, yangi qurollar ishlab chiqarishni yo'lga qoydilar. Koguryoga vaziyatni o'rganish uchun yuborilgan Suy elchilarini garovga olib, imperator Yan Szyanning koguryoliklarga xayrixohlik to'g'risidagi so'zlariga ishonchsizlik bilan qaradilar.

598 yilning yozida Suy bosqinini kutayotgan koguryoliklar, Malgal (Mohe) xalqidan iborat 10 ming kishilik qo'shin bilan Lyaosi degan joyga oldindan hujum qilishdi. Bunga javoban, Suydan Pxenyanga qo'shinlar yuborildi. Poytaxtga Suy tomonidan hujum bo'lishini inobatga olib, qirollik qarorgohi 586 yilda Chananson qo'rg'oniga ko'chiriladi. O'sha yili Koguryoda kuchli yog'ingarchilik kuzatildi va suv toshqini Xitoy armiyasiga oziq-ovqat tashishda qiyinchiliklar tug'dirdi. Ocharchilik boshlanishi bois Suy qo'shini Koguryoni tark etishga majbur bo'ldi. Ushbu yurishda ular har o'n kishidan 8-9 kishini yo'qotdilar. Koreya yarim orolida joylashgan Silla davlati Suy bilan ittifoqchilik munosabatlariga qaramay, Pxenyanga qarshi yurishda qatnashmadi.

Ikki davlat o'rtasidagi birinchi yirik harbiy to'qnashuvdan so'ng, bir muddat tinch munosabatlar o'rnatildi. Koguryo, oldingidek Suy imperatoriga sovg'alar bilan elchilar yuborib turdi. Boshqa tomondan, Koguryo turkiy aymoqlarning yordamini olishga intildi. Masalan, Sharqiy Turk xoqonligiga 607 yilda elchilar yuborildi. Suy ham Koguryoga qarshi yangi kampaniyaga tayyorlanayotgan edi. 608 yilda imperator Yan Guan 100 ming jangovor arava yasash to'g'risida farmon chiqardi.

Yan Guan Koguryoga qarshi 3 marta bosqin uyushtirdi. Birinchi yurish qishda, 612 yil boshida boshlangan. Suy sulolasida 24 ta armiya (1 million 333 ming 800 kishi) bo'lib, ulardan 9 tasi (305 ming kishi) Koguryoga tashlangan. Koguryo qo'shiniga Ilji Mundok boshchilik qilgan.

Xitoyliklar 598 yilgi harbiy yurish tajribasini eslab, bu gal o'zlari bilan 100 kunga yetadigan oziq-ovqat olib keldilar. Ammo og'ir yurishda charchagan va tezkor g'alabaga umid qilgan askarlar buyruqlarga bo'ysunmay donni ko'mdilar. Shu sababli, Pxenyanga yarim yo'lda Suy qo'shinining oziq-ovqat zaxiralari tugadi. Ilji Mundok aldov yo'li bilan xitoyliklarni Pxenyanga boshlab keldi. U yerdagi Salsu daryosida koguryoliklar uchun qulay darada jang bo'lib o'tdi. Xitoyliklar to'liq yengildilar va qo'rquv ichida qochib, deyarli bir kunda Amnokkan daryosigacha bo'lgan katta masofani bosib o'tdilar. Qolgan qo'shinlar

Lyaodun qo'rg'oniga yetib kelganida Koguryoga borgan 305 ming kishidan atigi 2700 kishi qaytib kelgani ayon bo'ldi.

612 yildagi mag'lubiyatdan so'ng, Suy davlati 613 va 614 yillarda ikki marta Koguryoga qarshi harbiy yurishlarni amalga oshirdi. 613 yilgi janglar asosan Lyaodun qo'rg'onida, 614 yilda Lyaodun yarim orolining janubidagi Pisa qo'rg'oni yaqinida bo'lib o'tdi. Bu urushlarda Suy qo'shini biror marta yutib chiqmadi.

Muvaffaqiyatsiz harbiy yurishlar va og'ir soliqar qo'zg'olonlar boshlanishiga sabab bo'ldi. Janubga qochgan Yan Guan o'ldirildi. Mamlakatda tartibsizlik boshlandi. Shansi hukmdori Li Yuan Chanyanni egallab, imperator deb e'lon qilindi va yangi Tan sulolasiga asos solindi (618—907).

Tan sulolasi davrida Xitoy. Yangi sulola eski qarzlarni bekor qildi, davlat barshinasi muddati qisqartirildi, qullikka sotilgan dehqonlar ozod etildi, feodallarning dehqonlarni o'ldirishi taqiqlandi. Ochlarga yordam berildi, suv bosishga qarshi kurashildi. Savdogarlarga homiylik qilindi. Li Yuanning o'g'li Li Shimin (627—649) davrida Tan davlati yanada kuchaydi. U tarixga Tay-szun nomi bilan kirdi.



Li Yuan

Hukmron tabaqa faol tashqi siyosatni mamlakatda ichki pozitsiyalarni mustahkamlash manbai deb hisobladi. Diplomatiya ham shu maqsad yo'lida xizmat qildi: turkiy aymoqlarni bir-biriga qarshi gij-gijlash, urug' boshliqlariga unvon va mukofotlar berish, sulolaviy nikoh, hukmron urug'lar o'g'illarini saroyda faxriy garovda tutish ishlari amalga oshirildi. Bu usullar Turk hoqonligi bilan munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ldi.

628—630 yillarda Sharqiy Turk hoqonligiga qarshi olib borilgan urush Tan sulolasining g'alabasi bilan yakunlangan. Undan so'ng uyg'urlarga qarshi ko'p yillik urush boshlangan. Keyinroq G'arbiy Turk hoqonligiga hal qiluvchi zarba berilgan.

Tan davrida Koreyaga yurish to'xtamagan. 650 yili xitoyliklarning 130 ming kishilik qo'shini Pekcheni bosib olgan. 663 yili Tan imperiyasi Silla davlati bilan ittifoqda Pekchega yordamga kelgan yapon flotini yengib, urushga so'nggi nuqtani qo'ydilar. 668 yilda Koguryo poytaxti Pxenyan bosib olingan va rasmiy jihatdan Xitoyga qo'shib olingan.

Hindiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarning boshlanishi VII asrga to'g'ri keladi. 641 yili Chanyanga Xarsha davlati elchilari tashrif

buyurishgan. VII—VIII asrlarda Xitoyga Kashmir, Magadxa, Gandxar, Seylon elchilari kelishgan.



Tan davri otliq askari

Tan imperiyasining qo'shnilari bilan olib borgan doimiy urushlari oddiy xitoyliklarning yelkasiga juda og'ir yuk bo'lib tushdi. Tan imperatorlari Koreya, Tibet, Vetnam va Turk hoqonlari bilan kurash olib bordilar. Ular, shuningdek, imperiya chegaralarini shimoli-g'arbga — Tyan-Shan tog'larining baland qorli tizmasidan tashqariga kengaytirishga harakat qilganlar. Lekin 751 yilda xitoy qo'shinlari Talas daryosi bo'yida arablardan qaqshatqich

mag'lubiyatga uchradilar.

Tan qo'shinlarining Xitoydan janubda o'rnatilgan Nanjao davlatiga qarshi 754 yilgi yurushi ham muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi. Nanjao bilan urushda 200 000 xitoy askari o'ldirildi. Xitoy Tibetdagi Tufan davlati va Uyg'ur hoqonligi bilan urushda ham yengildi.

Asta-sekinlik bilan imperatorlar hokimiyati kuchsizlashib, o'rniga harbiy gubernatorlarning mavqei orta boshladi. 755 yilda Xitoy xizmatida bo'lgan turk hokimi An Lushan imperatorni ag'darib, o'zini imperator deb e'lon qildi. Biroq An Lushan qo'shinining haddan tashqari o'zboshimchaligi xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ldi va u 757 yilda fitnachilar tomonidan o'ldirildi.

Tan imperiyasidagi ichki tartib IX asr oxiriga kelib uzil-kesil inqirozga uchradi. 874 yilda oddiy xalq boy tuzchining o'g'li Xuan Chao boshchiligidagi Tan urug'iga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. 881 yilda Xuan Chao poytaxt Chanyanni egallab, o'zini yangi Ulug' Si davlatining imperatori deb e'lon qildi. Biroq, 884 yilda mag'lubiyatga uchradi va o'zini o'ldirdi.

Qo'zg'olondan keyin Tan sulolasi qaytib tiklanmadi. 907 yilda qo'mondon Chju Ven tomonidan amalga oshirilgan saroy to'ntarishi natijasida so'nggi Tan imperatori Li Chju taxtdan ag'darildi. Shu bilan Tan urug'ining hukmronligiga chek qo'yildi. Uch asrlik birlikdan so'ng, Xitoy yana bir nechta mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi.

Davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Feodallashuv sharoitida Xitoyda hamma davlat vassali edi. Har bir tabaqa o'z urf-

odatlar, kiyimi, bezaklari va uyiga ega bo'lgan. Ba'zan eng yuqori feodallar tarkibiga xizmatiga qarab oqsuyak bo'lmaganlar ham kiritilardi. Xitoyda mayorat (merosning katta o'g'ilga qolishi) hukm surmagan, shu sababli yer tobora parchalanib ketavergan va u oliy tabaqadagilarning o'zaro janjallariga sabab bo'lgan.

Davlat apparatining muhim ishlaridan biri 3 bosqichli imtihonlarni tashkil etilishi edi. Mahalliy ma'muriyat boshliqlari sinovni boshlab berganlar. Poytaxtdagi imtihonlar imperator saroyida o'tkazilgan. Natijada barcha xizmatchilar savodliligi ta'minlangan. Oliy darajadagi olimlik belgisi dastlabki 3 darajadagi mansabni egallash huquqini bergan. Imtihon tizimi amaldorlarning dunyoqarashi va sadoqatini aniqlash imkonini ham bergan.

Saroy va imperatorga qarshi kichkinagina harakat ham qattiq jazoga duchor bo'lgan. Kodeks davlat etikasi normalarini oila etikasidan ko'chirib olgan. Eng og'ir jinoyat — otasini o'ldirish edi. Amaldorlar gunoh qilib kaltak yeyishni istamasa, darajasi pasaytirilgan.

Tan imperiyasida yuqori tabaqaga mansub kishilarga bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun sharoit yaratib berilgan. Amaldorlar chavgon o'ynashgan, xo'roz urushtirishgan, yoydan o'q uzishgan, arqon tortishgan. Amaldorlarga har uch yilda ota-onasini ko'rib kelishlari uchun ruxsat berilgan. Bunda amaldorning ota-onasi 1600 km uzoqlikda yashasa 30 kun, 269 km uchun 15 kun ta'til belgilangan. Yo'lga ketgan vaqt hisobga olinmagan. Amaldor o'g'il yoki qizining to'yiga 9 kun ta'til olgan. Yaqin qarindoshlarining nikoh marosimi uchun bir, uch, yoki besh kun berilgan. Shuningdek, amaldor o'g'lining erkaklar qatoriga qo'shilish marosimini o'tkazishi uchun 3 kun, yaqin qarindoshining o'g'li erkaklar qatoriga kirish udumiga 1 kun ta'til olgan.

Dehqonlar harbiy xizmatga chaqirilgan va o'qitilgan. Har bir viloyat va okrug ma'lum sondagi kishilarni qo'shinga bergan. Imperator saroyi bilan poytaxt gvardiyachilar tomonidan qo'riqlangan.

Chegara qo'shinlari xizmatdan tashqari dehqonchilik bilan ham mashg'ul bo'lganlar. Ko'chmanchi otliqlar xizmatidan keng foydalanilgan. Harbiylar grajdan amaldorlardan pastroq darajada bo'lishgan.

Xitoyda imperatorga butun dunyo bo'ysunishi lozim deb hisoblangan. Elchilar sovg'asini o'lpon deb bilganlar. Sovg'a yuborgan davlatlar esa Xitoyning vassallari deb e'lon qilingan. Lekin bu davlatlar o'zlarini Xitoy bilan teng huquqli deb sanaganlar. Elchilarga Xitoy kiyimi berilgan, uni kiyish bo'ysunish ramzi deb sanalgan.



Chanyan shahrining tashqi ko‘rinishi

VI asrga kelib Xitoyda shahar hayoti va shaharsozlik qayta tiklandi. Shaharlar chegara qo‘rg‘onlari, daryo bo‘ylari va dengiz qirg‘oqlarida paydo bo‘ldi. Xitoyning yirik shahri — Chanyan juda rejali qurilganligi bilan ajralib turardi. Uning sharqiy qismida imperator saroyi va amaldorlarning uylari joylashgan edi.

Shaharlar harbiy-mudofaa, ma‘muriy, iqtisodiy, madaniy ishlarni bajargan. 3 yuqori darajadagi amaldorlardan tashqari kishilarning kechasi ko‘chalarda yurishi taqiqlangan. Shahar devori va to‘siqlardan oshib o‘tganlar 70 marta tayoq bilan savalanganlar.

Hunarmand buyurtmaga qarab ishlar, ortiqchasini bozorda sotardi. Monastirlar huzurida ham ustaxonalar bo‘lgan. Bir soha hunarmandlari muyyan ko‘cha yoki mahallada yashagan. Bozorda bir joyda o‘tirib, buyum sotishgan. VI asrda uning asosida savdo-hunarmandchilik birlashmalari — tuan va xan (Yevropadagi sex) tarkib topdi. Ayrim xanlarga 400 gacha oila a‘zo bo‘lgan. Xanni oqsoqollar boshqargan. Xanlar shogird qabuli va ish vaqtini belgilaganlar, kasb sirlarini saqlaganlar.

Xulosa qilganda, ilk o‘rta asrlar davrida Xitoy bo‘linib ketishiga qaramay, bir necha bor birlashishga muvaffaq bo‘ldi. Suy va Tan podsholiklari davrida iqtisodiy hayot jonlandi, savdo-sotiq o‘sd, shaharlar yuksaldi. Xitoy o‘sha davrning eng taraqqiy etgan davlatiga aylanib, jahon madaniyatiga ulkan hissa qo‘shdi.

Savol va topshiriqlar

1. Xitoyning bo‘linib ketishi oqibatlarini ko‘rsating?
2. Suy sulolasi o‘tkazgan siyosatning mohiyatini nimalardan iborat bo‘lgan?
3. Tan sulolasi davrida Xitoyning ichki va tashqi siyosati qanday bo‘lgan?
4. Tan imperiyasining shaharlari va hunarmandchiligi to‘g‘risida nimalarni bilib oldingiz?

II BOB. RIVOJLANGAN O‘RTA ASRLAR

13-§. XI—XIII asrlarda Yevropada ishlab chiqarishning o‘sishi. O‘rta asr shaharlarining vujudga kelishi

Ilk o‘rta asrlarda natural xo‘jalik hukmronligi. O‘rta asrlarning ilk davri G‘arbiy Yevropada natural xo‘jalikning deyarli to‘liq hukmronligi bilan tavsiflanadi. Dehqon oilasining o‘zi barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlari, mehnat qurollari va kiyim-kechaklarni nafaqat o‘z ehtiyojlari, balki feodalga obrok to‘lash uchun ham ishlab chiqarar edi. Qishloq xo‘jaligining hunarmandchilik bilan uyg‘unligi natural xo‘jalikning o‘ziga xos xususiyatidir. Faqat uncha ko‘p bo‘lmagan maxsus hunarmandlarga yirik feodallarning mulklarida hovli odami sifatida yashaganlar. Bir necha qishloq hunarmandlari — temirchilar, kulollar, ko‘nchilar hunarmandchilik bilan bir qatorda dehqonchilik bilan ham shug‘ullanganlar.

Mahsulot almashinuvi kichkina edi. Ko‘proq iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlar: temir, qalay, mis, tuz va boshqalar, shuningdek, o‘sha paytda Yevropada ishlab chiqarilmaydigan va Sharqdan olib kelinadigan hashamatli buyumlar: shoyi matolar, qimmatbaho zargarlik buyumlari, yaxshi ishlangan qurollar, ziravorlar va boshqalar bilan savdo qilganlar. Bu savdoda ko‘pincha chet ellik savdogarlar (vizantiyaliklar, arablar, suriyaliklar, yahudiylar va boshqalar) muhim rol o‘ynaganlar. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va sotish uchun maxsus mo‘ljallangan hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish G‘arbiy Yevropaning aksariyat qismida deyarli rivojlanmagan edi. Qadimgi Rim shaharlari huvillab qolgan, iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligiga o‘tish sodir bo‘layotgan edi.

Ilk o‘rta asrlarda shahar tipidagi aholi punktlari asosan bo‘shagan yoki yarim buzilgan Rim shaharlari (Milan, Florensiya, Boloniya, Neapol, Amalfi, Parij, Lion, Arl, Kyoln, Mayns, Strasburg, Trir, Augsburg, Vena, London, York, Chester, Gloster va boshqalar) o‘rnida saqlanib qolgan edi. Ammo ular ko‘p jihatdan ma‘muriy markazlar, mustahkamlangan nuqtalar (qo‘rg‘onlar — «burglar») yoki cherkov markazlari (arxiyepiskoplar, yepiskoplar va boshqalarning qarorgohlari) edi.

Shaharlar bu davrda hali hunarmandchilik va savdo markazlariga aylanib ulgurmagan edi. Ularning oz sonli aholisi odatda qishloq aholisidan unchalik farq qilmagan. Ko‘pgina shaharlarda maydonlar va bo‘sh yerlar ekin maydonlari va yaylovlar uchun ishlatilgan. Ilk o‘rta

asrlarda shaharda yashagan oz sonli hunarmandlar va savdogarlar asosan, faqat uning aholisiga xizmat qilib, atrofdagi qishloqlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Shahar tipidagi aholi punktlarining aksariyati Yevropaning eng romanlashgan hududlari: Italiya, Janubiy Galliya, Vestgot qirolligi va keyinchalik arablar Ispaniyasida, shuningdek Vizantiyada saqlanib qolgan edi. Garchi V—VI asrlarda bu hududlardagi shaharlar tushkunlikka uchragan bo'lsa-da, ularning ayrimlari nisbatan gavjum bo'lib, ixtisoslashgan hunarmandchilik va doimiy bozorlarga ega edilar. Ayniqsa, Italiya va Vizantiyadagi ayrim shaharlar Sharq bilan savdo-sotiqning asosiy markazlari edi. Lekin bu hududlarda ham shaharlar feodalizmga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmadi. Yevropa qit'asining katta qismida shahar tipidagi aholi punktlari kamdan-kam uchrar, aholisi oz va sezilarli iqtisodiy ahamiyatga ega emas edi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi. X—XI asrlarga kelib G'arbiy Yevropaning iqtisodiy hayotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Ilk o'rta asrlar davrida feodal ishlab chiqarish usulining o'rnatilishi bilan bog'liq ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi hunarmandchilikda katta tezlik bilan davom etdi. Bu texnikaning asta-sekinlik bilan o'zgarishi va rivojlanishida, asosan, hunarmandchilik va kasbiy mahoratining kengayishi, tabaqalanishi va takomillashtirilishida ifodalandi. Hunarmandchilik faoliyati dehqon mehnatiga mos kelmaydigan ixtisoslashuvni tobora ko'proq talab qildi. Shu bilan birga, ayirboshlash sohasi ham yaxshilandi: yarmarkalar tarqaldi, muntazam bozorlar shakllandi, tanga zarb qilish va muomala sohasi kengaydi, aloqa vositalari va yo'llar rivojlandi.

Qishloq xo'jaligi sohasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar hunarmandchilik va savdo-sotiqning dehqonchilikdan ajralishining yana bir omili bo'ldi. G'alla va texnik ekinlar ekish kengaydi, tomorqa xo'jaligi, bog'dorchilik, uzumchilik, shuningdek, qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan vinochilik, yog'-moy, tegirmon ishi takomillashdi. Chorva mollari soni ko'paytirilib, nasli yaxshilandi. Otlardan foydalanish ot transporti, harbiy ish, yirik qurilish va tuproqqa ishlov berishning yaxshilanishiga olib keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsuldorligining oshishi uning bir qismini tayyor hunarmandchilik mahsulotlariga almashtirish imkonini berdi. Bu dehqonni ularni o'zi uchun ishlab chiqarish zaruratidan xalos qildi. Shular bilan bir qatorda, ixtisoslashgan hunarmandchilik va umuman o'rta asr shaharlari shakllanishi uchun eng muhim ijtimoiy va siyosiy shart-sharoitlar paydo bo'ldi. Feodallashuv jarayoni yakunlandi. Davlat va cherkov shaharlarni

o'z qo'rg'onlari va pul tushumlari manbalari sifatida ko'rib, ularning rivojlanishiga o'ziga xos tarzda hissa qo'shdilar.

Hukmron tabaqaning qurol-yarog' va hashamatli yashashga bo'lgan ehtiyoji professional hunarmandlar sonining ko'payishiga yordam berdi. Davlat soliqlari va senyorlik rentalarining ma'lum vaqtgacha o'sishi dehqonlarning bozor bilan aloqalarini rag'batlantirdi, ular bozorga nafaqat ortiqcha narsalarni, balki o'z hayoti uchun zarur bo'lgan mahsulotlarning bir qismini ham olib kelishlari kerak bo'lib bordi. Boshqa tomondan, tobora ko'proq zulmga duchor bo'lgan dehqonlar shaharlarga qocha boshladilar, bu ularning feodal zulmiga qarshilik ko'rsatish shakli edi.

X—XIII asrlarda hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajralishi va ayirboshlashning rivojlanishi bilan dehqonlar, shu jumladan, har qanday hunarni biladiganlarning qochib ketishi natijasida G'arbiy Yevropaning barcha joylarida yangi, feodal tipidagi shaharlar gullab-yashnadi. Ular hunarmandchilik va savdo markazlari bo'lib, aholining tarkibi va asosiy mashg'ulotlari, ijtimoiy tuzilishi va siyosiy tashkil etilishi bilan bir-biridan farqlanar edi.

Feodal shaharlarining paydo bo'lishi. Shaharlar paydo bo'lishining o'ziga xos tarixiy yo'llari juda xilma-xildir. Qishloqlarni tark etgan dehqonlar va hunarmandlar bozor bilan bog'liq bo'lgan qulay yerlarda o'rnatishdilar. Italiya va Janubiy Fransiyadagi ko'pgina ma'muriy, harbiy va cherkov markazlari eski Rim shaharlari o'rnida joylashgan bo'lib, ular allaqachonlar feodal tipidagi shaharlar sifatida qaytadan tug'ilgan edi. Ushbu punktlarning mustahkamlanishi aholini zarur bo'lgan xavfsizlik bilan ta'minladi.

Bunday markazlarda aholining, jumladan, feodallarning o'z xizmatkorlari va mulozimlari, ruhoniylar, qirol va mahalliy ma'muriyat vakillari bilan to'planishi hunarmandlarning mahsulotlarini sotishi uchun qulay sharoit yaratdi. Biroq Shimoliy-G'arbiy va Markaziy Yevropada hunarmandlar va savdogarlar qasrlar, qo'rg'onlar va monastirlar yaqinida joylashar va ularning aholisiga o'z tovarlarini sotar edilar. Ular an'anaviy savdo uzoq vaqtdan beri faoliyat yuritib kelgan muhim yo'llar kesishmasida, daryodan o'tish joylari va ko'priklarda, kemalarni to'xtatish uchun qulay bo'lgan qo'ltiqlar, buxtalar va shunga o'xshash yerlarda o'rnatishdilar. Bunday «bozor joylari» aholining sezilarli darajada ko'payishi, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va bozor faoliyati uchun qulay sharoitlar mavjudligi bilan ham shaharlarga aylandi.

G'arbiy Yevropaning ayrim hududlarida shaharlarning o'sishi turli sur'atlarda sodir bo'ldi. VIII—IX asrlarda Italiyadagi Venetsiya, Genuya,

Piza, Bari, Neapol, Amalfi; X asrda esa, Fransiya janubidagi Marsel, Arles, Narbonna, Monpele, Tuluza kabi feodal shaharlar, birinchi navbatda, hunarmandchilik va savdo markazlari sifatida shakllangan.

Italiya va janubiy Fransiya shaharlarining erta paydo bo'lishi va o'sishiga bu hududlarning o'sha davrda ancha rivojlangan Vizantiya va Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari ham yordam berdi. Albatta, u yerda ko'plab qadimiy shahar va qo'rg'onlar qoldiqlarining saqlanib qolganligi ham ma'lum rol o'ynadi. Negaki ularda boshpana, himoya, an'anaviy bozorlar, hunarmandchilik tashkilotlari va Rim shahar huquqini topish osonroq edi.

X—XI asrlarda Shimoliy Fransiya, Niderlandiya, Angliya va Germaniyada – Reyn bilan Dunayning yuqori qismida feodal shaharlar vujudga kela boshladi. Flandriyaning Bryugge, Ipr, Gent, Lill, Due, Arras va boshqa shaharlari nozik movutlari bilan dong taratgan edi. Bu o'lkalarda Rim punktlari oz bo'lib, shaharlarning aksariyati yangidan paydo bo'lgan edi.

Keyinchalik, XII—XIII asrlarda Reynorti Germaniyasining shimoliy chekkalari va ichkarisida, Skandinaviya mamlakatlari, Irlandiya, Vengriya, Dunay knyazliklarida feodal shaharlari paydo bo'ldi. Bu yerda barcha shaharlar, odatdagidek, bozor joylari, shuningdek, mintaqaviy markazlar o'rnida shakllanib borgan.

Yevropa bo'ylab shaharlarning taqsimlanishi notekis edi. Ular, ayniqsa, Shimoliy va Markaziy Italiyada, Flandriya va Brabanteda, Reyn bo'yida ko'p edi. Ammo boshqa mamlakatlar va mintaqalarda katta-kichik shaharlar soni shu darajada ediki, qishloq aholisi bir kun ichida ulardan biriga yetib borishi mumkin bo'lgan.

Shaharlarning asosiy aholisini ishlab chiqarish va tovar sotish sohasida band bo'lgan turli savdogarlar va hunarmandlar, tomorqachilar, ovchilar tashkil etgan. Odamlarning ko'pchilik qismi bozorga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullangan. Bular: dengizchilar, aravachilar va hammollar, mehmonxona va uy egalari, qarollar, sartaroshlardir.

Shahar aholisining eng nufuzli qismi yerli aholidan bo'lgan professional sotuvchilar va ularning yuqori qatlami bo'lmish savdogarlar edi. Ilk o'rta asrlardagi oz sonli sayyor savdogarlardan farqli o'laroq, ular tashqi va ichki savdo bilan shug'ullanib, soni va ta'siri jihatidan sezilarli bo'lgan alohida ijtimoiy qatlamni tashkil qilganlar. Savdogarchilik faoliyatini ajratish, unda band bo'lgan shaxslarning alohida qatlamini shakllantirish ijtimoiy mehnat taqsimotida yangi va muhim qadam bo'ldi.



Parij shahri. XV asr tasviri

Yirik shaharlar, ayniqsa, siyosiy va ma'muriy markazlarda feodallar odatda o'z atrofida (xizmatkorlar, harbiy otryadlar), qirol va senyorial ma'muriyat vakillari — xizmat byurokratiyasi, shuningdek notariuslar, tabiblar, maktab va universitet o'qituvchilari yashashgan. Ko'pgina shaharlarda aholining muhim qismini ruhoniylar tashkil etgan.

Shaharliklar ota-bobolari odatda qishloqdan kelganligi

uchun uzoq vaqt shahar tashqarisi va ichkarisida dalalari, yaylovlari, tomorqalarini saqlab, chorva saqlaganlar. Bu o'sha paytdagi qishloq xo'jaligining yetarli darajada tovarlashmaganligi bilan bog'liq edi. Shaharlarga mahsulot ko'pincha senyorlarning qishloq yerlaridan olib kelinar edi. Shaharlar olib kelingan mahsulotni yig'ish, qayta taqsimlash va sotish joyi bo'lib xizmat qilgan.

O'rta asrlardagi G'arbiy Yevropa shaharlarining o'lchamlari juda kichik edi. Odatda ularning aholisi 1 yoki 3-5 ming kishidan iborat edi. Hatto XIV-XV asrlarda ham 20-30 ming aholiga ega shaharlar yirik hisoblangan. Konstantinopol, Parij, Milan, Venetsiya, Florensiya, Kordova, Sevilya kabilarning aholisi 80-100 ming kishidan oshgan edi.

Shaharlar atrofdagi qishloqlardan tashqi ko'rinishi va aholi zichligi bilan farqlangan. Odatda ular toshdan, ozroq hollarda yog'ochdan tiklangan baland devorlar, minoralar va katta darvozalar bilan o'ralgan bo'lib, feodallarning hujumlari va boshqa bosqinlardan himoya qilgan. Kechasi darvozalar yopilib, ko'priklar ko'tarilar, devorlarda qo'riqchilar tashkil qilishar edi.

Vaqtlar o'tishi bilan shahar devorlari torayib, barcha binolarni sig'dira olmay qoldi. Shahar markazini o'rab turgan devorlar atrofida asta-sekin hunarmandlar, mayda savdogarlar va bog'bonlar yashaydigan qishloqlar paydo bo'ldi. Keyinchalik, shahar atrofi, o'z navbatida, devor va istehkomlar halqasi bilan o'rab olingan. Shaharning markazi bozor maydoni bo'lib, uning yonida odatda shahar sobori joylashar, o'zini o'zi boshqaradigan shaharlarda **ratusha** (shahar kengashi binosi) ham bo'lar

edi. Bir xil yoki unga yaqin kasb egalari ko‘pincha bir-birlariga qo‘shni bo‘lib o‘rnashdilar.

Devorlar shaharlarning kengayishiga to‘sqinlik qilganligi sababli, ko‘chalar juda tor qilingan. Chunki, qonunga ko‘ra, ko‘chalar nayza uzunligidan kengroq bo‘lmasligi kerak edi. Ko‘pincha yog‘och uylar bir-biriga yaqin joylashar edi. Tor va qiyshiq ko‘chalarga quyosh nurlari deyarli kirmasdi. Ko‘cha yoritgichlari, shuningdek, kanalizatsiya yo‘q edi. Chiqindi, oziq-ovqat qoldiqlari va kanalizatsiya odatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chaga tashlanardi. Kichik chorva mollari (echkilar, qo‘ylar, cho‘chqalar) tez-tez bu yerda aylanishar, tovuqlar va g‘ozlar timirskilanib yurardi. Shaharlardagi tig‘izlik va antisanitariya tufayli halokatli epidemiyalar avj olar, yong‘inlar tez-tez sodir bo‘lardi.

Shaharlarning senyorlarga qarshi kurashi. O‘rta asrlar shaharlari feodallarning yerida paydo bo‘lganli bois ularga bo‘ysunishi kerak edi. Shahar aholisining katta qismi dastlab erkin bo‘lmagan kishilar (senyorning xizmatchilari), ba’zida sobiq egalardan qochib ketgan yoki ular tomonidan obrok evaziga qo‘yib yuborilgan dehqonlardan iborat edi. Bunda ular ko‘pincha shahar senyoriga shaxsiy qaram bo‘lib qolishar edi. Butun shahar hokimiyati senyorning qo‘lida to‘plangan, aniqrog‘i, shaharning egasiga aylangan edi. Feodal o‘z yerlarida shaharlarning paydo bo‘lishidan manfaatdor bo‘lgan. Chunki shahar hunarmandchiligi va savdodan unga katta daromad kelar edi.

Feodallarning shahardan daromad olishga intilishi muqarrar ravishda **kommuna** harakatini keltirib chiqardi. X—XIII asrlarda butun G‘arbiy Yevropada bo‘lib o‘tgan shaharlar va senyorlar o‘rtasidagi kurash ana shunday deb ataladi. Oldiniga shaharliklar feodal zulmining eng og‘ir shakllaridan xalos bo‘lish, xo‘jayinning yig‘imlarini kamaytirish, savdo imtiyozlari uchun kurashdilar. Keyinchalik shahar boshqaruvi huquqini qo‘lga kiritishdek siyosiy vazifalar qoyildi. Bu kurashning natijasini shaharning xo‘jayinga nisbatan qaramlik darajasi, uning iqtisodiy farovonligi va siyosiy tizimini belgilab berdi. Shaharlarning kurashi umuman feodal tuzumga qarshi emas, balki bu tuzum doirasida shaharlarning mavjudligi va rivojlanishini ta’minlash uchun muayyan senyorlarga qarshi olib borildi.

Ba’zan shaharlar feodaldan pul evaziga yorliqlarda qayd etilgan ma’lum erkinlik va imtiyozlar olishga muvaffaq bo‘lishgan. Boshqa hollarda, bu imtiyozlar, ayniqsa, o‘zini o‘zi boshqarish huquqiga uzoq qurolli kurash natijasida erishilgan. Kommuna kurashi ma’lum bir hudud,

mamlakat yoki xalqaro miqyosdagi boshqa to'qnashuvlar bilan aralashib ketdi va o'rta asrlar Yevropasi siyosiy hayotining muhim qismiga aylandi.

Kommuna harakatlari turli mamlakatlar tarixiy taraqqiyotiga qarab turlicha kechgan. Fransiyaning janubida shahar aholisi IX—XII asrlarda, asosan, qon to'kilmasdan erkinlikka erishdilar. Fransiyaning janubidagi Tuluza, Marsel, Monpele va boshqa shaharlar, shuningdek, Flandriya graflari nafaqat shaharlarning senyorlari, balki butun mintaqalarning egalari edi. Ular o'lka shaharlarining o'sishiga qiziqar, ularga munitsipal erkinliklar berishar, nisbiy mustaqilliklariga to'sqinlik qilmas edilar. Biroq, ular kommunalarning haddan tashqari kuchli bo'lishini, to'liq mustaqillikka erishishlarini istamaganlar. Bu, masalan, bir asr davomida mustaqil aristokratik respublika bo'lgan Marsel bilan ham sodir bo'ldi. XIII asr oxirida 8 oylik qamaldan so'ng Provans grafi Karl Anjuylik shaharni egallab, unga o'z noibini qo'ydi, shahar daromadlarini o'zlashtira boshladi, shahar hunarmandchiligi va o'zi uchun foydali bo'lgan savdoni qo'llab-quvvatlash uchun mablag' ajrata boshladi.

XI—XII asrlarda Shimoliy va Markaziy Italiyaning ko'pgina shaharlari – Venetsiya, Genuya, Siena, Florensiya, Lukka, Boloniya va boshqalar shahar-davlatlarga aylandilar. Italiyadagi kommuna kurashining eng yorqin va eng tipik sahifalaridan biri hunarmandchilik va savdo markazi, Germaniyaga boradigan muhim yo'lda joylashgan Milanda sodir bo'ldi. XI asrda u yerdagi graf hokimiyati aristokratik va ruhoniylar vakillari yordamida hukmronlik qilgan arxiyepiskop hokimiyati bilan almashtirildi. XI asr davomida shaharliklar senyorga qarshi kurash olib bordilar. Bu kurash shaharning barcha qatlamlarini birlashtirdi. 1050 yillardan boshlab shaharliklarning harakati yepiskopga qarshi urushga olib keldi. Bu keyinchalik Italiyani qamrab olgan kuchli yeretiklik harakati bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Shaharlik qo'zg'olonchilar ruhoniylarga hujum qilib, ularning uylarini buzdilar. Bu voqealarga hukmdorlar ham aralashishdi. Nihoyat, XI asrning oxirida shahar kommuna maqomini oldi. Unga imtiyozli grajdanlar – savdogar-feodal doiralari vakillaridan iborat konsullar kengashi boshchilik qildi. Milan kommunasining aristokratik tizimi, shubhasiz, shaharliklar ommasini qoniqtirmadi, ularning kurashi keyingi davrda ham davom etdi.

XII—XIII asrlarda Germaniya shaharlarida ham kommunalarga o'xshash tartib o'rnatildi. Rasmiy jihatdan ular imperatorga bo'ysunar, amalda mustaqil shahar respublikalari edi (Lyubek, Nyurnberg, Mayndagi Frankfurt va boshqalar). Ular shahar kengashlari tomonidan boshqarilar,

mustaqil ravishda urush e'lon qilish, tinchlik va ittifoq tuzish, tangalar zarb qilish va boshqa huquqlarga ega edilar.

G'arbiy Yevropadagi Amyen, Sen-Kanten, Nuayon, Bove, Suasson (Shimoliy Fransiya), Gent, Bryugge, Ipr, Lill, Due, Sant-Omer, Arras (Flandriya) singari shaharlar o'z senyorlariga qarshu qurolli kurash natijasida o'zini-o'zi boshqaradigan kommuna shaharlariga aylandilar. Ular o'z orasidan kengash, uning boshlig'i — mer va boshqa mansabdor shaxslarni tanlar, o'zlarining sud va harbiy militsiyasiga, o'z mablag'lariga ega bo'lib, soliqlarni mustaqil belgilardilar. Shahar-kommunalar aholisi barshina o'tash, yig'imglar va boshqa majburiyatlarni bajarishdan qutuldi. Buning evaziga ular har yili senyorga uncha yirik bo'lmagan pul rentasini to'lar, urush paytlari unga yordam berish uchun kichik harbiy otryad jo'natardilar.

Lekin bu har doim ham shunday bo'lavermagan. Fransiyaning shimolidagi Lan shahrining erkinlik uchun kurashi 200 yildan ortiq davom etdi. Uning senyori (1106 yildan), urush va ovni yaxshi ko'radigan yepiskop Godri shaharda odamlarni o'ldirishgacha bo'lgan ayovsiz senyorial rejimni o'rnatdi. Lana aholisi yepiskopdan ularga ma'lum huquqlar beruvchi yorliqni sotib olishga muvaffaq bo'lishdi, uning roziligi uchun qirolga ham pul to'lashdi. Ammo yepiskop tez orada yorliqni o'zi uchun foydasiz deb topdi va qirolga pora berib, uning bekor qilinishiga erishdi. Shahar aholisi qo'zg'olon ko'tarib, boylarning uylari va yepiskop saroyini talon-taroj qildi. So'ng bo'sh bochkaga yashiringan Godrining o'zini o'ldirishdi. Qirol kuch bilan Landagi eski tartibni tikladi, ammo 1129 yilda shahar aholisi yangi qo'zg'olon ko'tardi. Ko'p yillar davomida kommuna yorlig'i uchun kurashda goh shaharliklar, goh qirolning qo'li baland kelib turdi. Faqat 1331 yilda qirol ko'plab mahalliy feodallar yordamida uzil-kesil yengib chiqdi. Shaharni uning sudyalari va amaldorlari boshqardilar.

O'z senyorlariga qarshi kurashish uchun zarur kuch va mablag'ga ega bo'lmagan ko'pgina shaharlar, ayniqsa, kichik shaharlar butunlay senyorial ma'muriyat qo'lida qoldi. Bu, ayniqsa, o'z shahardoshlariga qattiq zulm o'tkazgan ruhoniylar xo'jayinlarga tegishli bo'lgan shaharlarga xosdir.

G'arbiy Yevropadagi shaharlarning o'z senyorlari bilan kurashining eng muhim natijalaridan biri shaharliklarning mutlaq ko'pchiligi shaxsiy qaramlikdan qutulishga erishdi. O'rta asrlarda Yevropada shaharga qochib ketgan qaram dehqon ma'lum bir muddat yashasa (o'sha paytdagi odatiy

formulaga ko‘ra – «bir yil va bir kun») erkinlikka chiqardi. «Shahar havosi erkin qiladi», deyiladi o‘rta asrlar maqolida.

Shahar tabaqalarining shakllanishi va o‘sishi. Shaharlar, hunarmandchilik va savdo korporatsiyalarining rivojlanishi, shaharliklarning senyorlarga qarshi kurashi va shahar muhitidagi ichki ijtimoiy nizolar jarayonida o‘rta asrlar feodal Yevropasida shaharliklarning bo‘lakcha tabaqalari shakllandi.

Iqtisodiy jihatdan, yangi tabaqa savdo-sotiq, hunarmandchilik va ayirboshlashga asoslangan mulkchilik bilan bog‘liq edi. Siyosiy va huquqiy nuqtai nazardan, ushbu tabaqaning barcha a‘zolari bir qator imtiyoz va erkinliklarga ega edilar. Odatda shaharliklar «burgerlar» tushunchasi bilan belgilanadi.

Bir qator Yevropa mamlakatlarida «burger» so‘zi dastlab barcha shahar aholisini bildirgan (nemis tilidagi «burg» — shahar so‘zidan, o‘rta asrlar lotin tilidagi «burgensis» va fransuzcha «bourgeoisie» — «burjuaziya» atamasi kelib chiqqan bo‘lib, u ham ilk paytlarda shahar aholisini anglatgan). Mulkiy va ijtimoiy ahvoliga ko‘ra shaharliklarning tabaqasi bir xil emas edi. Uning ichida patritsiat, boy savdogarlar, hunarmandlar va uy egalari, oddiy ishchilar va nihoyat, shahar kambag‘allari qatlami mavjud edi. Bu tabaqalanish chuqurlashgani sari «burger» atamasi asta-sekin o‘z ma’nosini o‘zgartirdi. XII—XIII asrlarda u faqat to‘la huquqli shaharliklarni belgilash uchun qo‘llanila boshlandi. XIV—XV asrlarda bu atama bilan odatda, shahar aholisining boy va to‘kis qatlamlari tushunilgan, ulardan keyinchalik burjuaziyaning ilk elementlari o‘sib chiqqan.

Feodal jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayotida shaharlar aholisi alohida o‘rin tutgan. Ko‘pincha feodallarga qarshi kurashda (ba‘zan qirol bilan ittifoqda) yagona kuch sifatida harakat qilgan. Keyinchalik shaharliklar tabaqaviy-vakillik yig‘inlarida muhim rol o‘ynay boshlagan.

Savol va topshiriqlar

1. Ilk o‘rta asrlarda natural xo‘jalik hukmronligi qanday bo‘lgan?
2. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishiga sabab bo‘lgan omillarni ko‘rsating.
3. Feodal shaharlari qanday vujudga kelgan?
4. Ilk o‘rta asrlar shaharlarining ko‘rinishi qanday bo‘lgan?
5. Nima sababdan shaharlar senyorlarga qarshi kurash olib borishgan?
6. Shaharda shakllangan yangi qatlam nima deb atalgan?

14-§. O'rta asrlar hunarmandchiligi

Shaharlarda hunarmandchilik. Sexlar. O'rta asrlar shahrining ishlab chiqarish asosini hunarmandchilik tashkil etdi. Hunarmand, xuddi dehqon kabi, ishlab chiqarish qurollariga egalik qiluvchi, asosan shaxsiy mehnatga asoslangan o'z xo'jaligini mustaqil boshqaradigan mayda ishlab chiqaruvchi edi.

Tor bozor va mayda ishlab chiqarish sharoitida hunarmand ishining maqsadi foyda olish va boyish emas, balki faqat uning ijtimoiy mavqeiga mos keladigan darajada mavjud bo'lishida edi. Ammo dehqondan farqli o'laroq, hunarmand, birinchidan, boshdan tovar ishlab chiqaruvchi bo'lib, tovar xo'jaligini boshqargan. Ikkinchidan, unga bevosita ishlab chiqarish vositasi sifatida yer unchalik kerak emas edi. Binobarin, shahar hunarmandchiligi dehqonchilik va qishloqdagi uy hunarmandchiligiga nisbatan tez rivojlandi va takomillashib bordi. Shunisi ham diqqatga sazovorki, shahar hunarmandchiligida ishchining shaxsiy qaramligiga iqtisodiy zaruriyat bo'lmagan va u tezda yo'qolgan. Bu yerda hunarmandchilikning sex tashkiloti va shahar tizimining feodal ko'rinishdagi korporativ-tabaqa bilan bog'liq bo'lgan majburlash turlari paydo bo'ldi. Bu majburlov shaharliklarning o'zidan chiqqan edi.

G'arbiy Yevropaning ko'plab o'rta asr shaharlaridagi hunarmandchilik faoliyatlarning o'ziga xos xususiyati — korporativ tashkilotlarga birlashish edi. Germaniyada uni «sex» («**zeche**» — bir tabaqa kishilarining uyushmasi) deb atashgan. Hunarmandchilik sexlari XI asrdan — XII asr boshlarigacha Fransiya, Angliya, Germaniya shaharlari bilan deyarli bir vaqtning o'zida paydo bo'ldi.

Sexlar shahar hunarmandlarining o'z ishlab chiqarishi va daromadlarini feodallardan, boshqa shahar yoki qishloq hunarmandlari hamda qo'shni ustalar raqobatidan saqlanish uchun tuzilar edi. Bunday raqobat o'sha davrdagi juda tor bozor sharoitida xavfli edi. Shuning uchun sexlarning asosiy ishi hunarmandchilikning muayyan turi bo'yicha monopoliyani o'rnatish edi. Ko'pgina shaharlarda sexga a'zolik hunarmandchilik qilishning zaruriy sharti edi. Sexlarning yana bir asosiy vazifasi hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish va sotish ustidan nazorat o'rnatish edi.

Hunarmandlarning har biri bevosita ishchi va ayni paytda ishlab chiqarish vositalarining egasi edi. U o'z ustaxonasida asboblari va xom ashyosi bilan ishlagan. Qoidaga ko'ra, hunarmandchilik meros bo'lib o'tardi. Negaki, hunarmandlarning ko'p avlodlari o'zlarining bobolari kabi

bir xil asbob va uskunalar bilan ishlaganlar. Ajralayotgan yangi ixtisosliklar alohida sexlarga uyushardi. Ko'pgina shaharlarda asta-sekinlik bilan o'nlab, eng yiriklarida, hatto yuzlab sexlar paydo bo'ldi.

Sex ustasining ishiga odatda uning oilasi, bir yoki ikkita xalfasi va bir nechta shogirdlari yordam berar edi. Lekin faqatgina usta, ya'ni ustaxona egasi sex a'zosi bo'lishi mumkin edi. Sexning yana bir muhim vazifalaridan biri ustalarning xalfalar va shogirdlar bilan munosabatlarini tartibga solish edi. Usta, xalfa va shogird sex iyerarxiyasining turli darajalarida turishgan. Sexga a'zo bo'lishni istagan har bir kishi albatta ikkita quyi bosqichni o'tashi lozim edi. Dastlab, shogirdlik, keyin xalfa, shundan so'ng usta bo'lishi mumkin edi.

Sex a'zolari o'z mahsulotlarining to'siqsiz sotilishiga qiziqishgan. Shuning uchun sex maxsus saylangan mansabdor shaxslar orqali ishlab chiqarishni qat'iy tartibga solgan, ya'ni har bir usta ma'lum tur va sifatda mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilgan. Sexda, masalan, matoning kengligi va rangi qanday bo'lishi kerakligi, halqada qancha ip bo'lishi kerakligi, qanday asbob va xom ashyolardan foydalanish kerakligi va boshqalar ko'rsatib turilgan. Ishlab chiqarishni tartibga solish boshqa maqsadlarga ham xizmat qildi. Sex a'zolarining ishlab chiqarish hajmi kengaytirilmas, shu sabab ularning hech biri boshqa ustani ko'proq mahsulot ishlab chiqarish yoki arzonlashtirish orqali bozordan siqib chiqarmasdi. Shu maqsadda sex nizomlarida usta ushlab turishi mumkin bo'lgan xalfa va shogirdlar soni me'yorlashtirilgan, kechalari va bayram kunlari ishlash taqiqlangan, har bir ustaxonadagi uskuna va xom ashyo soni cheklangan, hunarmandchilik buyumlari narxi tartibga solingan va hokazolar.

XIV asr oxirigacha G'arbiy Yevropadagi sexlar ijobiy rol o'ynashdi. Ular hunarmandlarni feodallar tomonidan haddan tashqari ekspluatatsiya qilishdan himoya qildilar, o'sha paytdagi tor bozor sharoitida shahar mayda ishlab chiqaruvchilarining mavjudligini ta'minladilar, ular o'rtasidagi raqobatni yumshatib, o'zgalar raqobatidan to'sib turdilar.

Sex tashkiloti asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ishlarni bajarish bilan cheklanib qolmagan, balki hunarmand hayotining barcha qirralarini qamrab olgan. Sexlar shahar aholisini feodallarga qarshi, keyin esa boylar hukmronligiga qarshi kurashish uchun birlashtirgan. Sex shaharni himoya qilishda qatnashgan va alohida jangovar bo'linma sifatida harakat qilgan. Har bir sex o'zining muqaddas homiysi (piri), o'z cherkoviga ega bo'lgan. Sex shuningdek, muhtoj hunarmandlar va ularning oila a'zolari kasal

bo'lib qolgan yoki boquvchisi o'lgan taqdirda yordam ko'rsatadigan tashkilot edi.

Biroq, Yevropadagi sex tizimi universal emas edi. Bir qator mamlakatlarda u tarqalmagan va hamma joyda yakuniy shaklga yetib kelmagan edi. Shu bilan birga, Shimoliy Yevropa, Fransiyaning janubi, boshqa ayrim mamlakatlar va mintaqalarda erkin hunarmandchilik mavjud edi. Ammo u yerda ham ishlab chiqarishni tartibga solish, shahar hunarmandlarining monopoliyasini himoya qilish mavjud edi, faqat bu funksiyalar shahar hokimiyati tomonidan amalga oshirilardi.

Sexlarning boylarga qarshi kurashi. Shaharlarning senyorlarga qarshi kurashi aksariyat hollarda shahar boshqaruvining u yoki bu darajada shaharliklar qo'liga o'tishiga olib keldi. Lekin o'sha paytda ularning o'rtasida sezilarli ijtimoiy tabaqalanish mavjud edi. Shu sabab, senyorlarga qarshi kurashni barcha shaharliklar olib borgan bo'lsalar-da, uning natijalaridan faqat shahar aholisining yuqori qismi: uy-joy egalari, sudxo'rlar va, albatta, tranzit savdosi bilan shug'ullanadigan ulgurji savdogarlar to'liq foydalandilar.

Ushbu yuqori, imtiyozli qatlam shaharning nasliy aristokratiyasi – boylar (patritsiat) bo'lib, o'z orasiga yangi a'zolari qiyinchilik bilan kiritar edi. Shahar kengashi, mer (burgomistr), sud hay'ati faqat patritsiylar va ularning himoyachilari orasidan saylangan. Shahar boshqaruvi, sudlar va moliya, shu jumladan soliq, qurilish – barchasi shahar elitasi qo'lida bo'lib, uning va butun shaharning qiziqishlarini hisobga olgan holda ishlatilgan.

Ammo hunarmandchilik rivojlanib, sexlarning roli kuchayib borgani sari hunarmandlar va mayda savdogarlar shaharda hokimiyat uchun boylar bilan kurashga kirishdilar. Yollanma ishchilar va kambag'allar ham ularga qo'shildilar. XIII—XIV asrlarda sex inqiloblari deb atalgan bu kurash o'rta asr Yevropasining deyarli barcha mamlakatlarida avj oldi va ko'pincha juda keskin, hatto qurolli xususiyatga ega bo'ldi. Hunarmandchilik rivojlangan ayrim shaharlarda (Kyoln, Bazel, Florensiya va boshqalar) sexlar g'alaba qozondi. Yirik savdo va savdogarlar yetakchi rol o'ynagan Gamburg, Lyubek, Rostok kabi shaharlarda yuqori tabaqa yutib chiqdi. Ammo sexlar g'alaba qozongan joylarda ham shaharni boshqarishda chinakam demokratik tartibot o'rnatilmadi. Chunki eng nufuzli sexlarning boy qatlamlari g'alabadan keyin patritsiatning bir qismi bilan birlashdi va eng boy kishilar qiziqishlarini ko'zlab harakat qiladigan yangi oligarxik ma'muriyatni (Augsburg va boshqalar) o'rnatdilar.

Sex tizimi tushkunligining boshlanishi. XIV—XV asrlarda sexlarning roli ko‘p jihatdan o‘zgardi. Ularning konservatizmi, kichik ishlab chiqarishni, an‘anaviy usul va vositalarni davom ettirishga intilishi, raqobatdan qo‘rqib, texnik yangilanishlarga yo‘l qoymasligi sexlarning keyingi taraqqiyotiga g‘ov bo‘ldi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi, ichki va tashqi bozorning kengayishi bilan sex ichidagi hunarmandlar o‘rtasida keskin raqobat yuzaga keldi. Yolg‘iz ishlovchi hunarmandlar sex nizomlariga zid ravishda ishlab chiqarishni kengaytirdilar, natijada ustalar o‘rtasida mulkiy va ijtimoiy tengsizlik yuzaga keldi. Yirik ustaxonalarining egalari kambag‘al ustalarga ish bera boshladilar, ularni xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar bilan ta‘minlab, tayyor mahsulotlarni qabul qila boshladilar. Ilgari uyushgan kichik hunarmandlar va savdogarlardan asta-sekinlik bilan kichik hunarmandlarni ekspluatatsiya qiladigan boy sex tabaqasi paydo bo‘ldi.

Sex hunarmandchiligi ichidagi tabaqalanish, shuningdek, sexlarning kuchliroq, boyroq («katta») va kambag‘alroq («kichik») sexlarga bo‘linishida ham ifodalangan. Bu, birinchi navbatda, eng yirik shaharlar: Florensiya, Perudja, London, Bristol, Parij, Bazel va boshqalarda sodir bo‘ldi. Katta sexlar kichiklari ustidan hukmronlik o‘rnatib, ularni ekspluatatsiya qila boshladi, shuning uchun kichik sexlar a‘zolari o‘zlarining iqtisodiy va huquqiy mustaqilligini yo‘qotib, amalda yollanma ishchilarga aylanardilar.

Xalfa va shogirdlarning ahvoli, ularning ustalarga qarshi kurashi. Vaqt o‘tishi bilan xalfa va shogirdlar ham mazlumlar ahvoliga tushib qolishdi. Oldiniga bu hunarmandchilikni o‘rganishning uzoq davom etganligi bilan bog‘liq edi. Turli hunarmandchilikda bu davr 2 yildan 7 yilgacha bo‘lgan, ayrim ustaxonalarda esa 10-12 yilga yetgan. Bunday sharoitda usta o‘zining yetarlicha malakali shogirdining tekin mehnatidan uzoq vaqt foydalanishi mumkin edi.

Sex ustalari xalfalarni ham tobora ko‘proq ekspluatatsiya qilishardi. Ularning ish kuni juda uzoq bo‘lib, 14-16, ba‘zan esa 18 soatgacha yetardi. Xalfalar sex sudi, ya‘ni, ustalar tomonidan sudlangan. Sexlar xalfa va shogirdlarning hayoti, ularning vaqti, kirim-chiqimlari, tanish-bilishlarini nazorat qilib borardi. XIV—XV asrlarda ilg‘or mamlakatlarda sex hunarmandchiligi tushkunlikka uchray boshlaganida xalfa va shogirdlarning ekspluatatsiyasi doimiy tus oldi. Sex tizimi mavjud bo‘lgan ilk davrda o‘quvchi shogirdlik tajribasidan o‘tib, xalfa bo‘lishi, keyin bir muncha vaqt ustada ishlab, oz miqdorda pul yig‘ib, usta bo‘lishi mumkin edi. Endi xalfalar va shogirdlar uchun ushbu maqomga kirish chindan ham

yopildi. Usta unvonini olish uchun o'qish va a'lo darajada ishlash guvohnomalaridan tashqari, sexning kassasiga yirik miqdorda kirish to'lovini to'lashi, namunali ishni («shedevr») yasashi, sex a'zolari uchun quyuq o'tirishni uyushtirishi kerak edi. Sexga faqat ustaning yaqin qarindoshlarigina bemalol kirishlari mumkin edi. Ko'pchilik xalfalar o'z maqomida umrbod qolib, yollanma ishchilarga aylandi.

O'z manfaatlarini himoya qilish uchun xalfalar maxsus tashkilotlar – qardoshliklar va kompanyonajlarni tuzdilar. Ular o'zaro yordam berish va ustalarga qarshi kurash uyushmalari edi. Xalfalar ish haqini oshirish, ish vaqtini qisqartirishdek iqtisodiy talablarni ilgari suradilar; ish tashlash va eng yomon ustalarga qarshi boykot qilish kabi keskin kurash shakllarini qo'lladilar.

XIV—XV asrlarda xalfalar va shogirdlar shaharlardagi yollanma ishchilar qatlamining eng uyushgan va malakali qismini tashkil qilgan. Shuningdek, uning tarkibiga sexdan tashqaridagi yollanma batraklar va ishchilar kirgan, ularning safi yerlaridan ayrilib, shaharlarga kelgan dehqonlar, shuningdek, haligacha ustaxonalarini saqlab qolgan qashshoq hunarmandlar tomonidan to'ldirilib turilgan. Bu qatlam keyinchalik, manufakturaning keng rivojlanishi davrida to'liq shakllangan proletariatgacha bo'lgan elementni tashkil etgan.

O'rta asrlar shahri ichida ijtimoiy qarama-qarshiliklar kuchayib borar ekan, shahar aholisining ekspluatatsiya qilingan qatlamlari hokimiyat tepasida turgan boylarga ochiq qarshilik ko'rsata boshladilar. Ko'pchilik shaharlar tepasida endilikda boylar bilan bir qatorda sexlarning yuqori qismi ham bor edi. Bu kurashga shahar plebeylari - shahar aholisining eng quyi va hech qanday huquqqa ega bo'lmagan qatlami ham kirdi.

XIV—XV asrlarda shahar aholisining quyi qatlamlari G'arbiy Yevropaning Florensiya, Perudja, Siena, Kyoln va boshqa shaharlarda oligarxiya bilan sex boshliqlariga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Ushbu qo'zg'olonlarda yollanma ishchilar katta rol o'ynadi.

Shunday qilib, G'arbiy Yevropaning o'rta asr shaharlarida avj olgan ijtimoiy kurashda uchta asosiy bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin. Oldiniga shahar aholisining butun ommasi feodal senyorlarning hokimiyatidan qutulish uchun ularga qarshi kurash olib bordi. Keyin sexlar shahar boylari bilan kurash olib bordilar. So'ng shahar quyi tabaqalarining boy shahar ustalari va savdogarlari, shahar oligarxiyasiga qarshi kurashi boshlanib ketdi.

G'arbiy Yevropada savdo va kredit ishlarining rivojlanishi.
G'arbiy Yevropada shaharlarning o'sishi XI—XV asrlarda ichki va tashqi

savdoning rivojlanishiga yordam berdi. Shaharlar, birinchi galda, ichki bozorni shakllantirdi, bu yerda qishloq bilan ayirboshlash amalga oshirildi.

Biroq rivojlangan feodalizm davrida uzoq va tranzit savdosi sotilgan mahsulot tannarxi, jamiyatdagi obro‘-e‘tibori jihatidan kattaroq rol o‘ynashda davom etdi. XI—XV asrlarda Yevropada bunday mintaqalararo savdo asosan ikkita savdo yo‘lagi ustida to‘plangan. Ulardan biri O‘rta yer dengizi bo‘lib, u Levant yo‘li deb atalgan. Bu yo‘l G‘arbiy Yevropa mamlakatlari — Ispaniya, Janubiy va Markaziy Fransiya, Italiya, Vizantiya, Qora dengiz va Sharq mamlakatlari bilan savdosini bog‘lashga xizmat qilgan. XII—XIII asrlardan, ayniqsa, salib yurishlari natijasida Levant yo‘lidagi ustunlik Vizantiya va arablardan Genuya va Venetsiya, Marsel va Barselona savdogarlariga o‘tdi. Bu yerda asosiy savdo obyektlari Sharqdan olib kelingan hashamatli buyumlar, ziravorlar, chaqmoqtoshlar, vino va qisman don edi. G‘arbdan Sharqqa movut va boshqa turdagi matolar, oltin, kumush, qurol-yarog‘lar olib borilgan. Boshqa tovarlar bilan bir qatorda, bu savdoda ko‘plab qullar sotilgan.

Yevropa savdosining boshqa bir tarmog‘i Boltiq va Shimoliy dengizlarni qamrab olgan. Unda Rossiyaning shimoli-g‘arbiy hududlari (ayniqsa Narva, Novgorod, Pskov va Polotsk), Polsha va Sharqiy Boltiqbo‘yi – Riga, Revel (Tallin), Dansig (Gdansk), Shimoliy Germaniya, Skandinaviya mamlakatlari, Flandriya, Brabant, Shimoliy Niderlandiya, Shimoliy Fransiya va Angliya qatnashgan. Bu hududda asosan, keng iste‘moli mollari: baliq, tuz, mo‘yna, jun va movut, zig‘ir, kanop, mum, smola va yog‘och (ayniqsa, kema yog‘ochlari), XV asrdan boshlab – non savdosi bilan shug‘ullanilgan.

Xalqaro savdoning ikkala tarmog‘i o‘rtasidagi aloqalar Alp tog‘lari, Reyn daryosi va Yevropaning Atlantika qirg‘oqlari bo‘ylab joylashgan hamda tranzit savdosi bilan shug‘ullanadigan shaharlar orqali amalga oshirilgan. XI—XII asrlardayoq ichki va tashqi savdoda Fransiya, Italiya, Germaniya, Angliyada keng tarqalgan yarmarkalar muhim rol o‘ynagan. Bu yerda talab yuqori bo‘lgan tovarlar: gazlamalar, charm, mo‘yna, movut, metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, don, vino va moyning ulgurji savdosi amalga oshirilgan.

XII—XIII asrlarda Fransiyaning Shampagne grafligidagi yarmarkalarda deyarli yil davomida Yevropaning ko‘pgina davlatlaridan kelgan savdogarlar uchrashishardi. U yerga venetsiyaliklar va genuyaliklar qimmatbaho sharq tovarlarini yetkazib berganlar. Flamand va florensiyalik savdogarlar movut, Germaniya savdogarlari zig‘ir matolar, chex savdogarlari movut, charm va metall buyumlar, Angliyadan jun, qalay,

qo'rg'oshin va temir olib kelganlar. XIV—XV asrlarda Bryugge (Flandriya) shahri Yevropa yarmarka savdosining asosiy markaziga aylandi.

O'sha paytdagi savdoning ko'lami yuqori emas edi. U mehnat unumdorligining pastligi, qishloqda natural xo'jalikning hukmronligi, shuningdek, feodallarning o'zboshimchaligi va tarqoqligi tufayli chegaralangan edi. Savdogarlardan bir senyorning mulkidan ikkinchisining yerlariga ko'chib o'tishda, ko'priklar va hatto daryoning kechuv joylaridan o'tishda, u yoki bu senyorning mulkida oqadigan daryo bo'ylab yurishida barcha turdagi yig'imlar undirilgan. Eng dongdor ritsarlar va hatto qirollar ham savdo karvonlariga hujum qilib turganlar.

Shunga qaramay, tovar-pul munosabatlarining bosqichma-bosqich o'sishi shahar aholisi alohida guruhi, birinchi o'rinda, savdogarlar va sudxo'rlar qo'lida pul kapitalini to'plash imkonini berdi. Pul mablag'larining to'planishiga o'rta asrlarda pul birliklarining xilma-xilligi tufayli zarur bo'lgan pul ayirboshlash operatsiyalari ham yordam berdi. Chunki pulni nafaqat hukmdorlar, balki barcha senyorlar va yepiskoplar, shuningdek, yirik shaharlar ham so'qishgan.

Bir pulni boshqasiga almashtirish va ma'lum bir tanganing ekvivalent qiymatini belgilash uchun maxsus ayirboshlovchi kasbi paydo bo'ldi. Ayirboshlovchilar nafaqat tanga almashtirish, balki pul summalarini o'tkazish bilan ham shug'ullanganlar. Ana shundan kredit operatsiyalari vujudga kelgan.

Sudxo'rlik odatda shu ish bilan bog'liq edi. Ayirboshlash va kredit operatsiyalari maxsus bank idoralarining paydo bo'lishiga olib keldi. Birinchi bunday idoralar Shimoliy Italiya shaharlari – Lombardiyada paydo bo'ldi. Shu bois «lombard» so'zi o'rta asrlarda bankir va sudxo'rning sinonimi bo'lib, keyinchalik lombardlar nomida saqlanib qoldi.

O'rta asr shaharlarining iqtisodiy asosini hunarmandchilik bilan bir qatorda savdo ham tashkil etgan. Aholining muayyan qismi uchun savdo asosiy mashg'ulot edi. Professional savdogarlar orasida hunarmandchilik muhitiga yaqin bo'lgan kichik do'kondorlar va tarqatuvchilar ustunlik qildi. Yuqori qatlamni boy savdogarlar tashkil etdi. Ular asosan shaharlararo tranzit va ulgurji operatsiyalar bilan shug'ullanar, turli shaharlar va mamlakatlarga chiqar, u yerda idoralar va xodimlarga ega edilar. Ko'pincha ular bankirlar va yirik sudxo'rlarga aylanar edilar. Eng boy va eng nufuzli savdogarlar poytaxt va port shaharlari: Konstantinopol, London, Marsel, Venetsiya, Genuya, Lyubekda to'planganlar. Ko'p

mamlakatlarda uzoq vaqt davomida savdogarlarning yuqori tabaqasini chet elliklar tashkil qilgan.

Ilk oʻrta asrlarning oxirida allaqachonlar shahar savdogarlari uyushmalari — gildiyalar paydo boʻldi va keyinchalik keng tarqaldi. Hunarmandchilik sexlari kabi, ular odatda kasbiy qiziqishlar boʻyicha, yaʼni bir joyga yoki bir xil tovarlar bilan chiqayotgan savdogarlarni birlashtirgan. Shuning uchun yirik shaharlarda bir nechta gildiyalar mavjud edi. Savdo gildiyalari oʻz aʼzolariga savdoda monopol yoki imtiyozli shart-sharoitlar va huquqiy himoyani taʼminladilar, oʻzaro yordam koʻrsatdilar. Ular diniy va harbiy tashkilotlar edilar. Har bir shaharning savdo muhiti, xuddi hunarmandchilik muhiti kabi, oilaviy va korporativ aloqalar bilan bogʻlanar edi. Unga boshqa shaharlardagi savdogarlar ham qoʻshilganlar. «Savdo uylari» — oilaviy savdo kompaniyalari odatiy holga aylandi.

XIII asrda savdo konsullari instituti vujudga keldi. Unda savdogarlarning manfaatlari va shaxsiyatini himoya qilish uchun shaharlar oʻz konsullarini boshqa shahar va mamlakatlarga yuborardilar. XV asr oxiriga kelib savdo bitimlari tuziladigan birjalar paydo boʻldi.

Turli shaharlardagi savdogarlar ham baʼzan birlashishgan. Bunday uyushmaning eng yirigi Hanza boʻlib, u koʻplab german va gʻarbiy slavyan shaharlari savdogarlarining savdo-siyosiy ittifoqi edi. Uning bir nechta boʻlimlari boʻlgan va XVI asr boshlarigacha Shimoliy Yevropa savdosini nazorat qilgan.

Savdogarlar jamiyat va shahar hayotida muhim rol oʻynaganlar. Aynan ular munitsipalitetlarda hukmronlik qilganlar, umumdavlat forumlarida shaharlar nomidan qatnashganlar, feodallarning bosqinchiligi va yangi yerlarni mustamlaka qilishda ishtirok etganlar.

Hunarmandchilik muhitida kapitalistik munosabatlarning tugʻilishi. XIV asr oxiri — XV asrda ichki va tashqi savdodagi muvaffaqiyatlar yirik savdogarlar qoʻlidagi savdo kapitalining oʻsishiga olib keldi. Savdo yoki sudxoʻrlik mablagʻi kapitalning eng qadimgi erkin shaklidir. U quldorlik, feodal va kapitalistik jamiyatlarda tovar ayirboshlashga xizmat qildi. Odatda savdogar xomashyoni ulgurjisiga xarid qilib, ularni hunarmandlarga sotgan, keyin esa ulardan tayyor mahsulotlarni sotib olib, bozorga chiqarish bilan ifodalangan. Kam daromadli hunarmand savdogarga qaram boʻlib qolgan. U xomashyo va sotish bozoridan ajralib qolganligi bois savdogar-olibsotarga mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi sifatida emas, balki, amalda yollanma ishchi sifatida ishlashga majbur boʻlgan.

Biroq XI—XV asrlar shaharlarida kapitalistik munosabatlarning ahamiyatini oshirib yubormaslik kerak. Ularning paydo bo‘lishi kamdan-kam hollarda, bir nechta yirik markazlarda (asosan Italiyada) va ishlab chiqarishning eng rivojlangan tarmoqlarida, asosan, mato ishlab chiqarishda (qisman kon-metallurgiya va boshqa sohalarda) sodir bo‘ldi. Xarakterli jihati shundaki, hatto G‘arbiy Yevropaning yirik shaharlarida ham savdo va sudxo‘rlikda to‘plangan kapitalning salmoqli qismi sanoat ishlab chiqarishini kengaytirishga emas, balki yer va mulk olish uchun ishlatilgan. Kapital egalari hukmron feodallar sinfiga qo‘shilishga intilgan.

Shaharlar tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning asosiy markazlari sifatida qishloqlarga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatib bordi. Dehqonlar kundalik buyumlar: kiyim-kechak, oyoq kiyim, metall buyumlar, idishlar va arzon zargarlik buyumlarini sotib olish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish uchun shahar bozoriga tobora ko‘proq kela boshladilar. Dehqonchilik mahsulotlarining savdo aylanmasiga jalb etilishi shahar hunarmandlari mahsulotlari va qishloq xo‘jaligining texnik va ixtisoslashgan tarmoqlari (xom zig‘ir, bo‘yoqlar, vino, pishloq, teri va jun), shuningdek, qishloq hunarmandchiligi mahsulotlari (ayniqsa, iplar, zig‘ir matolari, qo‘pol movutlar) ga qaraganda sekinroq kechdi. Bu ishlab chiqarish turlari asta-sekin qishloq xo‘jaligining tovar tarmoqlariga aylandi. Borgan sari ko‘proq mahalliy bozorlar paydo bo‘ldi. Bu esa shahar bozorlarining ko‘lamini kengaytirdi va ichki bozorning shakllanishini rag‘batlantirdi. Har bir mamlakatning turli mintaqalarini markazlashtirishning asosi bo‘lgan u yoki bu kuchli iqtisodiy aloqalar bilan bog‘ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Sexlar qanday maqsadda tuzilgan?
2. Nima uchun sexlar boylarga qarshi kurash olib borgan?
3. Sex tizimi tushkunligining asosiy sabablarini ko‘rsating?
4. Xalfa va shogirdlarning ahvoli qanday bo‘lgan?
5. Bank, birja va yarmarkalar haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Kapitalistik munosabatlar qanday qilib vujudga kelgan?

15-§. Xristian cherkovi

Xristianlik dinining tarqalishi. Xristianlik milodimiz boshlarida Rim imperiyasining sharqiy provinsiyalarida yo‘qsillar va mazlumlarni dini sifatida vujudga keldi. Xristianlikda axloqiy tamoyillarning universalligi, milliy va sinfiy kelib chiqishidan qat’iy nazar tenglik g‘oyalarining mavjudligi, og‘ir va mashaqqatli turmushga sabr-toqat bilan kun kechirganlarga jannat hayoti va’da qilinganli sabab bu din tez tarqaldi.

Imperator Konstantin hukmronligi davrida xristianlik davlat himoyasiga olindi. Xristianlikning kuchayishi bilan imperiyada majusiylilik taqiqlandi. Keyinchalik xristianlik boshqa xalqlar orasida ham yoyildi. V asr oxirida franklar, VI—IX asrlarda deyarli barcha german qabilalari, IX—X asrlarda slavyanlar, 1000 yilda vengrlar, XI asrda Norvegiya va Shvetsiya, XII asrda prusslar va polab slavyanlari, XIII—XIV asrlarda Boltiqbo‘yida yashovchi lat, liv va est qabilalari xristianlikni qabul qildilar.

Ilk xristianlik davrida ular o‘rtasida tafovut yo‘q edi. Lekin 395 yilda Rim imperiyasi ikkiga bo‘linishi bilan cherkov ham bo‘linib ketdi. Rim cherkovini papalar, Vizantiya cherkovini patriarxlar boshqara boshladilar. G‘arbiy Rim imperiyasi qulaganidan so‘ng, papa Vizantiya imperatorining ruxsati bilan taxtga o‘tirishi mumkin edi. Faqat VII asr oxiridan boshlab, Vizantiya imperiyasi kuchsizlanishi bilan g‘arbiy cherkov uzil-kesil mustaqillik erishdi.

Papa davlatining tashkil topishi. G‘arbiy cherkovning siyosiy hokimiyatga ega bo‘lishi ko‘p jihatdan frank qirollarining homiyligi bilan bog‘liq edi. Xususan, 751 yilda langobardlar Italiyadagi cherkov yerlarini bosib olganida, papa Stefan II frank qiroli Pipin II dan yordam so‘raydi. Pipin II papaga ko‘mak berib, uning yerlarini langobardlar va Vizantiya imperatoridan daxlsiz ekanligini e‘lon qiladi. 756 yilda esa Pipin II Ravenna ekzarxatining katta qismini papaga sovg‘a qilishi natijasida Papa viloyati tashkil topadi. Uning poytaxti Rim shahri edi.

Oldiniga Papa viloyati Pipin II va Buyuk Karlga vassal maqomida bo‘ldi. Ularning homiyligidan foydalanib, papalar butun Markaziy Italiyani qo‘llariga kiritdilar. Shu bilan birga, papalar hamma vaqt siyosiy mustaqillikka erishish uchun intildilar. O‘z siyosiy hokimiyatini oqlash uchun Rim cherkovi «Konstantin sovg‘asi» deb atalmish soxta hujjatni tayyorladi. Unga ko‘ra, imperator Konstantin Buyuk (IV asr) Rim yepiskopiga go‘yo xristian cherkovining boshlig‘i maqomini berib, unga

Rim, Italiya va Rim imperiyasining g'arbiy provinsiyalaridagi oliy hokimiyatini bergan ekan. Keyinchalik, undan papaning oliy hukmronlik huquqini asoslash uchun foydalanilgan. «Konstantin sovg'asi»ning yolg'on ekanligi XV asrda italyan gumanisti Lorenzo Vallo tomonidan isbotlab berilgan.

Papa davlatining o'ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, uning hukmdori barcha katoliklarning boshlig'i edi. Mahalliy feodallar papaga oliy senyor sifatida qarab, tez-tez hokimiyat uchun kurash olib borganlar. Chunki, selebat (uylanmaslik) odati tufayli papa o'z hokimiyatini bolalariga meros qilib bera olmas edi. Shu bois ilk o'rta asrlarda papani ruhoniylar bilan birga Rim aholisi va rimlik feodallar ham saylashgan.

Xristianlikdagi bo'linish. O'rta asrlarda Rim papalari G'arbiy Yevropaning siyosiy hayotida muhim rol o'ynaganlar. Frank va german hukmdorlari bergan ehsonlar va siyosiy huquqlar cherkovning mavqeini mustahkanlagan. Garchi, Rim papalari Yevropaning qudratli hukmdorlariga rasman vassal bo'lsalar-da, amalda xuddi monarxlar singari to'laqonli mustaqil siyosiy faoliyat yuritganlar. Yevropada siyosiy markazlashgan davlatlarning yo'qligi papa qudratini yanada oshirgan. Papa viloyatida iqtisodiy hayotni jonlantirish maqsadida oltin va kumushdan tangalar zarb qilingan.

Katta kuchga ega bo'lgan papa IX asrda majusiylik dinidagi urug' va qabilalarni cho'qintirishda Vizantiya cherkovi bilan ochiq raqobatga kirishdi. Ayniqsa, papa o'z ta'sirini Bolqon yarim oroliga ham yoyishga intilishi Vizantiya imperiyasining kuchli qarshiligiga duch keldi. Sharqiy va G'arbiy cherkov o'rtasidagi kurash oqibatda xristian cherkovida bo'linish kuzatila boshlandi. Oxir-oqibat, 1054 yili Rim papasi Lev IX va Vizantiya patriarxi Mixail Kerulariy bir-birlari bilan anafema (la'nat) yorlig'ini almashdilar. Bu xristianlikning uzil-kesil ikki mazhabga ajralganligini anglatar edi.

Xristianlikdagi ajralishdan so'ng G'arbiy cherkov «**katolik**» (lot. «catholicismus», grek. «καθολικός» – «umumiy», «butun dunyo») nomini oldi. Uning boshida Rim papasi turgan. Sharqiy cherkov esa «**ortodoksiya**» (grekcha «ορθοδοξία» – «maqtash», «to'g'ri fikr») yoki Vizantiya cherkovi deb ataldi. Uni patriarx boshqargan. Katolik cherkovidan farqli ravishda Sharqiy cherkov imperator hokimiyatiga qat'iy bo'ysungan. X asrda Rus yerlari Vizantiya cherkovi tomonidan cho'qintirilgandan so'ng, bu mazhab slavyancha «pravoslaviye» («xudojo'ylik», «chin e'tiqod dini», «taqvodorlar jamoasi») nomi bilan atala boshlandi.

Katoliklar bilan pravoslavlar o'rtasida ancha tafovut bor edi. Katoliklar lotin tilida, pravoslavlar grek va boshqa tillarda ibodat qilganlar. Katoliklar besh barmoqda, pravoslavlar uch barmoqda cho'qinganlar. Rim cherkovida non va vino bilan faqat ruhoniylar poklangan bo'lsalar, bu qoida barcha pravoslavlariga ruxsat etilgan. G'arbda ko'pirtirilmagan non bilan poklansa, sharqda bu ish uchun ko'pirtirilgan nondan foydalanganlar. G'arbda uylanmaslik odati barcha ruhoniylar uchun majburiy edi. Sharqda bu qoida faqat monaxlarga tegishli bo'lgan. Rim cherkovi sharqdan farqli ravishda diniy unvondan chiqib ketishga yo'l qo'ymas, Bibliyani o'qish va talqin etishda ruhoniylar monopoliyasini joriy qilgan, nikohning buzilishiga ruxsat bermas edi. G'arbdagi kardinallar tuzilmasi Sharqda tan olinmas edi. Bundan tashqari, Vizantiya cherkovi papaning butun xristian olamiga hukmron bo'lish istagiga qarshi edi.

Kluniylik harakati. Otton I davridan boshlab german imperatorlari papalarni tayinlagan. **Investitura huquqi** — cherkov mansablariga tayinlash va tasdiqlash ham imperator qo'lida bo'lgan. Marosim paytida yepiskop dunyoviy senyor oldida tiz cho'kishi, unga qasamyod etishi, o'z lavozimi belgisi sifatida undan hassa va uzuk olishi lozim edi.

Oliy ruhoniylar — yepiskoplar, arxiyepiskoplar, abbatlar dunyoviy feodallarga taqlid qilib qo'shinga boshchilik qilar, talon-taroj va qotilliklar bilan shug'ullanar, hashamatda yashar edilar. Ularning axloqi xristianlik g'oyalaridan yiroqlashgan va dunyoviy feodallar manfaatiga bo'ysundirilgan edi. Diniy lavozimlarni dunyoviy feodallardan sotib olish (simoniya) cherkovning obro'yini to'kkan edi.

XI asrning ikkinchi yarmida Fransiyaning Kluni monastiri monaxi Gildebrand ruhoniylarning dunyoviy feodallar kabi hayot kechirishlari va cherkov lavozimlarining sotilishiga qarshi chiqdi. U papani Tangrining yerdagi noibi sifatida barcha ishlarga bosh hakami bo'lishi va monastrlarni dunyoviy feodallar bilan yepiskoplar qo'lidan ajratilishini yoqlab chiqdi. Uni markaziy hokimiyatga qarshi chiqqan yirik feodallarning bir qismi qo'llab-quvvatladi. Bu tarixda «kluniylar harakati» deb nom oldi.

Kluniylar cherkovni mustahkamlash, uning moddiy bazasini tartibga keltirish va dunyoviy hokimiyat bilan munosabatlarini qat'iy reglamentlashtirishni talab qildilar. Yana ular cherkov ahdlariga to'la rioya qilish, ruhoniylarning nikohga kirmaslik kabi shartlarni ham ilgari surdilar.

1059 yilda Gildebrand Lateran soborida bo'lib o'tgan yig'ilishda german imperatorlari va rim hokimlarining papani saylash huquqidan mahrum etilishiga erishdi. Bundan keyin papalarni faqat kardinallar kengashi saylaydigan bo'ldi.

1073 yilda Gildebrand Rim papaligiga saylandi va 1085 yilga qadar Grigoriy VII nomi bilan cherkovni boshqardi. U dunyoviy hokimiyatni cherkovga bo'ysundirish va papaning cheksiz hokimiyati ostida ruhoniylar ustidan qattiq nazoratni o'rnatishga kirishdi. Grigoriy VII «Papaning diktati» nomli dasturiy hujjatida cherkovning eng kichik vakili ham istalgan hukmdordan ustun turishi, cherkov xohlagan hukmdorni almashtirishi mumkinligi, zero dunyoviy hokimiyat cherkovdan ko'ra quyida turishini ta'kidlagan edi. Shuningdek, Grigoriy VII Yevropaning barcha monarxlariga papaga vassallik qasamyodini qabul qilishni va Rim cherkoviga badal to'lashni talab qildi.

Bu dastur german imperatorlarining qarshiligini keltirib chiqardi. Investitura uchun kurash boshlandi va 1122 yilda Worms konkordati (bitimi) bilan yakunlandi. Unga ko'ra, papa yepiskoplarning imperator oldida vassal ekanligini tan oldi, Germaniyada imperatorning yepiskoplar saylovida qatnashishiga rozi bo'ldi, bahsli vaziyatlarda imperatorga o'z so'zini aytishga ijozat berdi. Imperator esa, saylovlarning simoniyasiz va majburlashsiz o'tilishini va'da qildi. Italiya va Burgundiya imperator cherkov saylovlariga qatnashish huquqidan mahrum qilindi va investiturani olti oydan so'ng beradigan bo'ldi.

Xullas, bitim ko'p jihatdan papaning g'alabasini anglatar edi. Negaki, bu bitim bilan german imperatorining mavqeiga putur yetib, mahalliy feodallarning hokimiyatini kuchaytirgan edi.

Katolik cherkovining qudrati. O'rta asrlar davrida katolik cherkovi Yevropaning eng uyushgan tashkilotiga aylangan. Uning boshida papa turgan. Papa katolik cherkovining boshlig'i bo'lib, o'z ishlarini amalga oshirishda Rim kuriyasi yordamiga tayangan. Kuriya – papa hokimiyati tashkilotining oliy boshqaruv organidir. Qadimda kuriya mahalliy ruhoniylar va notariuslardan iborat bo'lgan. Lekin XI asrdan e'tiboran uning ishiga faqat kardinallar qatnasha boshlagan.

Papadan keyingi o'rinda kardinallar turgan. Ularning vazifasi – yangi papani saylashdan iborat bo'lgan. Buning uchun 80 yoshga to'lmagan kardinallar papa kanklaviga a'zo bo'lib, papa saylovida qatnashganlar. Kardinallar shaxsan papa tomonidan tayinlangan. Ular Rim kuriyasi va boshqa oliy cherkov ishlarida ishtirok etganlar.

Arxiyepiskoplar — cherkovning alohida bo'g'ini bo'lib, ularning qo'lida bir nechta katta cherkovlar bo'lgan. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi «bosh yepiskop» demakdir. Undan quyida yepiskoplar turib, cherkovning ma'muriy hududiy bo'linmasiga rahbarlik qilganlar. Yepiskop cherkovning quyi bo'g'inidagi ruhoniylarni tayinlagan.

Katolik cherkovi o'z qudratiga ulkan boyliklari orqali ham erishgan edi. Uning boylik manbalari quyidagilar bo'lgan:

1. Ushr — aholidan cherkov va ruhoniylarni saqlash uchun olinadigan maxsus soliq bo'lib, daromadning o'ndan birini tashkil qilgan. Ushr solig'i Buyuk Karl tomonidan qonuniylashtirilgan va barcha uchun majburiy bo'lgan.

2. Cherkov marosimlari uchun to'lov — cho'qintirish, nikoh, dafn marosimlari va boshqalar.

3. Indulgensiyalarni sotish — (lotin tilidan «rahm-shafqat») Rim papasi tomonidan yirik pulga sotilgan gunohlarni kechirish xatlari. U cherkovga katta daromad keltirgan.

4. Sovg'alar va ehsonlar — qirollar tomonidan cherkovga berilgan pul va mol-mulk hadyalari yoki mol-mulk vasiyatlari.

5. Monastr yerlaridan olinadigan daromad — cherkov Yevropadagi barcha ekin maydonlarining uchdan biriga egalik qilgan. Ularda yashagan dehqonlar cherkov foydasiga barshchina o'tagan, obrok to'lagan. Keyinchalik pul bilan ham to'lash joriy etilgan.

6. Foizga qarz berish — cherkov ba'zi hollarda qirollar va obro'li feodallarga qarz berib turgan. Bu qarz Tangri xizmatidagi kishilardan olinganligi bois muqaddas sanalgan. Shuning uchun qarzni munosib qilib qaytarish lozim bo'lgan. Bu esa, cherkovga qo'shimcha daromad keltirgan. Lekin cherkov rasman sudxo'rlikni qoralagan.

7. Salib yurishlaridan tushgan daromad — salib yurishlari turli xil muammolarni hal qilishi kerak edi: Yevropadan norozilarni jo'natib yuborish, o'z mamlakatida yer ololmaganlarga yer berish, senyorlar va oddiy ritsarlarni boyitish, Iso Masih qabrini egallash, minglab yangi cho'qintirilganlarni cherkovga olib kelish edi. Lekin eng asosiysi, yurish tashkilotchisi – katolik cherkoviga boylik olib kelish edi.

8. Simoniya — cherkov mansablarini sotish. Bu noqonuniy bo'lsa ham, amalda keng qo'llanilgan.

9. Muqaddas qoqmurdalar va din belgilarini ziyorat qilganlik uchun haq olish — xristianlikda keng tarqalgan odatlardan biri. Qoqmurdalar (lot. «reliquiae») — o'limidan keyin avliyo deb e'lon qilingan kishilarning qoldiqlari. Ularga majburiy e'tiqod qilish haqidagi ta'limot 787 yilda Ikkinchi Nikey soborida tasdiqlangan edi. Ushbu ta'limotga ko'ra, qoqmurdalar farovonlik tashuvchisi bo'lib, axloqiy, tarbiyaviy va diniy maqsadlarda saqlanishi va hurmat qilinishi kerak edi.

Aynan boylik katolik cherkoviga kuch berdi. Bu boylik nafaqat monaxlar, balki Rim papalarini ham vasvasaga solib, ularni haddan

oshishlariga sabab bo'lgan edi. Rim papasi o'ziga quloq solmagan har qanday feodalni **interdikt** (lot. «interdictum» — «man qilmoq») asosida jazolashi mumkin edi. Interdikt huquqi qo'llanilgan hududda barcha cherkov marosimlari to'xtatilar, papa qahriga yo'liqqan har qanday shaxs cherkovdan chetlashtirilar edi. Papalar shu yo'l bilan barcha dunyoviy feodallar va hatto qirollarni ham o'zlariga tobe qilishga muvaffaq bo'lgan edilar.

Yeretiklarga qarshi kurash. Inkvizitsiya. O'rta asrlar davrida oddiy odamlarning ko'pchiligi savodsiz bo'lib, xristianlik ta'limotini faqat ruhoniylarning va'zlaridan bilib olishar edi. Lekin cherkov g'oyalarining mutloq to'g'riligiga hamma vaqt ham ishonaverilmagan. Xristianlar orasida cherkov vositachilgisiz talqin qilishga bo'lgan intilishlar kuchayib bordi. Cherkov ta'limotiga ishonchsizlik xristianlikning ilk davrlaridayoq vujudga kelgan va ular «yeretiklar» (grekcha — murtad, shakkok) deb atalgan edi. Biroq ilk o'rta asrlarda xristianlik ta'limoti hali to'liq qaror topmaganligi bois yeretiklar masalasiga e'tibor berilmagan.

Yevropada shaharlar yuksalib borgan sari ularda o'qimishli kishilar soni ko'payib bordi. Savodli odamlar xristianlikning asl manbalarini o'qib, katolik ruhoniylarining turmushi Bibliyada tasvirlangan hayotga o'xshamasligini tushunib yetdilar. Bora-bora bunday kishilar ko'payib, cherkovning sodda va kamchiqim bo'lishini yo'qlab chiqdilar. Shahar va qishloqlarda ilk xristianlik davridagi cherkovga qaytish to'g'risida va'z qilayotgan targ'ibotchilarni ko'plab uchratish mumkin edi. Voizlarni dehqonlar va shahar kambag'allari qo'llab-quvvatladilar. Katolik cherkoviga qarshi chiqish orqali ular mavjud tartiblarga ham o'z noroziliklarini bildirmoqchi edilar.

Tabiiyki, cherkov o'ziga qarshi chiqqan kishilarni xushlamas edi. Cherkovning sodda bo'lishini istagan odamlar garchi xristian bo'lsalarda, katolik ruhoniylari tomonidan «yeretiklar» deb ataldi. Negaki, buning oldi olinmasa, kelgusida katolik cherkovining mavqei tushib ketishi mumkin edi.

Cherkovning xavotirlarida asos bor edi. XII asr so'ngida Italiyaning shimoli va Fransiyaning janubida ikkita kuchli yeretiklik oqimi vujudga keldi. Bu harakat dastlab Albi sharida paydo bo'lganligi sabab ularning tarafdorlari **albigoylar** deb ataldilar. Ularning Bibliyani erkin talqin qilishi rasmiy cherkovning keskin noroziligiga olib keldi.



Filipp II Avgust yeretikarni jazolamoqda



Inkvizitorlar

Yeretiklarga qarshi kurash harakatining yetakchisi Dominik degan ruhoni bo'ldi. U o'z izdoshlarini to'plab, notinch hududlarda va'z o'qidi. Ammo Dominik jamoasining faol harakatlari natija bermadi. Yeretiklik harakati yanada kuchydi. Bunga javoban 1209 yilda Rim papasi yeretiklarga qarshi salib yurishini uyushtirdi. Shu tariqa albigoylar urushi boshlanib ketdi. Salibchilarga Tuluza grafi Simon IV Monfor boshchilik qildi. Cherkov yurish qatnashchilarining barcha gunohlaridan o'tib, ularning qarzlariidan voz kechdi.

Salibchilar Janubiy Fransiya shahar va qishloqlarini kezib, shakkoklikda gumon qilinganlarni ayovsiz qirg'in qildilar. Bir shaharni olganlarida ritsarlar yeretiklar bilan birga chin katoliklarni ham o'ldirib qo'yishdan cho'chib turganlarida, papa vakili: «Barchasini o'ldiravering, zero Tangrining o'zi ajratib oladi», deydi. Oqibatda bir necha ming kishi qirib tashlandi.

Albigoy urushlari natijasida ilgari boy bo'lgan yerlar huvillab qoldi. Janubiy Fransiya yerlari salibchilarga sovg'a qilindi. Tuluza grafligi esa, Fransiya qiroli tomonidan egallab olindi.

G'arbiy Yevropaning qaysi yeri bo'lmasin, yeretiklarni ishontirish orqali fikridan qaytarish iloji bo'lmasa, katolik cherkovi kuch ishlatishdan tap tortmadi. Dominikan ordeni asoschisi Dominik ashaddiy yeretiklarni yo'q qilish va cherkov sudlarining faoliyatini to'g'ri deb hisobladi. Albigoylar mag'lubiyatga uchraganidan so'ng, yeretiklarni aniqlash va jazolash uchun 1215 yili papa Innokentiy III inkvizitsiya (lot. «inquisitio haereticae pravitatis sanctum officium» — «shakkoklik gunohlarini qidiruvchi muqaddas bo'lim») sudini ta'sis etdi. Inkvizitsiya sudi

dominikanchilarga ishonib topshirildi. Kuzatuv va chaquvlar asosida yeretiklar aniqlanar, ularni aslo qutqarib bo‘lmas edi. Inkvizitorlar holdan toydiruvchi so‘roqlar, shafqatsiz qiynoqlar bilan tutqunni o‘z aybini tan olishga majbur qilishardi.

Tergov sirli ravishda o‘tar edi. Tergovchilar yuzlarini qora qalpoqchalar bilan berkitib qo‘yganliklaridan ayblanuvchi ularning yuzini ko‘rolmasdi. Tavba qilgan yeretiklarga cherkov tavbasi tayinlangan yoki qamoqqa tashlangan. Bunday odam butun boyligini yo‘qotar va xalq oldida o‘z aybini tan olishga majbur qilinar edi. Aybiga iqrор bo‘lmaganlar yoqib yuborilgan.

Yeretiklarga qarshi kurash ayniqsa, Ispaniyada avj oldi. Ispaniyadagi inkvizitsiya **autodafe** (din ishi) deb nom oldi. Autodafe shahar markazida aholi, ruhoniylar, feodallar va qirol ishtirokida bayramona ruhda o‘tar, tavba qilganlarni yoqishdan oldin bo‘g‘ib o‘ldirishar yoki qirol kemalariga eshkak eshish uchun yuborishar, tavbasiga tayanmaganlar tiriklayin yondirilar edi. Inkvizitorlar faoliyati tufayli o‘n minglab odamlar o‘ldirilgan, mol-mulki musodara qilingan va og‘ir ishlarga mahkum etilgan edi. Jaholat va xurofot avj oldi.

Shu tariqa, G‘arbiy Yevropada katolik cherkovi misli ko‘rilmagan darajadagi qudratga erishdi. Cherkov o‘ziga bo‘ysunmaganlarni qattiq jazolar va boshqalarni shu yo‘l bilan qo‘rqitar edi. Bu esa, cherkovga qarshi harakatlarning ma‘lum muddat to‘xtab qolishiga sabab bo‘ldi.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun xristianlik dini Yevropada uzoq asrlar davomida tarqalgan?
2. Papa davlati boshqa davlatlardan nimasi bilan farqlangan?
3. Xristianlikdagi bo‘linish sabablarini ko‘rsating?
4. Kluniylik harakati qanday maqsadlarni ko‘zlagan edi?
5. Katolik cherkovining daromad manbalarini ko‘rsating?
6. Inkvizitsiya nima?

16-§. Salib yurishlari

Salib yurishlarining boshlanish sabablari. Salib yurishlari — Gʻarbiy Yevropa ritsarlarining musulmon, pravoslav davlatlari va turli xil xristian mazhablariga qarshi olib borgan davomiy yurishlaridir. Salib yurishlarining maqsadi Falastinni, birinchi navbatda, Quddusni saljuqiy turklardan ozod qilish edi. Biroq keyinchalik salib yurishlari Boltiqboʻyi majusiylarini xristianlashtirish, Yevropada papa hukumatiga qarshi harakatlarni bostirish yoki papalarning siyosiy maqsadlarini amalga oshirish vositasi boʻlib qoldi.

«Salibchilar» atamasi, salib yurishi ishtirokchilari oʻz kiyimlariga salib (xoch, krest) tikib olishgani uchun paydo boʻlgan. Yurishga qatnashgan kishilarning «ayblari kechiriladi» deb hisoblangani bois, unda nafaqat ritsarlar, balki oddiy aholi, hattoki bolalar ham ishtirok etishgan.

Falastin uzoq davrdan beri arab xalifalari boshqaruvi ostida edi. Ular xristianlarga bagʻrikenglik bilan munosabatda boʻlishgan. Falastindagi xristianlar uchun muqaddas sanalgan maskanlarni ziyorat qilishlariga monelik qilishmagan. Saljuqiy turklar esa bunga yoʻl qoʻymaganlar. Endilikda xristianlar uchun Quddusga borish oldingidek xavfsiz boʻlmay qoldi. Rim papalari Falastinni saljuqiylardan tortib olishmasa, ziyoratgohlarga borish umuman toʻxtab qolishidan xavfsirashdi.

Salib yurishining sabablaridan biri Vizantiya imperatori Aleksey I ning Rim papasidan yordam soʻrashi boʻldi. Bir necha asr Vizantiya gʻarb xristianlari uchun jangovar musulmonlar hujumlaridan ajratib turadigan bufer zona edi. Biroq 1071 yilgi Mansikert jangida yengilgan imperiya Kichik Osiyodagi katta yerlaridan ajraldi. Vizantiya muqarrar halokatdan qutulish uchun Rim papasidan yordam soʻrashga majbur boʻldi.

Birinchi salib yurishidan oldin Anatoliyaning katta qismi islomning sunniylik yoʻnalishidagi saljuqiy turklar qoʻl ostida edi. Xristianlar bilan kurashishga qaraganda saljuqiylarni ichki qoʻzgʻolonlarni bostirish, taxt talashishlar, shialarning isyonlari qattiq tashvishga solardi. Falastinni markaziy hokimiyatdan deyarli mustaqil amirlar boshqarardi. Misrning katta qismi shia yoʻnalishidagi fotimiylar sulolasi qoʻlida boʻlgan.

Oʻsha davrda Gʻarbiy Osiyodagi musulmon davlatlari oʻrtasida oʻzaro urushlar avj olgan edi. Katolik cherkovi Yaqin Sharqda yuzaga kelgan qulay imkoniyatdan foydalanishga qaror qildi.

1095 yil 18 noyabrda Urban II Fransiyaning Klermon shahrida sobor chaqirdi. Unda xristianlarga oid barcha masalalar koʻrib chiqildi. 26 noyabr kuni Urban II tomonidan salib yurishi rasman eʼlon qilindi.

Yo'qsillarning salib yurishi. Salib yurishi o'tkazilishi arafasida Yevropani o'lat va ocharchilik larzaga solgandi. Natijada ko'plab kishilar qashshoqlashgan, ular salib yurishida qatnashishni iqtisodiy holatlarini yaxshilashning birdan-bir yo'li deb bilardilar. Bundan tashqari, 1095 yilgi oy tutilishi, meteor yomg'iri va boshqalarni yurishning muvaffaqiyatli bo'lishiga ishorat sifatida qabul qildilar.

Qashshoqlashgan yo'qsil dehqonlarni salib yurishiga targ'ib etgan kishi pikardiyalik monax Pyotr Amyenskiy bo'ldi. Oyoqyalang, boshyalang holda butun Yevropani kezib chiqqan Ryotr Amyenskiy to'plangan olomonga Golgofda bo'lganini va mahalliy xristianlarning qattiq aziyat chekayotganini, shu sabab Quddusni ozod qilish zarurligini uqtirardi. Bu so'zlariga mahliyo bo'lgan oddiy xalq uni avliyo sifatida ko'rdi. Hattoki eshagining junidan qirqib olishni ulkan baxt deb bildi. Shunday qilib, yurish g'oyasi kambag'al aholi orasida orasida keng tarqaldi. Valter Golyak degan fransuz ritsari boshqa hududlarda odam yig'ishga kirishdi. Birgalikda xalq qo'shinini to'plashga muvaffaq bo'ldilar.

Yo'qsillar yurishi 1096 yil aprelida boshlanib oktabrgacha davom etdi. Valter boshchiligidagi qo'shinda bor-yo'g'i 8 ta ot bo'lib, qolganlari eshaklarda va yayov edi. Ba'zi tarixchilar mazkur yurish «ortiqcha tomoqlar»ni yo'qotish maqsadida katolik cherkovi tomonidan uyushtirilgan tadbir deb ta'kidlashadi. Konstantinopolgacha yo'lga chiqqanlarning yarmi ham yetib kelmadi.

Birinchi bo'lib salibchilar hujumiga uchragan kishilar yevropalik yahudiylar bo'lishdi. Pyotr Amyenskiy izdoshlari Ruan va Kyoln shaharlarida yahudiylarni qirg'in qildilar. Shuningdek, Reyn bo'yidagi Trir, Mayns, Shpeyer va Vorms shaharlaridagi yahudiylarni ham talon-toroj etdilar. Mayns shahri yahudiylari salibchilarning bolalarini ham ayamay qirayotganini ko'rib ommaviy ravishda o'zlarini o'ldirdilar.

1096 yil 1 avgust kuni qo'shin Konstantinopolga kelib tushdi. Yo'l og'ir bo'lganligi, ta'minotning yo'qligi bois 80 ming kishilik qo'shindan 40 mingi yetib keldi xolos. Imperator uyushmagan olomon bilan turklarni yengib bo'lmasligi tushundi. Qolaversa, ularning shaharda talon-taroj qilayotganligi aholi o'rtasida norozilik uyg'otgan edi. Shularni hisobga olib, imperator ularni Bosfor orqali Kichik Osiyoga o'tkazib qo'ydi. Kichik Osiyodagi ilk to'qnashuvlarda olomon mag'lubiyatga uchradi. Ulardan atigi ming kishigina qochib qutildi.

Birinchi salib yurishi (1096—1099). 1096 yilning kuzida Konstantinopolda Yevropaning turli yerlaridan kelgan ritsarlar qo'shini

to'plana boshladi. Ular olomonga nisbatan yaxshi qurollangan va mustahkam tartibga ega edi. Bu qo'shinga Gugo Vermandua, Gotfrid Bulonskiy, Raymund IV, Boemund Tarentskiy va Robert Normandskiylar boshchilik qildilar. Salibchilar imperator Alekseyga bosib olinadigan yerlar Vizantiya imperiyasiga o'tishi hamda unga vassal bo'lishga so'z berdilar.

1097 yil aprelda salibchilar Bosfordan o'tdi. Kichik Osiyoni kesib o'tayotgan salibchilar issiqdan va suvsizlikdan qattiq aziyat chekardilar. Ba'zilar qiyinchiliklarga dosh berolmay halok bo'ldi, ko'plab otlar qirildi. Salibchilar mahalliy xristianlar va o'z yurtlaridan yuborilgan mablag' evaziga kun kechirar, turli ehtiyojlarini qondirish uchun yo'llarida uchragan qishloqlarni talon-taroj qilar edilar.



Salibchilar qo'shini

Yurish natijasida salibchilar saljuqiy turklarni mag'lub etib Nikeya, Edessa, Antioxiya shaharlarini zabt etdilar. 1099 yil 7 iyun seshanba kuni salibchilar Quddusga yetib keldilar. Bir oylik janglardan so'ng shahar egallandi. 15 iyul kuni salibchilar shaharni egallashdi. Birinchi bo'lib Quddusga ritsar Letold, keyin Gotfrid Bulonskiy va Tankred Tarentskiy kirdilar. Salibchilar Quddusga kirishlari bilanoq qirg'inni boshlab yubordilar. Ular mahalliy xristianlarni ham ayashmadi. O'sha kuni

shaharda 70 mingga yaqin odam qirib tashlangan edi.

Salibchilar barpo qilgan davlatlar. Salibchilar istilo qilgan o'lkalarida to'rtta davlat tuzishdi. Bular – Edessa grafligi, Antioxiya knyazligi, Tripoli grafligi va Quddus qirolligi edi. Ulardan eng kattasi Quddus qirolligi edi. Uning birinchi qiroli Gotfrid Bulonskiy bo'ldi. Boshqa davlatlar Quddusga rasman vassal ekanliklarini tan olishdi. Keyinchalik, qirollik hududi Akkra, Sidon va Bayrut shaharlari hisobiga kengaydi. Quddus qirolligida oliy hokimiyat yirik feodallarga tegishli bo'lib, ularning roziligisiz qirol qonun chiqarolmas, urush e'lon qilolmas yoki tinchlik sulhini tuzolmas edi.

Salibchilar bosib olingan yerlarda G'arbiy Yevropadagi kabi tartibni o'rnatdilar. Biroq yerlar oz bo'lgani sababli, Yevropadagidan ancha farqlanar edi. Bu yerda feodallar shaharlarda yashaganlar. Quddus aholisi qirib tashlangani uchun aholi Yevropadan ko'chirib keltirildi.

Musulmonlar, yahudiylar va pravoslav xristianlarining Quddusda yashashi taqiqlandi.

Salibchilar mahalliy aholini juda qattiq ezardi. Dehqonlar toshloq yerlar uchun hosilning 1/3 qismidan tortib, teng yarmigacha soliq to‘lagan. Qashshoq aholi bir necha bor bosqinchilarga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘targan. Bu qo‘zg‘olonlar salibchilar tomonidan katta qiyinchilik bilan bostirilgan.

XII asrda Falastinda tug‘ilib o‘sgan yangi avlod bu yurti o‘zining ona vatani deb bilar va Yevropadan kelayotgan salibchilarga salbiy munosabatda bo‘lardi. Ularning aksariyati grek, arab va boshqa sharq tillarini bilar, mahalliy xristian qizlariga uylanishgan edi.

Salib yurishlari vaqtida savdo-sotiq ishlari rivojlandi. Falastinga italiyalik savdogarlar kelib, Yevropada tayyorlangan mahsulotlarni Sharqqa jo‘natishar, u yerdagi tovarlarni G‘arbga olib borib sotishar edi. Savdo tufayli Italiya shahar-davlatlari, ayniqsa, Genuya va Venetsiya juda katta boylik to‘plashga erishdi.

Diniy-ritsarlik ordenlari. Salibchilarning shimoldan janubga qadar bir necha ming kilometr cho‘zilgan yerlarini saqlab qolish katta kuchni talab etar edi. Oldiniga Yevropadan ritsarlar kelib turishgan. Keyinchalik o‘z istagi bilan Quddusga keluvchi ritsarlar soni qisqargach, diniy-ritsarlik ordenlarini tuzishga alohida e‘tibor qaratildi.

Ritsarlik ordenlari papa Grigoriy VII (1073—1085) tomonidan joriy etilgan. Uning fikricha, ritsarlarning jangovor san‘ati «To‘g‘ri yo‘l» uchun ishlatilishi lozim edi. Bunga quyidagilar kirgan:

- xristian Yevropasini qo‘riqlash;
- Muqaddas yerni egallash;
- Din va ziyoratchilarni «dinsizlar» zo‘ravonligidan himoya qilish.

Diniy-ritsarlik ordeni ritsarlari o‘z o‘tmishdoshlaridan ajralib turgan. Dunyoviy ritsarlar shon-shuhrat yoki qirol e‘tibori uchun kurashgan bo‘lsalar, orden ritsarlari shaxsiy istaklardan voz kechib, Tangri yo‘lida xizmat qilishlari kerak edi. Ritsarlik ordeni tepasida buyuk magistr yoki grossmeyster turgan. Uni papa tayinlagan. Magistr qo‘l ostidagi boshliqlar, komandorlar va marshallarga topshiriqlar bergan. Boshliqlar ordenlarning hududiy bo‘linmalariga yetakchilik qilganlar. Marshallar moliyaviy ishlar bilan shug‘ullanganlar. Komandorlar esa qasr va qo‘rg‘onlarni boshqarganlar.

Ordenga endigina kelgan ko‘ngillilarni **neofit** deyishgan. Har bir yangi askar bag‘ishlov udumidan o‘tar edi. Ritsarlik ordeniga xizmat qilish obro‘li hisoblangan. Ularning jasorati xalq tomonidan qadrlangan.



Gospitalyrlarning kiyimi va qurollari



Gospitalyrlarning kemasi

Quddusda tuzilgan ilk orden hospitalyerlar, yoki Muqaddas Ioann ordeni sanaladi. Baʼzan «Ioanniylar ordeni» deb ham ataladi. Salib yurishlaridan oldin Quddusda hospital tashkil etilgan boʻlib, unda ziyoratga kelgan xristianlarga yordam berilgan va davolangan. Lekin salib yurishlari natijasida hospital aʼzolari kuchli tashkilot tuzishga muvaffaq boʻlganlar. Bu voqea 1099 yilda sodir boʻlgan.

Orden aʼzolarining kiyimi tinchlik paytda qora fondagi oq xoch, urush vaqtida qizil fondagi oq xoch, timsoli esa sakkiz qirrali xoch edi. Qora – dunyoviy istaklardan voz kechish, qizil esa, toʻkilgan qonni anglatgan.

Ordenni magistr boshqargan. Orden **kapituli** qonun chiqaruvchi va kengashuvchi bosh organ hisoblangan. Kapitul magistr va butun tashkilot ishini muvofiqlashtirib turgan.

Gospitalyerlar qardoshligi uch guruhga boʻlingan. Birinchisi ritsarlar boʻlib, tashkilotning yuqori qatlami sanalgan. XII asr oxirida Quddus qirolligida hospitalyer ritsarlarining soni 500-600 kishidan iborat boʻlgan. Ritsarlar monaxlarga oʻxshab uylanmaslik, ibodat qilish va boylik toʻplamaslik uchun soʻz berganlar. Gospitalyer ritsarlarining asosiy burchi muqaddas cherkov va uning fuqarolarini himoya qilish edi.

Ikkinchi guruhga serjantlar yoki kichik komandirlar kirgan. Ular harbiy boʻlinmaning aniq va yaxshi ishlashini taʼminlaganlar. Uchunchi guruh ruhoniylar boʻlib diniy marosimlarni oʻtkazish bilan shugʻullanganlar.

Salib yurishlari tugagach, hospitalyerlar ordeni Kipr oroliga koʻchib oʻtgan. Koʻp oʻtmay buyuk magistr Giyom de Vellare Kiprni tark etib, Rodos oroliga ketishga qaror qilgan. XVI asr boshlarida turklarning yurishidan soʻng orden Maltada qoʻnim topgan. Shundan Malta ordeni deb nom olgan.



Tampliyerlar yoki «Masix va Sulaymon ibodatxonasining yoʻqsil ritsarlari» — katoliklarning diniy-ritsarlik ordeni 1119 yili Quddusda, Gugo de Peyn tomonidan asos solingan. Orden gospitalyerlardan soʻng tuzilgan ikkinchi tashkilot boʻlsa-da, maqomi jihatidan Falastin va Yevropada birinchi oʻrinda turgan. Tampliyerlar oʻz cherkovlari va qabristonlariga ega boʻlish huquqlariga ega edi. Ularni cherkovdan chetlatib boʻlmas, oʻzlari cherkov tomonidan qoʻyilgan har qanday cheklovni olib tashlashi mumkin edi.

Ordenning butun mulki cherkov soliqlaridan ozod qilingan, oʻzlari yigʻadigan ushr soligʻini orden xazinasiga topshirishar edi. Yepiskoplarga tampliyerlarning hayotiga aralashish, sudga berish, jarimaga tortish taqiqlangan edi. Yevropada birorta ham diniy-ritsarlik ordeni bu darajada vakolatlarga ega emas edi.

Gospitalyerlar kabi, tampliyerlar ham Sharqdagi xristianlarning doimiy qoʻshinini tashkil etgan. Ularga uchtdan ot, bittadan qurol tashuvchi xizmatkor biriktirilgan. Shato-Palaren, Safed, Tortoz, Torak, Krak de Shevalye qoʻrgʻonlari tampliyerlar tomonidan qurilgan edi.

Falastindan quvilgandan soʻng tampliyerlar moliyaviy ishlarga oʻtdilar. Ular Yevropaning bosh moliyachilari boʻlib, sudxoʻrlilik orqasidan koʻp boylik orttirdilar. Ulkan boylik ordenga katta shuhrat keltirdi. Lekin aynan boylik bu tashkilotning tugatilishiga sabab boʻldi. Soʻnggi buyuk magistr Jak de Mole qatl etildi.

Tevton ordeni — 1190 yilda tashkil topgan. Toʻliq nomi «Quddusdagi Tevtonlik Muqaddas Mariya uyi ordeni» (lot. «Ordo domus



Tevton ordeni ritsarlarining jangovor kiyimlari va qurollari

Sanctae Mariae hurma in Jerusalem») dir. Orden Rim papasi va Muqaddas Rim imperiyasining imperatoriga boʻysungan. Bu tashkilot oldiniga Falastindagi kasal german ritsarlariga yordam berish va ularni himoya qilish bilan shugʻullangan. Lekin 1211 yilda Vengriya qiroli Andrash II ritsarlarni qipchoqlarga qarshi kurashish uchun taklif etgach, Tevton ordeni Prussiyani istilo etgan. Soʻngra Boltiqboʻyi qabilalari va rus yerlariga bosqinchilik urushlarini olib borgan.

Ikkinchi va uchunchi salib yurishlari. Salibchilardan yengilgan musulmonlar kuch toʻplab, hujumga oʻtdilar. 1144 yilda Mosul amiri Imomiddin Zangiy salibchilardan Edessani tortib oladi. Bunga javoban papa 2-salib yurishini (1147—1149) uyushtiradi. Bu yurishga fransuz qiroli Lyudovik VII va Germaniya qiroli Konrad III bosh boʻldi. 1147 yilda yoʻlga chiqqan salibchilar hech qanday muvaffaqiyatga erisha olmadilar. Salibchilarning talonchilik harakatlari Vizantiya imperatori Manuil I Komninni qattiq qoʻrqitdi. Shu bois u saljuqiylar bilan ittifoq tuzib, salibchilarga qarshi ekanligini bildirib qoʻydi.

Konstantinopolga birinchi boʻlib yetib kelgan Konrad III tezda Kichik Osiyoga oʻtib ketadi. 1147 yil 26 oktabrda Kappadokiyada boʻlib oʻtgan ilk toʻqnashuvdayoq german qoʻshinlari toʻliq tor-mor etiladi. Qirol Nikeyada yashirib oldi. Shu orada Konstantinopolga Lyudovik VII katta qoʻshin bilan yetib keldi. Undan tezroq qutulish uchun Vizantiya imperatori «germanlarning yorqin gʻalabalari» toʻgʻrisidagi yolgʻon xabarlarini tarqatadi. Buni eshitgan fransuzlar tezda Bosfor boʻgʻozidan oʻtib oldilar. Bu yerda nemislarning ayanchli ahvolini eshitgach, Nikeyada turgan Konrad III kuchlari bilan birlashdilar.

1148 yilning bahorida salibchilarning birlashgan kuchlari Damashqni qamal qildilar. Ammo ko'p yo'qotishlar tufayli ular yana Yevropaga qaytib ketishga majbur bo'ldilar.

XII asrning ikkinchi yarmida Sharqdagi vaziyat keskin o'zgarib ketdi. Misrda Suriya va Mesopatamiyaning asosiy qismini o'ziga bo'ysundirgan kuchli musulmon davlati tashkil topdi. Bu davlatning boshlig'i sulton Salohiddin Ayyubiy (1174—1193) uzoqni ko'ruvchi siyosatchi va qobiliyatli boshqaruvchi edi. Salohiddin kuchlari Tiveriad ko'li yaqinida salibchilarga tor-mor keltirdi va 1187 yili Quddusni bosib oldi. Bu esa 3-salib yurishlariga (1189—1192) sabab bo'ldi.

Yurishda Germaniya imperatori Fridrix I Barbarossa, Fransiya qiroli Filipp II Avgust, Avstriya gersogi Leopold V Babenberg va Angliya, qiroli Richard I boshchilik qilishdi. Nemislar boshidanoq omadsizlikka uchradilar. 1190 yil 10 iyunda Fridrix I Barbarossa Kichik Osiyoda daryodan kechib o'tish paytida suvga cho'kib o'ldi. Natijada nemislarning bir qismi dengiz orqali ortlariga qaytib ketishdi. Bir qismi gersog Fridrix Shvabskiy boshchiligida Suriyadagi Ptolemaida (Akra) shahriga yetib kelib, uni qamal qilishga kirishdi.

Filipp II 1191 yil bahorida dengiz orqali Akraga yetib keldi. Richard I esa, oldiniga Kiprni egalladi, so'ngra Suriyaga yo'l oldi va ittifoqchilari bilan Akrani qamal qilishda qatnashdi. Akraga Leopold V ham yetib keldi. 1191 yil 12 iyulda Akra shahri salibchilar tomonidan egallandi. Ammo shaharda hokimiyatni bo'lib olishda ittifoqchilar o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Filipp II inglizlar bilan chiqisha olmay yurtiga qaytib ketdi. Richard I esa bir yil davomida Quddusni qaytarib olishga urindi. Yevropada o'ziga qarshi fitna uyushtirilayotganini eshitgan Richard 1192 yilda Salohiddin bilan tinchlik bitimini tuzadi. Unga ko'ra, xristianlar Falastindagi barcha bosib olingan yerlaridan mahrum bo'ldilar. Quddusga 3 yil davomida faqatgina savdogarlar va ziyoratchilarning kelishiga ruxsat etildi. Akra shahri Quddus qirolligining poytaxtiga aylandi.

Richard I Angliyaga qaytishda gersog Leopold V odamlari tomonidan qo'lga olindi va Avstriyadagi Durshteyn qo'rg'oniga qamab qo'yildi. Bu yerda ikki yilcha tutqunlikda saqlab turildi. Faqat inglizlarning noroziligi va papaning aralashuvi bilan Richard I erkinlikka chiqarildi. Uning ozodligi uchun Angliya Leopold V ga 23 tonna kumush to'ladi.

To'rtinchi salib yurishi (1202—1204). Oldingi salib yurishlaridagi muvaffaqiyatsizliklar yevropalik ritsarlarning shashtini pasaytirib qo'ydi. 1198 yili papalik taxtiga o'tirgan Innokentiy III ritsarlarning jangovor

ruhini uygʻotish maqsadida yangi salib yurishini tashkil etdi. Bu galgi yurishga papa qirollarni taklif etmadi. Papaning fikricha, oldingi yurishlarning magʻlubiyatga uchrashiga qirollar oʻrtasidagi kelishmovchiliklar sabab boʻlgan edi. Shu bois, asosiy urgʻu yirik feodallarga qaratildi.

1201 yilning bahorida yurish yetakchisi shampanlik graf Tibo Misrga qoʻshin tushirish uchun Venetsiya doji (hokimi) Enrike Dandolo bilan muzokara olib bordi va u bilan bitim tuzdi. Unga koʻra, Venetsiya salibchilardan 85 ming Kyoln kumush markasini (20 tonnaga yaqin) olish evaziga 4,5 ming ritsar, 9 ming serjant, 20 ming piyoda, jami 33,5 ming kishini, shuningdek, 4,5 ming otni oziq-ovqat va transport bilan taʼminlash hamda 50 ta kema berishni boʻyniga oldi. Pullar toʻrt qismga boʻlib toʻlanishi, oʻlja esa oʻrtada taqsimlanishi lozim edi. Yurish sanasi 1202 yil 28 iyun etib belgilandi.

1201 yilning 28 mayida graf Tibo oʻlimidan soʻng uning oʻrniga Bonifatsiy Monferratskiy yetakchi etib tayinlandi. 1202 yilning iyunida salibchilar Venetsiyaga yigʻila boshlaydilar. Lekin rejalashtirilgan 33,5 ming oʻrniga 13 ming kishi toʻplanadi. Qolaversa, salibchilarning koʻpchiligi Quddusga emas Misrga qarab ketishlarini eshitib lol qoldilar. Salibchilar toʻlaydigan 85000 marka Fransiya qirolining ikki yillik daromadiga teng boʻlgani uchun narxni tushirishni talab qildilar. Lekin venetsiyaliklar bunga rozi boʻlmadilar. Salibchilar belgilangan summadan 50 ming markani berdilar. Qoʻshinning asosiy qismi kelmagani uchun boshqa pul yigʻishning iloji boʻlmadi.

1202 yilning dekabrda salibchilar oldiga Vizantiya shahzodasi Alekseydan elchi keldi. U taxtdan agʻdarilgan va koʻr qilingan imperator Isaak II Angelning oʻgʻli edi. Aleksey taxtga oʻtirishga koʻrsatgan yordam uchun salibchilarga 200 ming marka kumush, bir yil ichida salibchilar flotini boqish va 10 ming askar berishni vaʼda qildi.

Bu taklif salibchilarga maʼqul keldi. 1203 yil bahorida 25 ming kishilik salibchilar qoʻshini yoʻlga chiqdi. Iyul oyida sodir boʻlgan qattiq janglardan soʻng shahar egallandi.

1 avgust kuni Aleksey imperatorlik taxtiga oʻtirdi. Salibchilar shahar tevaragida oʻrnashib, vaʼda qilingan mukofotni kutishdi. Kuzga yaqin pulning yarmini toʻlagan Aleksey imkoniyati chegaralanganligini anglab, ayyorlik yoʻliga oʻtadi. Vizantiyaliklarning noroziligi tobora ortib bordi. 1204 yilning 28 yanvarida Aleksey IV taxtdan agʻdariladi. Yangi imperator Aleksey Duka salibchilarga ketishni maslahat berdi. Hatto,

ularga bosqin ham uyushtirdi. Natijada ikki o'rtada urush kelib chiqishi aniq bo'lib qoldi.

1204 yilning 12 aprelida qattiq hujumdan so'ng salibchilar Konstantinopolni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Imperator shahardan qochib ketdi. 13 aprel kuni shaharda talon-taroj boshlandi. Uch kun davom etgan bosqinda 2 mingdan ortiq odam o'ldirildi. Olingan o'lja 800-900 ming markani tashkil etdi. Bu 1201 yilgi shartnomada ko'rsatilgan narxdan 10 baravar ortiqroq edi. Shahar aholisi $\frac{3}{4}$ qismga qisqardi. Bu yurish salib yurishlarining tub mohiyati bosqinchilik va talon-tarojdan iborat ekanligini ko'rsatdi.

1204 yil 16 may kuni Ayo Sofiya ibodatxonasida Flandriya grafi Bolduin yangi imperator deb e'lon qilindi. Shu tariqa Vizantiya vayronalarida Lotin imperiyasi tashkil topdi. Bu davlat to 1261 yilga qadar mavjud bo'ldi.

Vizantiyaning kuchsizlanishidan Venetsiya ko'proq foyda ko'rdi. Chunki, Egey dengizi havzasidagi eng muhim orollar Venetsiya qo'liga o'tgan, uning O'rta yer dengizidagi hukmronligi mustahkamlangan edi.

Keyingi salib yurishlari. Beshinchi salib yurishida (1217—1221) Vengriya qiroli Andrey II katta rol o'ynadi. Salibchilar oldiniga Falastinda urush harakatlarini olib bordilar. Keyin urush harakatlarini Misrga ko'chirdilar. Lekin musulmonlarning qattiq qarshiligiga duch kelib mag'lubiyatga uchradilar.

Oltinchi salib yurishi (1228—1229) Germaniya imperatori Fridrix II Shtaufen nomi bilan bog'liqdir. Oldingi yurishlardan farqli ravishda unda biror-bir arzigulik urush harakatlari olib borilmadi. Fridrix II diplomatik yo'l bilan Quddusni va boshqa ayrim shaharlarni qaytarib olishga erishdi. Ammo 1244 yilda turklar Quddusni yana qaytarib oldilar va xristianlar uni butunlay qo'ldan chiqardilar.

Yettinchi salib yurishiga (1248—1254) Fransiya qiroli Lyudovik IX bosh bo'ldi. Uning qo'shinlari Misrga hujum qildi, lekin mag'lubiyatga uchrab, o'zi qo'lga tushib qoldi. Tutqunlikdan qutulish uchun katta tovon to'lashga majbur bo'ldi.

Sakkizinchi salib yurish 1269—1270 yillarda sodir bo'ldi. Unga yana Lyudovik IX yetakchilik qildi. Qirol Afrika shimolidagi Tunisni egallash uchun harakat qildi. Biroq Tunis qamali paytida fransuzlar lagerida o'lat kasalligi tarqalib, ko'plar qatorida qirolning o'zi ham shu kasallikdan o'ladi.

Shu bilan salibchilarning sharqqa qiladigan bosqinlari to'xtab qoldi. Salibchilarning Sharqdagi mulklari birin-ketin turklar qo'liga o'ta

boshladi. 1268 yilda turklar Antioxiyani, 1289 yilda Tripolini, 1291 yilda Akrani oldilar.

Salib yurishlarining ahamiyati. Salib yurishlari yengilishiga qaramay, G'arbiy Yevropa taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Avvalo, salib yurishlari O'rta yer dengizi bo'yidagi mamlakatlar o'rtasida savdo–sotiqning yuksalishiga yordam berdi. Yurish natijasida arab va vizantiyalik savdogarlarning Yaqin Sharqdagi savdo monopoliyasi qattiq zarbaga uchradi. Bu yerlarda Italiya, Janubiy Fransiya va Sharqiy Ispan shaharlari nazorati o'rnatildi.

Salib yurishlarining boshlarida Sharqdan keltiriladigan tovarlar miqdori shu yurishlar oxiriga kelib o'n marta ko'paydi. Venetsiya bilan Genuya O'rta yer dengizining sharqiy yarmidan to Shimoliy Qora dengiz bo'yigacha kirib bordilar va u yerlarda ko'pdan-ko'p savdo faktoriyalarini barpo qildilar.

XI—XIII asrlarda yevropaliklar Sharqning hunarmandchilik va qishloq xo'jalik texnikasi bilan tanishdilar. Yevropaliklar shu davr ichida to'qimachilik, temirchilik, bo'yoqchilik, atir-upa va dorilar tayyorlash ishining ko'pgina usullarini o'rgandilar. Shuningdek, grechixa, sholi va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini Yevropaga olib ketdilar.

Yevropaliklarning ovqatlanish madaniyatida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ovqatdan oldin qo'l yuvish, ovqatlanishda oldin suyuq ovqatlar, keyin quyuq, so'ngida shirinliklar yeyishni o'rgandilar. Ammo eng muhimi, yevropaliklar Sharqdan boshqa din vakillari bilan tinch-totuv yashash mumkinligini anglab yetdilar.

Savollar va topshiriqlar

1. Salib yurishlari uchun Yaqin Sharqda qanday qulay sharoit yuzaga keldi?
2. Rim papasi salib yurishi qatnashchilariga qanday va'dalar berdi?
3. Salibchilar qanday davlatlarga asos soldilar?
4. Diniy ritsarlik ordenlari nima maqsadda tuzilgan edi?
5. Yevropada ikkinchi va uchinchi salib yurishlarini tashkil qilinishiga nimalar sababchi bo'ldi?
6. Lotin imperiyasi qay tariqa vujudga keldi?
7. Salib yurishlarining natijalari va ahamiyatini aniqlang?

17-§. XI—XV asrlarda Angliya

Angliyada siyosiy markazlashishning boshlanishi. XI asr Angliya tarixidagi eng muhim voqea bu uning Normandiya gersogi Vilgelm (1028—1087) boshliq fransuz-normand feodallari tomonidan bosib olinishi bo'ldi. Yurishdan oldin Vilgelm Angliya qiroli Eduard bilan yaxshi munosabatda edi. Ota tomonidan u Eduardning onasiga jiyan nevara bo'lar, Eduard esa, o'zining 25 yillik quvginlik davrini Normandiya gersogining saroyida o'tkazgan edi. Eduardning bolasi yo'q edi. Shu sabab 1042 yilda Angliya qiroli bo'lgach, Vilgelmni o'z vorisi deb e'lon qilgan edi.

1066 yil 5 yanvarida Eduard vafot etdi. Taxtga Garold chiqib keldi. Vilgelm yangi qirolning qonuniyligini tan olmadi. Chunki, Eduard o'limidan oldin xotining ukasi bo'lmish Garoldni gersog Vilgelm qoshiga jo'natib, unga sodiqlik qasamyodini qilishni buyurgan edi. Garold Normandiyaga kelib Eduardga qasamyod qildi, lekin keyinchalik uni buzgan edi. Vilgelm butun Yevropaga Garoldning subutsizligini ma'lum qildi. Vilgelmni papa Aleksandr II ham qo'llab-quvvatladi.

1066 yil 14 oktabr kuni Vilgelm 15 ming kishilik qo'shin bilan La-Mansh bo'g'ozidan suzib o'tib, Angliyaga bostirib kirdi. Uning qo'shinida nafaqat normandlar bilan fransuzlar, balki boshqa mamlakatlardan kelgan ritsarlar ham bor edi. Vilgelmga qarshi chiqqan Garold normandlarning hujumini to'xtata olmadi. Bir qismi ritsarlardan, boshqa bir qismi dehqonlarning iborat bo'lgan ingliz-saks qo'shinlari Gastings shahri yonidagi jangda to'liq mag'lubiyatga uchradi. Garold o'ldirildi. Shundan keyin Vilgelm London shahrini egalladi. Bu yerdagi «donolar kengashi» Vilgelmni qirol deb e'lon qildi. Toj kiydirish marosimida Vilgelm «qirol Eduardning ezgu ishlarini» davom ettirishga ont ichib, uning to'g'ridan-to'g'ri merosxo'ri ekanligi bildirib qo'ydi.

Bu bosqin uchun Vilgelm Istilochi degan laqab oldi. Vilgelm 1069 yilga qadar Angliyada normandlarga itoat qilmagan barcha shaharlarni egalladi. Diplomatik yo'l bilan daniyaliklarni ketishga majbur etdi. 1072 yilda Shotlandiyada bostirib, uni ham o'ziga bo'ysundirdi.

Angliyani bosib olgach, Vilgelm mamlakatdagi barcha yerlarning yettidan bir qismini o'ziga oladi. Fransiyada kuzatilgan feodal tarqoqlikdan xulosa chiqarib, baronlarga yerlarni turli grafliklardan taqsimlab berdi. Bundan maqsad, baronlarning mulklari bir joyda yig'ilishiga yo'l qo'ymaslik edi. Angliyada «Vassalimning vassali — mening ham vassalim» degan tamoyil amal qildi. Bunga erishmoq uchun

Vilgelmga barcha fuqarolar: baronlardan tortib to oddiy dehqonlargacha vassallik qasamyodini qabul qildilar.

1086 yilda Vilgelm tomonidan ilk bor Angliya aholisining ro'yxatga olinishi katta tadbir bo'ldi. Bu tadbirga aholi qo'rqinch bilan qaradi. Qirol o'z vassallarining qancha mol-mulki borligini bilmoqchi edi. Ro'yxat vaqtida odamlar faqat haqiqatni aytishga majbur edilar. Shu bois xalq orasida «Qo'rqinchli sud kitobi» deb ataldi.

«Qo'rqinchli sud kitobi»ga ko'ra, Angliya dehqonlarining asosiy qismini 30 akr yerga ega villanlar tashkil qilgan. Ular jamoa mulkidan ham foydalanganlar. Villanlar barshchina o'tashgan, lordga natural soliq to'lashgan. Normandlar bosqinidan keyin villanlarning majburiyatlari aniq belgilangan. Bu majburiyatlar ikki ko'rinishda edi: barshchina va hashar. Barshchina sifatida villan haftada uch yoki undan ortiq kun xo'jayin dalasida ishlab bergan. Mahsulot obrogini ham to'lagan. Hashar esa qo'shimcha majburiyat turi bo'lib, uni istagan vaqtda talab qilishar edi. Bunda villanlar oila a'zolari kuchi bilan qo'y junini qirqish, g'allani o'rish kabi ishlarni bajarar edilar. Shuningdek, villanlar qizlarini erga bersalar «nikoh boji» deb atalgan to'lov to'lardilar. Dehqonlar bundan tashqari cherkovlarga ham «o'limdan keyingi yig'im» deb ataluvchi soliq berganlar.

Genrix II hukmronligi davrida (1154—1189) qirol hokimiyatining obro'yi yanada ko'tariladi. O'z qirolligining boshidanoq u barcha grafliklarda sheriflarini o'zgartirib, ularning o'rniga o'ziga ishonchliroq bo'lgan yangi odamlarni tayinladi. G'alayonlar mahalida feodallar tomonidan o'zboshimchalik bilan qurilgan «qonunsiz» qasrlarning ko'pchiligi yo'q qilib tashlandi.

Bundan tashqari, mamlakatda qirollik sudining ahamiyati ortdi. Sud sohasidagi asosiy islohot sud maslahatchilarining o'rnatilishi edi. Qirol har bir ritsar, shaharlik yoki erkin dehqonga feodal va baronlarning sudlariga emas, balki qirollik sudiga murojaat etish huquqini berdi.

Genrix II doimiy qo'shin tuzmoqchi bo'ldi. Chunki vassallarining ritsarlik xizmati bir yilda ma'lum kunlar bilan cheklangan bo'lardi, bu esa quruqlikda uzoq urushlar olib borishda o'ng'aysizlik tug'dirardi. Shu sababli Genrix II ritsarlarning bir qismini harbiy xizmatdan bo'shata boshladi. Bunday ritsarlar shaxsiy xizmat qilish o'rniga «qalqon puli»ni to'lashlari mumkin edi. Qalqon pulining joriy qilinishi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etdi. Bu tadbir tufayli ingliz ritsarlari harbiy-feodal xizmatdan ertaroq ozod bo'lib, tinch qishloq egalariga aylana boshladilar.

Kelgusida bu holat quyi ingliz dvoryanlarini shahar burjuaziyasi bilan yaqinlashtirishda katta rol o'ynadi.

Genrix II ning o'g'illari Richard I Sheryurak (1189—1199) va Ioann Yersiz (1199—1216) davrlarida qirol hokimiyati kuchsizlandi. Richard butun hukmronligi davrida Sharqda salib yurishi yoki Fransiya'dagi urushlar bilan band bo'ldi. Ioann Yersiz esa Fransiya qiroli Filipp II Avgustga qarshi kurashda yengilib, Normandiya, Anju va boshqa bir qancha mulklarni qo'ldan boy berdi. Qolaversa, yangi Kenterberi arxiyepiskopini saylash masalasiga aralashib, papa Innokentiy III bilan to'qnashib qoldi. 1208 yilda papa Angliya'ga interdikt qo'lladi. Jamiyatning yetarlicha qo'llab-quvvatlashiga ko'zi yetmagan qirol 1213 yilda o'zini papaning vassali deb bilib, har yili papa xazinasiga bir ming funt sterling o'lpon to'lash majburiyatini oldi.

Angliyada parlamentning vujudga kelishi. Papa bilan to'qnashuvdagi mag'lubiyat mamlakatda qirolning nufuzini juda tushirib yubordi. Ayniqsa, Fransiya qarshi olib borilgan urush mag'lubiyat bilan yakunlangach, qirol baronlarga oshiqcha soliq soladi. Ioann va uning amaldorlari qo'llab kelgan turli xil ta'magirliklar, nohaq yig'imlar va zo'ravonliklar baronlar, yepiskoplar, ritsarlar va shaharliklar orasida qirolga nisbatan norozilik uyg'otdi. 1215 yil iyunida qo'zg'olon ko'targan baronlar shaharliklar ko'magida Londonga kirib kelishadi. Noiloj qolgan qirol baronlar bilan muzokara boshlashga majbur bo'ldi. Buning natijasida «Erkinlikning Buyuk Hartiyasi» rasman e'lon qilinadi.

63 moddadan iborat bo'lgan hartiya katta siyosiy hujjat edi. U lotin tilida tuzilgan edi. Hartiya asosan feodallar sinfining manfaatlarini ko'zda tutuvchi ko'pdan-ko'p yon berishlar va imtiyozlarni o'z ichiga olgan edi. U baronlarga va feodallarga o'z feodlarini meros qilib qoldirish va «odatga ko'ra» mo'tadil vassalik to'lovlari to'lashni ko'zda tutar edi. Sudning qonuniy hukmidan va mamlakat qonunlaridan tashqari, Angliyada birorta erkin kishi qamoqqa olinmasligi belgilandi. Erkinlikning Buyuk Hartiyasi shaharliklar talabini hisobga olishi juda muhim bo'ldi. Angliyada shaharliklar birinchi marta siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdilarki, feodallar ular bilan hisoblashishga majbur bo'ldilar.

Ioann Yersiz Buyuk erkinlik hartiya'sini imzolar ekan, haqiqatda uni bajarmoqchi emas edi. Ioann baronlar bilan yangi urushga tayyorgarlik ko'rdi. Ammo bu ishlar ayni qizib turgan paytda qirol o'ladi. Angliya taxtiga uning 9 yoshli o'g'li Genrix III (1216—1272) o'tirdi.



Ioann Hartiyani imzolamoqda

Genrix III davrida qirol va baronlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. 1264 yilda boshlanib ketgan qurolli kurash qirolning mag'lubiyati bilan yakunlandi. Baronlar qo'shini qo'mondoni Simon de Monfor qirolning tarafdorlarini tor-mor etib, Genrix III va uning katta o'g'li shahzoda Eduardni qo'lga oldi. Ilojsiz qolgan qirol 1265 yil boshida keng

tarkibda parlament chaqirdi: parlamentga baron va yepiskoplardan tashqari, ritsarlar va shaharlarning vakillari taklif qilindi. Parlament yig'iladigan joy Londondagi Vestminster abbatligi edi. Bu yerda Angliya parlamenti to 1707 yilga qadar majlis o'tkazdi.

Eduard I (1272—1307) hukmronligi yillarida feodallar qirol atrofida birlashdilar. Eduard I o'z mavqeini yanada kuchaytirish uchun bir qancha urushlarni olib bordi. 1282 yilda Uelsni istilo qildi. Lekin Shotlandiyaga qarshi olib borilgan urush og'ir kechdi. Urushni davom ettirish uchun yetarlicha mablag'i bo'lmagan qirol 1295 yili umumtoifaviy parlament chaqirdi. Bu parlamentning tarkibi kelajakda ana shunday yig'ilishlar uchun namuna bo'lganligidan «namunali parlament» nomini oldi.

Fransiya bilan boshlanib ketgan Yuz yillik urush hukumatdan katta mablag'ni talab qildi. Pulga muhtoj bo'lgan qirol har gal parlamentga murojaat etib, undan «subsidiya» yoki «ko'mak» so'rashga majbur edi. Natijada XIV asrga kelib ingliz parlamentining huquqi ham asosan rasmiylashdi. 1343 yildan e'tiboran parlament ikki palataga bo'lindi. Yuqorisi Lordlar palatasi deb atalib, u ruhoniy lordlar, arxiyepiskoplar, eng yirik monastirlarning abbatlari va dunyoviy lordlar (baronlar)dan iborat bo'ldi. Ikkinchisi Umumpalata deb atalib, unda grafliklarning vakillari bo'lmish ritsarlar va shaharliklar yig'ilish o'tkazar edilar.


XIV asrda Angliyaning ijtimoiy-siyosiy ahvoli. XIV asrda Angliya iqtisodiyotida katta siljishlar yuz berdi. Flandriya va quruqlikdagi boshqa mamlakatlar bilan olib borilgan qizg'in savdo-sotiq aloqalari ingliz qishlog'ini keng bozor aloqalariga tortdi. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi Angliyadagi krepostnoylikning yemirilishiga sabab bo'ldi. Lordlar barshchinani pul obrogi bilan ayirboshlashni foydaliroq deb bilganlar. Bunday paytda ular o'zlariga qarashli yerlarni (domenlarni) yollanma ishchilar kuchi bilan ishlashni afzal ko'rganlar. Ayrim lordlar hech qanday xo'jalik yurgizmay, yillik pul rentasi olishni ma'qul ko'rib, o'z domenlarini ijaraga berardilar.

1348 yilda Angliyada «qora o‘lat» tarqaldi. Yuqumli kasallik natijasida mamlakat aholisining qariyb to‘rt dan uch qismi halok bo‘ldi. Ishchi kuchining kamayishi iqtisodiyotga yomon ta‘sir ko‘rsatdi. Ishchi qo‘llar ancha qimmatlashdi.

Eduard III (1327—1377) tomonidan 1349 yili chiqarilgan «Ishchi qonunlari» to‘g‘risidagi farmonga ko‘ra, 12 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan har bir erkak va ayol o‘z yeri va yashash uchun boshqa vositasi bo‘lmasa, epidemiya tarqalishidan oldingi maosh bilan ish taklif qilgan kishiga yollanishga majbur edi. Bo‘ysunmaslik yoki muddatidan oldin ketib qolish uchun qamoq jazosi qo‘llanilgan. Ishga yollovchilar ham yuqori maosh tayinlashsa, jarima to‘laganlar. Ishlamasdan tilamchilik va o‘g‘irlik qilib yurish taqiqlandi. Hatto, tilamchilarga sadaqa qilganlarga qamoq jazosi ham berildi. Ammo bu farmon joylarda bajarilmadi, dehqonlar va hunarmandlar bir grafliklardan ikkinchi grafliklarga qochib o‘tishni davom ettavardilar.

Uot Tayler qo‘zg‘oloni. 1377 yili parlament yuz yillik urushdagi chiqimlarni qoplash maqsadida 14 yoshdan oshgan har bir kishiga 4 pens miqdorida jon solig‘ini belgiladi. 1380 yilning noyabr oyida parlament jon solig‘ini 12 pensga ko‘tardi. Shu yo‘l bilan parlament 66666 funt sterling pul yig‘moqchi edi. Jon solig‘i xalqning sabr kosasini to‘ldirdi va qo‘zg‘olonga yetaklagan so‘nggi bahona bo‘ldi.

Shu yillarda ingliz qishloqlarida va‘zxonlar paydo bo‘lib, o‘zlarini «faqir poplar» deb atardilar. Ulardan Jon Boll ayniqsa, juda mashhur edi. Jon Boll katolik cherkovi qarashlariga to‘g‘ri kelmaydigan aqidani ilgari surdi. Uning fikricha Tangri barcha odamlarni teng qilib yaratgan, shu bois krepostnoylik huquqini bekor qilib, yalpi ozodlikni talab qilib chiqqan edi. Bunga javoban Jon Boll qo‘lga olinib, Meynstoun shahridagi qamoqxonaga tashlandi.



Jon Boll

1381 yil may oyining oxirida Esseks grafligida qo‘zg‘olon boshlandi. Dehqonlar bu yerda jon solig‘i yig‘uvchilarni haydab yubordilar va ulardan ayrimlarini o‘ldirdilar. Shundan keyin dehqonlar yirik yer egalariga qarshi ko‘tarildilar.



Richard II qo'zg'olonchilar bilan uchrashmoqda. Miniatyura

Qo'zg'olon Esseksdan qo'shni Kent, Sefolk, Norfolk va boshqa graliklarga ko'chdi. Qisqa bir fursat ichida qo'zg'olon Angliyaning katta bir qismiga yoyildi. Dehqonlar dunyoviy va ruhoniy lordlarga qarashli mulklarni egalladilar, ulardagi g'alla, chorva mollari va boshqa narsalarni taladilar, barshchina va obrok majburiyatlariga doir ro'yxatlarni yondirib tashladilar. Qo'zg'olonga kentlik tunukasoz Uot Tayler boshchilik qildi.

Uot Tayler g'ayratli boshliq bo'lib chiqdi. U qo'zg'olonchilarni Londonga boshlab bordi. 1381 yilning 13-15 iyun kunlari London dehqonlar qo'lida bo'ldi. Qirollik kansleri Simon Sedberi va lord-xazinachi Xeyls qo'zg'olonchilar tomonidan o'ldirildi. Londondagi qamoqxonalarning hammasi ag'dar-to'ntar qilindi. London sudining asosiy arxivi ham yoqib yuborildi. Qirolning amakisi, gersog Lankasterskiyning saroyi talandi.

1381 yilning 14 iyunida London chekkasidagi Mayl-End degan kichkina bir joyda qo'zg'olonchilar o'z talablarini qirol Richard II ga tutqazdilar. Unda Angliyada krepostnoylikni bekor qilish, qo'zg'olonchilarni kechirish, barchaga savdo yuritish erkinligi berish, 7 akrgacha bo'lgan yerni sotib olishda uning belgilanganidan (4 pensdan) qimmat narxda sotilishiga yo'l qo'ymaslik kabi shartlarni imzolash talab qilingan edi.

Mayl Enddagi dasturda siyosiy xususiyatga ega talablar yo'q edi. Qirol bu talablarga roziligini bildirdi va qo'zg'olonchilarga har qaysi qishloqdan 2-4 kishidan vakil qoldirib, qolganlaridan tarqalishni so'radi. Qolgan vakillarga yuqoridagi talablarning qondirilganligi to'g'risidagi yorliqni topshirishni bildirdi. Esseks aholisi villanlikdan ozod qiluvchi yorliq bilan chegaralanib, uylariga qaytib ketdilar. Londonda faqat Uot Tayler, Jon Boll yetakchiligidagi kentliklarga qolishdi.

Kentliklar Smitfild degan joyda o'zlarining talablarini qirolga taqdim etdilar. Unda «Ishchi qonunlarini» bekor qilish, cherkov yerlarini dehqonlar o'rtasida bo'lib berish, senyorlar tomonidan tortib olingan jamoa yaylovlarini qaytarish, qaramlikning barcha ko'rinishlarini tugatish, senyorlarning barcha imtiyozlaridan mahrum etish va tabaqalarni

tenglashtirish talab qilingan edi. Qirol bu talablarni ham bajarishga rozi bo'ldi, ammo qirol bilan ikkinchi uchrashuv chog'ida Uot Tayler London shahrining meri tomonidan o'ldirildi. Rahbarsiz qo'zg'olonchilarni tormor etish uncha qiyin bo'lmadi. Qirollik tomonidan tashkil qilingan jazo guruhlari qo'zg'olon qatnashchilarini ayovsiz jazoladilar.


1381 yilgi qo'zg'olon yengilishiga qaramay, u ingliz dehqonining keyingi taqdiriga katta ta'sir ko'rsatdi. Bundan keyin dehqonlarni pul evaziga krepostnoylikdan ozod qilish boshlandi. XV asrda Angliya qishloq xo'jaligi mustaqil xo'jalik yurgizuvchi erkin dehqonlardan iborat bo'lib qoldi.

Qizil va oq atirgullar urushi. Eski feodal aristokratiyasi XV asr mobaynida hukmron sinf hisoblanar edi. Bu aristokratiya Yuz yillik urushdan katta o'ljalar olishga ishongan edi. 1399 yilda plantagenetlar o'rniga kelgan yangi lankasterlar sulolasi aristokratik siyosatning quroliga aylandi. Biroq Yuz yillik urushdagi mag'lubiyat va Angliya savdosining izdan chiqishi lankasterlar obro'yiga putur yetkazdi. Qirol hokimiyati kuchsizlandi. Hokimiyat uchun kurash boshlandi.

1455 yilda Genrix VI kasalligi sabab Richard Yorkskiy qirollik regenti deb e'lon qilindi. Ammo lankasterlarning izdoshlari tez orada Richard Yorkskiyi regentlikdan olib tashlashdi. Lankasterlardan norozilik kuchayganligidan foydalanib, yorklar hokimiyatni o'z qo'llariga olishga harakat qildilar. Angliya shimolidagi yirik feodallar lankasterlarni, qolgan hududlar esa, yorklarni qo'lladilar. Yorklarning timsoli oq atirgul, lankasterlarniki qizil atirgul bo'lgan. Shu bois bu urush tarixda «Qizil va oq atirgullar urushi» deb nom oldi.

1455 yili boshlangan urushda dastlab lankasterlar tarafdorlarining qo'li baland keldi. 1460 yilgi jangda Richard Yorkskiy o'ldirildi. Shundan keyin Richardning o'g'li Eduard yorklar to'ldasiga boshchilik qildi. U lankasterlarni 1461 yilda ikki marta mag'lubiyatga uchratib, Londonni egallaydi va qirol deb e'lon qilinadi (1461—1483). Genrix VI esa Tauer qo'rg'oniga qamab qo'yildi.

Eduard IV o'rta va mayda dvoryanlarga lankasterlarning musodara qilingan yerlari va unvonlar berib o'ziga yaqinlashtiradi. Ularga tayanib o'zboshimcha baronlarni ayovsiz jazolaydi. Eduard IV mamlakat savdo va sanoatini yuksaltirishga harakat qildi. Movutchilikni rivojlantirish uchun junni chetga chiqarishni to'xtatdi.



Eduard IV vafot etgach, o'rniga ukasi Richard chiqib keldi. Uning buyrug'i bilan Eduard IV ning ikki yoshli o'g'li Tauerda o'ldiriladi. Richard III ning siyosati lankasterlar va yorklarning noroziligiga sabab bo'ldi. Ular birlashib lankasterlardan bo'lgan Genrix Tyudorni taxtga chiqardilar. 1485 yilgi Bosvort jangida Richard o'ldirildi. Shu bilan urushga chek qo'yildi. Genrix VII Tyudor (1485—1509) Eduard IV ning qizi Yelizavetaga uylanib, gerbida oq va qizil gul tasvirini birlashtiradi.

Bu urushda Angliya o'z aholisining 1/4 qismini yo'qotgan edi. Ingliz aristokratlari ham jiddiy talofat ko'rdi. Urushning oxiriga kelganda qirolga qarindoshligi bo'lgan 80 nafar baron o'ldirilgan edi. Oldingi normandiyalik oqsuyaklar yo'q qilindi, ularning o'rnini angl-sakslar egalladilar. Ularga tayangan Genrix VII qirol hokimiyatini mustahkamladi.

XIV—XV asrlarda Angliyada ingliz millatining tarkib topa boshlashi uchun shart-sharoit vujudga keldi. Normandlar istilosidan boshlab Angliyada ikki tildan foydalanib kelindi. Qirol saroy amaldorlarining katta qismi fransuz tilida, aholining asosiy qismi ingliz tilida so'zlashardi. Ingliz tili fransuzchani asta-sekin siqib chiqardi. XIV asrning ikkinchi yarmida London shevasi asosida ingliz tili rivojlanib, milliy adabiy til sifatida maydonga chiqdi.

Savol va topshiriqlar

1. Normandlar istilosining Angliya uchun oqibatlarini aniqlang?
2. Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishiga nimalar sababchi bo'ldi?
3. Angliya parlamentarizmining shakllanishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlang?
4. Uot Tayler qo'zg'olonining ahamiyatini aniqlang?
5. «Qizil va oq atirgullar urushi» qanday yakunlandi?

18-§. XI—XV asrlarda Fransiya

XI—XIII asrlarda Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti. XI—XIII asrlarda Fransiya ishlab chiqaruvchi kuchlar juda tez rivojlandi. Dehqonchilik ancha o'sdi. Yerning bir qismi bir juft ho'kiz qo'shilgan g'ildiraksiz yengil plug bilan yaxshilab haydalar edi. Bug'doy, javdar, suli, arpa va boshqa boshqoli ekinlar hosili ko'payib, ekilgan urug'likka qaraganda besh va hatto olti hissa ortiq g'alla yig'ib olinadigan bo'ldi. Mamlakatda qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talab ko'paydi.

Bu davrda Fransiya shaharlari katta yuksalishni boshidan kechirdi. Janubdagi shaharlarning ko'pchiligi, shu jumladan, ko'pgina eski Rim shaharlari Italiya va Yaqin Sharq bilan ham qizg'in savdo-sotiq olib bordi. Bular orasida Marsel, Tuluza, Mopele, Narbonna alohida ajralib turardi. Ayni zamonda shimolda va shimoliy-sharqda Amyen, Suasson, Lan, Sanlis, Bove, Ruan, Reims, Trua va boshqa ko'pgina shaharlar o'sib, muhim hunarmandchilik markazlariga aylandilar. Ularda movut va kanop gazlamalari ishlab chiqarilar, mo'yna ishlanar, temir, qalayi, kumush va boshqalardan turli metall buyumlar tayyorlanardi.

Savdo-hunarmandchilik taraqqiyoti yarmarkalarda namoyon bo'ldi. Shampanning turli shaharlari — Trua, Proven va boshqa joylarda deyarli yil bo'yi savdo-sotiq qilinar edi. Umuman, savdo oborotlarining miqyosi va tashqi savdoda ishtirok etish jihatidan Fransiyaning shimoli-sharqiy viloyatlari janubiy shaharlarga qaraganda hali ancha orqada edi. Lekin Fransiya viloyatlari o'rtasida ichki ayirboshlashning kuchayishi umumfransuz milliy bozorini vujudga keltirish bilan birga, mamlakatni siyosiy birlashuvida ham muhim rol o'ynadi.

Qirol hokimiyatining kuchayishi. Kapetinglar sulolasi IX asrda yashagan Robert Kuchliga borib taqaladi. Robert Kuchli G'arbiy Frank qirolu Karl II ning eng yaqin kishilaridan biri bo'lgan. Karolinglar hokimiyati susaygan vaqtda uning o'g'illari Ed va Robert I ma'lum muddat qirollik taxtiga ham o'tirishgan. Faqat Robert I ning nabirasi Gugo Kapet davriga kelibgina hokimiyat uzil-kesil robertinlar sulolasi qo'lga o'tadi.

Gugo Kapet oldiniga frank gersogi edi. Ichki kurashlar natijasida karolinglar sulolasi tugagach, Sanlis shahrida bo'lib o'tgan feodallar yig'inida Gugo Kapet bir ovozdan qirol etib saylanadi. Yangi qirol o'g'li Robertni o'ziga qo'shhukmdor etib tayinlashi natijasida taxt kapetinglarga meros bo'lib o'tadigan bo'ldi. Shu davrdan boshlab, G'arbiy Franklar davlati Fransiya nomini oladi.

Qirol domeni shimoldan janubga qarab choʻzilib ketgan va ikkita katta shahar – Parij bilan Orleanni oʻz ichiga olgan edi. Qirol mulki shimolda — Flandriya grafligi, Normandiya gersogligi va Akvitaniya gersogligi, janubda — Overn va Tuluza (Langedok) grafliklari, sharqda — Shampän grafligi va Burgundiya gersogligi bilan chegaradosh edi.

Ilk kapetinglar davrida Fransiya Gʻarbiy Yevropaning eng tarqoq monarxiyalardan biri edi. Fransiya «vassalimning vassali — mening vassalim emas» tamoyili hukm surar, bu esa qirolning qudratli feodallarga tegishli vassallarga oʻz soʻzini oʻtkaza olmasligini anglatar edi.

Qirol oʻziga qarashli domenda mahalliy baronlarga qarshi qattiq kurash olib borishga majbur boʻldi. Hokimiyatni Kapetinglar qoʻlida saqlamoq uchun XII asrning birinchi yarmiga qadar qirol valiahdiga oʻzi tirikligi vaqtidayoq toj kiygizish marosimini oʻtkazar edi. «Qari qirol» yonida «yosh qirol» ham davlatni boshqarar edi.

XII asrning birinchi yarmidan Fransiya qirol hokimiyati yuksala boshladi. Lyudovik VI Semiz (1108—1137) deyarli butun oʻttiz yillik hukmronlik davrini domenidagi baronlarga qarshi kurash bilan oʻtkazib, oxiri ularni oʻziga boʻysundirishga muvaffaq boʻldi. Umrining soʻnggi yillarida u oʻgʻli Lyudovik VII ni Akvitaniya gersogining yolgʻiz qizi Eleonoraga uylantirib, qirollik nufuzini oshirdi. Ammo, Lyudovik VII tez orada Eleonora bilan ajrashganidan keyin Akvitaniya qoʻldan chiqadi. Buning ustiga Eleonoraga uylanib olgan ingliz qirol Genrix II Plantagenet xavfli raqibiga aylanadi.

XII asr oʻrtalarida Fransiyaning deyarli butun gʻarbi ingliz qirollari qoʻliga oʻtdi. Plantagenetlar mulkiga Anju, Bretan, Akvitaniya, Gaskon, Overnning bir qismi, Turen, Puatye, Men, shuningdek, Fransiyaning shimolidagi Normandiya gersogligi kirar edi. Fransuz mulklariga ega boʻlgan plantagenetlar Fransiya qirolining vassallari hisoblanardilar. Lekin ularning mulklari qirol domenidan bir necha marta kattaroq edi.

Filipp II Avgust boshqaruv davri. Lyudovik VII ning oʻgʻli Filipp II Avgust (1180—1223) oʻz hukmronligi davrida fransuz yerlarini



Gugo Kapet

birlashtirish siyosatini izchillik bilan olib bordi. Filipp II birinchi bo'lib «Fransiya qiroli» unvonini oldi. Ungacha davlatni boshqargan hukmdorlar «franklar qiroli» deb atalar edi.

Filipp II qirollik domenida joylashgan fransuz shaharlariga ham, boshqa feodallarga qarashli yerlarda joylashgan shaharlarga ham homiylik ko'rsatdi. Fillip II hukmronligining ilk yillaridayoq shimoldagi Pikardiya bilan Vermanduani qirollik domeniga qo'shib oldi. So'ng Angliyaga qarshi kurash olib borib, Normandiya, Anju, Turen, Puatyening bir qismini plantagenetlardan tortib oldi. 1214 yil iyulining boshida ingliz quroli Ioann Yersizni Larosh O'Muan yonidagi jangda tor-mor etdi. Natijada Fillip II La-Mansh va Atlantika okeaniga bemalol chiqadigan bo'ldi, Sena bilan Luara havzalari tamomila fransuz qiroli ixtiyoriga o'tdi.



Fillip II davrida qirol domenining g'arbidagi Blua va uning janubidagi Overnning bir qismi, Fransiyaning eng janubidagi Langedokning sharqiy qismi ham qo'shib olindi. Qisqa muddat ichida qirol domeni hududi bir necha marta ko'paydi.

Qirollik yerlarining kengayishi munosabati bilan davlatda muhim ma'muriy islohotlar o'tkazildi. Qirollikka qarashli barcha mulklar ma'muriy okruglarga bo'linib, ularga qirollik gubernatorlari – balyalar boshliq qilib qo'yildi. Balyalarning funksiyalari Buyuk Karl davridagi graflarni eslatardi. Balyalar qaramog'ida sud, soliqlar yig'ish, askar chaqirish ishlari bo'lardi. Bu lavozimga saroyga yaqin turgan kishilar tayinlanib, ular mahalliy feodallarga qarindosh bo'lmasligi yoki biror masalada ular bilan yaqin aloqa bog'lamasliklari shart edi.

Lyudovik IX Avliyo va uning islohotlari. Lyudovik VIII qisqa vaqt qirollik qilganidan keyin Filipp II ning nabirasi Lyudovik IX Avliyo hokimiyat tepasiga keldi (1226—1270). Lyudovik IX davrida Puatyening janubiy qismi, Tuluza shahri va G'arbiy Langedok qo'shib olindi. Qirol 1259 yilda Angliya bilan Fransiya o'rtasida tinchlik shartnomasi tuzdi. Unga muvofiq, ingliz qiroli shimolda va shimoli-g'arbda ilgariroq qo'lidan chiqqan Normandiya, Anju va boshqa mulklaridan butkul voz kechib, o'z ixtiyorida faqat Akvitaniyani, shunda ham fransuz qiroliga vassallik huquqi bilangina saqlab qoldi. Ammo Lyudovik IX qirolligidagi eng muhim jarayon ma'muriy, sud va moliya islohotlari sanaladi.



Lyudovik IX Avliyo

Islohotlar natijasida Fransiyaning idora qiluvchi markaziy boshqarma tashkil topdi. Qirollik kengashi yoki qirollik kuriasi XIII asrda feodallarning yig'indidan markaziy byurokratik muassasaga aylanib, bir qancha boshqarmalarga bo'linib ketdi. Kichik qirollik kengashi yoki «tor doiradagi kengash» ajralib chiqib, u qirolning eng yaqin amaldorlari doimiy ish ko'ruvchi kengashiga aylandi. Sud ishlarini yurgizuvchi qirollik kurasining boshqa qismi alohida muassasa bo'lib qoldi. Bu muassasa Parlament degan nom oldi.

Qirol amaldorlarining katta bir qismi universitetlarda «Rim huquqi» bo'yicha o'qigan shaxslar bo'lib, ko'pincha pastki tabaqadan chiqqan, lekin baland martabaga erishganliklari uchun butkul qirolga xizmat qilishga tayyor turgan va unga sodiq kishilar edi. Odatda, ularni **legistlar** deb atardilar. Legistlar ko'pincha shaharliklar orasidan chiqar edi. Qirol hokimiyatining shaharlar bilan ittifoqi ana shu vaqtda yana bir marta isbotlandi.

Qirol janjalli masalalar chiqqan paytda ularni hal etish uchun qirollik sudiga murojaat etishga feodallarni majbur qildi. O'z domemida urushni man etdi. Janjal chiqqan kun bilan urush boshlanishi o'rtasida 40 kunlik muhlat belgilanib, shu orada kuchsiz tomon qirolga murojaat qilishi mumkin edi. Qirol sudiga qirollik domeniga hali qo'shib olinmagan yerlarning aholisi ham murojaat qila olardi. Ayrim ishlarni (o't qoyish, soxta tanga chiqarish, xotin-qizlarni o'g'irlash kabilarni) qirol sudi ko'rishi lozim edi.

Lyudovik IX chiqargan tangalar feodallarning pullarini siqib chiqardi. XIII asr o'rtalarida qirolning daromadi keskin ko'paydi. Savdo-sotiq, hunarmandchilik va yer-mulklardan keladigan daromadlardan tashqari, qirol o'z vassallari va shaharliklardan ham ko'p foyda ko'rardi. Tushgan daromad davlatning moliyaviy ahvolini yaxshilab, qirolning faol tashqi siyosat yuritishiga imkon berdi.

XIII asrda shaharlarning o'sishi va tovar xo'jaligi rivojlana boshlashi munosabati bilan krepostnoy dehqonlarning bir qismi feodallar tomonidan pul rentasiga ko'chirildi. Bu masala salib yurishlari vaqtida muhim ahamiyat kasb etdi. Salib yurishlariga ketayotgan feodal pulga muhtoj bo'lgani uchun o'z krepostnoylariga pul to'lab erkinlikka chiqishni yoki shu pul evaziga eng og'ir majburiyatlardan qutilishni taklif etar edi.

Natural majburiyatlarni pul bilan ayirboshlash dehqonlarni erkinlikka chiqishida yordam berdi va bu ijobiy xarakterga ega bo'ldi.

Fransiyada toifaviy monarxiyaning tashkil topishi. Lyudovik IX o'limidan so'ng taxtga o'g'li Filipp III Dovyurak (1270—1285) o'tiradi. Lyudovik IX ning kenja o'g'li Robert esa, 1272 yilda Jan Burgundskiyning qizi Beatrisga uylanadi. Beatrisga otasidan de Burbon gersogligi bilan Sharol grafligi meros bo'lib qolgan edi. Ushbu nikoh natijasida Robert **burbonlar** sulolasiga asos soladi.

Filipp III Dovyurak hukmronligi yillarida qirollik yerlari kengayadi. Taxt vorisi Filippni Navarra qirolichasi Jannaga uylantirish orqali qirollikka Navarra, Shampän va Bri grafliklarini to'liq o'z domeniga qo'shib oladi.

Umrining so'nggi yillarida Valua grafligini to'rtinchi o'g'li Karlga berdi. Shu davrdan e'tiboran, Karlga graf de Valua deb murojaat qilish boshlangan. Undan **valualar** sulolasi tarqalgan.



Filipp IV Chiroyli

Filipp IV Chiroyli (1285—1314) Kapetinglar sulolasining dongdor vakili edi. Fillip IV qirollik qilgan davrida Shimoli-G'arbiy Yevropaning yirik hunarmandchilik o'lkasi hisoblangan Flandriyani egallashga intildi. Ammo Flandriya aholisi 1302 yilda fransuz ritsarlarini qattiq mag'lubiyatga uchratdilar. Shunga qaramay, Fransiya qo'shinlari 1305 yilda Lilla yonidagi jangda flamandliklarga zarba berib, G'arbiy Flandriyaning bir qismini qirol domeniga qo'shib olishga muvaffaq bo'ldilar. Biroq,

Flandriya, Bretan, Akvitaniya va Burgundiya hali qo'shib olinmagan edi.

Flandriya urushi vaqtida chiqimlarning keskin ko'payib ketishi, shuningdek, qirol saroyida ortiqcha isrofgarchiliklarga yo'l qoyilganligi tufayli Fillip IV ning moliyaviy ahvoli yomonlashdi. Qirol har qanday yo'llar bilan daromadini ko'paytirmoqchi bo'ldi. U shaharlardan pul qarz olib, uni qaytarmas, yahudiylarni mamlakatdan quvib yuborib, o'ziga kerakli to'lovlarni olib bo'lgach, yana ularni Fransiya kirgizar edi. Tanga sifatini buzishi oqibatida savdoni izdan chiqarib yubordi. Qirollikka tegishli yer-mulklardagi dehqonlarni katta haq to'lash evaziga ozodlikka chiqishga majbur etar edi. Qirolning soliqchilari bosib olingan viloyatlarda izg'ib yurib, aholining joniga tekkan edi.



Papa Kliment V

Filipp IV pulga o'ta muhtojligidan katolik cherkoviga ham soliq soldi. Bunga papa Bonifatsiy VIII (1294—1303) keskin qarshi chiqdi. Bonifatsiy VIII ruhoniylarning qirolga biror-bir soliq to'lashini man etdi. Bunga javoban Filipp IV qonunshunoslarning taklifi bilan Fransiyadan qimmatbaho metallarning olib chiqib ketilishini taqiqlovchi qonun chiqardi. Bonifatsiy VIII qirolni cherkovdan chetlatishga tayyorgarlik

ko'rayotgan paytda Filipp IV General shtatlarni chaqirdi. 1302 yilda ish boshlagan General shtatlar ruhoniylar, dvoryanlar va shaharliklarning vakillaridan iborat edi. Ularga qirol bilan papa o'rtasidagi janjalni muhokama qilish taklif etilgan. General shtatlar papaning Fransiya ichki ishlariga aralashish da'vosini qoralab chiqqan.

General shtatlarning tuzilishi Fransiya taraqqiyoti yo'lida muhim ahamiyat kasb etdi. Endilikda qirolni aholining eng nufuzli tabaqalari bilan bog'lovchi yangi organ paydo bo'lgan edi. Qirol general shtatlarga tayanib, o'z moliya ishlarini mustahkamlay oldi va itoatsiz feodallarni yanada jilovlay oldi. Tarqoq feodal monarxiyasi o'z o'rnini markazlashgan toifaviy monarxiyaga bo'shatib berdi. Bu monarxiyani boshqarishda mamlakatdagi uchta rasmiy toifa vakillari ishtirok etdi.

Jamoatchilik ko'magiga tayangan Filipp IV papaga qarshi kuch ishlatishga o'tdi. Papaning Fransiya yuborgan legati (vakili) qirol buyrug'iga muvofiq qamoqqa olindi. O'z maslahatchisi va muhrdori Giyom de Nogareni (1260—1313) Rimga yubordi.

Bu paytda Bonifatsiy VIII Italiyaning Anani shahridagi qasrida edi. Nogare qurolli otryadi bilan qasrga kirib papani qamoqqa oldi. Nogare uni simoniya, shakkoklik va yo'qsillarning mulkini o'girlaganlikda aybladi. Bu haqoratlardan ko'p o'tmay Bonifatsiy VIII vafot etdi. Uning o'rniga Filipp IV ning taklifi bilan bardolik fransuz arxiyepiskopi Kliment V nomi bilan papalikka saylandi. Kliment V Rimda yashashni istamadi, shu sababli o'z qarorgohini Fransiya Avinyon shahriga ko'chirdi. Papalarning bu yerdagi hayoti 70 yil (1309—1378) davom etdi va «papalarning Avinyon tutqunligi davri» nomini oldi.

Filipp IV 1307 yili boy Tampliyerlar ordeniga nisbatan jinoiy ish ochdi. Bir paytlar qirol bu ordendan juda ko'p pul qarz olgan edi. Shakkoklikda ayblangan tampliyerlar sud javobgarligiga tortildilar. Yuzlab

ritsarlar olovda kuydirildi, ularga tegishli yer-mulk va juda ko'p pul mablag'lari tortib olinib, qirol xazinasiga topshirildi. Ordenni tugatish ishini boshqargani uchun Giyom de Nogare kansler lavozimiga tayinlandi.

Yuz yillik urush. O'rta asrlar davrining eng uzoq cho'zilgan qurolli mojarosi Angliya va Fransiya o'rtasidagi urush (1337—1453) sanaladi. Urushning boshlanishiga Angliyadagi plantagenetlar sulolasining Fransiya taxtiga bo'lgan da'vosi sabab bo'ldi. Ularning maqsadi ilgarilari o'zlariga tegishli bo'lgan yerlarni qaytarib olish edi. Qolaversa, plantagenetlar Fransiya qirollari bilan yaqin qarindoshlik aloqalariga ham ega edilar. Ingliz qirollari fransuz taxtini egallab olish uchun barcha imkoniyatga ega edilar. Fransiya esa, 1259 yilgi shartnomaga ko'ra inglizlar qo'lida qolgan Akvitaniya tortib olmoqchi edi.



Yuz yillik urush

Filipp IV dan so'ng qisqa vaqt ichida uning uchta o'g'li qirollik qilishdi. Lekin ulardan o'g'il qolmaganligi sababli kapetinglar sulolasi tugaydi. 1328 yilda Fransiya qirolli Karl IV o'limidan keyin taxtga amakvachchasi Filipp de Valua hamda jiyan, ingliz qirolli Eduard III da'vogarlik qilishdi. Fransuz aristokratiyasi Filippni qirol deb e'lon qildi. Eduardni ona tomondan qarindosh bo'lgani sabab da'volari

inobatga olinmadi. Eduard Filipp VI ni qirol sifatida tan olishga majbur bo'ldi. Buning evaziga Gaskon o'lkasi nazoratini o'z qo'lida qoldirdi.

1333 yili Eduard III Shotlandiya qirolli David II bilan urush boshladi. Qulay fursatdan foydalangan Filipp VI Gaskonni egallab olmoqchi bo'ldi. Lekin David II tezda mag'lub bo'lib, Fransiya qochib ketdi. 1336 yilda Filipp VI Britaniya oroliga qo'shin tushirish va Gaskonni qo'lga kiritish harakatiga tushdi. Vaziyat keskin tus oldi. 1337 yilning kuzida inglizlar Pikardiyaga yurish boshladilar. Ularni Flandriya va Gaskon shaharlari qo'llab-quvvatladilar.

Yuz yillik urushning yirik janglari 1346 yilda Kresi ostonalarida, 1347 yili Kale portida sodir bo'ldi. Bu janglarda inglizlar g'alaba qozondilar. Biroq 1346-1351 yillarda Yevropada tarqalgan o'lat kasalligi tufayli urush harakatlarini ma'lum muddat to'xtatildi.



Eduard Qora Shahzoda

1356 yilda 30 minglik ingliz qo'shini Eduard III ning Qora Shahzoda laqabi bilan tanilgan o'g'li — Eduard boshchiligida Gaskonga bostirib kirdi. Puatye atrofida bo'lib o'tgan janglarda inglizlar g'alaba qozondilar. Jang oxirida Fransiya qiroli Ioann II Mehribon qo'lga tushdi.

Ketma-ket mag'lubiyatlar, ingliz qurolli otryadlarining deyarli Parijgacha bostirib kirishi mamlakat ichida chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tanglikni keltirib chiqardi. 1358 yili Bove okrugida yirik qo'zg'olon ko'tarildi. Unga Gilyom Kal

boshchilik qildi. Ammo yetarli darajada uyushmagan dehqonlar feodallarning qo'shiniga dosh bera olmadi va mag'lubiyatga uchradi.

1360 yili Angliya va Fransiya o'rtasida tinchlik bitimi tuzildi. Unga ko'ra, Fransiya yerlarining uchdan bir qismi Angliyaga o'tar, tutqunlikda yotgan qirol uchun 3 million oltin ekyu (Fransiya pul birligi) to'lanishi lozim edi.

Tinchlik bitimidan Fransiya unumli foydalanib, qo'shin yig'ishga kirishdi. Harbiy lavozimlarga qobiliyatli kishilar tayinlandi. Jiddiy tayyorgarlikdan keyin 1369 yilda urushning ikkinchi davri boshlandi. 1389 yilga qadar bo'lgan davrda ingliz qo'shinlari tor-mor etilib, Fransiyadan quvib chiqarildi.

Inglizlar qo'ldan ketgan yerlarini qaytarib olish niyatidan voz kechmadilar. Fransiyada ruhiy kasal qirol Karl VI ga o'z ta'sirini o'tkazish uchun **armanyaklar** (graf Bernar VII de Armanyak nomidan olingan) bilan **burginyonlar** (Burgundiya gersogi Jan Qo'rqmas tarafdorlari) o'rtasida grajdanlar urushi boshlanib ketdi.

Ichki nizolardan foydalangan Genrix V 1415 yil avgustida Onfler shahrini egalladi. Natijada urushning uchinchi bosqichi boshlandi. 1415 yil 25 oktabrda Azenkur jangida inglizlar son jihatdan ustunlikka ega fransuzlarni mag'lub etdilar. Genrix V Normandiyaning katta qismini bosib oldi. So'ng Parijni zabt etgan Burgundiya gersogi bilan ittifoq tuzib, Fransiyaning yarmini qo'lga kiritdi. 1420 yilda Genrix V Fransiyaning ruhiy kasal qiroli Karl VI bilan uchrashib, Truada bitim imzolaydi. Unga asosan, Genrix V qonuniy dofin (valiahd) Karlni (bo'lg'usi qirol Karl VII) chetlab, o'zini Karl VI Tentakning vorisi deb e'lon qiladi. Keyingi yili

Genrix V Parijga kirib bordi va ushbu shartnoma General shtatlar tomonidan rasman tasdiqlandi.

Lekin Genrixning rejaları amalga oshmadi. 1421 yili Shotlandiya grafi Jon Styuart 6 ming kishilik qo'shini bilan Fransiyağa kelib, Boje jangida inglizlarni tor-mor etdi. Bu mag'lubiyatdan so'ng Genrix V 1422 yilda Mo shahrida o'ladi. Uning 1 yoshli yolg'iz o'g'li Angliya va Fransiya qiroli deb e'lon qilinadi. Lekin armanyaklar urug'i taxt vorisi Karlga sodiqligicha qoladi va urush davom etadi.

1423 yili Kravan jangida 4 ming kishilik ingliz qo'shini 12 ming kishilik fransuz-shotland qo'shinlarini mag'lub etdi. Natijada valiahd Karl tarafdorlari qo'lidagi hudud ikki qismga ajralib, ular o'rtasidagi aloqa uzilib qoldi. Har bir hudud inglizlarga alohida qarshilik ko'rsatishga majbur bo'ldi.

Jangovor harakatlarni davom ettirgan inglizlar 1428 yili Orlean shahrini qamal qildilar. Bu yerda inglizlar qator g'alabalarni qo'lga kiritdilar. Ayni shu davrda siyosat maydoniga Janna de Ark (1412—1431) chiqib keladi.

Janna de Ark Shampan va Lotaringiya chegarasidagi Domremi qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligida lotaringiyalik qiz Fransiyanı qutqarishi xususida sehrGAR Merlin (qiroL Artur xizmatchisi) bashorati to'g'risidagi afsonalarni ko'p bora eshitgan edi. Ana shu afsonalar og'ushida 13 yoshli Janna o'zini qutqaruvchi ekanligini aytadi. 16 yoshida uyidan qochib, Vokuler shahri kapitani Poberu de Bodrikuruga uchrashadi. Kapitan yosh qizning shijoatini ko'rib, unga harbiy kiyim beradi va dofinning oldiga jo'natadi.

1429 yilning fevralida Janna dofin Karl bilan uchrashadi. Janna bir qator sinovlardan o'tkazilgach, dofin uni bosh qo'mondon etib tayinlaydi. Yo'lda Blua shahriga kirib u yerdagi cherkovda saqlanayotgan Karl Martellning qilichiga ko'zi tushadi. Bu qilich bilan Karl Martell Puatye jangida arablarni yenggan edi. Janna shu qilichni olib Orleanga jo'nadi. Bu to'g'ridagi xabarlar butun mamlakatga yoyildi. Uning oldiga yuzlab ko'ngillilar kelishar edi. Jangchilarning ruhi ko'tarildi.

Sovut kiygan Janna bir qo'lida eski qilich va ikkinchi qo'lida bayroqni ushlab turar edi. Janna nima bo'lmasin Orlean qamalini olib tashlashi zarur edi. Ozgina askar bilan Janna qamalni yorib Orleanga kirib keldi. Xalq uni olqishlar bilan kutib oldi. Asosiy kuchlar yetib kelgach, 1429 yil 4 may kuni fransuz jangchilari Sen Lu istehkomini egalladilar. Ketma-ket g'alabalardan so'ng 8 may kuni inglizlar qamalni to'xtatib, ortlariga chekindilar. Shu g'alaba evaziga Jannaga dvoryanlik unvoni berildi. Uni

«Orlean qizi» deb atadilar. Cherkovlarda shukrona ibodatları amalga oshirildi.

Janna de Ark inglizlarni ta'qib etishda davom etdi. Bir oydan so'ng fransuz armiyasi hujumga o'tib, bir nechta shaharni ozod etdi. 18 iyun kuni Pate degan joyda Talbot va Fastolf boshchiligidagi ingliz qo'shinlari tor-mor etiladi. Talbot qo'lga olindi, Fastolf esa qochib ketdi. Shundan keyin 12 ming askarga bosh bo'lgan Janna fransuz qirollarining an'anaviy toj kiydiriladigan shahri – Reymsga yo'l oldi. Shahar jangsiz egallandi. 17 iyul kuni dofin Karl rasman Fransiya qiroli deb e'lon qilindi.



**Janna de Ark qiroлга
toj kiydirish marosimida**

Toj kiydirish marosimidan keyin Janna o'z qishlog'iga qaytmoqchi bo'ldi. Lekin qiroli uni qo'shin boshida qolishga ko'ndirdi. Shu vaqtda saroyda graf Jorj de La Treymulning mavqei baland edi. U Burgundiya bilan yarashish tarafdori bo'lgani uchun qirolni Parijga hujum qilmaslikka undaydi. Shunda Janna mustaqil ravishda Parijga yurish qildi va shturm vaqtida og'ir yaralandi. Qirolning buyrig'i bilan qo'shin ortga qaytarildi.

1430 yilning bahorida harbiy harakatlar boshlangach, Janna burgundlar tomonidan qamal qilingan Kompyen shahriga yordamga keldi. 24 may kuni xiyonat ro'y berdi. Janna burgundlarning ta'qibidan chekinayotganda Kompyen handaqlari ustidagi ko'priklarni ko'tariladi. Shaharga kirish yo'lidan mahrum bo'lgan Janna qo'lga tushdi. Lekin qiroli o'ziga shuncha yaxshilik qilgan Jannani qutqarish uchun hech narsa qilmadi. Tez orada burgundlar uni 10000 oltin livr evaziga inglizlarga sotishdi. Inglizlar Jannani jodugarlikda aybladilar va sud qarori bilan 1431 yil 30 may kuni Ruan maydonida tiriklayin yoqib yubordilar.

Jannaning o'limi fransuzlarning qaddini bukmedi. 1435 yilda Fransiya va Burgundiya o'rtasida inglizlarga qarshi ittifoq tuzildi. Keyingi yili bosh qo'mondon Rishmon Parijni ozod qildi. 1449 yili fransuzlar Normandiyaga yurish boshlab, inglizlarni tor-mor etdilar. 1453 yil 17 iyulda Kastiyon jangidagi g'alabadan keyin fransuzlar Bordo shahrini qaytarib oldilar. Angliya qo'lida faqat Kale porti qoldi, xolos. Shu bilan yuz yillik urush tugadi.



Karl VII

Urushdan keyin Karl VII va papa Kalikast III topshirig'i bilan Janna de Arkning ishi qayta ko'rib chiqildi. Parij, Ruan va Orleanda o'tkazilgan sud jarayonida 115 nafar guvoh so'roq qilindi. Natijada 1456 yil 7 iyulda Janna de Arkka nisbatan qo'yilgan barcha ayblovlar olib tashlanadi. Unga qo'yilgan ayblov xulosasi minglab odamlarning ko'z o'ngicha yirtiadi. 1909 yilda Janna de Ark Rim papasi Piy X tomonidan avliyo deb e'lon qilindi.

Fransiyada markazlashuv jarayonining tugashi. Karl VII hukmronligi davrida

Fransiya ilk marta bitta hukmdor qo'l ostida birlashdi. Qirolning farmoni bilan urush bo'lgan hududlarning aholi 8 yillik soliqlardan ozod qilindi. 1432 yilda qirol Puatye universitetiga asos soldi. 1439 yili Karl VII farmoni bilan jamoat ehtiyojlari uchun yig'iladigan talya solig'i ustidan qirol monopoliyasi o'rnatildi. Mamlakatda tuz solig'i — **gabel** joriy qilindi. Harbiy islohotlar natijasida urush olib borish huquqi faqat qirolga berildi. Feodallarning o'z askarlari va qo'rg'onlarga ega bo'lishi taqiqlandi. Muntazam qo'shin otliq — **kavaleriya** va piyoda — **infanteriyaga** bo'lindi. Kavaleriya dvoryanlar, ya'ni jandarmlar orasidan olingan. Har 50 uydan 1 nafar erkin o'qchi (frank-afsher) berishi belgilangan. Askarlarga oylik to'lash tartibi joriy etilgan.

Karl VII o'lganidan keyin taxtga uning o'g'li Lyudovik XI (1461—1483) o'tirdi. Lyudovik XI juda ayyor va ehtiyotkor edi. Feodallar o'rtasida fitna urug'ini sochar, ularni bir-biriga qarshi qo'yar edi. Uning siyosati yirik feodallarning noroziligiga sabab bo'ldi. 1465 yilda Lyudovik XI ga qarshi «Jamiyat farovonligi ligasi» tashkil etiladi. Uning boshida qirolning kenja ukasi gersog Karl Berriyskiy, Burgundiya gersogi Karl Dovyurak va Fransisk Bretonskiylar turdi. Qirolning ahvoli tang bo'lib qoldi. Faqat turli hiyla-nayrang yo'li bilan u raqiblarini birin-ketin yoqotib bordi. Shveysariyaliklarni ashaddiy dushmani Karl Dovyurakka qarshi gij-gijlab, ularni urushtirib qo'ydi. 1477 yil yanvarida ular o'rtasidagi jangda Karl Dovyurak halok bo'ldi. Oqibatda, Lyudovikka qarshi turadigan kuch qolmadi.

Lyudovik XI o'tkazgan islohotlar natijasida uning harbiy qudrati oshdi. Shaharlar harbiy majburiyatlar ozod qilindilar. Vassallarga harbiy xizmatdan to'lov evaziga qutulish imkoni berildi. Yollanma qo'shinining asosini shveysarlar tashkil etdi. Lyudovikda 30 ming askar bo'lib, shuning

5 ming nafari otliq, qolgani piyodalar edi. Kuchli qo'shinga tayanib, qirol barcha itoatsiz feodallarni o'ziga bo'ysundirdi. 1481 yilda Provans va Men viloyatlari qo'shib olindi. Fransiyada faqat Bretan gersogligi o'z mustaqilligini saqlab turdi.

1488 yilda Bretan gersogi Fransisk II otdan yiqilib o'lganidan keyin uning 11 yoshli qizi Anna yolg'iz merosxo'r bo'lib qoldi. 1491 yilda 21 yoshli Karl VIII (1483—1498) unga uylandi. Bu nikohning qonuniyligini papa Innokentiy VIII ham tan oldi. Shu bilan Fransiyanı birlashtirish jarayoni yakunlandi.



Lyudovik XI

Xulosa qiladigan bo'lsak, XVI asr oxiriga kelib Fransiya Yevropadagi eng katta va eng markazlashgan qirolliklardan biriga aylandi. Markazlashgan davlatning vujudga kelishi bilan bir vaqtda fransuz millati ham tarkib topdi. Parij dialekti asosida yagona fransuz adabiy tili vujudga keldi.

Savollar va topshiriqlar

1. XI—XIII asrlarda Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti uchun qanday sharoit yuzaga keldi?
2. Qirol hokimiyatining kuchaya boshlashiga nimalar sababchi bo'ldi?
3. Filipp IV Chiroyli va uning Bonifatsiy VIII bilan to'qnashuviga nimalar turtki bo'ldi?
4. General shtatlar qanday maqsadda tashkil etilgan edi?
5. Yuz yillik urush va uning natijalarini gapirib bering.
6. Fransiyanı birlashtirishda Lyudovik XI ning roli qanday bo'ldi?

19-§. XI—XV asrlarda Germaniya

XI—XV asrlarda Germaniyada shaharlar taraqqiyoti. Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida boʻlgani singari X asr oxirlarida Germaniyada ham shaharlarning rivojlanishi kuzatildi. XII asrda ular soni 50 ta boʻlsa, XIII asrga kelib shaharlar soni 500 taga yetdi. Bu shaharlarning koʻpchiligi hunarmandchilik va savdo markazlari edi. XII asrdan boshlab Germaniyada tosh imoratlar qurish boshlandi.

XI—XIII asrlarda Reynboʻyi shaharlarida oʻz-oʻzini boshqarish huquqi uchun kurash avj oldi. Natijada ayrim shaharlar maʼlum avtonomiyaga ega boʻlib (Kyoln, Vorms, Shpayer, Regensburg kabi), «erkin shahar» degan nom oldilar.

Shaharlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar asosan mahalliy bozorlarga chiqarilgan boʻlsa-da, lekin ayrim tovarlarning dovrugʻi mamlakat tashqarisida ham mashhur edi. Janubiy German shaharlarida ishlab chiqarilgan qimmatbaho paxta va zigʻir tolali matolar, shu jumladan paxmoq gazlamalarga Italiya va Ispaniyada talab katta edi. Nyurenberg temirchilari ishlab chiqargan buyumlar Yevropa miqyosida tarqalgan edi. Germaniya oʻz ehtiyojlari uchun asosan dagʻal movutlar ishlab chiqarsada, mamlakat tashqarisiga Kyoln toʻquvchilari mayin movut tayyorlashgan. Ular hatto Flandriya movutlari bilan ham raqobatlasha olar edilar.

Shaharlar paydo boʻlishi, tovar-savdo munosabatlarining rivojlanishi agrar tuzum xarakteri va feodal majburiyatlarida oʻzgarishlar yasadi. Germaniyaning koʻpgina hududlarida XII—XIII asrlarga kelib qaram dehqonlarning barshina mehnatiga asoslangan eski votchina tizimi yemirila boshlandi. Oʻrniga sof senyoriya shaklidagi mehnat tizimiga oʻtildi. Uning asosiy xususiyati shundaki, unda mustaqil xoʻjalik hukmronligi toʻliq yoki qisman bartaraf etilgan edi.

Germaniyaning siyosiy taraqqiyoti. XI asr ikkinchi yarmiga kelganda Germaniya qirollarining investitura huquqi uchun cherkovga qarshi kurashi keskin tus oldi

Qirol Genrix IV 1076 yilda nemis oliy rihoniylarining Varmasdagi kengashida papa Grigoriy VII ni haqoratlab, obroʻsini yerga toʻkdi. Bunga javoban papa Genrix IV ni cherkovdan va qirollik martabasidan mahrum qilib, qirol vassallarini oʻz hukmdoriga bergan qasamyodidan ozod qildi. Papaning bu harakati Germaniyada dunyoviy va diniy feodallarning separatistik harakatlari boshlanib ketishiga olib keldi.

Genrix IV magʻlubiyatga uchrab papa Grigoriy VII ga taslim boʻldi. 1077 yilda qirol Italiyaga yoʻl oldi va papaning Kanossa qasri oldida 3

kecha-kunduz boshyalang va och turgan. Shundan so'ng papa uni oldiga kiritgan. Qirol papaga taslimligi belgisi sifatida tiz cho'kib kechirim so'rashga majbur bo'lgan.

XI-XV asrlar Germaniya tarixi uchun xos bo'lgan jihatlardan yana biri shu ediki, garchi qirol (imperator) hokimiyati mavjud bo'lsa-da, amalda hududiy knyazliklarning mavqei ortgan edi. XII-XIII asrlardagi iqtisodiy rivojlanish natijasida ularning hokimiyati yanada mustahkamlandi. Ko'p hollarda nemis feodallarining Polab slavyanlari va Sharqiy Boltiqbo'yiga uyushtirilgan yurishlari knyazlar hokimiyatini kuchayishiga sabab bo'lgan edi. Bu yurishlar nemischa «Drang nach Osten» deb atalgan. Tarqoq slavyanlar yerlariga bosqin qilish ancha oson va foydali edi. Bu yurishlarda asosiy rolni imperatorlar emas, balki hududiy knyazlar va ularga xizmat qilgan mayda ritsarlar o'ynaganlar.

1202 yilda german ritsarlarining sharqqa yurishlariga rahnamolik qilgan papa Innokentiy III yangi Qilichbardorlar diniy-ritsarlik ordeniga asos soldi. Orden XIII asr o'rtalarida hozirgi Latviya va Estoniyaning bir qismini bosib oldi. Falastindan Boltiqbo'yiga ko'chirilgan Tevton ordeni ham bosqinchilik urushiga jalb qilindi.

Bosib olingan hududlardagi aholi zo'rlik bilan xristianlashtirildi. Ularning yerlari nemis feodallariga bo'lib berildi.

Nemislarning Dunaybo'yi hududlariga yurishlari anchayin tinch xarakterda bo'ldi. Bu yerda X asr oxirida Sharqiy yoki Avstriya markasi tashkil topdi va XIII asrdan gersoglikka aylandi.

Germaniya feodallarining Italiya va papalikni bo'ysundirish ishiga shaxsan german imperatorlarining o'zlari boshchilik qildilar. Bu siyosatni amalga oshirganlardan biri Gogenshtaufenlar sulolasidan bo'lmish Fridrix I Barbarossa (1138—1254) hisoblanadi. U 1154 yilda Rimni egallaydi va u yerda imperatorlik tojini kiyadi.

1158 yilda Ronkal vodiysida Fridrix I Shimoliy Italiya shaharlari vakillarini to'pladi. Seymda shaharlarni o'z-o'zini boshqarish huquqidan mahrum etdi. Uning o'rniga imperator tomonidan tayinlanadigan noib – **podesta** boshqaruvi joriy qilindi. Amalda bu Shimoliy Italiya shaharlarining to'liq imperatorga bo'ysunishini anglatar edi.

Bunga javoban Shimoliy Italiya shaharlaridan 22 tasi birlashib, 1167 yilda Lombardiya ligasiga asos soldi va imperatorga qarshi kurash boshladi. Ligaga papa Aleksandr III ham yordam berdi. 1176 yilgi Lenyano jangida nemis risarlari mag'lub etildi. Imperator og'ir yaralanadi. Lombardiyaning yengishga ko'zi yetmagan imperator papa bilan yarashib,

unga bo'ysunadi. Shimoliy Italiya shaharlariga o'z-o'zini boshqarish huquqini qaytarib berdi.

Fridrix I nevarasi Fridrix II (1220—1250) Italiyada o'z hokimiyatini o'rnatish uchun uringan so'nggi german imperatori edi. Uning otasi Genrix VI Sitsiliya taxt vorisi bo'lgan malikaga uylangan bo'lib, undan meros tariqasida o'g'liga Sitsiliya qirolligi o'tgan edi Sitsiliyada ulg'aygan Fridrix II vizantiya, arab va yahudiy olimlari tarbiyasini olgan, grek, rim, arab mualliflari asarlarini bemalol o'qir, ilmiy kuzatishlar bilan shug'ullanar va badiiy ijod bilan shug'ullanar edi. Shunindex, u o'z davrining mohir diplomati va diniy masalalarni tushunib yetgan taniqli davlat arbobi edi. Fridrix II bobosi singari



Fridrix II Gogenshtaufen

Shimoliy va Markaziy Italiya ustidan hukmronlik qilishga urindi. Bunda Sitsiliyadan tayanch vazifasi sifatida foydalandi.

Imperatorlarning Italiya ishlari bilan chalg'ib qolishi Germaniyada markazlashgan hokimiyatning kuchsizlanishiga olib keldi. Masalan Fridrix II butun hukmronligi davomida atigi 3 marta Germaniyaga kelgan va bu yerda jami 9 yil yashagan edi. Markazlashgan hokimiyat shu darajada kuchsizlandiki, hatto eng qudratli imperator ham o'z vorisiga meros tariqasida qirollik tojini mustaqil ravishda topshira olmas edi. Mamlakatda yuzga yaqin knyazlik paydo bo'ldi, ulardan 80 dan ortig'i diniy edi.

XII asr oxiridan Germaniyada markaziy hokimiyat tayanchi bo'lgan qirollik ministr komiteti yo'qola boshladi. Qirolning nufuzli amaldorlari yirik feodallarga aylanib, markaziy hokimiyat bilan uzviy aloqadan chiqdilar.

Imperator Fridrix II knyazlarni asosiy tabaqa sifatida ko'rib, ularga muhim vakolatlarni qonunlashtirib berdi. Endi knyazlar o'z hududida sud vazifasini bajargan, tangalar chiqargan, soliq va boj to'lovlarini undirgan, shaharlarga asos solganlar.

Gogenshtaufenlar hukmronligi barham topgach hokimiyat uchun o'zaro urushlar (1254—1273) mamlakat siyosiy tarqoqligini yanada kuchaytirib yubordi. Imperatorlar endilikda hududiy knyazlarga aylanib, o'z urug'lari hukmronligini kengaytirishga e'tibor qaratdilar. Xuddi shu siyosatni gabsburglar uyi vakili Rudolf (1273—1291) boshlab berdi. Elzas

va Shveysariyada hukmronlik qilgan Rudolf chex qiroli Pshemis II dan Avstriyani tortib oldi. Lekin bu sulolaning kuchayishidan qoʻrqqan knyazlar Rudolfdan soʻng taxtga uning oʻgʻlini oʻtkazmaydilar. Shundan boshlab Germaniya taxtida Nassau, Lyuksemburg, Vittalsbax, Gabsburglar uyi vakillari galma-gal bir-birini agʻdarib hukmronlik qila boshladilar. Bu knyazlarning imperator hokimiyatini kuchaytirmaslikka qaratilgan siyosati natijasi edi.



Karl IV

Knyazlar XIV—XV asrlar davomida imperator hokimiyatining kuchayishiga yoʻl qoymaslikka urindilar va qirollik taxtiga taniqli boʻlmagan Lyuksemburg grafi Genrix VII (1308—1313) ni koʻtardilar. U nemis hukmdorlarining eski anʼanalariga sodiq qolib, deyarli yuz yildan soʻng Italiyaga yurish qilib Rimda imperatorlik tojini kiyishga erishdi. Bundan tashqari, yolgʻiz oʻgʻli Ioganni Chexiya qirolining qizi Elishka Prjemislovnaga (Yelizaveta Bogemskaya) uylantirdi. Ularning nikohidan boʻlgʻusi imperator Karl IV tugʻiladi.

Genrix VII oʻlimidan keyin taxtga Bavariya gersogi Lyudvig IV (1314—1347) chiqdi. Oʻz hokimiyatini mustahkamlash uchun itoatsiz feodallar va Rim papasiga qarshi kurash olib bordi. Rim papasi Lyudvigni cherkovdan chetlashtirdi va unga interdikt joriy qildi. Bunga javoban Lyudvig 1327—1330 yillarda Italiyaga yurishni amalga oshirdi va Rim papaligiga oʻz «odamini» tayinladi. Rimda unga imperatorlik toji kiydirildi.

Karl IV (1346—1378) davrida Germaniyaning siyosiy tarqoqligini rasmiylashtirib bergan «Oltin bulla» (1356) qabul qilindi. Unga koʻra «imperator boʻladigan» nemis qirolini 7 nafar qudratli feodal — Mayns, Kyoln, Trir arxiyepiskoplari, Chexiya qiroli, Reyn pfalsgrafi, Saksoniya gersogi, Brandenburg markgrafi saylaydigan boʻldi. Qirol saylovi Mayns arxiyepiskopining tashabbusi bilan Frankfurt-Maynda koʻpchilik ovoz berish yoʻli bilan amalga oshirilishi belgilandi. Bunda Germaniya qirolini saylashda Rim papasining qatnashishi talab qilinmagan, faqatgina imperatorlik tojini kiydirishda papalarining ishtiroki tan olindi.

Ushbu bulla knyazlarning nafaqat eski imtiyozlarini e'tirof etdi, balki ularning yangi imtiyozlarini ham rasmiylashtirib berdi. Unda knyazlarga oliy sudni amalga oshirish, qazilma boyliklarini qayta ishlash, tanga chiqarish, boj to'lovlarini yig'ish huquqi berildi. Bullada feodallarga «qonuniy e'lon qilingan» shaxsiy urushlar olib borishlariga (vassallarning o'z senyorlariga qarshi urushidan tashqari) ruhsat etildi. Shaharlar o'rtasidagi ittifoqlar taqiqlandi. Bulla orqali Karl IV o'z sulolasining asosiy raqibi bo'lgan Bavariya va Avstriya gersoglarining imperator saylovida qatnashishidan mahrum etishga va Chexiyaning mavqeini mustahkamlashga erishgan.

Ushbu hujjat to 1806 yilgacha, ya'ni Muqaddas Rim imperiyasi tugatilgunga qadar imperiya qonunchiligining asosi bo'lib xizmat qildi.

Imperator Sigizmund (1410—1437) dahriylarni ta'qib etish va o'sib borayotgan usmoniy turklar xavfiga qarshi Yevropa davlatlarining ittifoqini tuzish orqali o'z hokimiyatini mustahkamlamoqchi bo'ldi. Rim papasi bilan birga Chexiyadagi guschilar harakatiga qarshi salib yurishlarini uyushtirdi. Lekin bu harbiy yurishlar muvaffaqiyat keltirmadi. Faqatgina guschilarning mo'tadil qanoti bilan kelishgach, Sigizmund Chexiya qiroli bo'la oldi.

Lyuksembubrglar hukmronligi to'xtatilgandan keyin 1438 yilda imperatorlik taxtiga Gabsburglar keldi. Germaniyada markaziy hokimiyatning kuchsizligi Fridrix III (1440—1493) davrida yaqqol ko'rindi. Uning hukmronlik davrida knyazlar o'rtasidagi o'zaro urushlar avj olib, shahar va qishloqlar vayron bo'ldi. Imperatorning tinchlikni saqlash bo'yicha ko'rgan choralari samarasiz bo'lib chiqdi. Sababi uning talabini bajarishga majbur etuvchi kuch yo'q edi.

Tashqi siyosatda ham Fridrix III muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Imperiyaning qalin ittifoqchisi bo'lgan Tevton ordeni Polsha tomonidan tor-mor qilindi va 1466 yilda Polsha qiroliga vassal ekanligini tan oldi. 1460 yilda Daniya qiroli imperiya tarkibiga kiruvchi Shlezvig va Golshteynni egalladi. 1481 yilda Fransiya Provans hududini egalladi. Vengriya qiroli Matyash Korvin imperatordan Yuqori va Quyi Avstriyani hamda Shtiriyani tortib oldi. Faqatgina Fridrix III hukmronligining oxiriga kelganda uning ahvoli bir qadar yaxshilandi. Avstriya yerlari qaytarib olindi. Fridrix III o'g'li Maksimilianning burgund malikasi Mariya bilan nikohi Gabsburglarni Niderlandiya egasiga aylantirdi. Fridrix III ning o'limidan keyin sodir bo'lgan sulolaviy nikohlar Gabsburglarni Yevropaning eng qudratli urug'iga aylantirdi.

Germaniyadagi imperatorlik va knyazlik hokimiyatining umumiy ahvoli XIV—XV asrlarda nemis tabaqaviy-vakillik organlarining taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Imperiya tarkibiga kirgan imperator vassallari sanalgan «amaldorlar» vakillarining kengashi XV asrning oxiriga kelib **reyxstag** degan nom bilan ataldi. Bu imperiya kengashlari kurfyurstar, diniy va dunyoviy knyazlar, hukmdorlar va erkin shaharlar vakillarini o'z ichiga olgan edi.

Reyxstag maslahat huquqiga ega organ hisoblangan. U birinchi navbatda turli xil ijtimoiy guruhlarining fikrlarini tushuntirish va maksimal darajada kelishtirish vazifasini o'tagan. Germaniyada reyxstag qarorlarini hayotga tadbiq etish bo'yicha hech qanday maxsus mahkama bo'lmagan. Buning uchun zarur bo'lgan umumimperiya sudi va umumimperiya xazinasini ham yo'q edi.

Germaniyada tabaqaviy-vakillik mahkamasi **landtag** deb atalgan. Landtaglar bir qator knyazliklar hududida chaqirilgan dvoryanlar, ruhoniylar va knyazlik shaharlari vakillarining kengashi bo'lgan. Lekin o'sha paytlarda bu kengashlar muntazam chaqirilmagan. Knyazlar XV asr ikkinchi yarmidan hududiy boshqaruv organlari, moliya ishlari knyazlikni ma'muriy jihatdan okruglarga bo'lish, hududiy qonunchilikni yo'lga qo'yish bilan shug'ullanishgan. Knyazlarning rezidensiyalari asta-sekinlik bilan yirik shaharlarga (masalan, Bavariyada Myunxen, Vyurtembergda Shtutgart, Pfalsda Geydelberg kabilar) aylanib borgan.

Savol va topshiriqlar

1. Germaniya shaharlarining rivojlanishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlang?
2. Germaniyada siyosiy tarqoqlik nimalarda ko'rinadi?
3. Germaniyadagi imperatorlik va knyazlik hokimiyatining umumiy ahvoli qanday bo'lgan?
4. «Oltin bulla» qanday maqsadda qabul qilingan?
5. Fridrix III qaysi yo'llar bilan o'z hukmronligini kuchaytirishga muvaffaq bo'ldi.

20-§ XI—XV asrlarda Pireneya yarim oroli davlatlari

Ispaniya rekonkistasining mohiyati. Ispan xalqining arablar bilan uzoq davom etgan kurashi Ispaniya davlatining tashkil topishida muhim rol o'ynadi. Pireneya yarim orolining arablardan qaytarib olinishi tarixiy adabiyotda **rekonkista** deb nom oldi. Rekonkista arablar yarim orolni bosib olganidan keyinroq, ya'ni VIII asrdan to XV asr oxirigacha davom etdi.

X asr boshlarida Ispaniyada arablar hukmronlik qilar, Qurdoba amirligi Qurdoba xalifaligiga aylangan edi. Ispan arablari—mavrlarga Pireneya yarim orolidan tashqari, yana qo'shni Shimoliy Afrikadagi ko'p sonli barbar qabilalari ham bo'ysunar edi. Arablar davrida Pireneya yarim orolida ishlab chiqaruvchi kuchlar zo'r berib rivojlandi. Sharqning yuksak madaniyati bilan bog'langan arablar Ispaniyada sun'iy sug'orish tizimini keng qo'lladilar. Ular Pireneya yarim orolida bir qancha yangi va qimmatli qishloq xo'jalik ekinlarini joriy qildilar, ular orasida sholi, shakarqamish, tut daraxti, apelsin, limon va boshqalar bor edi.

Arablar davrida hunarmandchilik juda yuksaldi. Metall, charm, jun, ipak, oyna va zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish takomillashdi. Qurdoba xalifaligi Shimoliy Afrika orqali Sharqdagi boshqa musulmon mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini bog'lagan edi. Ispan arablari Yevropaning turli mamlakatlari, jumladan, Fransiya, Italiya, Vizantiya bilan qizg'in savdo-sotiq olib bordilar.

Qisman rimliklar davrida mavjud bo'lgan, vestgotlar davrida bir qadar rivoj topgan Ispaniya shaharlari arablar davriga kelib yirik hunarmandchilik markazlariga aylandilar. Ular orasida Andalusiya shaharlari va Ispaniyaning janubidagi Qurdoba, Sevilya, Granada, Valensiya shaharlari ayniqsa ajralib turardi. Xalifalik poytaxti bo'lgan Qurdoba shahri XI asrda Yevropaning eng yirik shahri hisoblanardi. Qurdobaning (tevarak-atrofi bilan birga) qariyb 500 ming aholisi bor edi. Ispaniyada hozirgacha saqlanib qolgan eng yirik yodgorliklar — Qurdoba masjidi (VIII asr), Granadadagi Al-Humro saroyi (XIII asr), Sevilyadagi Alkasar qasri (XIII asr) arab madaniyati yuksak taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

Ispan-arab jamiyati tipik feodal jamiyati bo'lgan. Ispaniyadagi arab feodalizmi mahalliy aholi uchun g'oyatda og'ir bo'ldi. Bunga kuchayib boruvchi milliy zulm va huquq jihatdan tengsizlik ham qo'shildi. Xristian aholisini zo'rlab islom diniga o'tkazishdek qo'pol musulmon fanatizmi avj oldi.

Xalifalik aholisining ko'pchiligini arab bo'lmaganlar tashkil etar edi. Mavrlar son jihatdan ko'p emas edilar. Pireneya yarim orolining istilo qilingan xalqlari garchi qisman arab tilini o'rganib olgan (mosarablar), ba'zilar hatto islom dinini qabul qilgan (renegatos) bo'lsalar-da, lekin ular baribir, mavrlarga kelgindi bosqinchilar va zolimlar deb qarardilar. Tabiiyki, ular yarim orolda istilo etilmay qolgan va Pireneya yarim orolining shimol va shimoli-sharqidagi tog'li o'lkalarda joylashgan Asturiya (bosh shahri Oviyedo), Navarra va Ispan markasini qo'llab-quvvatlar edilar. Mavrlarga yurish aynan shu yerlardan boshlandi. Rekonkista bundan buyon milliy-ozodlik harakatiga aylanib, unda tarkib topayotgan ispan xalqining keng qatlamlari qatnashdilar.

Rekonkista sharoit taqozosi bilan kelib chiqqan qonuniy jarayon edi. Tog'-toshlarga surib chiqarilgan, dehqonchilik uchun zarur bo'lgan yer maydonlardan mahrum etilgan, O'rta yer dengizidan kesib qo'yilgan ispanlar janub tomon siljib borishlari kerak edi. Aks holda, o'z millatining ravnaq topishidan voz kechishlari lozim edi.

Rekonkistaning amalga oshirilishi. VIII—IX asrlarda Asturiya qirolligi yarim orolning butun shimoli va shimoli-g'arbga o'z ta'sirini yoydi. X asr boshlarida asturiyaliklar janubga qarab siljidilar. Leon shahri ularning bosh markazi bo'lib qoldi va davlat Leon qirolligi deb ataldi. X asrning ikkinchi yarmi—XI asr boshlarida Leon janubgacha kengayib, Duero daryosi havzasigacha cho'zilib ketdi. Bu yerda juda ko'plab qasrlar – burglari bo'lgan chegara viloyati tashkil topdi. Ana shu qasrlar nomidan olinib, yangi mamlakat Kastiliya deb ataldi. Burgos shahri Kastiliyaning bosh shahri hisoblanardi.

1037 yilda Leon qirolli Kastiliyaning ham qirolli nomini oldi. XI asrning ikkinchi yarmida kastiliyaliklar Taho daryosi havzasini bosib oldilar. 1085 yili qirol Alfons VI Toledo shahrini egalladi. Bu yerlar Yangi Kastiliya deb ataldi. Biroq Yangi Kastiliya hali mustahkam emas edi. 1086 yili Alfons VI ning o'zi Zallak shahri yaqinida arablardan qattiq zarba yedi.

Shimoli-sharqda Navarra qirolligi joylashgan edi. IX asr oxirida Ispaniya markasidan Aragon grafligi ajralib chiqdi. XI asrda bu graflik qirollikka aylandi. 1118 yili aragonliklar arablardan Saragosa shahrini tortib olib, uni poytaxtga aylantirdilar. 1137 yili Aragon Ispaniya markasi bilan birlashdi. Ispaniya markasi bu vaqtda Kataloniya yoki Barselona grafligi degan yangi nom bilan yurardi.

Yarim orolning g'arbida Portugaliya grafligi joylashgan bo'lib, janubga tomon cho'zilib ketgan edi. Portugaliya 1116 yilda Leondan

ajralib, alohida qirollikka aylandi. 1147 yildan Taxo daryosi quyisida joylashgan Lissabon shahri Portugaliya qirolligining poytaxt bo'lib qoldi.

Shunday qilib, XII asr boshlariga kelganda Pireneya yarim orolida to'rtta xristian davlati: Kastiliya, Navarra, Aragon va Portugaliya bor edi. XI asr oxiri va XII asr to'lig'icha rekonkistaning eng avjiga chiqqan davri edi. Pireneya yarim orolida mavrlar bilan olib borilgan kurashga xristianlar muqaddas urush tusini berdilar. Xristianlar bilan musulmonlar ilgarilari diniy masalada ishlari bo'lmasdi. Rekonkista jarayonida ular bir-birovlariga nafrat ko'zi bilan qaraydigan bo'ldilar. Mavrlar Shimoliy afrikaliklar, barbarlar va boshqa musulmon qabilalarini o'zlariga yordamga chaqirdilar. 1086 yili Ispaniyaga G'arbiy Sahroyi Kabirdan almuraviylar, 1125 yili Atlas tog'laridan (Sharqiy Marokashdan) almug'alar keldilar. Ispaniyaliklarga yordam berish uchun Fransiya, Angliya, Germaniya va Italiyadan ritsarlar kelishdi. Sharqda bo'lgani singari, Ispaniyada ham mavrlar bilan kurashish uchun Sant-Yago, Alkantara va Kalatrava diniy-ritsarlik ordenlarini tuzildi.

XII asr mobaynida kastiliyaliklar Andalusiya bir necha marta bostirib kirdilar. 1212 yili Las Navas de Tolos yonida har ikkala tomon o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Bu jangda arablar qattiq mag'lubiyatga uchradilar. Shundan keyin Kastiliya tez orada Andalusiya bilan Mursiyani egalladi. 1236 yili Qurdoba, 1248 yili — Sevilya qo'lga kiritildi.

1230—1240 yillarda Aragon Valensiyan va Balear orollarini bosib oldi. Portugaliya janubga tomon to Gvadiana daryosi quyisigacha siljib bordi. Mavrlar qo'lida birgina Granada amirligi saqlanib qolgan edi. Granada amirligi mustaqil davlat sifatida 1492 yilgacha yashab keldi.

XIII—XV asrlarda Pireneya yarim orolidagi davlatlar. Yarim oroldagi to'rtta xristian davlatlaridan Navarra va Portugaliya alohida-alohida rivojlandilar. Navarrada fransuzlarning ta'siri juda kuchli edi. Atrofni tog'lar o'rab olgan bu kichik mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi sekinlik bilan bordi. Shu sababli XIII—XV asrlar davrida Navarra katta rol o'ynamadi.

XV asrga kelganda Portugaliya yirik flotga ega hamda dengizda savdo-sotiq qiladigan mamlakatga aylandi. O'rta yer dengizi havzasi, Angliya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlar bilan olib borilgan tashqi savdo aloqalari Portugaliyani Pireneya yarim orolidagi boshqa davlatlardan ajratib qo'ydi. Rekonkista Portugaliyani qo'shni Kastiliya bilan bog'lashi lozimdek ko'rinsa-da, amalda bu davlat o'z mustaqilligini saqlab keldi.

Kastiliya qirolligi yarim orolda eng katta yerlarni egallagan edi. Rekonkista jarayonida ham Kastiliyaning roli katta edi. Kastiliya tili keyinchalik ispan milliy adabiy tiliga asos bo'ldi.

Kastiliyaning urushqoq dvoryanlari mamlakatda katta ta'sirga ega edilar. Arablar bilan kurashda qatnashish dvoryanlarning ertaroq toifa bo'lib tarkib topishi va bevosita qirol bilan aloqa o'rnatishiga yordam berdi. Kastiliyada katolik cherkovining mavqei yuqori edi. Chunki rekonkista tufayli katolik cherkovi ko'p yer olgan edi.

Kastiliyada rekonkistaning butun og'irligini olgan o'nlab erkin shahar-kommunalar bor edi. Hunarmandlar va mayda savdogarlardan iborat bo'lgan shaharliklar asrlar davomida muntazam harbiy xizmatni o'tardilar. Kastiliya shaharlari alohida harbiy ittifoqlarga — **ermandad**larga birlashdilar. Uning asosiy vazifasi — shaharlarda jamoat xavfsizligini saqlash va yo'lovchilarni qaroqchilardan himoya qilish edi.

Kastiliya dehqonlari ham rekonkistada qatnashganliklari sababli krepostnoy qaramlikdan tezroq qutildilar. Kastiliya feodallari dehqonlar bilan hisoblashishga va ularga yon berishga majbur edilar. Kastiliyaning ko'pchilik dehqonlari erkin jamoachilardan iborat (**begetriyalar**) bo'lib, feodallar homiyligida kun ko'rar va ularga kichik miqdorda obrok to'lardilar.

Shahar va qishloq jamoalarining siyosiy ahamiyati Kastiliyada umumtoifa vakilligi, ya'ni korteslarning vujudga kelishida namoyon bo'ldi. Kortesar o'z faoliyatini 1188 yildayoq boshlagan edi. Bunda uchinchi toifa vakillari tarkibiga shaharliklar qatori dehqonlarning ham ayrim vakillari kirgan edi. Kastiliyadagi qirol hokimiyati shaharlarga tayanib, XIII asrdayoq o'z obro'yini kengaytirishga harakat qildi va yirik feodallar bilan qattiq kurash olib bordi.

XIII asrning ikkinchi yarmida qirol Alfons X (1252—1284) «Yetti qism» deb ataladigan qonunlar to'plamini chiqardi. Bu qonunlar Rim huquqi g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, o'rta asr Yevropasidagi qonunlarning birinchi umumlashtiruvchi to'plami edi. Alfons X Salamanka universitetiga homiylik qilib, u yerda davlat mablag'lari hisobiga rasadxona qurdirdi.

Kastiliya qirollari ko'pincha feodallarning qarshiligini sindira olmay, ularning qo'lidagi qurolga aylanib qolardi. Jumladan, qirol Genrix IV ning (1454—1474) butun hukmronligi davri o'zaro urushlar bilan to'lgan edi. Yirik feodallar qirol qizi Xuananing taxt vorisligi huquqini tan olmay, qirol singlisi — Izabellaning nomzodini qo'yidilar. Ular kelajakda

Izabellani o'zlariga qaratib, undan itoatli qurol sifatida foydalanmoqchi edilar.

Aragon—Pireneya yarim orolida kichik bir yerni egallar edi. Ammo O'rta yer dengizida uning ko'pdan-ko'p mulklari: Sitsiliya, Sardiniya, Neapol qirolligi, Balear orollari va boshqalar bor edi. Aragon katta dengiz davlati bo'lishiga qaramay, bu yerda qirol hokimiyati kuchsiz edi. Shaharlarning sust rivojlanganligidan dvoryanlar butun hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab qolgan edilar. Aragon dehqonlari krepostnoy qaramlikda yashaganlar. Feodallar o'z krepostnoylariga hatto o'lim jazosi berish huquqiga ham ega edilar. Ko'proq feodallardan iborat Aragon korteslari qirolni to'la nazorat qilardi. Kortesarlar dam olgan paytlarda qirolning ishlarini kuzatib borish uchun «**deputatsiya**» nomi ostida alohida komissiya belgilab qo'yilardi. Aragon dvoryanlarini maxsus saylab qo'yiladigan sudya, ya'ni **Buyuk xustisiya** sud qilardi. U faqat qirol va korteslarga bo'ysunardi. Xustisiyani qirol dan mustaqilligini ta'minlash maqsadida kortesarlar 1441 yili bu lavozimni umrbod deb e'lon qildilar.

Kastiliya va Aragonning birlashuvi. Kelib chiqishi va til jihatdan qon-qarindosh bo'lgan, yuz yillar davomida tashqi dushman bo'lmish arablarga qarshi birgalikda kurashib kelgan, iqtisodiy masalada oldindan bir-biri bilan aloqa qilgan Kastiliya va Aragon birlashish uchun yetarlicha tarixiy shart-sharoitlarga ega edilar.

Kastiliya va Aragonda keskinlashgan sinfiy kurash, shuningdek, rekonkistaning tamom bo'lmaganligi har ikki mamlakat feodallarini bitta Ispaniya davlatiga birlashishga majbur qildi. Ular o'rtasidagi uniya (ittifoq) sulolaviy nikoh yo'li bilan amalga oshirildi. Malika Izabella Kastilskaya 1469 yili shahzoda Ferdinand Aragonskiyga erga tegdi. 1474 yili Izabella Kastiliya qirolichasi bo'lib oldi. 1479 yili Ferdinand Aragon taxtiga o'tirdi. Birlashgan davlatlarning har biri burungi qonunlari, urf-odatlar va alohida korteslarini saqlab qoldi. Shunga qaramay, yagona Ispaniyani vujudga keltirildi. Kastiliyada va Aragonda qirol hokimiyati mustahkamlana boshladi.

Shahar kommunalarining ko'magiga tayanib ish ko'rgan Izabella Kastiliya feodallari qarshiligini sindirdi. Izabella yordamida «muqaddas ermandada» nomi ostida tashkil etilgan shahar militsiyasi talonchilik qilib yuruvchi ritsarlarga qaqshatqich zarbalar berdi.

Xristianlikka o'tkazilgan mavrlar (moriskalar) va yahudiylar (marranlar)ni nazorat qilish maqsadida 1477 yili Ispaniyada vujudga keltirilgan inkvizitsiya amalida, oliy siyosiy sudga aylandi. Kastiliya yoki

Aragondagi birorta feodalning davlatga xiyonat qilganligi gumon qilingan taqdirda, u inkvizitsiyadan hech qayoqqa qochib qutula olmasdi.



Izabella Kastilskaya

Izabella Kastiliyadagi savdo-sotiq va hunarmandchilikni jonlantirib yuborgan bir qancha iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirdi. Mamlakatdagi qimmatbaho metallarni saqlab qolish hamda mamlakat ichkarisida aktiv savdo balansini ta'minlashga (ya'ni, tashqaridan mol keltirishga qaraganda mol chiqarishni ko'paytirishga) intilib, Izabella chet davlatlarga oziq-ovqat mahsulotlari va xom ashyo (g'alla, jun va boshqalar) chiqarishni man qildi. Jun Ispaniyaning o'zida qayta ishlanmog'i kerak, deb buyruq berdi.

Ispaniya tez orada buyuk davlatga aylandi. 1492 yili ular Granadani bosib oldilar. 1512 yili Ispaniya Navarrani o'ziga qo'shib oldi. Shunday qilib, Portugaliyadan tashqari, butun Pireneya yarim oroli Ispaniyaga birlashtirildi. Kolumbning sayohatlari Ispaniya uchun Yangi Dunyodagi juda ko'p mustamlaka mulklarni bosib olish imkoniyatini yaratib berdi. Ferdinand va Izabella muhim sulolaviy nikohlarni amalga oshirdilar. Ularning katta qizi Yekaterina Tyudorlarga mansub ingliz shahzodasiga erga tegdi. Kichik malika Xuana Gabsburglarning avstrogerman uyiga mansub shahzodalardan biriga xotin bo'ldi. Ispaniya Yevropa siyosatida muhim o'rin egallay boshladi

Savol va topshiriqlar

1. Ispaniya rekonkistasining mohiyatini tushuntirib bering.
2. Rekonkistaning asosiy bosqichlarida qanday voqealar ro'y berdi?
3. XIII—XV asrlarda Pireneya yarim orolida qanday davlatlar bo'lgan?
4. Aragon federatsiyasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Ispaniyaning birlashuvida Ferdinand Aragonskiy va Izabella Kastelskayaning rolini ko'rsating.

21-§. XI—XV asrlarda Rus knyazliklari

Rusda feodal tarqoqlik. XI asr oxiri—XII asr boshlarida Rus yerlarida feodalizm uzil-kesil oʻrnatildi. Mamlakatda boshlangan iqtisodiy taraqqiyot uning turli qismlarida yirik yer egalari, knyaz va boyarlarning kuchayishiga olib keldi. Kiyevdan uzoqdagi va endilikda yetarlicha rivojlangan Novgorod, Polosk, Smolensk, Rostov, Suzdal, Ryazan kabi yirik shaharlar oʻz knyazliklarining mustaqil markazlari boʻlishga intilishar edi.

Vladimir Monomax va uning oʻgʻli Mstislavning qipchoqlarga qarshi harbiy yurishlari, ularning xavfini vaqtinchalik boʻlsa-da bartaraf etdi va markaziy harbiy birlikka birmuncha zaruriyat boʻlmay qoldi. Yirik shaharlarning boyarlari bundan foydalanib, Kiyevga qaram boʻlmagan mustaqil knyazliklarni barpo qilishga koʻmaklashib, ayrim knyazlarni oʻzlariga hukmdorlikka taklif eta boshladilar. Knyazlarning 1097 yili Lyubechda boʻlgan syezdi: «har kim oʻz yurtiga ega boʻlsin» deb qaror chiqardi. Bu esa, feodal tarqoqligi boshlanishini tantanali ravishda eʼlon qilinishi edi. Solnomachi 1132 yili «butun Rus yeri boʻlinib ketdi» deb yozgan edi. Rusda feodal tarqoqlik davri boshlandi.

Kiyev Rusi buyuk knyazlari hokimiyatining kuchsizlashuviga janubiy hududlardagi tushkunlik ham sabab boʻldi. Kiyev va uning atrofidagi yerlarga turli knyazliklarning tahdidi, shuningdek koʻchmanchi qipchoqlar hujumlari toʻxtovsiz davom etardi. Natijada XII asrdan boshlab koʻplab odamlar tinchroq joylarni qidirib, Volga-Oka daryolari havzasiga koʻcha boshladi. Yangi yerlarda tez orada shahar va qishloqlar barpo etilib, ulardagi aholi soni koʻpayib bordi.

Kiyev Rusidan mustaqil knyazliklar: Chernigov, Polosk, Pereyaslav, Galich, Volin, Smolensk, Ryazan, Novgorod va boshqa bir qator mayda knyazliklar tashkil topdi. Har bir knyazlik butunlay erkin boʻlib, ichki va tashqi siyosatni mustaqil olib borishi, urush va tinchlik muammolarini oʻzi hal etish huquqlariga ega edi.

Rusdagi feodal tarqoqlikning toʻrtta salbiy xususiyatini alohida koʻrsatish lozim: 1) oʻzaro feodal urushlarning toʻxtovsiz sodir boʻlishi; 2) mamlakat mudofaa qobiliyatining zaiflashuvi; 3) knyazliklarning vorislar oʻrtasida taqsimlanib yanada kichiklashib borishi; 4) knyazlar va mahalliy boyarlar orasida nizolarning kuchayishi.

Novgorod yeri Kiyev bilan ochiqdan-ochiq aloqasini uzgan birinchi mustaqil knyazlik boʻldi. Kichkina qoʻrgʻon sifatida paydo boʻlgan Novgorod XI asrga kelib nainki Rus yerlari, balki Yevropaning

hunarmandchiligi va savdosi yuksak rivojlangan shaharlaridan biriga aylandi. Shahar mo'ynalarga boy shimoliy-sharqiy hududlarga egalik qilardi. Novgorod bir necha savdo yo'llari kesishgan yerlarda joylashgani uning Boltiq dengizi orqali Yevropa bilan, Volga daryosi va Kaspiy dengizi orqali esa Osiyo mamlakatlari bilan xalqaro savdo aloqalarini olib borish imkonini berdi. Shu sababdan Novgorodda yaratilgan xalq og'zaki ijodi asarlari qahramonlari kemasoz-dengiz sayyohlari Sadko va Vasiliy Buslayevlar bo'lishgan.

XI asr an'anasiga ko'ra, Novgorodga Buyuk knyazning katta o'g'li noiblik qilar edi. Lekin novgorodliklar vechesi 1136 yili Monomaxning nevarasi Vsevolod Mstislavichni knyazlikdan chetlatib qamoqqa olishga qaror qildi. Shu vaqtdan boshlab shahar butunlay feodal respublikasiga aylanadi. Novgorodning siyosiy hayotida, xalq vechesida boyarlar ichidan saylanadigan shahar hokimi, «shahar kengashi» va saylab qo'yiladigan yepiskop bosh rolni o'ynardi.

XII—XIII asrlarda Kiyev, Galich-Volin, Vladimir-Suzdal yerlarida ham boyarlarning knyazlarga qarshi kurashi sodir bo'ldi. Jumladan, Vladimir Monomaxning o'g'li Yuriy Dolgorukiy XII asrda Volga va Oka daryolari orasiga ko'chib kelib joylashgan aholiga knyazlik qilardi. Vladimir-Suzdal yerlarida XI—XII asrlar davomida Rostov, Suzdal, Yaroslavl, Vladimir, Yuryev, Dmitrov kabi shaharlarga asos solindi. Knyazlik yerlaridagi Kuchkov qishlog'ida 1147 yilning bahorida Yuriy Dolgorukiy Kiyev ustidan erishilgan g'alabalardan birini nishonlagan. Moskva deb atala boshlagan bu joyda 1156 yili yog'ochdan birinchi qo'rg'on qurildi.

Vladimir-Suzdal knyazligi kelajakda rus yerlarining birlashishiga asos bo'ldi. Moskva XIV asrda ana shu birlashish jarayonining markaziga aylandi.

Mo'g'ullar, nemis va shved bosqinchilariga qarshi kurash. O'rta Osiyo va Kavkazorti yerlarini bosib olgan mo'g'ullar Rus yerlariga 1223 yili bostirib keldi. Qipchoq xonlarining yordam so'rab qilgan murojaatlariga javoban janubiy rus knyazlarining drujinalari Kalka daryosi bo'yida dushman qarshisiga chiqdilar.

Mo'g'ullar go'yo chekingandek bo'lib, rus drujinachilarini o'z otliq askarlari uchun qulay maydonga olib chiqdilar va ularni to'la mag'lubiyatga uchratdilar. Shundan keyin mo'g'ullar Volgaorti dashtlariga yo'l olib u yerda bir necha yil davomida Sharqiy Yevropaga yangi yurishlarga tayyorgarlik ko'rdilar.

Mo'g'ullarning Rusga qarshi keng ko'lamli yurishlari 1237 yilning so'ngida boshlandi. Ularning 140 minglik qo'shiniga Chingizxonning nevarasi Botuxon boshchilik qildi. Rus yerlarida davom etayotgan feodal tarqoqlik mo'g'ullarga qo'l keldi. Dastlab Ryazan shahri qamal qilindi. Vladimir knyazi o'ziga raqib bo'lgani uchun Ryazanga yordamga kelmadi. Natijada shahar mo'g'ullar tomonidan ishg'ol qilinib, butunlay vayron bo'ldi.

Shimoliy-sharqiy Rusning ichkarisiga siljiy boshlagan mo'g'ullar Kolomna ostonalaridagi jangda rus drujinachilarini yengib, Moskvani egalladilar. Botuxon qo'shini 1238 yilining fevral oyi davomida Volga va Oka daryolari havzasidagi 14 ta rus shahrini, jumladan Vladimirni ham vayronaga aylantirdi. Vladimir knyazi Yuriy Vsevolodovich qo'shini mart oyida Siti daryosi yaqinidagi jangda tor-mor qilindi, knyazning o'zi halok bo'ldi. Vladimir-Suzdal knyazligining shahar va qishloqlarida ming-minglab aholi o'ldirildi, ko'plab qo'lyozmalar, moddiy madaniyat durdonalari yondirib yuborildi.

1239 yilda yangi yurishlar boshlanib, Pereyaslavl va Dnepr daryosining chap qirg'og'i yerlari zabt etildi. Shu yilning kuzida Chernigov egallandi. Mo'g'ullar Kiyev knyazi Mixail Vsevolodichga elchilar yuborishdi, ammo elchilar o'ldirildi.

1240 yilning yozida mo'g'ullar Dnepr bo'ylariga keldi va uzoq vaqt shu yerda turib qoldilar. Qishda muzlagan daryodan o'tib, Kiyevni qamal qilishdi. Kiyev o'z davrining eng yirik shaharlaridan biri edi. Uning aholisi 40—50 ming kishidan iborat edi. Shahar balandligi 12 metr bo'lgan qalin devor bilan o'ralgan. Ammo devorlar X—XI asrlarda qurilgan va toshotar qamal qurollariga chiday olmas edi. Qattiq hujum bilan Botuxon Kiyevni ishg'ol qildi. Kiyevdan keyin Volin, Galitsiya egallandi. Rus knyazliklari yerlari xarobazorga aylantirildi.

Bosib olingan yerlarda Oltin O'rta davlati qaror topdi. XIII asrning o'rtalaridan rus knyazliklari Oltin O'rdaga katta o'lpon to'lay boshladilar. Endi knyazlar mo'g'ul xonlaridan olingan yorliqqa binoan o'z yerlarini boshqarar, xalqqa zulm o'tkazib, ulardan og'ir soliqlar yig'ib olardilar. Knyazlarning o'zaro urushlarida Oltin O'rda xonlari aralashib turar, oqibatda yana oddiy xalqning qoni to'kilar, shahar va qishloqlar yonardi.

XIII asr boshlarida Boltiq dengizi qirg'oqlarida yashaydigan est, liv qabilalariga qarshi nemis feodallarining urushlarini Rim papalari salib yurishlari deb e'lon qildilar. Nemislarning Livoniya ordeni ritsarlari estlar yerini bosib olib Novgorod-Pskov knyazligi chegaralariga yaqinlashib qoldilar. Boltiqbo'yi nemis risarlari bilan hamkorlikda harakat qilgan

shved feodallarining katta qo'shini 1240 yilning yozida Neva daryosi bo'ylab Novgorod yerlariga bostirib kirdi.

Novgorod knyazi 18 yoshli Aleksandr Yaroslavich 1240 yil 15 iyulda o'zining uncha katta bo'lmagan drujinasi bilan shvedlar qarorgohiga qo'qqisdan hujum qildi. Yosh knyaz va uning dovyurak drujinachilari ko'rsatgan jasorat tufayli Aleksandrga «Nevskiy» degan faxrli nom berildi. Bu nom tarixda asrlar bo'yi saqlanib kelmoqda.



Muz ustidagi jang

Mo'g'ul bosqinidan chetda turgan Novgorod-Pskovning boy yerlari nemis ritsarlarini o'ziga tortardi. Bu borada ularni hatto shvedlarning mag'lubiyati ham to'xtata olmadi. 1240 yili Pskov yaqinidagi Izborskni olgan ritsarlar, Tverdila va boyarlar sotqinligidan foydalanib Pskov shahrini egalladilar. Nemis feodallari o'sha yili qishdayoq

Novgorodning chegara hududlariga ham bostirib kirishdi. Novgorodning nemislarga qarshi kurashini yana knyaz Aleksandr Nevskiy boshqardi. Suzdal knyazi yordamida Pskov va unga qarashli yerlarni ozod qildi.

Aleksandr Nevskiyning nemis ritsarlariga qarshi hal qiluvchi jangi 1242 yili 5 aprelda Chud ko'li ustida bo'lib o'tdi. Jang boshlanishi bilan ritsarlarning pona shaklidagi asosiy kuchlari rus qo'shinining markaziga hujum qilib, uni yorib o'tmoqchi bo'ldi. Buni oldindan sezgan Nevskiy asosiy kuchlarni qanotda to'pladi. Markazni osonlikcha yorib o'tgan nemislar uchun kutilmagan voqea—yon tomondan kuchli hujum boshlanib, jang taqdirini hal qildi. Bu jangda nemis ritsarlaridan 500 kishi o'ldirildi. Ko'p o'tmay, Livoniya ordenining Novgorodga kelgan elchisi rus yerlariga da'vo qilishdan voz kechganliklarini ma'lum qildi.

Rus yerlarining Moskva tevaragida birlashuvi. Oltin O'rda xavfi sharoitida Oka va Volga daryolari havzasidagi o'rmonzor o'lkalarga aholining ko'chib kelishi kuchaydi. Bu o'lkalardagi bo'sh, unumli maydonlardan tashqari, ko'plab o'rmonlar ham daraxtlari kesilib, ekinzorlarga aylantirildi. Bu hududlarda dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham rivojlandi. Bo'sh yerlarning yetishmasligi yangi qochoqlarni Volga ortidagi o'lkalarga ketishga undadi. Aholi kelib joylashgan yerlar feodallarining e'tiborini tortib, knyazlardan olingan yorliqlarga binoan ushbu yerlarning ham egasiga aylandilar.

Rusda yirik yer egalari o'zlarining harbiy xizmatchilariga yerlarning bir qismini vaqtinchalik foydalanish uchun bera boshladilar. Natijada yer

egaligining yangi shakli — yerni shartli ravishda saqlash tartibi va feodallarning yangi toifasi — dvoryanlar paydo bo'ldi. Yer egalari dehqonlarni krepostnoy qaramlikka tushirishga intildilar. Knyazlar farmoniga binoan XV asrning o'rtalaridan, dehqonlarni feodallardan ketish vaqtini yiliga bir muddat—Yuriy kuni (26 noyabr) bilan belgilab qo'yildi.

Mo'g'ullar bosqini tufayli rus shaharlari og'ir talafotlar ko'rgan bo'lsa-da, ularning taraqqiyoti butunlay to'xtab qolmadi. Jumladan, XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab hunarmandchilikning turli sohalarida yuksalish boshlandi. Harbiy ehtiyojlarning ortishi qurilish va temirchilik tarmoqlari taraqqiyotini tezlashtirdi. Asr oxiriga kelib o'q otadigan qurollar yasash markazlari paydo bo'ldi. Shu paytdan Moskva shahri hunarmandchilik markaziga aylandi. Novgorod, Pskov, Kolomna, Kostroma, Nijniy Novgorod kabi shaharlar iqtisodiy taraqqiyotida sezilarli siljishlar bo'ldi. Rus shaharlarining Sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalari jonlandi.

XIII asr oxiridan knyazlar o'rtasida rus yerlariga hukmronlik qilish imkonini beradigan Oltin O'rda yorlig'ini olish uchun kurash avj oldi. Dastlab bu yorliqni Tver knyazlari qo'lga kiritdilar. Lekin XIV asrning boshidan yuksala boshlagan Moskva knyazlari ham yorliqqa ega bo'lish uchun kurashga kirishdilar. Bu kurash 1327 yili Tverdagi xalq qo'zg'olonini bostirishda O'rdaga yordam bergan Moskva knyazi Ivan Kalitaning (1325—1340) g'alabasi bilan tugadi. Oltin O'rda Moskva knyaziga boshqa rus yerlaridan soliq yig'ish huquqini ham berdi.

XIV asr ikkinchi yarmida rus knyazlari orasidagi kurash yana keskin tus oldi. Bunday sharoitda Oltin O'rdaning rus yerlariga yangi hujumlari boshlandi. Kalitaning nevarasi Dmitriy Ivanovichning 1359 yili knyaz bo'lishi Moskvaning kuchayishiga imkon berdi.

Ruslarning mo'g'ullarga qarshi urushlaridagi birinchi va muhim g'alabaga knyaz Dmitriy erishdi. Oldin 1378 yili Ryazan yerlaridagi Voja daryosi bo'yida mo'g'ullarni tor-mor qildi. Lekin hal qiluvchi jang 1380 yili 8 sentabrda Don daryosi qirg'og'idagi Kulikovo maydonida bo'ldi. Jangni Oltin O'rda tumanboshisi Mamayning otliq askarlari boshlab berdi. Ular ruslarning oldingi qatorlariga hujum qildilar va uni qattiq jangda yanchib tashladilar. Bir necha soat davom etgan jangda o'rdaliklar knyazning markazdagi katta polkini va qo'shinning chap qanotini siqib qo'yishdi. Jangning hal qiluvchi paytida Serpuxov knyazi Vladimir Andreyevich va voyevoda Dmitriy Bobroklarning pistirmadagi polki jangga kirdi. Rus otliqlari dushmanning orqa tomonidan zarba berdi.

Natijada mo'g'ul qo'shini vahimaga tushib chekina boshlaydi. Knyaz Dmitriyga bu g'alaba uchun Donskoy nomi berildi.

Mo'g'ullarning rus yerlaridagi hukmronligi Kulikovo jangidan keyin ham davom etdi. Oradan ko'p o'tmay Oltin O'rda xoni To'xtamish 1382 yili qo'qqisdan Moskvaga hujum qildi. Shahar aholisi mudofaani tashkil qildi. Nijegorodlik rus knyazlari vositachiligida shaharga omonlik va'da qilib kirgan mo'g'ullar o'z so'zlaridan qaytib katta qirg'in uyushtirdilar. Dushman ketganidan keyin Moskvadan 24 ming kishining o'ligi topildi. Shahar deyarli yonib kul bo'ldi. Dmitriy Donskoy Oltin O'rdaga yillik o'lpon to'lashga majbur bo'ldi.

Bu borada bir tarixiy voqeaga alohida to'xtalish lozim. Oltin O'rda To'xtamishxon 1389—1391 va 1394—1395 yillardagi Amir Temur qo'shinlarining hujumlariga bardosh bera olmadi. Oltin O'rda vayronaga aylandi. Rus yerlarining mo'g'ul istibdodidan xalos bo'lishida Amir Temurning xizmatlari katta bo'ldi.

Ivan III (1462—1505) knyazligi davrida rus yerlarining Moskva atrofida birlashuvi tez sur'atlar bilan bordi. Ivan III davrida Yaroslavl va Rostov knyazliklari yerlari qo'shib olindi. Moskva knyazligiga 1471—1478 yillardagi urushlar natijasida Novgorod respublikasi ham qo'shib olindi. Nihoyat 1480 yili Ivan III Oltin O'rdaga soliq to'lashdan bosh tortdi va shu tariqa mo'g'ullarning rus yerlaridagi ikki yarim asrlik hukmronlikka chek qo'yildi.

Rus yerlarining birlashishi davom etib 1485 yili Tver knyazligi tugatildi. 1501 yili Pskov respublikasi yerlari, 1514 yilda Litva bilan urush natijasida Smolensk yerlari Moskvaga bo'ysundirildi. 1521 yili Ryazanda knyazlik hokimiyati tugatildi.

Mamlakatning birlashuvi tashqi dushmanlarga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etdi. Rus yerlarini birlashtirgan «Rossiya» tushunchasi XV asrning oxirida, shu jarayonlarning natijasi sifatida vujudga keldi.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun Rusda feodal tarqoqlik sodir bo'ldi?
2. Nega Rus yerlari mo'g'ullar istilosiga qarshi tura olmadi?
3. Aleksandr Nevskiy to'g'risida nimalarni bilib oldingiz?
4. Rus yerlarining Moskva tevaragida birlashuviga qaysi omillar sababchi bo'ldi?

22-§. Saljuqiylar va Usmoniylar davlati

Saljuqiylar davlatining tashkil topishi. XI asrning birinchi yarmida Movarounnahrda yashovchi saljuqiy turklarning Old Osiyoga ko'chishi sodir bo'ldi. Saljuqiylar harakatiga Saljuqning nabiralari aka-uka To'g'rubek, Chag'ribek Dovud va ularning amakisi Musa Yabg'u boshchilik qildilar. Ular qiniq nomli qadimgi turkman urugidan edilar.

Dastlab saljuqiylar quyi Sirdaryodagi Jand degan joyda ko'chib yurar edilar, keyinchalik yer yetishmovchiligidan Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'iga ketishga majbur bo'ldilar. XI asning boshlarida Zarafshon vodiysiga qoraxoniylar bilan birga ko'plab chigil, qarluq, yag'mo va boshqa turk aymoqlari ham kirib keldilar. Ularning hammasiga ko'chib yurish uchun joy kerak edi. Shularni hisobga olib, saljuqiylar XI asr 30 yillarida Xurosonga ko'chishga majbur bo'ldilar.

Ammo bu yerda saljuqiylar yangi yerlarni qo'lga kiritishda g'aznaviylar bilan kurashishlariga to'g'ri keldi. Xuroson aholisi g'aznaviylar qo'shinining aholi hisobiga yashashidan va ularning qiladigan zo'ravonligidan qattiq azob chekar edi. Bunday sharoitda saljuqiylarga qarshi olib borgan kurash sulton Ma'sud uchun foydasiz bo'lib chiqdi. Uning turkmanlarga qarshi yuborgan qo'shini Saraxs yonida mag'lubiyatga uchradi. Natijada 1038 yilda To'g'rubek 3 ming kishilik qo'shini bilan hech bir qarshiliksiz Nishopurni egalladi. Qiziq tomoni, Nishopurning bosh ruhoniy va savdogarlari shaharni saljuqiylarga topshirish tarafdori edilar.

1040 yilda Saraxs va Marv orasidagi Dandanakon yonida g'aznaviylar va saljuqiylar o'rtasida so'nggi hal qiluvchi jang bo'ldi. Suvsiz cho'ldan o'tib, qattiq toliqqan g'aznaviylar qo'shini butunlay yanchib tashlandi. G'aznaviylardan tortib olingan yerlar saljuqiylar o'rtasida bo'lib olindi: To'g'rubekka Eronning shimoliy va shimoliy-g'arbiy viloyatlari, Chag'ribek Dovudga Marv va Xurosonning katta qismi, Musa Yabg'uga Tus, Hirot va Seyiston viloyatlari tegdi. Shu tariqa, saljuqiylar davlati tashkil topdi.

Saljuqiylar davlatining boshlig'i To'g'rubek (1038—1063) bo'lib qoldi. U hujumni davom ettirib Iroqi Ajam, Ozarbayjon, Kurdiston va Ko'histonni o'ziga bo'ysundirdi. 1055 yilda To'g'rubek qo'shini bilan Bag'dodga kirib keldi va o'z nomini xutbaga qo'shib o'qitishga xalifani ko'ndirdi. Diniy hokimiyat abbosiylar xalifasiga, dunyoviy hokimiyat sulton unvoni bilan To'g'rubekka o'tdi. Yangi davlatning poytaxti etib Ray shahri belgilandi.

Alp Arslon (1063—1072) va Malikshoh (1072—1092) hukmronliklari davrida saljuqiylar Kichik Osiyo va Yaqin Sharqda mustahkam oʻrnashib oldilar. 1071 yili saljuqiylar Vizantiya imperatori Roman IV Diogenning 200 ming kishilik qoʻshinini yengib, butun Kichik Osiyoni, keyinchalik Suriya va Falastinni zabt etdilar. Armaniston, Gruziya, Shirvon ham boʻysundirildi. Shu davrda Balx, Termiz, Buxoro, Samarqand, keyinchalik Fargʻona vodiysi saljuqiylar qoʻl ostida birlashdi. Hatto Sharqiy Turkistondagi qoraxoniylar ham ularning hokimiyatini tan oldi.

Malikshoh va uning vaziri Nizomulmulk oʻsha paytlari islom dunyosiga qutqu solgan fitnachilarga qarshi juda qattiq kurash olib bordilar. Ular bir tomondan Nizomiya madrasasini ochib, u yerda islomning sunniylik eʼtiqodini oʻrgatishar, boshqa tomondan fitnachi ismoiliylarni ushlab, jazo berishar edi. Alamut qalʼasini ismoiliylarning qarorgohiga aylantirgan Hasan ibn Sabboh degan bir eronlik Malikshoh va uning vaziri Nizomulmulkka qarshi suiqasd uyushtirdi va 1092 yilda har ikkisini oʻldirtirdi.

Malikshohning oʻlimidan keyin taxtga oʻgʻli Berkyoruq chiqdi va saljuqiylar sultoni boʻldi. 1105 yilda Berkyoruq vafot etgach, taxtga uning ukasi Muhammad Topar chiqdi. Ammo u 1118 yilda juda erta vafot etdi. Bundan soʻng saljuqiylar taxtiga Malikshohning oʻgʻli Sulton Sanjar oʻtirdi.

Sulton Sanjar Xurosonda hokimlik qilib, davlat ishlarini yuritishni puxta egalladi. Uning zamonida saljuqiylar sultonligi nihoyatda kengayib, qudratli davlat holiga keldi. Gʻaznaviylar va gʻuriylar yerlarini qoʻshib olishi bilan davlat hududini Hindistonga qadar kengaytirdi. Lekin sharqdan kelgan qoraxitoylarga kuchi yetmadi. Keyinchalik oʻziga tobe boʻlgan koʻchmanchi oʻgʻuzlar isyonini bostira olmadi. Oʻgʻuzlar Sanjarni tutqunlikda ushladilar, davlatning eng goʻzal, va boy shaharlarini talon-taroj qildilar. Sulton bir necha yildan soʻng qochib qutildi, ammo koʻp yashamadi va 1157 yilda vafot edi. Shu bilan saljuqiylar davlati boʻlinib ketdi.

Saljuqiylarning Kichik Osiyodagi mulklarida Koʻniya sultonligi tashkil topdi. Bu davlat Alovuddin Kayqubod (1219—1236) davrida oʻz ravnaqiga erishdi. Ammo ichki nizolar tufayli zaiflashgan sultonlik 1243 yilgi moʻgʻullarning bosqiniga qarshilik koʻrsata olmadi va katta oʻlpon evaziga yurishni toʻxtatdi. Moʻgʻullar hujumidan keyin obroʻyi tushib ketgan sultonlik oxir-oqibat 1307 yili bir qancha mustaqil beyliklarga boʻlinib ketdi.



Usmon I

Usmoniylar davlatining tashkil topishi.

Mo'g'ullarning Xorazmshohlar davlatiga yurishlari vaqtida o'g'uzlarning qayi urug'i Ko'nyaga ketishga majbur bo'lgan edi. Ularning yetakchisi bo'lmish Erto'g'ul 1230 yillarda Kichik Osiyo g'arbida joylashgan Sog'ut shahri atrofida mustaqil beylikka asos soladi. Uning o'g'li Usmon I 1299 yilda yangi davlatni tashkil etadi. Bu davlat tarixda Usmoniylar imperiyasi deb ataldi.

Keyingi asrda usmoniylarning yerlari kengayib, sharqiy O'rtayer dengizi va Bolqon yarim oroligacha cho'ziladi. 1326 yili Bursa shahri bosib olinadi va davlatning yangi poytaxtiga aylantiriladi.

Murod I hukmronligi yillarida (1362—1389) Bolqonga keng ko'lamli yurishlar boshlanadi. Uning qo'shinlari G'arbiy Frakiyadagi Adrianopol va Filippopolni egallaydi. Adrianopol Edirne deb o'zgartirilib, poytaxt shu yerga ko'chiriladi. Vizantiya imperatori Ioann V Paleolog o'zini Murod I vassali deb tan oldi. Harbiy yurishlar natijasida Serbiya, va Bolgariya knyazlari unga o'z tobeliklarini bildirishadi.

Boyazid I Yildirim (1359—1403) hukmronligining ilk yillarida Dunaybo'yi davlatlarini o'ziga bo'ysundirdi. 1392 yilda Vizantiya imperatori Ioann bilan uning o'g'li Andronik o'rtasidagi kelishmovchilikdan foydalanib, Andronikka harbiy yordam ko'rsatdi va uni Vizantiya taxtiga o'tqazdi, Ioanni esa zindonga tashladi. Ammo, ikki yildan so'ng Andronikni taxtdan tushirib, Ioanni yana taxtiga o'tqazib qo'ydi. Shunday qilib, Boyazid Vizantiyani butunlay o'ziga qaram qilib oldi.

1395—1396 yillarda Boyazid Bolgariya, Makedoniya, Fessaliyani zabt etdi. Gretsiyaga bostirib kirib, Argos shahrini butunlay vayron qildi va Vengriyaga tahdid sola boshladi. Shunda Bogemiya va Vengriya qiroli Sigizmund I (1368—1437) turli mamlakatlardan katta qo'shin to'plab Boyazidga qarshi yurish qildi. Biroq 1396 yil 28 sentabrda Nikopol shahri yonidagi jangda tor-mor keltirildi. Boyazid qo'lga olingan 3 ming kishini qatl ettirdi. Boyazid bu yirik g'alaba tufayli Bosniya, Vengriyani ham qo'lga kiritib, Bolqon yarim orolida o'z mavqeini mustahkamlab oldi.

Boyazid o'z saltanatini kengaytirayotgan bir vaqtda, Turon hukmdori Sohibqiron Amir Temur bilan to'qnashdi. 1402 yilgi Anqara jangida Sulton Boyazid mag'lubiyatga uchrab, qo'lga tushdi. Boyazid ko'p o'tmay vafot etdi. Amir Temur Boyazid davlatini uning o'g'illari o'rtasida bo'lib berib, ortga qaytdi. Amir Temur yurishlari tufayli Yevropa mamlakatlari o'zlarini o'nglab olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Usmonlilar tomonidan Konstantinopolning zabt etilishi 50 yilga kechikdi.



Boyazid I Yildirim

XV asr II yarmida usmoniylar davlati. Sohibqiron Amir Temur usmoniylarni butunlay tugatmadi. Shu sabab ular tez orada o'zlarini yana o'nglab oldilar. Bolqon yarim orolidagi yurishlar ularning qudratini oshirdi.

Keyinchi navbat Konstantinopolning olinishi edi. Uning bosib olinishi Sulton Mehmed II (1451—81) nomi bilan bog'liqdir. U Murod II ning o'g'li edi. Konstantinopolni qamal qilish uchun Dardanel bo'g'ozida Rumeliya qo'rg'o'nini qurdirtdi. Natijada bo'g'ozdan o'tuvchi har bir kema shu yerda to'xtatilib, boj undirish yo'lga qo'yildi.

1453 yilning martida Mehmed II 100 ming kishilik qo'shin bilan Vizantiya poytaxti Konstantinopol tomon yurish qildi. Konstantinopolda 6-7 ming askar bor edi. Shahar aholisi 40 ming kishidan oshmas edi. Qirq kunlik (18 aprel — 29 may) qamaldan so'ng Konstantinopol zabt etildi. G'alaba sharafiga sulton «Fotih» nomini oldi.

Konstantinopolning qulashi Vizantiya imperiyasiga xotima yasadi. Ayni vaqtda Usmonli turk imperiyasini jahondagi eng qudratli davlatlardan biriga aylantirdi. Shahar turkcha Istanbul deb atala boshlandi.

Shundan so'ng Bolqon va Markaziy Yevropa mamlakatlarini zabt etish boshlangan. 1459—79 yillarda turklar Serbiya, Moreya, Bosniya, Valaxiya va Albaniyani bosib oldilar. O'rta yer dengizida Lesbos oroli venetsiyaliklardan tortib olindi. Mehmed II 10 yil davomida Karaman beyi hamda Oq qo'yunli davlati hukmdori Uzun Hasanga qarshi kurash olib borib, butun Kichik Osiyoda o'z hokimiyatini o'rnatdi.

1475 yil Mehmed II Kafa, Kerch, Sudak singari Qora va Azov dengizi bo'ylaridagi shaharlarni egallab, Qrim xonligini o'ziga vassal qildi.

1480 yilda 300 kemaga joylashgan 100 ming nafar turk askari Italiyaning Otrango shahri tomon yo‘l oldi va uni 2 haftalik qamaldan so‘ng qo‘lga kiritdi. Shahar aholisining yarmi qirib tashlanib, 8 mingga qulga aylantirildi. Lekin italiyaliklar bor kuchlarini yig‘ib, turklarga bir qancha kuchli zarbalar berishga muvaffaq bo‘ldilar.

Ulug‘ yuz yillik. XVI asrda Usmoniylar davlati kengayishda davom etdi. Xususan, Salim I Yovuz 1514 yil 23 avgust kuni Eron shohi Ismoil I qo‘shinini yanchib tashlaydi. Bu g‘alabadan keyin Iroq, Shom, Falastin, Misrni egallaydi. 1516 yil 28 avgustda Halabda bo‘lgan juma namozida sulton Salim I ga «ikki muqaddas shahar xizmatchisi» faxriy unvoni berilib, xalifa sifatida uning nomi xutbaga qo‘shib o‘qildi. Shu kundan boshlab to 1924 yilgacha usmoniy sultonlar butun islom olamining xalifasi hisoblanganlar.



Mehmed II Fotih

Sulton Sulaymon I (1520—1566) davrida Usmoniylar davlati o‘z qudratining cho‘qqisiga chiqdi. Yevropaliklar uni Sulaymon Ajoyib, musulmonlar esa Sulaymon Qonuniy deb ataganlar. Sulaymon yangi yerlarni bosib olishga kirishdi. 1526 yili Moxach jangida turklar 100 minglik vengr qo‘shinini mag‘lub etdi. Vengriya qiroli Layosh II qochish payti botqoqlikka cho‘kib o‘ldi.

Vengriya bosib olingach, Avstriya bilan uzoq muddatli kurash boshlandi. 1529 yilda Sulaymon 120 ming kishilik askari bilan Venani qamal qildi. Turklarning ilg‘ori Bavariyaga bosqin uyushtirdi. Lekin boshlanib ketgan yuqumli kasalliklar va oziq-ovqat yetishmovchiligi qamalni davom ettirishga imkon bermadi.

1532—1533 yillarda Sulaymon yana Avstriyaga qo‘shin tortdi. Bu gal Avstriya yon bosib, Markaziy va Sharqiy Vengriya ustidan turklarning hukmronligini tan oldi. Avstriyaga yillik 30000 dukat o‘lpon to‘lash majburiyati yuklandi.

Sulton Sulaymon kuchli dengiz flotini shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi. Turk flotining asosiy bazasi Jazoirda joylashib, unga Xizir Rais qo‘mondonlik qildi. Turk kemalari O‘rta yer dengizida nazorat o‘rnatgan edi.



Sulton Sulaymon

Turklarni tor-mor etish uchun Muqaddas Rim imperatori Karl V genuyalik Andrea Doriani yirik flotga bosh qilib qo'ydi. Bu flot Venetsiya va Geniya Respublikalari, Papa davlati hamda Ioanniylar ordeni qaroqchilarining kemalaridan tarkib topgan edi. Uyushgan flot 157 kema hamda 60 ming dengizchidan iborat bo'lgan. Usmoniylar floti 122 kema va 22 ming askarga ega edi. 1538 yil 28 sentabrda Prevez jangida Xizir Rais dushman flotini to'liq mag'lub etdi, admiral Andrea Doria jang maydonidan qochib ketdi. Shu xizmatlari uchun sulton tomonidan unga «Xayriddin» (din saqlovchisi) unvoni berildi.

Usmonli turk qo'shini **sipohiy** (og'ir otliqlar) va **aqinji** (nomuntazam yengil otliqlar) dan iborat edi. Ulardan tashqari, yanicharlar (turkcha **yenicheri** — «yangi qo'shin») ham tashkil etilgan bo'lib, qo'shinning uruvchi kuchi sifatida harakatlangan. Yanicharlar politsiya, qo'riqchilik, o't o'chirish va jazo vazifalarini bajarishgan.

Yanicharlar 8-16 yoshli xristian bolalaridan shakllantirilgan. Imperiyaning xristian aholisi qon solig'i — «devshirma» majburiyati asosida o'z bolalarini yanicharlikka topshirganlar. Ular islom dini an'analari asosida tarbiyalanganlar. Yanicharlardan ko'pgina vazirlar yetishib chiqqan. Ularning ayrimlari hatto turk sultonlariga kuyov ham bo'lganlar.

XVI asr oxiriga kelganda usmoniylar imperiyasi tarkibiga Bolqon yarim oroli, Qora dengizning shimoli, Kichik Osiyo, Gruziya va Armanistonning g'arbiy qismi, Arabiston, Iroq, Suriya, Shimoliy Afrika, Qrim kirgan. Uning maydoni 8 million kvadrat kilometrga yetgan.

Savol va topshiriqlar

1. Saljuqiylarning keng hududlarni bosib olish sabablari nimada?
2. Usmoniylar davlati qanday qilib vujudga keldi?
3. Sohibqiron Amir Temur bilan Boyazid Yildirim munosabatlari nega keskin tus oldi?
4. Sulton Mehmet II Turkiya tarixida qanday iz qoldirdi?
5. Sulton Sulaymonning harbiy yurishlari haqida gapirib bering.

23-§. XIII—XV asrlarda mo'g'ullar imperiyasi

Markazlashgan mo'g'ul davlatining tashkil topishi. XI—XII asrlarda mo'g'ullar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda qoloq hisoblanar edi. Ularda hali urug'-aymoqchilik munosabatlari kuchli bo'lib, asosan chorvachilik, ovchilik va o'zaro tovar ayirboshlash, savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelganlar.



Chingizxon

XII asr oxiri—XIII asr boshlarida turk-mo'g'ul aymoqlari o'rtasida o'zaro urushlar avj oldi. Bu kurashlarda Temuchin degan bahodir yengib chiqib, ko'chmanchi urug'larni siyosiy jihatdan birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. 1206 yilda u Onon daryosining yuqori qismida qurultoy chaqirdi. Unda Temuchinga «Chingizxon» unvoni berildi. Bu so'z «kuchli», «qattiq», «dengizdek xon» tushunchasini anglatgan. Chingizxon qattiqqo'l va huquqiy jihatdan asoslangan, markazlashgan davlatni tashkil etdi.

Diniy va ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarini o'z ichiga olgan huquqiy siyosat 1206 yilgi qurultoyda qabul qilingan «Yaso» qonunida asoslab berilgan edi. Ta'kidlash joizki, «Yaso» ko'p yillik hayot tajribasi, urug'-aymoqlarning urf-odati, an'anasi, o'zini oqlagan udumlar asosida tuzilgan edi. Dasht mintaqasi tarixida ilk huquqiy hujjat bo'lganligi bois «Yaso» mohiyatiga bir oz to'xtalib o'tmoq lozim. Unda:

— xonning vazifalari va huquqlari belgilangan. Hattoki ulug' xon o'z burchini to'liq bajarmasa, uni hokimiyatdan chetlashtirish lozim edi;

— qo'shin o'n, yuz, ming, tuman tizimi asosida tuzilishi ko'rsatilgan. Bunda har qaysi askar ovqati, quroli, zarur buyum va anjomlari uchun o'zi qayg'urishi kerak bo'lgan. Jangda qo'rqqoqlik, sotqinlik qattiq jazolanar edi;

— suv yoki sutni ataylab to'kib yuborish dasht sharoitida kechirilmas jinoyat sifatida qoralanar edi. O'g'rilik, ochiq talon-tarojlik yomon odat sanalar, o'g'irlangan mol to'qqiz barobar miqdorida undirib olinardi;

— urush sharoitida avlodlar kelajagini ta'minlash uchun ayollarning o'z eriga xiyonati qonun tomonidan kechirilgan.

«Yaso» qoidalarini hamma bajarishi shart emasdi. Mamlakat oldidagi buyuk xizmatlari uchun shaxsan Chingizxondan «tarxon» unvonini olgan amaldorlar uni hatto 9 marta buzishlari mumkin bo'lgan. Birinchi qurultoydayoq bir necha kishi ana shunday unvonga ega bo'lishi bu davlatning naqadar tabaqalanganligini ko'rsatadi.

Chingizxon qo'shinlari o'nlik tizimi asosida qismlarga bo'lingan edi. Ularga o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va tumanboshilar qo'yilgan edi. Chingizxon o'rdasi Qoraqurumda bo'lgan. O'qish va yozishni bilmagan xon davlat ishlarida uyg'urlar bilan savdogarlar xizmatidan keng foydalanar edi.

Chingizxon 1207 yilda o'z mamlakatining shimoliy yerlarini, 1207—1208 yillarda Enasoy bo'ylarini, 1211—1215 yillarda Xitoyni egalladi. Ayniqsa Sin sulolasining qulatilishi natijasida olingan sanoqsiz harbiy o'ljalar, zamonaviy jang asboblari Chingizxon qo'shinini yangi yurishlarga ilhomlantirdi.



Mo'gul otliqlari hujumi

Mo'g'ullarning bosqinchilik yurishlari. Chingizxonning Xorazmshohlar davlatiga yurishi shunchaki tartibsiz bosqin bo'lmay, oldindandan rejalashtirilgan yovuz bosqin edi. Unga Chingizxon puxta tayyorgarlik ko'rdi. Urush boshlanishida Xorazmshoh qo'shinlari mo'g'ullarga nisbatan ko'p edi. Ammo qo'shinni bir joyda to'plashdan qo'rqqan Sulton Muhammad uni turli shahar va qo'rg'onlarga bo'lib tashladi. Bu Xorazmshohning eng katta xatosi edi. Sababi, Xorazmshoh faqat hujumchi qo'shinga ega bo'lib, mudofaaga moslashmagan edi. Movarounnahrda biron-bir shahar yoki qo'rg'on uzoq muddatli mudofaaga tayyor emas edi. Bundan foydalangan Chingizxon 1218 yilda ikki yuz minglik qo'shin bilan Xorazmshoh ustiga yurish boshladi. 1221 yilga qadar Chingizxon Movarounnahr va Xorazmni egallab, go'zal shahar va qishloqlarni yondirib, aholisini ayovsiz qirdi. Sharq va G'arbni bog'lab turgan Ipak yo'li ma'lum muddat to'xtab qoldi.

Chingizxon 1227 yilda o'ldi. Hokimiyat uning uchinchi o'g'li O'qtoy qo'liga o'tdi. U esa Chingizxon boshlab bergan dunyoni egallash ishini davom ettirishga qaror qildi. O'qtoy Sharqiy Yevropa yerlarini egallash uchun katta qo'shin tashkil qilib, unga Chingizxonning nevarasi Botuxonni bosh qo'mondon etib tayinladi. Shu tariqa yangi yurish boshlandi.



XIII asrda mo'g'ullar imperiyasi

Rus yerlarini bosib olgan Botuxon Sharqiy Yevropani egallashga kirishdi. 1241 yilning yanvarida mo'g'ullar Polshaga yurish qilib, Lyublin va Zavixostni egalladilar. Yana bir guruh mo'g'ul qo'shinlari Rasibujagacha yetib bordi. Shu yilning fevralida mo'g'ullar Tur shahri yaqinida Kichik Polsha ritsarlariga zarba berib, Vislaning asosiy tayanch nuqtasi bo'lgan Sandomirni vayron qildilar.

1241 yilning yanvarida Botu boshliq qo'shinlarning asosiy qismi Vengriyaga Veres dovoni orqali kirib keldi. Qo'shinning bir qismi Transilvaniya tomon ildamlanib, Vengriyani Bolgariyadan ajratib qo'ydi. Mo'g'ul qo'shinlarining yana bir guruhi Moldaviyaga yurish qilib, u yerni egalladi. Natijada, shu hududda qisqa muddat faoliyat ko'rsatgan qipchoq yepiskopligi ham tugadi.

Vengriya qiroli Bela IV turli shaharlardan qo'shin to'plab, 60 ming kishilik askari bilan mo'g'ullarga qarshi chiqdi. Lekin 1241 yil 11 aprelda Shayo yaqinida mag'lubiyatga uchradi. Pesht mo'g'ullar tomonidan egallanib buzib tashlandi, aholisi qilichdan o'tkazildi.



Botuxon

Kadan boshliq mo'g'ul qo'shinlari qator janglardan so'ng Varadin, Arat, Pereg, Yegres, Temeshvar, Dyulafexervar kabi punktlarni egalladilar.

1241 yilning aprelida mo'g'ullar Slovakiyaga ham bosqin qildilar. Ular G'arbiy Slovakiyaga Polsha orqali, Moraviyaga Grozenkovskiy dovonlari orqali kirib kelib, shu yilning dekabrigacha Slovakiyani talon-taroj qildilar. Keyin Dunaydan o'tib Botu qo'shinlariga qo'shildilar. Sharqiy Chexiya hududlarida qisqa vaqt harbiy yurishlar uyushtirgan mo'g'ullar chex qiroli Vaslav boshchiligidagi

40 ming kishilik qo'shinga qarshi turolmaydi va g'arbga bo'lgan yurishini shu yerda to'xtatdilar.

Mo'g'ullarning Yevropadagi yurishlarining so'nggi nuqtasi Adriatika sohiligacha borib yetdi. U yerda mo'g'ullar Zagrebni, yepiskoplik shaharlari bo'lgan Svach, Drivasto, Katorralarni qo'lga kiritdilar. Kadan boshliq mo'g'ullarning oxirgi otryadlari 1242 yil bahoriga kelib orqa yo'nalishga qaytdi.

Oltin o'rda. Botuxonning harbiy yurishlaridan keyin Oltin O'rda davlati tashkil topadi. «Oltin O'rda» atamasi faqat rus tarixiy manbalaridagina uchraydi. Sharq manbalarida bu davlat Jo'ji ulusi yoki Ko'k O'rda deb yuritilgan.

«Oltin O'rda» degan nom dastlab Chingizxon o'rdasiga nisbatan qo'llangan. Chingizxon o'limidan keyin esa Jo'ji ulusining nomi deb tushunilgan. Jo'ji otasi Chingizxondan oldinroq o'ldi. Jo'jidan keyin o'g'li Botu otasi ulusini g'arbga tomon kengaytirdi.

Botu aka-ukalariga qaraganda kuchli edi. Shu boisdan ham otasidan qolgan hokimiyatni mustahkamlashga kirishdi va o'z davlatining poytaxtini Itil daryosi bo'yida barpo qildi. Bu shahar Saroy Botu deb ataldi. Botuning qo'l ostidagi hamma aymoqlar Oltin O'rda nomi ostida birlashdi. Oltin O'rdaga qarashli aholi asosan turkiy urug'lardan iborat edi.

Xullas, Oltin O'rda juda katta hududni — shimoli-sharqda Bulg'or, shimolda rus knyazliklari yerlarini, janubda Qrim va uning dengiz bo'yidagi shaharlarini, Kavkazdagi Darband, hatto Bokugacha bo'lgan joylarni, shuningdek, Shimoliy Xorazmni qamrab olgan.

Berkaxon (1255—66) davrida Oltin Oʻrda poytaxti Saroy Berkaga koʻchirildi. Saroy Botu, Saroy Berka, Urganch, Sudak, Qofa (Feodosiya), Azoq savdo markazlari edi. Oltin Oʻrdani xon boshqargan. Kerak boʻlganda qurultoy chaqirilgan. Davlat ishlari bilan beklarbegi shugʻullangan. Devon ishlarini vazir boshqargan. Soliq yigʻish dorugʻa ixtiyorida boʻlgan. Zarur paytlarda bosqoqlar joʻnatilgan. Qoʻshinlarga tumanbegi, noʻyon (amir), yuzboshilar qoʻmondonlik qilganlar.

Oʻzbekxon (1312—42) va uning vorisi Jonibekxon (1342—57) davrida Oltin Oʻrda har tomonlama kuchaydi. Hokimiyat markazlashdi. Uluslar viloyatlarga aylantirilib, ularga amirlar tayinlandi, qurultoylar chaqirilmay qoʻydi. Oʻzbekxon davrida Oltin Oʻrda qurolli kuchlari 300 mingga yetdi. Islom davlat dini deb eʼlon qilindi. Lekin, ichki ziddiyatlar 1357 yili Jonibekxonning oʻldirilishi bilan yana yuzaga chiqdi. Shundan 1380 yilgacha 25 marta xon almashti.

XV asrning 60 yillarida Xorazm mustaqil davlat boʻlib ajralib chiqdi. Polsha va Litva davlati Dnepr daryosi havzasini bosib oldi. Hojitarxon (Astraxon) xonligi tashkil topdi. Faqat Toʻxtamish davri (1380—95) ga kelib isyonlar toʻxtadi. Toʻxtamish Movarounnahrda tahdid sola boshladi. Amir Temurning Toʻxtamishga qarshi yurishlari Oltin Oʻrdani kuchdan qoldirdi.

Idiqut Oltin Oʻrdani tiklashga harakat qildi, natija bermadi. XV asrga kelib Oltin Oʻrda davlati inqirozga yuz tutdi. 1428 yilda Dashti Qipchoqda shayboniylardan boʻlgan Abulxayrxon Oʻzbek davlatini tashkil etdi. Uning davlati to 1468 yilga qadar mavjud boʻldi va ichki kurashlar tufayli boʻlinib ketdi. Shu tariqa, XV asr soʻngida Joji ulusi oʻrnida Sibir xonligi, Noʻgʻay Oʻrdasi, Qozon xonligi, Qrim xonligi, Qozoq xonliklari tashkil topdi.

Savol va topshiriqlar

1. XII asrda moʻgʻullarning turmushi qanday boʻlgan?
2. Markazlashgan moʻgʻul davlatining tashkil topishida Chingizxonning roli qanday boʻlgan?
3. «Yasa qonunlari» haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Moʻgʻullarning bosqinchilik yurishlari yoʻnalishlarini koʻrsating?
5. Oltin Oʻrda davlati haqida maʼlumot bering?
6. Moʻgʻul davlatining parchalanib ketishiga sabab boʻlgan omillarni aniqlang?

24-§. XI—XVI asrlarda Hindiston va Xitoy

Dehli sultonligi. XII asr oxirlarida Hindiston tarqoq mulkliklardan iborat edi. Bu esa unga shimoldan kelgan istilochilarga qarshi kurash qobiliyatini susaytirdi. Jumladan, Gʻazna hukmdori Sulton Muhammad Gʻuriy ham barcha sharq hukmdorlari kabi harbiy yurishlar va bosqinlarni orzu qilar edi. Bitta hukmdorga ega boʻlmagan, mayda davlatlarga boʻlingan, doimo urush holatida boʻlgan Shimoliy Hindiston juda oson oʻlja boʻldi. 1175 yilda Panjobga qarshi birinchi yurishni amalga oshirgan Guriy mahalliy rojani magʻlub etdi va katta oʻlja oldi. U pullarni kuchli otliq qoʻshinlar tuzish uchun ishlatdi.

1178 yilda Gujaratga qilingan keyingi yurish magʻlubiyatga uchradi. Bu oʻlka hukmdori kuchli qarshilik koʻrsatdi. Taktik jihatdan toʻgʻri olib borilgan jang hindlarga bosqinchilarni yengishga va ularni orqaga qaytarishga imkon berdi.

Shunday boʻlsa-da, Gʻuriy 1179 yilda savdo yoʻllari kesishmasida joylashgan yirik Peshovar shahrini egalladi. 1186 yili Lahor shahri bosib olindi. 1191 yilgacha u Hind daryosining yuqori oqimidagi yerlar boʻylab bir qancha yurishlar uyushtirib, ibodatxonalar va hukmdorlarning xazinalarini taladi.

1191 yilda oʻz qoʻshinini kuchaytirgan Muhammad Gʻuriy Taneshvarga yoʻl oldi. Bosqinchilar qoʻshinini Dehli rojasi koʻp sonli va jangovar fillarga ega boʻlgan qoʻshin bilan kutib oldi. Sulton Gʻuriy qoʻshini magʻlub boʻldi, oʻzi ham yarador boʻldi. Ammo tuzalib ketgach, yangi yurishga tayyorlana boshladi. 1192 yilgi yurishda Sulton Gʻuriy qoʻshini Shimoliy Hindiston knyazliklarining birlashgan kuchlarini tormor etdi. Hindistonning ichki qismiga yoʻl ochiq edi. Dehli shahri talon-taroj qilindi, qoʻlga tushgan roja Prithvi oʻldirildi. Shundan soʻng u gʻalaba bilan Gʻaznaga qaytib ketdi.

Gʻuriy oʻzining yaqin askarboshisi Qutbiddin Oybekni qoʻshin boshligʻi etib tayinladi. U hind yerlarini bosib olishga kirishdi. 1194 yilda Banoras, 1198—1199 yillarda Badaun va Kanauj shaharlari bosib olindi. Hozirgi Afgʻoniston, Pokiston va Shimoliy Hindiston yerlariga yoyilgan va Gʻuriylar sulolasi vakili tomonidan boshqarilgan musulmon davlati mana shunday vujudga kelgan edi.

1206 yilda Muhammad Gʻuriy oʻlimidan soʻng Qutbiddin Oybek uning vorisiga boʻysunmay qoʻydi va oʻzini sulton deb eʼlon qildi. Sultonlikning poytaxti Dehli shahri edi. Oybek Dehli sultonligining asoschisi hisoblanadi.

Musulmonlar o'z hokimiyatlarini mustahkamlay oldilar. Musulmon askarlarga iqto berildi. Yerning katta qismi islom ruhoniylari ixtiyoriga o'tkazildi. Mahalliy rojalar o'lpon to'lashga va'da berishdi.

XIII—XVI asrlarda Hindistonda feodal tuzumi o'ziga xos tarzda rivojlandi. Bir tomondan, Hindistonda musulmon yer egaligi tizimi qaror topdi. Butun yerlar davlat boshlig'i — sultonning mulki hisoblanardi. Kelgindi musulmon feodallari sultonning harbiy xizmatchilari bo'lib, undan iqto — vaqtincha va umrbod foydalanish uchun yer olardilar. Ular aholidan (dehqonlardan) renta undirib olish huquqiga ega edilar. Ikkinchi tomondan, mamlakatda yirik hind feodallari — rojalar saqlanib qolgandi. Ular o'z viloyatlarini amalda mustaqil ravishda boshqarib, sultonga muayyan miqdorda boj to'lardilar. O'rta va mayda hind feodallari — rajputlar va boshqalar qisman meros bo'lib qolgan feodal mulkchiligi huquqi asosida, qisman harbiy xizmatni o'tab turgan paytida vaqtincha beriladigan yerga egalik qilardilar. Vaqt o'tishi bilan kelgindi iqtodorlar yerning merosxo'r egalariga aylanib bordilar. Biroq bu jarayon XIV asrning oxirigacha ham tugallanmadi. Yerlarning katta qismi har ikkala din — mahalliy hind (eski ibodatxona yer egaligi) hamda yangi, musulmon (vaqf yerlari) ruhoniylarning qo'lida edi.

Bu davrda Hindiston feodal tuzumining yana bir xususiyati — jamoachi dehqon xo'jaliklarining ilgarigidek ustun bo'lib qolganligidir. Mahalliy hind va kelgindi turk-musulmon feodallari odatda o'zlari xo'jalik bilan shug'ullanmas, o'rniga qaram dehqonlardan oziq-ovqat, qisman pul rentasini undirib olardilar. Barshchina ishlari asosan qullar va past tabaqa dehqonlar mehnatidan foydalanilardi.

XIII—XIV asrlarda Hindiston feodal tuzumining xarakterli xususiyati — shahar hayotining ancha intensiv rivojlanishidir. Oldindan mavjud bo'lgan shaharlar qatoriga sultonlar va ularning nabiralari qarorgohlari sifatida vujudga kelgan ko'pgina yangi shaharlar qo'shildi. Dehli shahrining o'zi ana shunga misol bo'la oladi. Bu yerda juda ko'plab saroy xizmatchilari, askarlar, amaldorlar, hunarmandlar va savdogarlar yashaganlar.

Shamsuddin Eltutmish (1211—1236) davlatni Dehlidan turib boshqardi. Bolaligida qullikka sotilgan Eltutmish yosh umrini Buxoro va G'aznada bir qancha egalar qo'lida o'tkazdi. 1190 yillarning so'ngida g'uriylar askarboshisi Qutbiddin Oybek uni Dehlida sotib oldi. Oybek xizmatida bo'lgan Eltutmish yuqori lavozimga ko'tarildi va Badaundan iqto oldi. Uning 1205—1206 yillarda xoxor qo'zg'olonchilariga qarshi

olib borgan kurashi g'uriylar hukmdori Muizziddinning e'tiborini tortdi va uni Oybekdan oldin erkinlikka chiqardi.

1206 yilda Muizziddin vafotidan so'ng Oybek Hindistondagi g'uriylar davlatining mustaqil hukmdori bo'ldi. Uning bosh qarorgohi Lahorda edi. Oybek vafotidan so'ng uning vorisi Oramshoh taxtga o'tirdi. U Lahordagi turkiy oqsuyaklarning qo'lidagi qo'g'irchoqqa aylandi. Oramshohni saylashda qatnashmagan Dehlidagi turk oqsuyaklari Badaun hokimi va Qutbiddinning kuyovi Eltutmishga taxtni egallashni taklif qildilar. Eltutmish Dehliga qarshi yurish qilib, Oramshohni ag'daradi va 1211 yilda taxtga o'tiradi.

U Oybekning qiziga uylandi va Oybek o'limidan keyin yo'qolgan yerlarning ko'p qismini qaytarib oldi. U g'uriylar poytaxti G'azna ustidan nazoratni qo'lga kiritgan yana bir sobiq qul — Tojiddin Yildizni nomigagina tan olib, darhol mustaqillikni da'vo qilmadi. Keyinchalik xorazmiylar istilosi Yildizni G'aznadan qochishga va Hindistondagi g'uriylar yerlarini talab qilishga undadi. Eltutmish 1216 yilda Tarayn jangida Yildizni yengib, uni o'ldiradi. Shuningdek, Lahorni egallash uchun g'uriylarning yana bir sobiq quli — Nosiriddin Kabach bilan kurashadi.

1221 yilgi Chingizxon bosqini Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdini Hind vodiysiga ko'chib o'tishga majbur qildi. Bu yerda Jaloliddin, Kabach va mo'g'ullar o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib o'tgan. Eltutmish mo'g'ullar va Jaloliddin chiqib ketguniga qadar mintaqadan ancha uzoqda bo'lib, Hindistonda o'z hududlari uchun xavf tug'ilgandagina kichik to'qnashuvlarga qatnashgan.

1224 yilda Jaloliddin Hindistondan chiqib ketganidan so'ng Eltutmish o'z e'tiborini Sharqiy Hindistonga qaratadi. Chunki u yerda Oybekning noiblari markazi Laxnautida bo'lgan mustaqil davlat tuzgandilar. Eltutmish 1227 yilda mahalliy hokim G'iyosuddin Ivojshohning yerini o'ziga qo'shib oldi. Keyin Oybekning o'limidan foydalanib mustaqillik e'lon qilgan hind yetakchilari — Ranthambor va Mandor ustidan ham o'z hukmronligini o'rnatdi.

1228 yilda Eltutmish Hind vodiysiga bostirib kirib Kabachni tor-mor etdi va Panjob bilan Sindning katta qismini o'z davlatiga qo'shib oldi. Keyinchalik abbosiy xalifa al-Mustansir Hindistondagi Eltutmish qudratini tan oldi. Keyingi bir necha yil ichida Eltutmish Bengaliyadagi qo'zg'olonni bostirdi, Gvaliorni qo'lga kiritdi, Hindistonning markaziy qismidagi Bhilsa va Ujayn shaharlarini egallab, xorazmshoh noiblarini shimoli-g'arbga quvib chiqardi.

1236 yilda Eltutmish o'limi oldidan o'g'illarining da'volariga qaramay, ularni saltanatni boshqarish yukini ko'tarishga qodir emas deb hisoblagan holda, taxtni qizi Roziyaga topshirdi. Biroq ayolni o'z hukmdori sifatida tan olishni istamagan feodallar Eltutmishning buzuqligi bilan tanilgan uch o'g'lining eng kattasi Rukniddin Firuzni taxtga ko'tardilar. Tashqi bosqinlar, ichki nizolar boshlandi. Eltutmishning o'g'illaridan biri o'ldirildi.

Eltutmishning ikkinchi o'g'li G'iyosuddin Muhammad Audda qo'zg'olon ko'tardi. Badaun, Mo'ltan, Xansi va Lahor hokimlari isyon ko'tardilar. 1236 yildan beri Bengaliyani boshqargan Izzaddin Tug'ral To'g'anxon Dehli hukmdorini tan olmadi. Malik Sayfiddin Panjobga bostirib kirdi. Qo'shin va amirlarga bosh bo'lgan Rukniddin qo'zg'olonni bostirish uchun yo'lga chiqdi. Sultonning onasi Shoh Turkon va singlisi Roziya Dehlida qolishdi. Shoh Turkon Roziyani o'ldirmoqchi ekan, degan mish-mishlar Dehli bo'ylab tarqaldi. Ularning izdoshlari o'rtasida to'qnashuv yuz berdi. Dehli aholisi Roziyani qo'llab-quvvatladi. 1236 yil noyabrda Roziya hukmdor deb e'lon qilindi, Rukniddin o'z amirlari tomonidan qo'lga olindi va o'ldirildi.

Roziyaning oldida juda qiyin ish turardi. Rukniddinning vaziri Nizomulmulk Muhammad Junaydiy boshchiligidagi Badaun, Mo'ltan, Xansi va Lahor hokimlari Dehliga yurish qildilar, uning taxtga chiqishi bilan murosaga kelishni istamadilar. Ular poytaxtni qamal qildilar. Roziya hiyla-nayrang ishlatib, ularning orasiga nifoq solib qo'ydi. Natijada Malik Izzadiddin Kabirxon Ayaz va Malik Izzadiddin Muhammad Solariy Roziya tomoniga o'tdilar. Ittifoq parchalanib, isyonkor yetakchilar tarqaldi, ularning bir qismi o'ldirildi.

Endi Laknaudan Debalaga qadar barcha hokimlar unga so'zsiz itoat etdilar. Bengaliya hokimi ixtiyoriy ravishda o'zini Dehlining vassali deb tan oldi.

Roziya Dehli taxtni egallagan yolg'iz turk qizi edi. U 3,5 yil hukmronlik qildi. Tarixchilar uni buyuk, zukko hukmdor, adolatli, olimlar homiysi, adolatli, o'z eliga qayg'uradigan, hukmdor uchun zarur bo'lgan barcha ajoyib fazilatlar va xususiyatlar bilan ta'riflashgan.

1239—1240 yillarda Lahor hukmdori Malik Izzaddin Kabirxon Ayaz Roziyaga qarshi isyon ko'tardi. Unga qarshi qo'shinlar yuborildi. Shundan so'ng sulh tuzildi, unga ko'ra Malik Izzaddin Kabirxon Ayaz Mo'ltan viloyatini qabul qildi. 1240 yil 15 martda Roziya Dehliga qaytib keldi.

1240 yil 3 aprelda Roziya turk feodallarining qutqusi bilan qo'zg'olon ko'targan Bhatinda hokimi Oltuniyga qarshi yurish boshladi. Lekin

Bhatindaga yetib borgach Roziya qo'lga olindi va Oltuniya nazorati ostida Tabarhind qo'rg'oniga qamab qoyildi. Turk oqsuyaklari Eltutmishning kenja o'g'li Muizziddin Bahromni taxtga ko'tarishga qaror qildilar.

Bahrom 1240 yil aprelda sulton bo'ldi. Bu orada Oltuniya tutqun Roziyani ozod qilib unga uylandi va Dehliga yurish qildi. Ammo bu qo'shin Bahromning qo'shinboshisi — Malik Tegin tomonidan tor-mor qilindi. 1240 yil oktabrda Roziya bilan Oltuniya qo'lga olinib, qatl etildilar.

1290 yilda g'ulomlar sulolasi o'rniga boshqasi paydo bo'ldi. Turkiylardan bo'lgan Alouddin Xiljiy (1296—1316) mo'g'ullarni yengishga muvaffaq bo'ldi. Mo'g'ullar xavfiga chek qo'ygan Alouddin Xiljiy o'zi bosib olgan yerlarni sultonlikka qo'shib olib, Dekan va hatto Janubiy Hindistonga qarshi bir qancha muvaffaqiyatli yurishlar uyushtirdi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, bu yurishlarda sulton 20 ming ot, 312 fil, 2750 pud oltin va ko'p miqdorda qimmatbaho toshlarni o'lja qilib olib kelgan edi.

O'zi yaratgan imperiyada markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun Alouddin bir qator muhim islohotlarni amalga oshirdi. Ularning mohiyati mumkin qadar ko'proq yerlarni davlat foydasiga musodara qilish, qo'shin bilan iqtodori jangchilarni xazinadan natura va pul bilan ta'minlashga o'tkazishga urinish edi. Buning uchun oziq-ovqat, birinchi galda, don narxlari tartibga solindi. Savdogarlar qattiq jazolar tufayli belgilangan narxlarga rioya qilishlari kerak edi. Lekin taqiqlarga qaramay, bozorlarda narxlar ko'tarila boshlaganida, amaldorlar g'allani davlat omborlaridan bozorga tashlashga majbur bo'lishdi. Buning uchun jamoalardan olinadigan yer va g'alla solig'i hosilning 1/2 qismiga ko'tarildi. Bu chora-tadbirlarning barchasi vaqtinchalik natija berishi mumkin edi, ammo ular aholi turli qatlamlarining noroziligi va qarshiliklariga sabab bo'ldi va Alouddindan keyin tez orada bekor qilindi.

1316 yilda Alouddin vafot etgach, uning amaldori, islomni qabul qilgan hind Malik Kafur hokimiyatni qo'lga olishga intildi. U fors va turkiy amaldorlarning yordamiga ega bo'lmagan va keyinchalik o'ldirilgan. Alouddin Xiljiyning 18 yoshli o'g'li Qutbiddin Muborak Shoh Xiljiy to'rt yil hukmronlik qilgan va qo'shin boshlig'i Xusroxon tomonidan o'ldirilgan. Xusroxonning hukmronligi bir necha oy davom etgan. Keyinchalik Giyosiddin Tug'loq nomini olgan G'ozi Malik 1320 yilda uni o'ldirib, Xiljiylar sulolasiga chek qo'ydi va Tug'loqlar sulolasini boshlab berdi.

Tugʻloq janubda davlatning ikkinchi poytaxti Davlatobodni qurish orqali turli hududlarni boshqarish muammosini hal qilishga urindi. Bu ish muvaffaqiyatsizlikka uchradi va 1347 yilda Dekan boylari Dehli hukmdorining hokimiyatini tan olishni toʻxtatdi. Dehlidan ajralib chiqqan yerlarda Bahmaniylar saltanati tashkil topdi.

Muhammad ibn Tugʻloq oʻrniga Firuzshoh Tugʻloq (1351—1388) taxtga oʻtirdi. U eski chegaralarini qaytarib olishga intilib, 1359 yilda Bengaliya bilan 11 oy urush olib bordi. Biroq, Bengaliya taslim boʻlmadi. Firuzshoh 37 yil hukmronlik qildi. Oʻz hukmronligi davrida Yamuna daryosidan sugʻorish kanalini ochib, oziq-ovqat taʼminotini yaxshilashga va ochlikni qisqartirishga harakat qildi. Uning buyrugʻi bilan odamlarni qiynoqqa solish amaliyoti toʻxtatildi.

Firuzshoh Tugʻloqning oʻlimi boshboshdoqlik va davlatning qulashiga olib keldi. Bu sulolaning soʻnggi hukmdorlari 1394—1397 yillarda oʻzlarini sulton deb ataganlar: 1398 yilgi Amir Temur harbiy yurishlaridan soʻng Dehli sultonligi yerlari anarxiya, tartibsizlik va yuqumli kasalliklar ogʻushida qolib ketdi.

Keyingi 16 yil davomida Dehli hukmronligi uchun qizgʻin kurash olib borildi. 1414 yilda bu kurashda oʻzini Amir Temur vakili deb daʼvo qilgan Sayyid Xizr-xon yutib chiqdi. Mamlakatda sayyidlar sulolasi hukmronligi boshlandi.

Sayyidlar sulolasi 1451 yilda Afgʻonistondan tashqaridagi pushtunlarning loʻdi urugʻi asoschisi Bahlul Loʻdi tomonidan agʻdarildi. Loʻdiylar to 1526 yilga qadar Hindistonni idora qildilar.

Hindistonda boburiylar hukmronligi. Bobur Mirzoning Hindistonga qarshi harbiy yurishi 1525 yilning oxirida boshlandi. 1526 yilning 21 aprelida Panipat jangida Ibrohim Loʻdiy qoʻshinini tor-mor keltirdi. 27 aprel kuni esa Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba oʻqildi.

Bobur Hindistonda oʻzi bilan qolgan qoʻshinga jogir tarqatdi. Bu yerlarda xoʻjalik ishlariga boshchilik qilish mahalliy urf-odatlarini yaxshi biladigan hindlarga topshirildi. Bobur podshoh imperiya taxtida uch yil oʻtirdi. 1530 yilda oʻlimidan oldin imperiya yerlarini oʻgʻillariga boʻlib berdi. Imperiya taxti katta oʻgʻli Humoyunga tegdi. Panjob, Kobul va Qandahorni qolgan uch oʻgʻliga berdi va ularning Humoyunga boʻysunishini vasiyat qildi.

Humoyun yerlarini yanada kengaytitishga intildi. Bu kurashda uning bosh raqibi Bixor va Bengaliyada joylashib olgan afgʻonlar yetakchisi Sherxon Sur boʻldi. 1540 yili ular oʻrtasidagi yuz bergan jangda Sherxonurning qoʻli baland keldi. Yengilgan Humoyun Eronga qochib ketdi.

Sherxon Sur Hindiston taxtini egalladi va shoh deb e'lon qilindi. Sherxon Sur va uning o'g'illari 1554 yilgacha hukmronlikni saqlab turdilar.

Taxtdan ayrilgan yillarda Humoyun turk, fors, turkman va o'zbeklardan iborat kuchli qo'shin tuza olgan edi. 1555 yili Humoyun Hindistonga yurish qilib, yana hokimiyatni qaytarib oldi. Unga taxda uzoq o'tirish nasib etmadi. Oradan ko'p vaqt o'rmay Humoyun falokat tufayli halok bo'ldi.

1556 yilda taxtni Humoyunning o'g'li Akbarshoh (1542—1605) egalladi. Akbarshoh hamisha uzoqni ko'zlab siyosat yuritdi. Shu tufayli u Hindistonda o'z hukmronligini to'la va uzil-kesil o'rnatadi. Shuning uchun ham uni «Buyuk Akbar» deb atadilar.

Akbarshoh zukko davlat arbobi, mohir sarkarda bo'lishi bilan bir qatorda, qo'l ostidagi ellarning turmushini yaxshilash uchun doimo qay'gurib turgan. Yo'qsil, beva-bechoralarga muntazam moddiy yordam ko'rsatgan. U boshqa din vakillariga nisbatan ham adolatli siyosat yuritgan. Imperiya yerlarida bitta savdo solig'i joriy etilgan. Ham xolisa, ham jogirdorlar yerlaridan teng miqdorda soliq undirilgan. Davlat idoralaridagi lavozimlar, dini va mazhabidan qat'iy nazar, shaxsning salohiyatiga qarab taqsimlangan. Bir so'z bilan aytganda, Akbarshoh hindlar bilan musulmonlarning yonma-yon, tinch-totuv yashashlariga erishgan. Akbarshoh yuritgan bunday adolatli siyosat boburiylar davlatining ulkan imperiyaga aylanishida, uning mahalliy aholi va amaldorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishida katta rol o'ynadi. Bu esa, o'z navbatida, imperiyaning qudrati va shon-shuhratining yanada ortishiga xizmat qilgan.

Agrar munosabatlar ilgari Dehli sultonligida qanday rivojlangan bo'lsa, Boburiylar davrida ham xuddi shunday yo'nalishda davom etaverdi. Biroq ularning Hindistonni bosib olishi natijasida yerga davlatning feodal usulida egalik qilishi yanada kuchaydi. Shoh hamma yerlarning bosh egasi deb sanalardi. Amalda u yerlarning bir qismigagina egalik qilgan.

Shohga tegishli yerlar mamlakatdagi ekin ekiladigan barcha yerlarning taxminan sakkizdan bir qismiga teng edi. Ana shu yerlardan olinadigan daromad shoh saroyi va qo'shinlar xarajatlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilardi. Qolgan yerlarni shoh asosan feodallarga, ko'proq musulmonlarga jogir sifatida bo'lib berar edi. Jogirning ma'nosi harbiy xizmat o'talayotgan muddatda beriladigan va meros bo'lib qoladigan yer demakdir. Jogir egasi — jogirdor rasman o'ziga qarashli yerlarda yashovchi aholidan feodal rentasini yig'ish huquqini olardi.

Amalda esa jogirdor mehnatkash aholi ustidan hukmronlik qilar, o'zi istaganicha turli soliqlar solar va odamlarni har xil ishlarni bajarishga majbur qilar edi. Jogirlarning hajmi turlicha bo'lardi. Ayrimlari juda katta bo'lib, ularda bir yo'la o'n minglarcha dehqonlar ishlardilar.

Dehli sultonligi va Boburiylar imperiyasi o'ziga xos davlat organlari, mansabdor shaxslari va siyosiy rejimi bilan ajralib turgan. Dehli sultonligining hukmdorlari bosib olingan mamlakatlarda o'z hokimiyatini xalq va isyonchi hind hukmdorlari qarshiligini bostirishning qattiq usullari bilan o'rnatganlar. Sultonlar harbiy kuchlarga suyanib, bo'ysunmagan kishilarning mol-mulklarini musodara qilganlar, o'zlarini o'ldirganlar. Islom davlat dini, fors tili esa sud ishlarini yuritish tili bo'lib qolgan edi. Boburiylar hukmronligi mutlaqo boshqacha yo'ldan bordi. Masalan, shoh Akbar o'zidan oldin o'tgan hukmdorlardan boshqacha yo'l tutib, hind feodallarini o'z xizmatiga tortishga intildi. Shuningdek, u hind savdogarlariga doimiy homiylik qildi. Hinduizmga sig'inuvchilarga nisbatan diniy ta'qib to'xtatildi.

Akbar podsholik qilgan davrda musulmon va hind feodallari muayyan darajada yaqinlashdilar. Bu davrda juda katta miqdordagi yerlar nafaqat musulmon ruhoniylariga, balki hindlarning ibodatxonalariga ham berildi. Akbar davridan boshlab ma'muriy va soliq apparatidagi oliy mansablarga savdogarlar, hunarmandlar va past tabaqadan chiqqan shaxslar tayinlana boshlandi.

Boburiy hukmdorlar sunniylik oqimining xanafiylar mazhabidan bo'lganliklari uchun boshqaruv va sud ishlarini yuritishda mahalliy sharoitlarni hisobga olishni talab qilardilar. Akbarning bu yo'ldagi siyosatini uning vorislari — o'g'li Jahongir (1605—1627 yillar) va nabirasi shoh Jahon (1627—1658 yillar) davom ettirdilar.

Sun sulolasi hukmronligi davrida Xitoy. 960—1279 yillarda Xitoyni Sun sulolasi boshqardi. Imperiyaning tashkil topishi Xitoyning 907 yilda Tan sulolasi qulaganidan beri davom etayotgan tarqoqligiga chek qo'ydi. Imperiya taskil etilishidan oldin beshta sulola va o'nta podsholik davri bo'lgan. 979 yilda navbatdagi ichki nizolar paytida mamlakat Sun (yoki Chjao) urug'iga asos solgan Tayzu hukmronligi ostida qayta birlashtirildi.

Uzoq vaqt davomida Sun davlati o'zining birlashganiga qaramay, tashqi siyosatda muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Shimoldagi qo'shni davlatlar — xitanlarning Lyao podsholigi va Tangut davlati bilan bo'lgan urushlarda Sun davlati yengildi. Natijada Xitoy bu davlatlarga kumush, ipak va choy bilan o'lpon to'lab turishga majbur bo'ldi.

1069 yilda bosh vazir etib tayinlangan Van Anshi xo'jalik va iqtisodiyot sohasida islohotlarni amalga oshirishga harakat qildi. Jumladan, qishloq aholisiga o'z xo'jaligini ko'tarish uchun qarzlar berish, soliqlarni dalalar ko'lamidan kelib chiqqan holda undirishning yo'lga qo'yilishi, barcha savdo tovarlari uchun qat'iy davlat narxlarining o'rnatilishi, mehnat majburiyati va sug'orish ishlariga jalb etish to'xtatildi. Biroq, oldingi tuzum tarafdorlari islohotlarga qarshi chiqdilar. Bundan tashqari, Sun imperatorlari keng xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

Sun davlati xitanlar tomonidan bosib olingan yerlarni qaytarib ololmadi. Yangi davlat hajmi jihatidan oldingi Tan imperiyasidan ko'ra kichikroq edi. Boshqa tomondan, Sun sulolasi siyosati umumxitoy hokimiyatini mustahkamlash va markazdan qochuvchi kuchlarni yo'q qilishga qaratilgan edi. Shu maqsadda ular birinchi galda qudratli harbiy noiblar boshchiligidagi sobiq ma'muriy tuzilmalarni tugatib, yangi ma'muriy bo'linishni joriy qildilar. Endi barcha o'lkalar bevosita imperatorga bo'ysunar edi. Bundan tashqari, tuz qazib olinadigan va metall eritiladigan joylarda harbiy okruglar (harbiy hokimiyatlarning o'rnatilgan joyi) va inspeksiya ajratildi.

Viloyatlardagi amaldorlarning vakolatlarini qisqartirish uchun vakolatlari qat'iy belgilanmagan yondosh tashkilotlar tuzildi. Mahalliy hokimliklarning faoliyati ular bilan teng huquqlarga ega poytaxt xodimlari tomonidan nazorat qilindi. Viloyat amaldorlariga har uch yilda bir marta ish joylarini almashtirish buyurildi. Mahalliy hokimlar fuqarolik ishlari bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish huquqidan mahrum qilindi.

Mansabdor shaxslarni tayinlash va imtihondan o'tkazish huquqi faqat markazga tegishli edi. Har uch yilda bir marta o'tkaziladigan saroy imtihonlarida 700 nafar talabgordan atigi bir necha o'n nafari muvaffaqiyatli o'tar edi.

Asosan yollanma askarlardan iborat qo'shindagi vaziyat ham murakkab edi. U butun mamlakat bo'ylab tarqalib ketgan, lekin imperatorga to'g'ridan-to'g'ri tobe edi. Poytaxtda «Yopiq shahar qo'shini» joylashgan bo'lib, imperatorni qo'riqlashi lozim edi. Joylarda garnizonlar tuzilib, ularning boshliqlari mahalliy hokimiyat organlariga bo'ysunardi. Qo'shinlar past intizomi va yomon tayyorgarligi bilan ajralib turardi. Ko'pincha qurollar yetishmas edi. Imperiya chegaralarini kichik harbiy qismlar qo'riqlar edi.

Qo'shinning jangovar qobiliyati pasayishiga qo'mondonlik saviyasining tushub ketishi va tinch aholining harbiylarga nisbatan nafrati sabab bo'ldi. Garchi Sun qo'shini soni doimiy ravishda oshib borayotgan

bo'lsa ham (sulola mavjudligining ilk 80 yilida 6 baravarga va davlat tushumlarining 5/6 qismi uni saqlashga to'g'ri kelgan), harbiy ishning o'zi yomon yo'lga qo'yilgan edi.

Shunga qaramay, Sun davrida Xitoy madaniyati rivojlanishda davom etdi. 960 yili Xitoyda ilk bor qog'oz pullardan foydalanildi, kemasozlik yuqori darajaga yetdi. Shimoldan bo'ladigan doimiy tahdid mudofaa kompleksining o'sishiga va texnologik taraqqiyotga olib keldi. Jumladan, Kayfenda metallurgiya ishlab chiqarishining o'sishi va poroxdan harbiy maqsadlarda foydalanish yo'lga qo'yildi. Aynan Sun davrida butun dunyo uchun juda muhim bo'lgan bosmaxona, kompas, porox ixtiro qilindi.

Savdo va hunarmandchilikning jadal rivojlanishi, Janubiy Osiyodan sholining yangi navlari keltirilishi aholining o'sishiga olib keldi. Agar Sun sulolasi hukmronligi birinchi davrida 60 million kishi yashagan bo'lsa, ikkinchi yarmiga kelib 100 million kishiga yetdi.

XII asr boshlarida Xitoyga ko'chmanchi chjurjchen qabilalari bostirib kirdilar. Ular Sun imperiyasining shimoliy qismini egallab, u yerda o'z davlati — Szin (ya'ni «oltin») saltanatini tuzdilar. Sun sulolasi hukmdorlari o'z poytaxtlarini Xitoy janubidagi Xanchjou shahriga ko'chirishga majbur bo'ldilar. Shuning uchun ham bu sulola chjurjchenlar kelishidan oldin Shimoliy Sun, undan keyin esa Janubiy Sun deb ataladigan bo'ldi. Xitoy yana ikki qismga bo'lindi.

1161 yilda Szin hukmdori Xaylin-van 300 000 kishilik qo'shin to'plab, Sunga bostirib kirdi. Ammo xitoyliklar o'totar qurollari bilan Szin flotini yoqib yubordilar. Chjurjchen quruqlik qo'shinlari ham yengildi. 1208 yilda urush qayta boshlandi, sunliklar bir necha to'qnashuvlarda yengilib, tinchlik tuzishga majbur bo'ldilar. 1217 yilda Szin qo'shinlari yana Sunga bosqin uyushtirib, ko'plab shaharlarni egalladi. Biroq iste'dodli harbiy boshliq Chen Gui tomonidan himoyalangan Dean qo'rg'onini egallay olmadi. Bunga javoban xitoylar janubiy Shandunni bosib oldilar.

Yuan imperiyasi. 1211 yilda Chingizxon 50 mingga yaqin otliq askari bilan Szin imperiyasiga bostirib kirdi. Mo'g'ullar Szin qo'shinini yengib, o'z yo'lidagi hamma narsani vayron qilib, aholini qirib tashlagan yoki qullikka haydab ketgan. 1213 yilda Chingizxon imperator Syuanszunni o'z shartlari bo'yicha tinchlik bitimini tuzishga majburladi.

1233 yilda Szin imperiyasi mo'g'ul xoni O'qtoy tomonidan bosib olindi. So'nggi Szin imperatori Ayszun mo'g'ullar qo'liga tushmaslik uchun o'zini o'ldirdi. Shu tariqa Szin imperiyasi quladi, biroq Sun davlati chingiziylar qarshisida yolg'izlanib qoldi.



Xubilayxon

1260 yil 5 mayda Kayfin shahrida Xubilay o'zini Buyuk xon deb e'lon qildi. 1264 yilda poytaxtni Yanjinga (Pekin) ko'chirdi. Shahar Xonbaliq yoki Dai-du deb nomlandi. 1271 yilda Xubilay o'z davlatini Buyuk Yuan deb nomladi.

Xubilay istilo vaqtida Sun aholisiga nisbatan kuch ishlatmaslikka intildi. Bu siyosat muhim rol o'ynadi. Sun sulolasi siyosatidan norozi oddiy xalq Xubilay tomoniga o'tdi, ular orasida juda ko'p jangchilar bor edi. Mo'g'ullar Sun askarlarini qo'lga olish uchun maxsus reydlar uyushtirishar, keyinchalik ularni xitoyliklarning o'zlariga qarshi urushda

ishlatishar edi.

1267 yilda Xubilayxon Sunga qarshi keng ko'lamli yurish boshladi. Chingizxonning taniqli tumanboshisi Subutoyning nabirasi Aju katta qo'shinga bosh bo'lib, Xubey provinsiyasiga bostirib kirdi va u yerdan 50 ming asir bilan 5 ming bosh qoramolni olib ketdi. Ajuni ta'qib qilgan Sun qo'shini tutqunlarni qaytarib ololmadi. Shu bilan birga, Sun davlatidan qochgan qo'mondon Lyu Chjen Xubilayga Sun imperiyasini egallashning aniq rejasini taklif qildi va u qabul qilindi. Birinchi nishon, Xubey provinsiyasidagi Syanyan va Fanchen shaharlari edi. Ularni Aju va Lyu Chjen qamal qilishdi.

Mo'g'ullar shaharlarni to'liq to'sib qo'yishdi, ammo ularda oziq-ovqat yetarli edi. Qamalchilar doimiy ravishda qo'shimcha kuchlarga muhtoj edilar. Ish shu darajaga borib yetdiki, Xubilay o'z ukasi Hulagudan toshotar ustalarni yuborishini so'rab, iltimos qilishga majbur bo'ldi. Xubilay tomonidan yuborilgan musulmon ustalar — Ismoil va Alovuddin vaziyatni to'g'ri baholab, manjaniqlarni o'rnatdilar. Bu 1273 yilda Fanchenning qulashida muhim rol o'ynadi. Mudofaachilar qo'mondoni Fan Tyan-Shun o'zini osib o'ldirdi, uning yordamchisi Niu Fu oxirigacha kurashdi va o'zini olovga tashladi. Qariyb besh yil qamalda qolgan Syanyan esa Ismoil va Alouddinning namoyishidan so'ng mo'g'ullarga taslim bo'ldi.

1274—1275 yillardagi janglar natijasida mo'g'ullar yirik g'alabalarni qo'lga kiritdilar. Jumladan, 1275 yilda Yanchjou uchun bo'lgan janglarda sunliklardan 60 ming askar o'ldirildi, yana shunchasi qo'lga tushdi, 700 ta

kema o'ljaga olindi. 1276 yilda Linyan shahri taslim bo'ldi. Yosh imperator Chjao Syan qo'lga olinib, Pekinga yuborildi. 12 yoshga to'lganida Xubilay unga ko'p mablag' berib, Tibetdagi monastirga jo'natib yubordi.

1279 yil bahorida Xubilayxon floti Yayshan oroliga suzib kelib, Sun flotini to'lig'icha yo'q qildi, Sunning yetti yoshli so'nggi imperatori dengizga cho'kib o'ldi. Shu tariqa, Sun imperiyasi 40 yillik qarshilikdan so'ng butunlay bosib olindi. Uning o'rnida mo'g'ullarning Yuan saltanati tuziladi.

Xubilayxon davlatni markazlashtirish orqali hokimiyatini mustahkamlab, o'zini mutloq monarxga aylantirdi. U o'z imperiyasini hozirgi Xitoy viloyatlaridan ikki-uch baravar katta bo'lgan «provinsiyalar»ga ajratdi va bu provinsiya boshqaruv tuzilmasi keyingi Min va Sin sulolalari uchun namuna bo'ldi. Xubilayxon boshqa ko'plab davlat va xo'jalik institutlari, xususan, soliq tizimini ham isloh qildi. U Xitoyni an'anaviy institutlar orqali boshqarishga intildi, shuningdek, Xitoy qonunlari bajarilishi uchun xitoylik maslahatchilar va amaldorlardan foydalanish kerakligini tan oldi, garchi u hech qachon ularga to'liq tayanmagan bo'lsa ham. Biroq xitoy xalqi siyosiy jihatdan kamsitildi. Deyarli barcha muhim markaziy aloqa yo'llari mo'g'ullar tomonidan monopollashtirildi.

Xubilay davrida jamiyat to'rt tabaqaga bo'lingan: mo'g'ullar, semu (musulmon turklar), shimoliy xitoylar (xanjenlar), janubiy xitoylar (nanjenlar). Xubilay Katta kanalni kengaytirish orqali Xitoy qishloq xo'jaligini yaxshilagan, yo'llar va jamoat omborlarini qurdirgan. Marko Polo uning hukmronligini ijobiy ta'riflaydi: qiyin paytlarda aholini soliqlardan ozod qilish, kasalxonalar va bolalar uylarini qurish, kambag'allarga oziq-ovqat tarqatish va hokazolar.

U ilm-fan va dinni rag'batlantirdi, Ipak yo'li bo'ylab savdoni qo'llab-quvvatladi, Xitoy va G'arb o'rtasidagi aloqalarni tikladi. Qayd etish kerakki, Xubilayxon Marko Polo bilan uchrashishdan oldin uning otasi va amakisi Nikkolo va Matteo Pololar bilan uchrashgan edi. Ular bilan suhbatlashgandan so'ng, Xubilay lotin dunyosiga, xususan, nasroniylikka katta qiziqish bildirgan va Rim papaga xat jo'natgan.

1273 yilda Xubilay «chao» deb ataluvchi banknotlarni muomalaga chiqardi. Qog'oz pullar Xitoyda Yuandan oldin ham chiqarilgan. Biroq, Sun davrida qog'oz pullar tangalar bilan birga ishlatilgan. Yuan esa qog'oz pullarni asosiy ayirboshlash vositasi sifatida ishlatgan birinchi sulola edi. Yuan banknotlari tut po'stlog'idan olingan qog'ozdan tayyorlangan.



Xubilay mo'g'ul imperiyasining qolgan uluslari ustidan nominal oliy hokimiyatga da'vo qilgan bo'lsa-da, uni faqat Xitoy qiziqtirardi. Xubilay hukmronligining boshidanoq mo'g'ullarning qolgan uchta ulusi amalda mustaqil bo'lib, faqat bittasi uni xon deb tan olgan. 1294 yilda Xubilayxon o'lganida, bu bo'linish chuqurlashdi. Shunga qaramay, Yuan imperatorlari Xitoyda hukmronligi qulaguniga qadar nominal ravishda Buyuk Xonlar nomi bilan atalganlar.

Yuan sulolasining so'nggi yillari aholi o'rtasida g'alayonlar va ocharchiliklar bilan kechdi. Vaqt o'tishi bilan Xubilayxonning merosxo'rlari mo'g'ullar imperiyasining boshqa yerlarida o'z ta'sirini yo'qotdilar. Xitoydan tashqaridagi mo'g'ullar ularni xitoylik sifatida bilishar edi. Bu davrda Yuan imperatorlarining hukmronliklari fitna va raqobatga to'la edi. Xitoy janjal va tartibsizliklar tufayli bo'linib ketdi.

Yuanning so'nggi hukmdori To'g'on Temur davrida davlat siyosati, inflyatsiya, majburiy mehnat, shu jumladan, kanal qurilishidan norozilik kuchaydi. Mamlakatda qator toshqinlar, ommaviy ocharchilik, epidemiyalar avj oldi. Bu milliy ozodlik harakatini keltirib chiqardi. 1351 yilda qizil manglaybog'lilar qo'zg'oloni boshlandi. 1356 yilda qo'zg'olon boshliqlaridan biri Chju Yuanchjan Nankinni egallab oldi va janubiy Xitoyda o'z hokimiyatini kengaytirdi.

Shimoliy Xitoyda mo'g'ul hukmdorlari o'rtasidagi o'zaro nizolar Chju Yuanchjanning e'tiborini tortdi va 1368 yilda uning qo'shinlari Pekin egalladi, To'g'on Temur xotini va saroy ahli bilan shimoliy poytaxt — Shandunga qochib ketdi. O'sha yili Chju Yuanchhan o'z poytaxtini Nankindan Pekinga ko'chirdi va o'zini Min sulolasining imperatori deb e'lon qildi. Keyingi yili u Shandunni oldi. To'g'on Temur Inchanga qochdi va 1370 yilda o'sha yerda o'ldi.

Min qo'shinlariga qarshilik ko'rsatishning alohida markazlari hali ham Yunnan va Guychjou provinsiyalarida mavjud edi. Ammo 1381 yilda ular Min qo'shinlari tomonidan to'liq mag'lubiyatga uchratildi.

Min imperiyasi. Yangi sulola ichki siyosatning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligini tiklash edi. Buning uchun soliqlar kamaytirildi, aholini

qo'riq yerlarga ko'chishi rag'batlantirildi, qullik tugatildi, sug'orish tizimini tiklash va takomillashtirishga katta e'tibor qaratildi.

Sobiq quroldoshlar va yuqori martabali amaldorlarning fitnalaridan doimo qo'rqqan Chju Yuanchjan ko'plab vazirliklarni tugatdi. Turli ma'muriyat va idoralar, harbiy qo'mondonlik islohotga uchradi. Imperator saroyiga yaqin harbiy xizmatchilar va saroy qo'riqchilaridan iborat maxfiy politsiya bo'linmasi tashkil etildi.

O'sha davrdagi tashqi siyosatning asosiy maqsadi mamlakatni mo'g'ullarning yangi bosqinidan himoya qilish edi. Shimoliy chegaralardagi janglar 1388 yilgacha davom etdi. Bir necha yil tinch bo'ldi, lekin chegara hududlarida keskinlik saqlanib qolaverdi.



Chju Di

1398 yilda Minning birinchi hukmdori o'lgach, taxtga U Szyanven o'tirdi. Yosh hukmdor Yuanchjan tomonidan ko'chkindilar va harbiylarga berilgan yerlarni davlat nazorati ostiga qaytarishga harakat qildi. Bu esa sulola asoschisining o'rtancha o'g'li Chju Dining qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Chju Di 1402 yilda poytaxtni egallab, Szyanven va uning oilasini yo'q qildi.

Chju Di o'zini Yunle nomi bilan yangi Min imperatori deb e'lon qildi. U mamlakat siyosatini tubdan o'zgartirdi. Taxtni egallaganidan bir yil o'tgach, u Pekinda Yopiq shahar — imperator saroyini qurdirtdi.

Imperator Yuan sulolasi qulagandan keyin barbod bo'lgan tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish g'oyasini qo'llab-quvvatladi. 15 yil davomida Nankinda ekspeditsiya va maishiy foydalanish uchun 2 mingta kema ishga tushirildi. Admiral Chjan Xe qo'mondonligi ostidagi birinchi ekspeditsiya 300 dan ortiq kemalar va 26 ming kishidan iborat edi.

Biroq, Yunlening bunday ekspeditsiyalari va harbiy harakatlari xazinani bo'shatdi va uzoq davom etmadi. Imperatorning diqqati faqat bitta yo'nalish — shimoliy chegaralarga, tobora kuch to'playotgan mo'g'ullarga qaratildi. Poytaxtning Pekinga ko'chirilishi ko'p jihatdan mumkin bo'lgan harbiy harakatlar joyiga yaqinroq bo'lish istagi bilan bog'liq edi.

Chju Di o'limidan so'ng shimoliy qo'shnilar Xitoyga bostirib kirdilar. Imperator Sichjen 50 minglik qo'shin bilan ularga qarshi yurdi. Bo'lib o'tgan jangda imperator qo'shini yutqazdi. Bu mag'lubiyat keyinchalik

Tum halokati nomini oldi. O‘shandan keyin mo‘g‘ul aymoqlari asta-sekinlik bilan imperiya mulklarini tortib ola boshladilar, ba‘zan Pekin chekkasiga qadar yetib borardilar.

Dengiz kuchlari ham susayib ketdi. Yunle vorislarining yolg‘izlanish siyosati qaroqchilikning kuchayishiga olib keldi. Natijada dengiz yo‘llari orqali xususiy savdo qilish qat’iyan man etildi, bularning barchasi davlat qo‘lida to‘plandi.

XVI asr oxirida Yaponiya bilan tashqi siyosiy va iqtisodiy nizolar jangovar harakatlarga aylanib ketdi. Yaponiyaning ikkita bosqini garchi hududlarni yo‘qotish bilan tugamagan bo‘lsa-da, ular Xitoy iqtisodiyotini sezilarli darajada kuchsizlantirdi.

Bir vaqtning o‘zida G‘arbiy Yevropa dengizchilari Xitoy bilan sheriklik qilishni boshladilar. Ulardan portugal Perestrelo 1516 yilda birinchi bo‘lib Guanchjouda savdo qila boshlagan edi. Biroq imperator va konservativ vazirlar savdo bitimlarini tuzishdan bosh tortdilar. Shunga qaramay, Portugaliyaning Xitoy bilan savdo qiluvchi missiyalari allaqachonlar tashkil etilgan edi. Keyinchalik ularning koloniyasi – Makaoga ham asos solindi.

Xitoydagi Min sulolasi ziddiyatli siyosiy qarorlar va tashqi savdodan voz kechish tufayli hokimiyatni saqlab qola olmadi. Bularning barchasi ichki tartibsizliklarga olib kelgan va imperiyani zaif holga keltirgan ichki siyosiy inqirozlar ustiga qo‘yildi.

Savol va topshiriqlar

1. Dehli sultonligining tashkil topish sabablarini ko‘rsating?
2. Dehli sultonligida Roziya sultonning o‘rni qanday bo‘lgan?
3. Boburiylar sulolasining Hindistondagi boshqaruvi to‘g‘risida nimalarni bilib oldingiz?
4. Sun sulolasining ijtimoiy-iqtisodiy siyosati qanday bo‘lgan?
5. Mo‘g‘ullarning Xitoydagi yurishlari yo‘nalishlarini aniqlang?
6. Min saltanatining ichki va tashqi siyosatini ko‘rsating?

III BOB. SO‘NGGI O‘RTA ASRLAR

25-§. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning ahamiyati

Buyuk geografik kashfiyotlarning sabablari. «Buyuk geografik kashfiyotlar» atamasi XV asr oxiri — XVII asr o‘rtalarida yevropalik sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan yirik geografik kashfiyotlarga nisbatan qo‘llaniladi. Geografik kashfiyotlar odamlar uchun shu vaqtgacha noma‘lum bo‘lgan yangi yerlarning qidirib topilishidir. XV asr oxiridan boshlab quyidagi omillar buyuk geografik kashfiyotlarga sabab bo‘ldi.

Birinchidan, XV asr oxiri — XVI asr boshlariga kelganda Yevropada tovar ishlab chiqarish yuqori suratlarda o‘sa boshladi. Bu esa xomashyoga bo‘lgan talabni oshirib yubordi. Yevropaning o‘zida xomashyo oz bo‘lganligi uchun uni faqat boshqa o‘lkalardan olib kelish zaruratga aylandi.

Ikkinchidan, yangi davr hukmron tabaqalarning boylikka bo‘lgan ehtiyojini yanada orttirib yubordi. Ularning ongini o‘zga yurtlarning oltin-kumushlari va boshqa qimmatbaho boyliklarini egallab olish ishtiyoqi chulg‘ab olgan edi.

Uchinchidan, quruqlikdan va O‘rta Yer dengizidan o‘tadigan savdo yo‘llari, shu jumladan, Buyuk Ipak yo‘li ham xavfli bo‘lib qoldi. Ularning ustidan nazorat Usmonli turklar qo‘liga o‘tdi. Endi yevropaliklar oldida yangi dengiz savdo yo‘llarini ochish tarixiy zaruratga aylandi. Bunga imkon beruvchi zamonaviy kemalar hamda harbiy qurollar mavjud edi. Shuningdek, dengizda kompasdan foydalanish va astrolyabiyaning yaratilganligi ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, italiyalik olim P.Toskanelli yerning dumaloqligi haqidagi ta‘limotdan kelib chiqib, dunyo xaritasini yaratganligi ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu xaritada Osiyo qit‘asi qirg‘oqlari Atlantika okeanining g‘arbiy sohillarida ekanligi belgilangan edi. Shu tufayli P.Toskanelli Yevropa qirg‘oqlaridan G‘arb tomonga suzib Hindistonga borish mumkin, deb ishonardi.

Bu davrda Yevropada ziravorlarga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bordi. Ko‘pgina ziravorlar qadimdan ma‘lum edi. Ular asosan Hindiston, Xitoy va Indoneziya kabi Sharq mamlakatlarida yetishtirilar va turli maqsadlarda foydalanilar edi. Asta-sekin ular Yevropaga ham kirib keldi. Bu yerda ziravorlar qimmatbaho mahsulot hisoblanib, bahosi oltin bilan barobar edi.

Yevropaliklarning «oltinga teng» Sharq ziravorlari o'chog'ini topish istagi Hind okeanida yangi dengiz yo'lining ochilishiga, Yangi dunyo va boshqa noma'lum yerlarning kashf etilishiga, dunyo bo'ylab birinchi sayohatning amalga oshirilishiga sabab bo'ldi.

Arablar ziravorlar o'sadigan joylar ilonlar to'dasi yoki ulkan qushlar tomonidan qo'riqlanishi to'g'risida afsonalar yaratib, bu bilan o'zlarining savdo nuqtalariga olib boriladigan yo'llarni har qanaqasiga bo'lsa ham berkitar edilar. Hech kimda bu joylarga borish istagi tug'ilmasligi maqsadida shunday yo'l tutilgan.

XIII asr ikkinchi yarmida venetsiyalik savdogar Marko Polo Xitoy va Hindistonga sayohat qilib, arablar tomonidan yaratilgan afsonalarning uydirma ekanligini bayon etdi va o'zi duch kelgan yerlarda turli xil ziravorlar bemalol o'sib yotganligini tasvirlab berdi.

XIV asrda Rim papasi katoliklarga musulmonlar bilan savdo qilishni taqiqladi, buning oqibatida savdo-sotiq o'lchami keskin tushib ketdi. Venetsiya aholisi papadan savdoni davom ettirish uchun ruxsat oldilar. Buni odamlarni davolash uchun ziravorlar zarur ekanligi bilan asosladilar. Ular ziravorlarning bir qismini Usmoniylar imperiyasidan sotib olishar, yana bir qismini esa to'g'ridan-to'g'ri Hindistondan olib kelishar edi. Venetsiyaliklar ziravorlarning narxini keskin oshirdilar. Ushbu savdo tufayli o'sha yillarda Venetsiya gullab-yashnadi va Yevropaning eng boy shahriga aylandi. Portugaliya bilan Ispaniya esa qo'shni davlatning boyligiga havas bilan qarashar edi.

1453 yilda Usmoniylar imperiyasi ziravorlar savdosining asosiy yo'llarini to'sib qo'ydi, bu yevropaliklarni Hindistonga olib boruvchi yangi dengiz yo'llarini izlashga majbur qildi.

Amerikaning kashf etilishi. Buyuk geografik kashfiyotlar davrining eng buyuk yangiligi shubhasiz Amerikaning ochilishidir. Bu ishni Xristofor Kolumb (1451—1506) amalga oshirdi. Portugaliya qirg'oqlarida kema halokatidan omon qolgan Kolumb shu yerda qolib, dengizchilik ilmini o'rgandi. G'arb tomonga suzib Osiyo qirg'oqlariga yetib borish fikri shu yerda tug'ildi. 1485 yilda bu fikrni u qirolga taqdim etdi va rad javobini oldi. Shundan so'ng u Ispaniyaga borib o'z g'oyasini amalga oshirish uchun 7 yil ruxsat kutdi. Nihoyat, qirol uni qabul qilib, u bilan shartnoma tuzdi. Unga ko'ra, agar muvaffaqiyat qozonilsa, X.Kolumb yangi ochiladigan yerlarning hukmdori, vise-qirol va admiral unvonini olishi, barcha daromadlarning 1/10 ga egalik qilishi, ekspedisiya chiqimlarining 1/8 qismini va savdo chiqimlarining ham 1/8 qismini to'lashi kerak bo'lar edi.



Xristofor Kolumb

1492 yil 3 avgustda Xristofor Kolumb «Pintya», «Ninya» va «Santa-Mariya» kemalari bilan Palos portidan dengiz sayohatiga chiqdi va 3 kundan so‘ng Kanar orollaridan o‘tib ochiq okeanga qarab yo‘l oldi.

Ta’kidlash lozimki, ekspeditsiyaning muvaffaqiyatiga deyarli hech kim ishonmagan, kemalar ekipajini to‘plash ham juda qiyin kechgan edi. Kolumb bu ekspeditsiyada itliyalik olim Paolo Toskanellining dunyo kartasini asos qilib olgan edi. Toskanelli yer ekvatori uzunligini xato tasavvur qilib, 12 ming kilometr ga yangilishgan edi. Keyinchalik bu xato — buyuk yangiliklarga olib keldi.

X. Kolumbning birinchi suzishi omadli deb sanaladi. Yo‘lovchi shamol 2 hafta davomida esib turgan, 16 sentabrda ko‘plab suv o‘tlariga duch kelganlar. Lekin bu Sargass dengizining boshlanishi bo‘lib, quruqlikka hali bor edi. Ekipaj orqaga qaytishni talab qila boshladi. 7 oktabrda suv qushlariga duch kelgan Kolumb dengizchilarni yana quruqlik yaqinligiga ishontiradi va qushlarga ergashib kemalarni janubi-g‘arbga buradi. Bu ham omadli fikr edi, chunki oldingi yo‘nalishda ular Golfstrim oqimiga tushib qolgan bo‘lar edilar.

Nihoyat, 1492 yil 12 oktabr kuni kechasi kemalardan birining machtasi ustidan matrosning «Yer!», «Yer!» deya baqirgan ovozi eshitildi. Ertasiga kemalar kichik bir orol yoniga kelib to‘xtadi. Kolumb qirg‘oqqa Ispaniya bayrog‘ini tikib, orolni qirol mulki deb e‘lon qildi. Bu Bagam orollari edi. Osiyoning sharqiy qirg‘oqlariga yetganiga shubha qilmagan Kolumb janub tomonga Yaponiyani izlab suzib ketdi. Kuba, Gaiti va yana bir qancha orollarni kashf etdi. Gaiti orolini Espanyol deb atab, ispan koloniyasini barpo qildi. Gaiti qirg‘oqlarida o‘zining eng katta kemasidan ayrilgan Kolumb dengizchilarning bir qismini yangi qurilgan Navidad fortida qoldirib, o‘zi Ispaniyaga qaytdi.

1493 yilda Kolumbga Dengiz-okeanlar admirali degan unvon berildi va to‘xtovsiz ikkinchi ekspeditsiyaga tayyorgarlik ko‘rila boshlandi. Yangi yerga ishchilar, ruhoniylar, dehqonlar ham olib ketilishi kerak edi. 1493 yil 11 oktabrda 17 ta kema yo‘lga chiqdi. Bu gal yo‘nalish janubroqdan olindi va Antil orollariga yetib kelindi. Kolumb katta yerni izlab Karib havzasidagi orollarni kashf qildi va ispan koloniyasiga qo‘shib oldi. 1496 yilda Ispaniyaga qaytgan Kolumb oldiga oltin va ziravorlar topish vazifasi

qo'yildi. Shu tariqa, uchinchi ekspedisiya davrida Trinidad va Tobago orollari kashf qilindi.

Ammo oltin va ziravor topilmaganligi uchun Kolumb qamoqqa olinib, Ispaniyaga jo'natildi. 1500 yilning oxirida oqlandi va 1502 yilda 4-ekspedisiyaga otlandi. Endi Markaziy Amerika qirg'oqlariga yetib borildi va 2 ming km. masofadagi qirg'oq chiziqlari aniqlandi. Lekin oltin kam topildi, ziravorlar esa umuman yo'q edi. Tasalli sifatida u o'sha yerda o'sgan bir necha yangi ziravorlarni — chili qalampiri, xushboy murch hamda vanilni olib keldi. X. Kolumbning safarlari juda katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, ispan qirolligi uchun katta boylik olib kelmadi. Kolumb barcha unvonlaridan mahrum qilinib, 1506 yilda qashshoqlikda vafot etdi.

Yangi qit'a kashf qilinganini Kolumb umrining oxiriga qadar bilmagan. O'zi ochgan yerlarni Hindiston, uning aholisini «hindular» («indeyeslar») deb atadi. Shu sababdan Amerikaning ko'plab tillarda gaplashadigan, turli nomdagi qabilalarini «indeyeslar» deb atash udum bo'lib ketdi.

Yangi qit'aning Amerigo Vespuchchi nomi bilan atashni 1507 yili nemis kosmografi Martin Valdzemyuller «Kosmografiyaga kirish» asarida taklif etgan. Bu bilan u X. Kolumbning xizmatlarini yo'qqa chiqarmoqchi emas edi. Uning taklifi italyan savdogari Amerigo Vespuchchining maktublariga asoslangan va u Kolumbni chindan ham Osiyo qirg'oqlariga yetib borgan deb o'ylagan. Vespuchchi esa o'z maktublarini 1497—98 yillar sanasi bilan belgilagan. Lekin u aslida 1502—1503 yillarda sayohat qilib, Janubiy Amerikaning sharqiy qirg'oqlari bo'ylab Rio-de Janeyrogacha suzib borgan va Osiyo to'g'ridagi tasavvurlar bilan solishtirib, bu hududlarning aslida yangi yerlar ekanligini e'tirof etgan hamda Yangi Dunyo deb atashni taklif etgan edi. Nemis olimining taklifi bilan yangi qit'a Amerika deb atala boshlandi. 1515 yilda Yangi Dunyo «Amerika» deb atalgan birinchi globus Germaniyada yaratildi. 1569 yildan esa boshqa xaritalarda ham Kolumb ochgan yerlar «Amerika» deb yoziladigan bo'ldi. Kolumbning nomi Kolumbiya davlatiga, AQSH okruglaridan biriga, ko'plab shaharlarga, universitetga, tog', daryo va hatto osmonni o'rganish markazlaridan biriga qoyildi.

Vasko Da Gamaning Hindistonga sayohati. Vasko da Gama (1469—1524) Portugaliyada aristokratlar uyida tug'ilgan. Otasi Ishtevan da Gama Silvish shahrining sudyasi va keyinchalik shahar hokimi bo'lgan. Vasko yoshligidanoq harbiy harakatlarda faol qatnashib o'zini tajribali, botir va dovyurak jangchi ekanligini ko'rsatgan.

1492 yilda Gvineyadan oltin bilan qaytayotgan portugal kemalarini fransuz qaroqchilari (korsarlari) qo'lga olishadi. Portugaliya qiroli Manuel I esa fransuzlardan kemalarni boyliklari bilan birga qaytarib olib kelishni Vasko da Gama buyuradi. Kuchli dengizchi Fransiya qirg'oqlariga borib, ularning bir qancha kemalarini garovga oldi. Shu voqea sabab Fransiya qiroli portugal kemalarini qaytarib berishga majbur bo'ldi. Vasko da Gama butun Portugaliyada ulug' kishiga aylandi.




Vasko da Gama

XV—XVI asrlarda Portugaliya Yevropaning taraqqiy etgan mamlakatlaridan biri hisoblangan. Mustamlaka yerlarni topish, ularni sanoqsiz boyliklari bilan davlat xazinasini to'ldirish ishtiyoqi Ispaniya va Portugaliya qirolliklarini yangi ekspeditsiyalarni tashkil etishga undadi. Portugaliya dengizchilari Afrika qirg'oqlari bo'ylab janub tomonga yo'l qidirishgan. Shunday ekspeditsiyalardan biriga Vasko da Gama boshchilik qilgan.

1497 yili tarkibi «San-Gabriel» «San-Rafael» «San-Mixael» va «Berrid» kemalari, 168 nafar dengizchi va eng og'ir ishlarni bajarish uchun 10 ta tutqundan iborat ekspeditsiya Lissabon portidan yo'lga chiqdilar. Sayohat uch yilga mo'jallanib, shunga yetarli oziq-ovqat zaxirasi, jangovar qurollar va mahalliy xalq bilan almashtirish maqsadida arzon kiyim kechaklar olindi.

Portugal kemalari Afrika qirg'og'lari bo'ylab janub tomon suzishdi. Kanar orollarini orqada qoldirib, Yashil burun orollarida to'planishdi. Janubdan esayotgan kuchli qarshi shamollar dengizchilar harakatini ancha qiyinlashtirdi. 1497 yilning noyabrida 93 kunlik tinimsiz suzish natijasida Afrikaning janubiy qirg'oqlariga yetib bordilar. Dengizchilar tubjoy xalq bo'lgan bushmenlar bilan aloqa o'rnatib, kiyim-kechak evaziga oziq-ovqat olishadi. Shundan keyin Afrikaning janubiy nuqtasi bo'lgan Umid burnidan o'tib, qirg'oq bo'ylab shimol tomon harakatlanishdi. Ammo, oziq-ovqat yetishmovchiligi va bir xilligidan ekipaj a'zolari orasida singa kasalligi tarqaladi. Ekspeditsiya a'zolarini ichimlik suvi va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash yanada qiyinlashdi.



1498 yilning 2 martida portugallar Mozambikka, 7 aprel kuni Mombasa shahriga, 14 aprelda Malindi portiga yetib keldilar. Faqat Malindida mahalliy arab shayxi gʻayridinlarga yordam berishga rozi boʻldi, ularni oziq-ovqat bilan taʼminlaydi va Hindustonga olib boradigan yoʻlni biladigan yoʻlboshchi beradi.

Malindidan yoʻlga chiqqan Vasko da Gama 1498 yilning 20 mayida Hindustonning Kalikut shahriga yetib

keldi. Bu esa Afrika boʻylab qilingan mashaqqatli sayohat tugaganligi, boy va ertaksimon Hindustonga toʻgʻridan-toʻgʻri yoʻl ochish orzusi chinga aylanganidan dalolat berar edi. Vasko da Gama Afrika qirgʻoqlarining toʻgʻri shaklini birinchi boʻlib kartaga tushirgan va Hindiston yarim orolini oʻrab turgan suvlar ichki suvlar emas, balki bitta okeanga tegishli ekanligini isbotladi.

1499 yilning sentabr oyida tirik qolgan ekspedisiya aʼzolaridan 55 nafari Hindistondan qimmatbaho yuk — qora murch, muskat yongʻogʻi, chinnigullar, doljin, zanjabilni yuklab olib, Lissabonga qaytib kelishdi. Ekpeditsiya juda omadli kechdi. Hindistondan olib kelingan tovarlar safarga ketgan chiqimdan 60 baravar koʻp daromad keltirdi. Qirol unga aristokratlarga xos boʻlgan «don» unvonini hamda 1000 kruzadu (Portugaliya tangasi) miqdorida pensiya tayinladi.

3 yildan soʻng, Vasko de Gama Hindistonga yana bir katta ekspeditsiyani uyushtirdi. U ham muvaffaqiyatli yakunlandi, bu safar 2000 tonna ziravorlarni olib keldi.

Fernando Magellanning dunyo aylana sayohati. Amerigo Vespuchchining X.Kolumb kashf qilgan yerlar yangi qitʼa ekanligi togʻrisidagi taxmini Fernando Magellanning (1480—1521) dunyo aylana birinchi sayohatida toʻla tasdiqlandi. Yangi ochilgan yerlardan koʻzlangan boyliklarni ololmagan ispan qirollari Magellanning Hindistonga Gʻarbiy dengiz yoʻlini ochish loyihasini qoʻllab-quvvatladilar.

Dovyurak va tajribali dengizchi Magellan oʻzining «Trinidad», «San-Antonio», «Konsepsion», «Viktoriya» va «Sant-Yago» nomli kemalardan iborat floti va 250 nafar dengizchi bilan 1519 yilning 20 sentabrda San-Lukar portidan dengizga chiqdi. Bu kemalarga ikki yilga yetadigan oziq-ovqatlar gʻamlab olingandi.



Fernando Magellan

Magellanga berilgan kemalar ta'mirlashdan keyin ham talabga to'liq javob beradigan holda emasdi. Portugaliyaning Ispaniyadagi elchisi o'z qiroliga Magellan ekspedisiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchrashi muqarrar, deb yozgan edi. Magellan kemalarga portugaliyalik yurtdoshlaridan ruxsat berilgan 5 kishi o'rniga 37 kishini olishga muvaffaq bo'ldi.

Sayohatning boshidayoq juda og'ir sinovlarni yengib, 60 kunlik tinimsiz yomg'irlardan so'ng kemalar 1519 yil 13 dekabrda Rio de Janeyro qo'ltig'iga kirdi.

1520 yilning 31 mart kuni hozirgi Argentinadagi San-Xulian buxtasida qishlash uchun qo'nadi.

Qishlovga to'xtagan ekspedisiyada birinchi marta qo'zg'olon ko'tarildi. Unda uchta kemandagi kapitanlari qatnashdi. Qo'zg'olonga Magellanning oziq-ovqat miqdorini kamaytirishi sabab bo'lgan edi. Isyon bostirildi. Kapitanlardan Luis de Mendosa va Gaspar de Kesadalar qo'zg'olon bostirilishi bilan darhol o'ldirildilar, uchinchi kapitan Kartaxena bilan fitnada qatnashgan ruhoniylar Sanches de Reyn shu yerga tashlab ketildi.

Magellan ekspedisiyasi 1520 yil 21 oktabrda janubiy kenglikning 52-darajasida keyinchalik uning nomiga qo'yilgan qo'ltiqqa kirdi. Ekspeditsiyaning Janubiy dengizga yo'l olgan kemasida 1 noyabr kuni Estevan Gomes boshchiligidagi bir guruh dengizchilar isyon ko'tarib, Magellanning sodiq safdoshi «San-Antonio» kapitani Alvaro de Meskituni qo'lga olib, asosiy oziqa zaxirasi bilan Ispaniyaga yo'l oldilar. Qaytib kelganlar Magellanga tuhmat-bo'htonlar yog'dirdilar. Qirol hukumati esa bunga ishonib Magellanning qaynotasi va xotinini sazoyi qildirdi.

Bu paytda dovyurak Magellan o'z maqsadi tomon ishonch bilan bormoqda edi. Bo'g'ozdan 38 kun suzgan kemalarning chap tomonida doim hindular gulxanlari olovi va tutuni ko'rinib turardi. Natijada dengizchilar bu yerlarni «Olovli yer» deb atadilar. Nihoyat, bo'g'ozdan chiqishgach, qarshilarida yana bir okean borligi ma'lum bo'ldi. Kemalar shimolga qarab yo'l o'ldi. To'rt oy davomida hech qanday dovullarsiz olg'a suzishdi. Shu bois sayohatchilar uni «Tinch okeani» deb atadilar.



Dengizchilar keyingi 110 kun davomida qurtlagan non ushoqlarini yeb, sassiq suvni ichishga majbur bo'ldilar. Kemalarda kalamushning narxi qimmat bo'lgan, dengizchilar kemanding charm qoplangan joylarini olib qaynatib ichishgan. Dengizchilarning ko'pchiligi singa kasaliga chalinib o'lishgan.

Mashaqqatli suzishdan keyin 1521 yilning 6 martida ekspedisiya a'zolari Marian arxipelagi orollaridan biriga tushdilar. O'n kundan so'ng kemalar Filippin orollariga kelib tushdi. Magellanning Sumatra orolida tug'ilgan quli Enrike yerli aholi bilan so'zlashib, tug'ilgan joyiga kelganligini anglab yetdi. Enrike o'z yurtidan sharq tomonga chiqib unga g'arbdan qaytib kelgani ma'lum bo'ldi.

1521 yil 27 aprelida Maktan oroli aholisini Ispaniya qiroli vassallariga aylantirish uchun qilingan urushda Magellan o'ldirildi. Ekspedisiyadagi ikki kema Xuan Sebastyan Elkano boshchiligida Molukka arxipelagiga yetib borib, ziravorlar sotib oldi va ikki yo'nalishda Ispaniyaga qaytishga qaror qilishdi. «Trinidad» deb atalgan kema Tinch okeani, Xuan Elkano boshchiligidagi «Viktoriya» kemasi Hind okeani orqali qaytmoqchi bo'ldi. Ortiga qaytgan «Trinidad» kemasi portugallar tomonidan qolga olindi, tovarlari musodara qilindi, komanda qamoqqa tashlandi. «Viktoriya» esa portugal kemalaridan yashirinib, janubroqdan suzdi va Hind okeanini kesib o'tib, 1522 yil 8 sentabrda 18 nafar kasal dengizchi bilan Ispaniyaga yetib keldi.

Dunyo bo‘ylab qilingan birinchi sayohat Yerning shar shaklida ekanligini uzil-kesil isbotladi. Yangi qit‘aning janubiy qirg‘oqlari aniqlandi.

Mustamlakalarning bosib olinishi.

Buyuk geografik kashfiyotlar yangi yerlarni mustamlakaga aylantirish bilan birga olib borildi. Endilikda ochilayotgan yerlarga yangi toifadagi kishilar, harbiylar, savdogarlar, ruhoniylar yo‘l olishdi. Ularning maqsadlari boylik orttirish va egallangan yerlarda hukmronlik qilish edi.



Ispan konkistadorlari

Ispanlar o‘zlarining XV—XVI asrlardagi yangi yerlarni egallash harakatlarini **konkista** (isp. «egallash») va uning qatnashchilarini **konkistadorlar** deb atashgan. Konkistadorlarning oz sonli otryadlari yirik davlatlar va qabilalarni o‘zlariga bo‘ysundirdilar yoki yer yuzasidan yo‘q qilib yubordilar.

XV—XVI asrlar chegarasida Kolumb va izdoshlari tomonidan Yukatan yarim orolidan janubiy tropikkacha bo‘lgan qirg‘oq chiziqlari aniqlangan edi. 1510 yilda Alonso de Oxeda Uraba qo‘ltig‘ining sharqiy qirg‘og‘ida San-Sebastyan qo‘rg‘onini qurishi quruqlik ichkarisiga kirib borishga yordam berdi. Oxeda hindularni qul qilmoqchi bo‘ldi, lekin qattiq qarshilikka duch keldi. Qo‘rg‘on yashash uchun noqulay yerga qurilgan edi.

Alonso de Oxeda Espanyolga (Gaiti) jo‘nab qaytmagach, Vasko Nunyes de Balboa bu yerni tashlab, Oltin Kastilya (Panama bo‘yni) ga ko‘chishni taklif qiladi. Balboa hindularga bosqin qiladi. Taslim bo‘lgan va oltinlarni topshirgan urug‘larni omon saqlab qoladi. Yurishlar paytida Balboa ulkan tog‘lar ortidagi dengiz va inklar haqida eshitadi.

1513 yilda u 190 ta ispan va 25 ta hindu hamrohligida yo‘lga chiqib, Tinch okean (Janubiy dengiz) qirg‘oqlarigacha yetib bordi. Uning bu kashfiyoti ispanlarga yangi imkoniyatlarni ochib berdi. 1517 yilda Fransisko Ernandes de Kordoba 3 ta kemada Yukatan yarim orolining shimoliy va g‘arbiy qirg‘oqlarini tekshirdi. Bu hududda topgan oltinlar ularga yana g‘ayrat bag‘ishladi.

Yangi ekspeditsiyaga Xuan de Grixalva boshchilik qildi. Ular o‘zlari eshitgan oltinga boy Mexiko tomonga yaqinlashganlarida asteklar hukmdori Montesumaning elchilari oldiga chiqib, ispanlarning buyumlarini oltinga almashtirishdi. Ispanlar asteklarning ulkan

piramidalarini ilk bor ko‘rishdi. Ularning olib kelgan oltinlari Kuba gubernatori Diyego de Velaskesni Ernán Kortes boshchiligida ekspedisiya jo‘natishga qiziqtirdi.

Kortes 1519 yilda ilk bor quruqlik sayohatini amalga oshirdi. 400 askar, 15 otliq va 6 ta to‘p bilan katta davlatni bo‘ysindirdi. U Tenochtitlanga kirib borib, Montesumani qo‘lga oldi, hindular qo‘zg‘olon ko‘targach, uni o‘ldirib ittifoqdosh hindular yordamida asteklarni yengdi.


1530 yilning 27 dekabrda Fransisko Pizarro 180 kishi bilan Panamadan janubga suzib, Ekvator chizig‘ida qirg‘oqqa tushdi. Peruga uyushtirilgan bu safar birinchisi emas edi. Oldin ham Pizarro bir necha bor inklar davlatiga yaqin kelgan edi. Ayni davrda inklar davlati ichki urushlar tufayli kuchsizlanib qolgan edi. Pizarro inklar podshosini qo‘lga olib, bir uy to‘la oltinga almashtirishga rozi bo‘ldi. Ammo va‘dasida turmay uni o‘ldirdi va inklarni tor-mor qildi. Ispanlar 1532—33 yillar davomida Peru, Ekvador va Kolumbiya yerlarini egallab olishdi. Bundan keyingi yillar davomida to‘xtovsiz yurishlar qilib And tog‘larining janubiy qismlarini ham egalladilar. Materikda faqat araukan qabilasigina ispanlarga bo‘ysinmadi.

Ispanlarning yurishlari ko‘proq qirg‘oqqa yaqin yerlar edi. Lekin 1541 yilda Fransisko de Orelyano Napo daryosidan suzishni boshlab, Amazonkaning quyilish qismigacha yetib bordi.

Janubiy va Markaziy Amerikadan misli ko‘rilmagan boyliklarga ega bo‘lgan Ispaniya Yevropadagi eng boy davlatga aylandi. Ispanlar va portugallar 1494 yilda Rim papasining farmoniga suyanib barcha yangi yerlarga o‘z egalik huquqlarini da‘vo qilishar, lekin Angliya, Fransiya va Gollandiya buni tan olmas edi. Ularning qaroqchi kemalari oltin ortilgan ispan va portugal kemalarini egallab, boyliklarini tortib olar edi. Ingliz Frensis Dreyk yangi yerlardagi ispan punktlariga bosqin qilish orqali shuhrat qozondi. U inglizlardan birinchi bo‘lib, Janubiy Amerikani janubdan aylanib o‘tdi va Tinch okean qirg‘oqlaridagi ispan kemalariga ortilgan oltinlarga ega bo‘ldi. Uni tutmoqchi bo‘lgan ispan va portugal kemalaridan qochib, 48-daraja shimoliy kenglikkacha bordi, shundan so‘ng g‘arbga burilib, Tinch va Hind okeanlarini kesib o‘tib, Angliyaga qaytib keldi. U Shimoliy Amerikaning g‘arbiy qirg‘oqlarini ochdi va ikkinchi bo‘lib Yer shari bo‘ylab sayohatni amalga oshirdi.

XVII asrda ham geografik kashfiyotlar amalga oshirildi. Ispan dengizchisi Luis Vaes de Torres boshchiligidagi ekspeditsiya Janubiy yerni topishga intilib, 1605 yili Avstraliyani kashf etdi. 1614 yilda Luis Torres Yangi Gvineya va Avstraliya o'rtasidagi bo'g'ozni ochdi. Ushbu suzishlar bilan ispanlarning geografik kashfiyotlar davri tugadi.

Gollandiyadagi Ost-Indiya kompaniyasi Zond orollarini 1602 yilda egallab oldi. Abel Tasman ekspeditsiyasi 1642 yil Tasmaniya (Van-Dimen yeri), Yangi Zelandiya, Tonga va Fidji orollarini ochdi. Tasmanning 1644 yildagi ekspeditsiyasi Keyp-York yarim orolidan shimoli-g'arbiy burnigacha 5500 km qirg'oqbo'yini kartaga tushirdi.



Semyon Dejnyov

Ruslarning geografik kashfiyotlari Sibirning o'zlashtirilishi va Shimoliy Muz okeani qirg'oqlarini aniqlash bilan bog'liqdir. XVI—XVII asrlarda ruslar Sibirni o'zlashtirib, Uzoq Sharqqacha yetib bordilar. Bu ochishlarning eng buyugi Semyon Dejnyovning 1649 yilgi yurishi bo'lib, unda Osiyo va Amerika o'rtasidagi bo'g'oz topilgan edi.

Buyuk geografik kashfiyotlar ilm-fan uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning natijasida geografiya, tarix, etnografiya va okeanshunoslik fanlari yangi xulosalar, ma'lumotlar bilan boyidi. Bundan tashqari, bu kashfiyotlar tufayli yangi dengiz savdo yo'llari ochildi. Bu yo'llar O'rta Yer dengizidan Atlantika okeaniga ko'chdi. Bu esa, o'z navbatida, jahon savdosini vujudga keltirdi.

Savol va topshiriqlar

1. Buyuk geografik kashfiyotlarning sabablarini ko'rsatib bering?
2. Amerika qanday qilib kashf etildi?
3. Nima uchun Kolumb ochgan yerlarini Hindiston deb o'yladi?
4. Vasko Da Gamaning Hindistonga sayohati haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. F.Magellanning dunyo aylana sayohatining ahamiyatini aniqlang?
6. Avstraliyaning kashf etilishi haqida ma'lumot bering?

26-§. XVI—XVII asr birinchi yarmida Angliya

XVI asrda Angliyaning iqtisodiy rivojlanishi. XVI asrda Angliya hudud jihatidan kichik bir mamlakat edi. Shotlandiya hali Angliya qirolligi tarkibiga qo'shilmagan edi. Angliya va Irlandiya yerlari XVII asrning so'nggi o'n yillariga qadar uncha ko'p emas edi. Irlandiyadagi jamoa yo'lboshchilarining ko'pchiligi ingliz qirolining hokimiyatini nomigagina tan olardi, xolos. Angliya aholisining soni Fransiya, Germaniya yoki Ispaniyadagidan bir necha marta kam edi. Fransiyada 15 million, Germaniyada 20 million, Ispaniyaning esa 10 million aholisi bo'lgani holda, Angliya aholisi salkam 3 million edi. XVII asrning boshlarida Angliya aholisi Shotlandiyani hisobga olmaganda, 4 million kishiga yetdi.

XVI asrda Angliyani shaharlar mamlakati deb bo'lmas edi. Undagi aholining ko'pchiligi qishloqlarda yashardi, hatto XVI asrning oxirida aholining ko'pi bilan beshdan bir qismigina shaharlarda yashardi (XVI asr boshida esa shaharliklar mamlakat butun aholisinnng faqat 10 foizini tashkil qilardi). Bu jihatdan Angliya Niderlandiyaning tamomila aksi edi. Chunki Niderlandiya asosan shaharlar mamlakati bo'lib, unda qishloq aholisi ozchilikni tashkil qilardi.

Ammo Yevropaning bir chekkasidagi orolda joylashgan bu mamlakatda XVI asrda xo'jalikning kapitalistik ko'rinishlari g'oyat jadal rivojlanib bormoqda edi. Kapitalizm xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida, shu jumladan sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, dengiz kemachiligida ham katta muvaffaqiyatlar qozonmoqda edi. XVI asr Angliya uchun kapitalistik manufakturaning gullab-yashnagan, agrar o'zgarish boshlangan, ingliz savdogarlari okeanlarni keza boshlagan, dengizda hukmronlik qilish uchun kurash boshlangan davr edi.

Angliya xalq xo'jaligining yuksalishi va uning kapitalistik asosda qayta qurilishiga ikkita tarixiy omil yordam berdi:

1) Buyuk geografik kashfiyotlar va buning natijasida Angliya Eski Dunyo bilan Yangi Dunyo o'rtasidagi yangi jahon yo'llarining markazi bo'lib qolganligi hamda o'zining dengiz mamlakati sifatidagi afzalliklaridan foydalanish imkoniga ega bo'lganligi edi;

2) Angliyada feodalizmning yemirilishi — krepostnoy huquqning tugatilganligi, movut hunarmandchiligining rivojlana boshlashi, mamlakatning siyosiy jihatdan juda tez markazlashuvi, quyi feodal tabaqalari (ritsarlar va jentrilar)ning tashkil topayotgan burjuaziya bilan XIII asrdayoq yaqinlasha boshlaganligidir.

Movut ishlab chiqarish Angliyada yuksak darajaga yetdi. Aholining yarmidan ko'prog'i shu sohada band edi. Movut to'qish bilan shaharlardagina emas, qishloqlarda ham ko'p shug'ullanardilar. Angliyaning barcha burchaklarida turli xil, jumladan, a'lo sifatli mayin movut ishlab chiqaradigan mahalliy hunarmandchilik markazlari vujudga keldi. Qishloqlarda to'qilgan movut odatda dag'al, oxorlanmagan va bo'yalmagan bo'lardi. Keyin ularning bir qismi Angliya shaharlariga olib kelinib ishlov berilar, bir qismi esa yarim fabrikat holida Niderlandiyaga jo'natilib, Flandriya va Brabantda tayyor holga keltirilar edi. Chetga chiqariladigan oliy nav va dag'al movut XVI asrning 60 yillarida butun ingliz eksportining 80 foizidan ko'prog'ini tashkil qilardi.

XVI asrdagi Angliyada sanoatning boshqa tarmoqlaridan konchilik, temir, qalayi, qo'rg'oshin, mis qazib chiqarish ancha rivojlandi. Metall quyish ishlari oshib borganligidan o'rmonlar kesila boshlandi. O'sib borayotgan kemasozlik tarmog'iga ham juda ko'p yog'och kerak edi. Nihoyat, Angliyada ishlab chiqarishning o'rta asrlarda bo'lmagan, asosan, manufaktura tipidagi yangi turlari: shisha sanoati, sovun pishirish, porox tayyorlash, qog'oz ishlab chiqarish, bosmaxona ishi va boshqalar tez rivojlanib bormoqda edi.

Bu davrda Angliyada toshko'mir qazib chiqarish yo'lga qoyildi. Biroq toshko'mirdan uy-joy binolarini isitish uchungina foydalanilardi, yoqilg'i yordamida ruda eritishni hali bilishmasdi.

Angliya o'z sanoatining taraqqiyoti natijasida juda ko'p tovarga ega bo'lib, tashqi savdo-sotiq ishlarini keng ko'lamda rivojlantirib yubordi. Yevropaning turli bozorlarini, shuningdek, mustamlakalarni ham movut bilan ta'minlashni ingliz savdogarlari o'z qo'llariga oldilar.

Dengizorti mamlakatlari bilan olib borilgan savdo-sotiq ishlarining ko'lami XVI asr davomida paydo bo'lgan ingliz savdo kompaniyalarining tarixi yaqqol ko'rsatib turadi. Bular orasida Moskva kompaniyasi, Metlandiya (yoki Ostzey) kompaniyasi, O'rta dengizda savdo ishlari olib borish uchun Turk (yoki Levant) kompaniyasi tashkil topdi. Taxminan shu vaqtlarda Gvineya va Ost-Indiya kompaniyalari ham vujudga keldi.

Agrar o'zgarishlarning boshlanishi. XVI asrga kelib Angliyada krepostnoy huquq to'liq yo'qoldi. Bir paytlar krepostnoy bo'lgan dehqonlar voris bo'lib yerga egalik qiluvchi dehqonlarga aylandilar. Dehqonlar oddiy yer egalari yoki **kopigolderlar** (copuhalders) deb atalardilar. Chunki ular o'zlarga berilgan yer uchun **kopiya** (manorial kanselyariya qaroridan nusxani) o'z qo'llarida saqlardilar. Kopigolderlar bir vaqtlar bitimda ko'rsatilgan va qat'iy bo'lib qolgan odatga muvofiq

lordlarga muayyan miqdorda yer rentasi to'lashlari lozim edi. Qishloqda tovar-pul munosabatlari o'sib borayotgan bir sharoitda bunday «aniq» va muayyan miqdorda renta to'lash nisbatan boy dehqonlar uchun juda foydali edi. Ko'pgina tarixchilar XV asrni ingliz dehqonlari uchun «oltin davr» deb ataganliklari bejiz emas edi.

Ammo XV asr oxirlaridan boshlab ingliz dehqonlari uchun katta xavf, o'zlariga tegishli haydaladigan yerlardan, shuningdek jamoat yaylovlaridan ajrash xavfi tug'ila boshladi. Jun narxining oshib borishi katta yer egalarini mayda qismlarga bo'linib ketgan yerlarni o'z qo'llariga kiritib, ularni burjua tipidagi mulklarga aylantirishga undadi. Shu maqsadda lordlar oldiniga Angliya sharoitida jamoalarga qarashli ko'pgina yerlarni, ya'ni turli xil o'rmonlar orasidagi yalangliklar va hokazolarni o'z qo'llariga kiritib oldilar. Bu yerlar shu paytgacha lordlar bilan dehqonlarning qaramog'ida edi. Yer egalari o'zlari bosib olgan bu yerlarga qoziqlar qoqib, chuqurlar kovlab, daraxtlar o'tqazib va boshqa turli yo'llar bilan to'sib olardilar. Shuning uchun lordlarning dehqonlarini yerdan mahrum etish jarayoni «**g'ov tutish**» deb ataldi. G'ov tutish aslida ijtimoiy-iqtisodiy bo'lib, dehqonlarga tegishli yerlarning yirik mulkdorlar — lordlar tomonidan tortib olinishi edi.

G'ov tutishlar natijasida ko'plab qishloqlar tamomila yo'q bo'lib ketardi. Bir necha o'n minglab dehqon oilalari tirikchilik vositalaridan mahrum bo'lib, o'z joylarini tashlab, daydi va gadoy bo'lib ketishga majbur edilar.

1489 yildayoq chiqqan parlament statutlaridan birida shunday deyilgan edi: «Bizning qirolligimizda dehqonlarning uylari va butun-butun qishloqlarning bo'shab qolishi va butunlay buzib yuborilishi tufayli nihoyatda zo'r kulfat kundan-kunga ortib bormoqda. Oldindan dehqonchilik uchun foydalanib kelingan ekinzorlar endilikda yaylovlarga aylantirilmoqda. Bir vaqtlar 200 kishi g'alla ekib, dehqonchilik qilgan yerlarda endi 2—3 ta podachi qolgan».

Tomas Mor o'zining 1516 yilda bosilib chiqqan «Utopiya» degan asarida istehzo bilan: «Sizning odatda juda yuvvosh bo'lgan qo'ylaringiz... hozir shu qadar yeb to'ymas va sarkash bo'lib ketishibdiki, hatto odamlarni ham yeb qo'ymoqdalar», degan edi.

Tyudorlar hukumati (1485-1603) g'ov tutishlar oqibatidan qo'rqib qoldi. Yalpi qashshoqlik va daydilik mulkdorlarning tinchini buzdi. Mamlakatda xususiy mulkka qarshi jinoyatlar ko'paydi. Dehqonlarning lendlordlarga qarshi achchig'i va nafrati oshmoqda edi. G'ov tutuvchilarga nisbatan turli grafliklarda tez-tez qo'zg'olonlar sodir bo'ldi. Hukumat g'ov

tutishlarning keng yoyilib ketishi davlat xazinasini va harbiy ishlarga ham katta zarar keltirishidan xavotir olib qoldi. Singan dehqonlar soliq to'lay olmas edilar. Dehqonlar sonining kamayishi mamlakatning qo'shin to'plash ishiga ham putur yetkazardi. Hukumat 150 yildan ortiqroq vaqt ichida (XV asr oxiridan deyarli XVII asr o'rtalarigacha) g'ov tutishlarga qarshi juda ko'plab hujjatlar chiqardi. Genrix VII tomonidan 1489 yilda chiqarilgan statut (qonun)da loqal 20 akrdan ortiq yeri bo'lgan dehqon mulklarida g'ov tutish va uylarini buzish taqiqlangan edi. 1516 yilda Genrix VIII chiqargan statutda **konversiya**, ya'ni ekinzorlarni yaylovga aylantirish man qilingan edi. Genrix VIII ning 1533 yilgi qonunida esa, bir mulkdorning asraydigan qo'yi 2 ming boshdan ortmasligi ko'rsatilgan edi.

1597 yilda qirolicha Yelizaveta chiqargan farmon dehqonlarning buzib yuborilgan uylarini tiklash va barcha g'ov tutishlarni to'xtatish haqidagi talablarni takrorlagan edi. Hukumat g'ov tutishlarni tekshirish uchun 1517, 1548 va 1607 yillarda reviziya tayinladi. Statutlarni buzgan aybdorlarga jarimalar solindi. Lekin chiqarilgan qonunlarning barisi natijasiz qoldi. Tyudorlarning dvoryanlar monarxiyasi dehqonlarni yerdan mahrum etishlarga qarshi izchillik bilan kurasha olmas edi. G'ov tutishlarga qarshi chiqarilgan statutlarni amalga oshirishda ham yetarli darajada g'ayrat bilan ish ko'rilmas edi. Statutlarni amalga oshirishlari lozim bo'lgan sheriflar shu ishlar bilan shug'ullanuvchi sudyalalar va boshqa mansabdorlar deyarli o'zlari yer egalari bo'lib, g'ov tutishlarni tekshirish ishlariga har qanday yo'llar bilan to'sqinlik qilardilar. Yirik lordlar o'z mulklarida g'ov tutish uchun saroydan maxsus ijozat olar va ayrim grafliklardagi g'ov tutishlarni tekshirish buyurilgan maydaroq amaldorlarni nazarlariga ham ilmas edilar.

G'ov tutishlar munosabati bilan dehqonlar ko'targan qo'zg'olonlardan eng kattasi Robert Ket qo'zg'oloni edi. Bu qo'zg'olon 1549 yil yozida, Angliya sharqidagi Norfolk grafligida ko'tarilgan edi. Ket dehqonlarni Norichga qarab olib bordi. Norich shahrining kambag'allari dehqonlarga qo'shildilar. Jami 20 mingtacha qurolli dehqondan iborat bo'lgan qo'zg'olonchilar shahar atrofida o'rmon bilan qoplangan tepaliklardan birida lager qurib oldilar. Qo'zg'olonchilar Londonga qirold Eduard VI nomiga yuborilgan talablar dasturini tayyorladilar. 29 moddadan iborat bu dasturning bir qancha moddalarida g'ov tutishlarni to'xtatish va dehqonlarga lordlar jamoalardan tortib olgan yaylovlardan foydalanish uchun to'la huquq berish talab qilingan edi.

Hukumat qo'zg'olonni bostirish uchun 15 ming kishilik qo'shinni yubordi. Muntazam askarlarga qarshi urush olib borishni bilmagan

dehqonlarni graf Uorvik boshchiligidagi hukumat qo'shinlari mag'lub qildi. Norich yonidagi Dyussendeyl vodiysida 1549 yilning 27 avgustida hal qiluvchi jang bo'ldi. Chet ellik yollanma askarlar qo'zg'olonchi dehqonlarni ko'plab qirib tashladilar. O'ldirilgan dehqonlarning soni 3500 ga yetardi. Qo'lga olingan Robert va Vilyam Ketlar osib o'ldirildi. Qo'zg'olon qatnashchilaridan jazolab o'ldirilganlarning soni 300 dan ortiq edi.



Genrix VIII

Angliya qishloqlari va yo'llarini to'ldirib yuborgan gadoylarga qarshi hukumat g'oyat og'ir qonunlar chiqardi. Faqat ishga yaramay qolganlar va qariyalargagina sadaqa so'rash ruxsat etildi. Tilanchilik qilgan sog'lom gadoylarni qamchi bilan savalash va qamoq jazosi kutardi. Qul qilib berilgandan keyin xo'jayinlaridan qochib ketganlarning badaniga o'tda qizdirilgan temir bilan tamg'a bosardilar. Ikkinchi marta qochib ketgan qul o'ldirilardi. Hukumat daydilarni tug'ilib o'sgan joylariga har qanday yo'llar bilan qaytarishga harakat qilardi. Shu yo'l bilan o'z

yurtiga qaytarilgan daydi «qishloq quli»ga aylantirilardi. U o'zining yashash joyini tashlab keta olmas va mahalliy pomeschchik, yirik fermer yoki ishbilarmon manufakturachiga ular taklif etgan har qanday ishga yollanishga majbur edi.

Angliyada mutloq monarxiyaning kuchayishi. XV asrning oxiridan XVII asr boshlarigacha Angliyani idora qilgan tyudorlar sulolasi qirol hokimiyatini ancha mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Sulolani boshlab bergan Genrix VII va uning o'g'li Genrix VIII (1509—1547) itoatsiz feodallarga qarshi ayovsiz kurash olib bordilar. Tyudorlar chekka o'lkalar bo'lmish Kornuell, Uels va Angliyaning shimoliy grafliklarini ham o'z ta'siri ostiga oldilar. Tyudorlar davrida favqulodda siyosiy va ma'muriy sudlar tuzilib, byurokratik boshqaruvni kuchaytirdilar.

Tyudorlar ingliz manufakturasini, savdosi va kemalar yurishini himoya qilish va rag'batlantirishga qaratilgan siyosatni izchillik bilan yurgizdilar. Tyudorlarning ijtimoiy negizini yangi dvoryanlar tashkil qilar, ular eski feodallar o'rnini egallagan yangi lordlardan, qisman o'rta va kichik dvoryanlar — jentrilardan iborat edi.

Tyudorlarning boshqa bir tayanchi dvoryanlar bilan mahkam bog'langan manufaktura, savdo va bank-sudxo'rlar burjuaziyasi edi.

Burjuaziya va burjualashgan yangi sinflar bilan ittifoqi qirollarning parlamentga nisbatan munosabatlarida o'z ifodasini topgan edi. Asosan o'rta dvoryanlar va qisman savdogarlar bilan manufakturachilarning vakillaridan iborat quyi palata tyudorlar davrida mustahkamlandi, lordlar palatasi esa, aksincha kuchsizlashdi.

Genrix VIII ingliz cherkovini Rimdan ajratish va cherkov yerlarini tortib olishni parlament yordamida amalga oshirdi. Ingliz dvoryanlari cherkovga qarashli yerlarni bosib olishga juda qiziqqanligi, ingliz burjuaziasining reformatsiyaga xayrixohlik bilan qaraganligi va oddiy, arzon cherkov bo'lishini istaganligi bu islohotlarni o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Genrix VIII ning xotini bilan ajrashmoqchi ekanligi cherkov islohotlarini o'tkazishga rasmiy bahona bo'ldi. Genrix VIII Yekaterina Aragonskayani yoshi o'zidan katta bo'lganligi va o'g'il tug'maganligi uchun ajrashmoqni istab, Rim papasiga murojaat qildi. Chunki katolik qonunlariga muvofiq ajralishni papa rasmiylashtirishi kerak edi. Yekaterina Germaniya imperatori Karl V ga xola bo'lganligi uchun papa bunga ruxsat bermadi. Chunki Karl V 1527 yildan keyin Rimga ega bo'lib olgan, papa esa to'liq uning izmida edi. Lekin Genrix VIII 1533 yili Rim papasining ruxsatisiz xotini bilan ajrashdi va oldingi qirolchaning oqsochi bo'lgan Anna Boleynga uylandi.

1534 yilda tuzilgan «Suprematiya to'g'risidagi akt» cherkovni isloh qilishdagi muhim qadam bo'ldi. Bu aktga asosan, qirol ingliz cherkovining boshlig'i deb e'lon qilindi. Shu bilan birga, aktda barcha eski katolik aqida va udumlarning dahlsizligi ko'rsatilgan edi. Aslida cherkovning yuqori bo'g'inidagi boshqaruv o'zgartirilgan edi, xolos. Papa o'rniga qirol o'tib, yepiskopat oldingi holicha qolaverdi. Genrix VIII Rimni istamasligini bir necha marta ochiqchasiga aytdi. Shunday qilib, ingliz cherkovi (yoki «**anglikan cherkovi**») katolisizm bilan protestantlik o'rtasidagi bir vaziyatni egallagan edi.

Cherkovni isloh qilar ekan, Genrix VIII monastirlarni yopdi va ularning mulklarini tortib oldi. Eng muhim monastirlarga qarashli juda katta yerlarni musodara qildi. Bu yerlar sotildi va bir qismi qirol yaqinlariga sovg'a qilib berildi. O'rta darajadagi harbiylar, dvoryanlar va qisman burjualardan iborat yangi mulkdorlar bundan juda boyib ketdilar. Genrix VIII zamonida o'tkazilgan reformatsiya tufayli yangi dvoryanlar sinfi tashkil topdi. Keyinchalik bu sinf XVII asr o'rtalarida sodir bo'lgan ingliz inqilobida burjuaziyaning ittifoqchisiga aylandi.

Genrix VIII ning Anna Boleyn bilan nikohi uzoqqa cho‘zilmadi. O‘g‘il tug‘magan qirolicha Anna 1536 yilda davlatga xiyonat qilganlikda ayblanib qatl etildi. Shundan keyin qirol Jeyn Seymurga uylandi. Bu nikohdan taxt vorisi Eduard tug‘ildi. Eduard VI (1547—1553) otasi o‘lganida 9 yoshli bola edi. Shu sabab oldiniga tog‘asi, Somerset gersogi Eduard Seymour unga regentlik qildi. 1549 yilda esa bu lavozimni graf Uorvik egalladi. Har ikki regent ham protestantlar partiyasiga mansub edi. Ammo Eduard VI o‘lgandan keyin hokimiyat tepasiga Genrix VIII ning Yekaterina Aragonskayadan tug‘ilgan qizi Mariya Tyudor (1553—1558) chiqib keldi. Mariya Tydor ispan qiroli Filipp II ga erga tegdi.



Mariya Tyudor

Mariya ispanlar yordamiga tayanib, Angliyada katolik dinini tikladi va protestantlarga nisbatan qirg‘in uyushtirdi. Protestantlikda ayblangan har qanday kishi tiriklayin yondirildi. Protestantlar Mariyani yovuzligi uchun «qonli» deb atadilar. Mariyani taxtdan ag‘darish va Ispaniya ta’sirini yo‘qotish maqsadida mamlakatda bir necha marta fitnalar uyushtirildi. Lekin bu urinishlar natija bermadi. Ingliz parlamenti qattiq qo‘rqqanidan katolik hukumatiga nisbatan o‘zini tobe tutdi.

Yelizaveta I hukmronligi davrida Angliya. 1558 yilda Mariya Tyudor o‘ldi. Angliyada protestantlar ustun chiqib, Genrix VIII ning Anna Boleyndan bo‘lgan qizi Yelizaveta I ni (1558—1603) qirolicha qilib qo‘ydilar. Yelizaveta I protestantlikni uzil-kesil tikladi. 1559 yilda parlament taxt egasining cherkov ishlariga boshchilik (suprematiya) qilish huquqini yana tasdiqladi. Qirolichaga yepiskoplarni tayinlash huquqi berildi. Yepiskoplar esa isloh qilingan cherkovda qolib, o‘z yerlarini boshqarish va lordlar palatasida majlis o‘tkazish huquqini saqlab qoldilar. Ibodat ingliz tilida o‘tkazilishi belgilandi.

Qirolichaning cherkovga boshchilik qilishini istamagan katoliklarga qarshi qattiq qonunlar chiqarildi. Reformatsiyaga qarshi kurash olib boruvchi iyezuitlar ordeni vakillarining Angliyaga kirishi qat’iyan man qilindi. Katoliklar yana qo‘shimcha katta-katta soliqlar to‘lashga majbur etildilar. Protestantlikdan katolik diniga o‘tish davlatni sotish bilan tenglashtirildi.

Yelizaveta I hukmronligi davrida Angliyada ishlab chiqarish gullab-yashnadi. Hukumat yordamida mamlakatda ko‘pgina manufakturalar

ochildi. Angliya qoloq mamlakatdan yirik savdo-sanoat davlatiga aylandi. 1588—1629 yillarda suv sigʻimi 100 tonnadan ortiq boʻlgan kemalar soni 35 tadan 350 tagacha yetdi. Ingliz harbiy kemalari ispanlarnikidan koʻra chaqqonroq, toʻplari esa uzoqotar edi. Shu davrga oid bir tarixiy bitikda yozilishcha aholi farovonligining ortishi birinchidan, soʻnggi yillarda uylarda tutun chiquvchi moʻrilarning keskin koʻpayganligi, ikkinchidan, yogʻoch kosalarining qalay idishlar bilan, yogoch qoshiqlarning kumush yoki tunuka bilan almashganligi, uchunchidan, uy qurilishida yogʻoch va loy oʻrnida tosh va suvoq ishlatilishi bilan belgilanar edi.



Yelizaveta I Tyudor

Yelizaveta I taxtga daʼvogar kuchlarga qarshi kurash olib borishga majbur boʻldi. Ulardan eng hufuzlisi Shotlandiya qirolichasi Mariya Styuart edi. Mariyaning buvisi Margarita ingliz qiroli Genrix VII ning katta qizi, binobarin Genrix VIII ning opasi edi. Margarita 1503 yilda Shotlandiya qiroli Yakov IV Styuartga erga tekkan, bu nikohdan Yakov V tugʻilgan edi. 1542 yil 14 dekabrda Yakov V inglizlarga qarshi jangda oʻldirilgach, taxtga uning 6 kunlik qizi Mariya Styuart chiqarilgan edi.

Yosh qirolichaning bolaligi Shotlandiyada katolik-protestant urushlari qaynagan paytga toʻgʻri keldi. Bu urush amalda protestantlar Angliyasi bilan katoliklar Fransiyasi oʻrtasida sodir boʻldi. Qirolichaning hayotini xavf ostida qoldirmaslik maqsadida Mariyani 1547 yili Parijga, Valualar saroyiga olib ketishdi.

1558 yil 24 aprelida Parijda Mariya Styuart bilan Fransiya taxt vorisi Fransisk oʻrtasida nikoh oʻqildi. Nikoh shatnomasining yashirin bandlarida qirolicha bola koʻrmagan taqdirda Shotlandiyani fransuz qiroliga berishi lozim edi. Bu esa, shotlandlarning noroziligiga olib keldi. Ayniqsa, Yelizaveta I ning Angliya taxtiga chiqishi olovga moy quygandek boʻldi. Rim papasi Mariya Styuartni Angliyaning qonuniy hukmdori sifatida tan oldi. Fransisk va Mariyaning gerbida ingliz tojining tasviri paydo boʻldi. Mazkur harakat bilan Mariya Angliya taxtiga daʼvogar ekanligiga ishora qildi.



Mariya Styuart

1559 yilda Fransiya taxtiga Fransisk II o'tirdi. Lekin u kasal bo'lgani uchun biron jiddiy siyosat yurita olmadi. 1560 yilda esa, Shotlandiyada protestantlik inqilobi yuz berdi. Yelizaveta I shotland protestantlariga yordam berdi. Shotlandlar ingliz qo'shinini katta quvonch bilan kutib oldilar. 1560 yil 6 iyulda Edingburgda tuzilgan bitimga ko'ra, ingliz va fransuz askarlari Shotlandiyadan chiqib ketishi, mamlakatda Yelizavetaning hukmronligi o'rnatilishi belgilangan edi.

Tabiiyki, Mariya Styuart bu bitimni tan olmadi. Lekin mavjud siyosiy vaziyatda u biron ish qilolmas edi. Aksiga olib, Fransiya diniy urushlar boshlanib ketdi. 1560 yilning dekabrda Fransisk II o'limidan keyin Mariya Styuart yurtiga qaytishga majbur bo'ldi. Lekin Shotlandiyaning o'zida hokimiyat uchun boshlanib ketgan kurashda yengilib, Angliyaga qochishiga to'g'ri keldi. Yelizaveta uni Sheffield qasriga qamab qo'ydi. 1587 yil 8 fevralda esa Mariyani fitna uyushtirganlikda ayblab qatl ettirdi.

Yelizaveta I o'ziga qarshi bo'lgan Ispaniyani kuchdan qoldirish istagida Niderlandiyadagi ispanlarga qarshi boshlangan qo'zg'olonni qo'llab-quvvatladi. Bundan tashqari, Yelizavetaning buyrug'i bilan ingliz qaroqchilari ispan kemalarini talay boshladilar. Natijada, birgina 1582 yilning o'zida Ispaniyaning talofatlari 1 900 000 dukatga yetdi. Talangan boyliklarning bir qismi qirolichaga tegdi. Yelizavetaning ikki yirik admirali — Frensis Dreyk bilan Jon Xokins o'zlarining siyosiy ko'tarilishlarini dengiz qaroqchiligidan boshlagan edilar.

Inglizlarning dengizdagi qaroqchiligini tugatish va Angliyada ispanlarning ta'sirini qayta tiklash niyatida Filipp II katta flot tuzdi. Ulkan flot «Yengilmas armada» deb ataldi. Uning tarkibi 130 kema, 2430 to'p, 30500 kishi, shundan 18973 nafar askar, 8050 nafar matros (dengiz askari) 2088 ta eshkakchi-qul, 1389 ta ofitser, dvoryan, ruhoniylar va vrachlardan iborat edi. Flot kuchlari «Portugaliya», «Kastiliya», «Biskayya», «Gipuskoa», «Andalusiya» va «Levant» eskadralariga bo'lindi. Bu kuchlar bilan Ispaniya qiroli Yelizaveta Tyudorni o'ziga bo'ysundirish niyatida edi. Shu maqsadda bo'lgusi yurishga jiddiy tayyorgarlik ko'rdi.

1588 yilda «Yengilmas armada» harbiy yurishini boshladi. 31 iyul kuni Angliya qirg'oqlarida dengiz janglari boshlandi. Ingliz kemalari kichik bo'lsa ham to'plari uzoqqa otar edi. Shuni hisobga olgan inglizlar ispan kemalariga yaqin kelmay turib ularni yoq qilishni rejalashtirishgan edi. Ikki hafta davom etgan jangda ispanlar tamomila mag'lubiyatga uchradi. Ispan flotining qolgan-qutgani ta'qibdan qochib, Britaniya va Irlandiya orollarini aylanib o'tishga majbur bo'ldi. Yo'lda ularga yanada xavfli dushman — ocharchilik kelib qo'shildi. Ahvol shu qadar og'ir ediki, Ispaniya qirg'oqlariga yetganlarida dengizchilar qayiqlarni dengizga tushirib, quruqlikka suzib borishga kuchlari yetmadi. 130 kemalik yirik flotdan 60 tasigina Ispaniyaga yetib keldi, xolos.



Frensis Dreyk

Biroq Angliyaning dengizdagi hukmronligi to'liq o'rnatilishiga hali ancha bor edi. Ispanlar mag'lubiyatda xulosa chiqarib, og'ir, beso'naqay kemalar o'rniga uzoqotar to'plar bilan qurollangan yengil kemalarni qurib oldilar. Bu o'z natijasini berdi. 1589 yilda ingliz flotining Ispaniyaga qilgan hujumi to'xtatildi. Hujumda inglizlar 12000 askar va 20 ta kemasidan ajraldi. 1595 yilda ingliz eskadrasi Puerto-Riko orolidagi San-Xuan shaharchasini olmoqchi bo'ldi. Lekin jangda ispanlar g'alaba qozonishdi.

Shunga qaramay, bu g'alabalar o'z ahamiyati juhatidan 1588 yilgi mag'lubiyatning o'rnini qoplay olmas edi. Bundan keyin dengizda inglizlarning qo'li baland bo'lib qoldi. Ispaniya dengiz hukmroni degan maqomni boy bera boshladi.

Angliya ichki hayotida **puritanlik** harakati tobora muhim rol o'ynay boshladi. Puritanlik lotincha «purus», ya'ni «toza» degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, Angliyada XVI asrning 60 yillarida paydo bo'lgan edi. Oldiniga anglikan cherkovini katolisizm sarqitlaridan tozalash uchun kurashgan kishilar puritanlar deb atalar edi. Vaqtlar o'tishi bilan puritanlar hukmron anglikan cherkovidan to'liq ajralib, tepasida saylanib qo'yilgan boshliq(**presviter**)lariga ega alohida cherkov jamoalarini tuza boshladilar. Puritan jamoalari yangi mulkdor sinflarga to'la mustaqillik berdilar.

Shunday qilib, ingliz burjuaziyasi va yangi dvoryanlari din sohasida o'zlarini ozod qilishga kirishdilar va keyinchalik feodal tuzumga qarshi kurashga o'tdilar.

XVI asrning oxirlarida puritanlari ikkiga bo'lindilar: birinchisi — yirik burjuaziya va dvoryanlarni o'z ichiga olgan, ancha o'ng yo'l tutgan **presviterian** oqimi, ikkinchisi — asosan mayda burjuaziya, jentri va dehqonlar orasidan o'ziga izdosh topgan, biroz so'l qarashlarga ega **independent** oqimi edi.

Hukumat puritanlarga dushmanlik ko'zi bilan qaradi. Puritanlar ham xuddi katoliklar singari ta'qib qilinlar, qamoqqa olinar, jarimaga tortilar, yoki mamlakatdan haydab chiqarilar edi. Ammo puritanlarning soni tobora ortib boraverdi. Bu esa burjuaziyaning ingliz mutloq monarxiyasi bilan aloqani uzishga jiddiy kirishganligidan dalolat berardi.

Yelizaveta I Tyudor Angliyani qariyb 45 yil boshqarib, 1603 yil 24 martida vafot etdi. Uning bolasi yo'q edi. Shu sabab taxtga styuartlar sulolasining vakili Yakov I o'tirdi. Yangi qirol feodal tartiblarni mustahkamlashga intildi. Lekin kuchayib olgan ingliz burjuaziyasi va uning ittifoqchisi bo'lmish yangi dvoryanlar hokimiyatni egallab, monarxiyani tugatishga intilayotgan edi. Tyudorlar davridayoq shakllana boshlagan parlament oppozitsiyasi styuartlar davrida ayniqsa zo'r g'ayrat bilan harakat qildi.

Savol va topshiriqlar

1. Angliyaning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etish sabablarini ko'rsatib bering?
2. «G'ov tutish» nima va u qanday oqibatlariga olib keldi?
3. Mariya Tyudorni nima uchun «Qonli» deb atashgan?
5. Yelizaveta I ning boshqaruvi Angliya uchun qanday ahamiyatga ega bo'ldi?
6. Puritanlar kimlar?

27-§. XVI—XVII asr birinchi yarmida Fransiya

Fransiyada qirol hokimiyatining kuchayishi. XVI asrning birinchi yarmida Fransiya qirol hokimiyati mustahkamlandi. Markaziy hokimiyatning kuchayishida Fransisk I ning (1515—1547) oʻrni juda katta boʻldi. Fransisk I Rim papasi bilan kelishilgan holda yepiskoplar va abbatlarni tayinlash huquqini qoʻlga kiritib, cherkov ustidan nazoratni oʻrnatdi. Qirol hatto Muqaddas Rim imperiyasi tojiga ham daʼvo qildi. Negaki, uning raqibi Karl V Gabsburg allaqachonlar Ispaniya, Niderlandiya, Avstriya va Neapolni boshqarar, agar Karl V imperator etib saylansa, Fransiya Gabsburglar mulki bilan oʻralgan boʻlardi. Oxir-oqibat, shunday boʻldi ham.

Fransisk I Gabsburglarga qarshi koʻplab urushlar olib bordi. Italiyaga yurish boshlaganda Fransisk I Milanni egallashga muvaffaq boʻldi. Biroq 1525 yilgi jangda yengilib, Karl V tomonidan qoʻlga olindi. Tutqunlikdan chiqish evaziga qirol Milan va Burgundiyaning berishga vaʼda qildi. Ozod boʻlgach, fransuz qiroli soʻzida turmay yangi urushlarni boshlab yubordi. Gabsburglarga qarshi kurashish uchun Fransisk I Germaniyaning protestant knyazlari va hatto Usmonli turk imperiyasi bilan ham ittifoq tuzdi.

Urushlar, saroyning saqlash chiqimlari, sanʼat asarlarini sotib olish va boshqa ehtiyojlar juda katta mablagʻlarni talab qildi. Qirol dehqonlar va shahar aholisiga soliqlarni tinmay oshirib bordi. Bu gʻalayonlarga olib keldi.

Gʻaznani toʻldirishning yana bir usuli qirollik lavozimlarini sotish edi. Biron mansabni egallamoqchi boʻlgan kishi qirolga qarz berish orqali lavozimga tayinlanar edi. Bunda ish haqi kredit boʻyicha foizlar hisobida toʻlab borilgan. Lavozimlarni duch kelgan kishilarga sotilgan deb boʻlmaydi. Talabgor zarur malakaga ega boʻlishi kerak edi. Vaqtlar oʻtishi bilan lavozimlar merosiy boʻlib qoldi: buning uchun qirolning roziligi kerak edi, xolos. Boy savdogarlar va ishbiarmonlar dvoryanlik titullarini olish uchun sud hokimiyati hisoblangan parlamentlardagi lavozimlarni sotib olishni boshladilar. Oʻz unvonini «sotib olgan» kishilar «mantiya dvoryanlari» (mantiya – sudyalarning kiyimi) deb atala boshlandi. Nasliy dvoryanlar («qilich dvoryanlari») yangi dvoryanlarga joʻjaroʻs sifatida qarardi. Biroq, qirollar lavozimlarni sotishda davom ettirdilar, chunki bu yaxshi daromad keltirardi.



Fransisk I

Diniy urushlar. Fransisk I davrida mamlakatga reformatsiya g'oyalari kirib keldi. Oldiniga qirol Germaniyaning protestant knyazlari bilan ittifoq tuzganligi sabab protestantlikka ko'ngilchanlik bilan qaradi. Ammo vaqt o'tishi bilan qirol reformatsiyaga qarshi bo'ldi va hatto protestantizmni qoralab edikt (farmon) ham chiqardi. Negaki reformatsiya g'oyalari Fransiya diniy urushlar tubiga tushirib qo'yar va absolyutizmning qaror topishiga to'sqinlik qilardi.

Qirolning qarshiligiga qaramay, yangi din butun mamlakat bo'ylab tarqaldi. Fransuz protestantlari **gugenotlar** (fran. *huguenot*) nomini oldi. Bu so'z nemischa «eidgenosse» so'zidan kelib chiqqan bolib, qardosh, ittifoqchi kabi tushunchalarda keladi.

Fransisk I barcha protestantlik asarlarini musodara qilishni buyurdi. va gugenotlarga o'lim tahdidi ostida protestantlik ibodatlarini man qildi. Lekin bu chora-tadbirlar reformatsiyaning tarqalishini to'xtata olmadi. 1555 yilda Genrix II gugenotlarni olovda yondirish bilan tahdid qiluvchi farmon chiqardi. Shunga qaramay, Fransiya uning davrida 5000 ga yaqin protestantlik jamoalar bor edi. 1559 yili Fransisk II tomonidan har bir parlamentda maxsus komissiya — «olov palatasi» tashkil etilib, yeretiklar haqidagi farmonlarning bajarilishini nazorat qildi.

Katoliklar va gugenotlar o'rtasidagi qarama-qarshilik Karl IX davrida (1560—1574) ochiq urushga aylandi. Qirol o'n yoshida taxtga o'tirdi va uning nomidan onasi Yekaterina Medichi (1519—1589) boshqardi. 1562 yil yanvarida Sen-Jermen ediktiga ko'ra, gugenotlarga shahar devoridan tashqarisida yoki shaxsiy uylarda ibodat qilish huquqi kafolatlandi.

1562 yilning 1 martida gersog Fransua de Giz Vassi shaharchasiga kirib ibodat qilmoqchi bo'lganida, cherkov oldidagi xo'jalik binosida mingga yaqin gugenotning yig'ilganini ko'rib qoldi. Bu Sen-Jermen ediktining ochiqchasiga buzilishi edi. Fransua de Giz gugenotlarni tartibga chaqirganda, ular katoliklarni haqorat qilib, tosh yog'dirdilar. Toshlardan biri Gizning yuziga tegdi. Shunda uning qurollangan qo'riqchilari gugenotlarga tashlanib, ulardan 50 tasini o'ldirdilar va yana yuzga yaqinini

yaraladilar. Bu voqea Fransiyada uzoq davom etgan diniy urushlarning boshlanishi edi.

Diniy urushlarning bir qator sabablari bor edi. Birinchidan, mojaroning bosh sababi, albatta, diniy kelishmovchiliklar va Fransiyadagi protestantlarga nisbatan kuchli bosimning otkazilishi bo'ldi. Ikkinchidan, iqtisodiy munosabatlar ham muhim rol o'ynadi: kalvinistik axloq asosida tarbiyalangan protestantlar ishbilarmonlik bilan shug'ullanib, katta boylik to'pladilar. «Eski» katolik aristokratiyasi protestant ishbilarmonlari bilan raqobatlasha olmay, moliyaviy qudratini yo'qotib borardi. Katolik cherkovi tomonidan to'plangan boylik ham asosiy masala edi. Protestantlar cherkov juda ko'p boylikka ega bo'lishi kerak degan qarashga qo'shilmadilar va uning mulklarini tortib olishni yoqladilar.

Bundan tashqari, Fransiyada hokimiyat uchun kurash borar edi. Gizlar, Valua sulolasi qirollari va Burbonlar oilasi vakillari davlatning yolg'iz egasi bo'lishga intilar va shu maqsadda u yoki bu qarama-qarshi diniy guruhlardan foydalanishar edi.

Fransiyadagi vaziyatga tashqi siyosiy muhit ham ta'sir ko'rsatdi. Reformatsiyani boshdan kechirayotgan Yevropa ayqirar, bir tomondan kuchli ispan qirollari — katolik dinining himoyachilari, ikkinchi tomondan — protestantizmni tan olgan Angliya va bir qator nemis knyazlari kurashmoqda edilar. Fransiya ulardan birini tanlashi lozim edi. Sababi, Yevropadagi diniy va harbiy-siyosiy vaziyat uning qadamiga bevosita bog'liq edi.

Urush tufayli mamlakat ikki lagerga — shimolda katoliklar Pariji va janubda protestantlar Orleaniga bo'lindi. Gugenotlarni Navarra hukmdori Genrix Burbon va qirol admirali Kolini qo'llab-quvvatladi. Fransiyada diniy urushlar 1562 yildan 1598 yilgacha to'xtab-to'xtab davom etdi va 8 ta fuqarolar urushini boshidan kechirdi.

Tinchlikka erishmoq uchun Yekaterina Medichi o'z qizi Margaritani Navarra qiroli Genrix Burbonga uzatishga qaror qildi. 1572 yilning avgust oyida gugenotlar to'y marosimida qatnashish maqsadida poytaxt Parijga oqib kela boshladilar. Gugenotlarning dabdabasi va hashamati diniy urushdan aziyat chekkan, yaqinlaridan ayrilgan parijliklarga yoqmad. Qolaversa, cherkovlarda protestantlarga qarshi qaratilgan va'zlarning bot-bot takrorlanishi parijlik katoliklarda protestantlarga nisbatan nafratni ancha kuchaytirgandi. Ayni shu paytda Parijda gugenotlarning Fransiya qiroliga qarshi fitna uyushtirayotgani, gugenotlar o'zlari bilan mislsiz boyliklar olib kelganligi haqidagi mish-mish tarqaladi. Bularning hammasi qizib turgan moy ustiga suv sepish bilan barobar edi.

Genrix va Margarita Valuaning 18 avgustga rejalashtirilgan nikoh marosimi har qachongidan hashamat va dabdabaga burkangandi. Poytaxt aholisi esa shundoqqina koʻz ostida shunday marosimga yoʻl qoʻyib berilganidan achchiqlangan, oʻch olish uchun bir bahona izlardi. 22 avgust kuni kechqurun Genrix de Gizning buyrugʻiga binoan admiral Koliniga oʻq uzilib yarador qilindi. De Giz bu ishi bilan 9 yil oldin admiralning buyrugʻiga binoan oʻldirilgan Fransua de Giz uchun oʻch olmoqchi boʻlgandi. Bundan tashqari, u malika Margarita oʻziga berilmaganidan ham gʻazabda edi.

Gugenotlar aybdorlarni jazolashni talab qilib chiqdilar. Qirol vaziyatni yumshatish uchun Yekaterina Medichi bilan birgalikda admiral Kolini sogʻligʻidan xabar olgani keldi. Lekin Parijda qirol gugenotlarga yon berganligi haqidagi turli mish-mishlar tarqalgach, qirol kengashi chaqiriladi. Gugenotlar oʻch olishga ulgurmaslaridan ularning barchasini yoʻq qilish toʻgʻrisida qaror qabul qilinadi.

Rejaga koʻra, qirgʻin Avliyo Varfolomey eslanadigan 24 avgustga belgilandi. 23 avgust yarim kechasi gersog Giz yollanma askarlari bilan Kolinini qatl etadi. Shundan keyin terror toʻlqini butun Parijga yoyiladi. Gugenotlarni ajratib olish qiyin kechmadi. Ularning hammasi qora kiyimda edi. Oqibatda minglab gugenotlar oʻz uylarida, qahvaxonalarda, tunab qolgan joylarida oʻldirildilar. Genrix Burbon katolik dinini qabul qilish sharti bilan tirik qoldirildi.

Gugenotlarni qirgʻin qilish butun mamlakat boʻylab davom etdi. Bu fojia tarixda «Varfolomey kechasi» deb nom oldi. Fransiyaning Lion, Ruan, Orlean, Trua kabi yirik shaharlarida barcha gugenotlar qirgʻinga uchradi. Mamlakat boʻylab minglab odamlar oʻldirildi. 200 mingga yaqin gugenot qoʻrqqanidan mamlakatni tark etdi. Qirgʻin shu darajada kuchayib ketgandiki, qirol Karl IX gugenotlarni taʼqib qilishga shaxsan buyruq berganini tan oldi va qirgʻinni bas qilishga chaqirdi.

Gugenotlar qirgʻinini Rim papasi Grigoriy XIII bilan Ispaniya qiroli Filipp II rasman yoqlab chiqishdi. Papa Varfolomey kechasi toʻgʻrisida soʻz yuritar ekan, «Ushbu qonli jazo turklar ustidan qozonilgan ellikta gʻalabadan yaxshiroqdir», deb aytadi. Shu kun munosabati bilan papa oʻzi bilan qasoskor farishta tasviri hamda «Ugonottorum strages» (gugenotlar oʻlimi) yozuvi tushirilgan medalyonni chiqartirdi.

Protestantlar yashaydigan Angliya, Germaniya, Polsha kabi davlatlar bu siyosatini tanqid qilib chiqdilar. Qizigʻi shundaki, gugenotlar qirgʻinini hatto Ivan Grozniy ham qoraladi.



Varfolomey kechasi

Gugenotlar qirgʻinining dinga aloqasi boʻlmagan jihatlari ham bor edi. Avvalo, Fransiya hukmron doiralarining dabdabali turmushi aholini norozi qilgan, qolaversa, soliqlar yukidan fransuzlarning qaddi bukilgan edi. Shu sababdan, Varfolomey tunini oddiy xalqning oliy tabaqa vakillariga qarshi isyoni sifatida koʻrish ham mumkin. Ayrimlar gugenotlarni oʻz kreditori boʻlgani uchun oʻldirib, qarzdan qutulgan edilar. Bundan tashqari, urush natijasida Fransiya qiroli gʻaznasi boʻshab qolgandi. Gugenotlarni yoppasiga qirgʻin qilish asosida qirollik hokimiyati oʻz gʻaznasini boyitishni rejalashtirgandi.

Varfolomey qirgʻini hech narsani hal qilmadi. Faqat adovat kuchayib, yangi urushlar boshlandi. Gugenotlar Fransiyaning boʻlib tashlashga qaror qildilar va mamlakat janubida oʻz davlatlarini tuzdilar. Bu davlatni protestantlar lageriga qaytgan Genrix Burbon boshqardi.

1574 yilda Karl IX oʻlganidan keyin taxtga uning ukasi Genrix III oʻtirdi. Uning davrida qonli urush davom etdi. Protestantlarga qarshi kurashayotgan kuchlarni birlashtirish uchun 1576 yilda Genrix Giz Katolik ligasini tuzadi. Yaxshi qurollangan va tayyorgarlik koʻrgan katoliklar bir qator gʻalabalarni qoʻlga kiritishadi. Muvaffaqiyatlardan ruhlangan Gizlar qirolni agʻdarish payiga tushdilar.

1584 yilda Genrix III ning ukasi Fransua og'ir kasallikka chalinib o'ldi. Qirolning esa bolalari yo'q edi. Natijada, hukmron doiralar o'rtasida taxt vorisi masalasi ko'tariladi. Qoida tariqasida taxtga Genrix Burbon voris bo'lishi lozim edi. Sababi, u bir tomondan Lyudovik IX ning avlodi sanalar, ikkinchi tomondan Genrix III ning singlisi Margarita Valuaning eri edi. Lekin uning nomzodi diniy qarashlariga ko'ra Genrix III, Rim papasi va Ispaniya qiroli tomonidan rad etildi.

Shunday sharoitda Genrix Giz Fransiya taxtini egallash harakatiga tushdi. 1585 yilda Genrix III, Genrix Burbon va Genrix



Genrix IV Burbon

Giz o'rtasida boshlanib ketgan urush tarixda «Uch Genrix urushi» nomini oldi. Angliya qirolichasi Yelizaveta I bilan nemis protestant knyazlaridan yordam olgan Genrix Burbon katoliklarni tor-mor etdi. Genrix III ning urushni to'xtatish bo'yicha barcha urinishlari barbod bo'ldi. Giz esa, qirol va uning yaqinlarini mamlakatni boshqarishga qodir emaslikda aybladi.

1588 yil may oyida Parij aholisi qirolga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Qirol zudlik bilan Blua shahriga ketishga majbur bo'ldi. Genrix Giz tantana bilan Parijga kirdi. Qirol har qanday holatda ham taxtni Gugo Kapetning avlodlari qo'lida qoldirishini maqsad qilgan edi. Shu maqsadda 1588 yil dekabrda Genrix III Blua shahrida General shtatlarni chaqirdi. Chaqirilganlar orasida Genrix Giz ham bor edi. 23 dekabrda Genrix Giz va uning soqchilari qirol gvardiyasi tomonidan o'ldirildi. Ertasi kuni Gizning ukasi, Lotaringiya kardinali Lyudovik ham qatl etildi.

Qirolning xatti-harakatidan butun mamlakat g'azablandi. Maxsus yig'ilgan ilohiyotshunoslar kengashi fransuzlarni Genrix III ga bergan qasamyodidan ozod qildi. Parijliklar qirol hokimiyatidan mustaqil ravishda o'zlarining boshqaruv organlarini yaratishga kirishdilar. Yolg'iz qolgan Genrix III o'zining bosh raqibi Genrix Burbon bilan yarashdi. Ittifoqchilar qo'shini Parijni qamal qilganlarida Genrix III katoliklar ligasi tomonidan yuborilgan yollanma qotil tomonidan og'ir yaralandi. O'limi oldidan qirol guvohlar oldida Genrix Burbonni o'z vorisi deb e'lon qildi. Shu bilan Fransiya Valua sulolasi hukmronligi tugadi.

Taxtga o'tirgan Genrix IV Burbon (1589—1610) mamlakatni yarashtirish uchun katolik dinini qabul qildi. Bu qadam ma'lum bir

ahamiyatga ega edi. Rim papasi unga qo'yilgan ayblovlarni olib tashladi. Katolik ligasi vakillari bilan tinchlik muzokaralari boshlandi. Yangi qirolga millatni birlashtirish nasib etdi. Uning tomoniga sobiq dushmanlari — Gizlar ham o'tdilar. Qirol soliqlar miqdorini qisqartirdi. Qishloq xo'jaligi va manifaktura rivoji uchun qayg'urdi. 1598 yilda qirol Nant ediktini imzoladi. Unga binoan gugenotlar yeretik deb hisoblanmas va barcha huquqlar, jumladan, davlat lavozimlarini egallash hamda qirolga bevosita shikoyat qilish huquqi berildi. Ediktning bajarilishi kafolati sifatida mamlakat janubidagi La-Roshel qo'rg'oni gugenotlar qo'liga topshirildi.

XVII asr birinchi yarmida Fransiya. Genrix IV diniy urushlardan keyin tezda mamlakat iqtisodiyotini tiklay oldi va Fransiyaning xalqaro obro'sini mustahkamladi. 1610 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish darajasi 1560 yilgi darajaga yetdi. Savenna va boshqa joylarda millionlab tut daraxtlarini ekish orqali ipakchilik madaniyatini shakllantirdi. Fransiya tarixida ilk bor Sena va Luara daryolarini bog'laydigan kemaqatnar Briar kanali qazildi. Shimoliy Amerikadagi Kanadani mustamlakaga aylantirish uchun dastlabki ishlar amalga oshirildi.

Genrix IV 1610 yilda fanatik katolik tomonidan o'ldirilgach, taxtga o'g'li Lyudovik XIII (1610—1643) o'tirdi. Uning davrida General shtatlarni chaqirish to'xtatildi. 1624 yildan boshlab Fransiya hukumati kardinal Rishelye (1585—1642) qo'liga o'tdi. U monarxiya va davlatni mustahkamlashga intilib, qirol bilan Fransiya sodiqlikni hammasidan ustun qo'yishini aytar edi. Rishelye mamlakat janubidagi gugenotlarga qarshi yurish boshladi va La-Roshelni ulardan tortib oldi. Gugenotlar kechirildi, lekin ular o'zlarining siyosiy huquqlaridan mahrum bo'ldilar. Mamlakatning diniy va shu bilan birga siyosiy birligi yo'lida muhim qadamlar tashlandi.

Keyingi navbat aristokratlarga keldi. Kardinal chegaralarni himoya qilishda qatnashmagan qo'rg'onlarni yo'q qilishni buyurdi. Fransiya admirali va konnetabl lavozimlarini tugatdi, sababi dengiz floti va armiyani boshqarish ularning egalariga deyarli cheksiz hokimiyatni berar edi.

Amaldorlarning Rishelyega qarshi fitna va fasodlarining cheki yo'q edi. Ammo qirol unga to'liq ishonganligidan bu fitnalar muvaffaqiyatsiz tugardi.

XVII asrdagi Fransiyaning chinakam falokati — bu har yili yuzlab dvoryanlar o'ldiriladigan duellar edi. XVII asr boshidagi 18 yil ichida 4000 nafar dvoryan duellarda o'ldirilgan. Rishelye qirollikning asosiy tayanchini dvoryanlarda ko'rgan, shuning uchun dvoryanlar faqat Fransiya va qirol uchun o'z jonlarini qurbon qilishga haqli deb hisoblardi. Kardinal duellarga qarshi farmonlar chiqardi va qoidabuzarlarni qattiq jazoladi.

Butun mamlakat bo'ylab qirol hokimiyatini mustahkamlash uchun Rishelye **intendantlik** lavozimini joriy qildi. Bular joylarda sud, politsiya, moliyaviy va qisman harbiy hokimiyatga ega bo'lgan amaldorlar edi. Ular qirol tomonidan uchinchi tabaqa vakillari orasidan tayinlangan va kardinalga to'liq itoat qilishgan. Hududiy dvoryanlarning hokimiyati sezilarli darajada cheklandi.

Rishelening jo'shqin faoliyati davlat hayotining turli tomonlarini qamrab oldi. U moliyani isloh qildi, sanoat va savdoning rivojlanishiga homiylik qildi, mustamlakalarni egallab olishni rag'batlantirdi. Madaniyat ravnaqi uchun qayg'urgan kardinal adabiyot va san'at ham absolyutizm g'oyalarini targ'ib qilishi kerak, deb hisoblardi. Uning tashabbusi bilan birinchi fransuz gazetasi chiqa boshladi. Kardinal tomonidan amalga oshirilgan ishlar Fransiyaning ichki va tashqi ahvolini yaxshiladi, absolyut monarxiyani har tomonlama mustahkamladi.



Rishelye

Savol va topshiriqlar

1. Fransiya da nega diniy urushlar sodir bo'ldi?
2. Diniy urushlarni to'xtatish uchun qirol hukumati qanday choralarni ko'rdi?
3. Fransiya da diniy urushlarning yakuni bo'yicha xulosa chiqaring?
4. XVII asr birinchi yarmida Fransiya ni siyosiy jihatdan mustahkamlashda qatnashgan davlar arboblari haqida nimalarni bilib oldingiz?

28-§. XVI—XVII asr birinchi yarmida Germaniya

Germaniyaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi. XVI asrda Germaniya iqtisodiyotiga ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Xalq xo'jaligi ancha o'sdi. Jumladan, konchilik, to'qimachilik, kitob bosish sohalarida **manifaktura** (lot. «qo'lda yasalgan buyum») lar vujudga keldi. Qurol-yarog' ishlab chiqarish Reyn va Yuqori Dunay shaharlarida rivojlandi. To'qimachilik sanoatining turli sohaları; movut to'qish, zig'ir tola, shoyi to'qish va ip-gazlama sanoati ham shu viloyatlarda to'plandi.

XVI asrdayoq Germaniyada qand pishirish bilan shug'ullanadigan korxonalar bor edi. G'arbda Kyoln, Vorms, Aaxen shaharlari, janubda Augsburg, Nyurnberg, Ulm, Reynbo'yi hamda yuqori Dunaydagi boshqa shaharlar Yevropa savdosining eng yirik markazlari edi.

Ko'plab nemis shaharlari qulay joylashuvi va savdo aloqalari bilan mashhur edi. Nyurnberg — metallga ishlov berishning markazi bo'lib, XVI asrda 20 mingga yaqin aholisi bor edi. Elzas shaharlari ichida Strasburg o'zining savdo aloqalari bilan, Mayn bo'yidagi Frankfurt esa Gollandiya, Flandriya, Italiya, Fransiya, Angliya, Chexiya va Polsha savdogarlarini yig'adigan yarmarkasi bilan dong taratgan edi. Dunay bo'yida joylashgan nemis shaharlari orqali Janubi-Sharqiy Yevropa bilan savdo olib borilardi. Hunarmandchilikda sex tizimi ustunlik qilardi.

Germaniya aholisining katta qismini dehqonlar tashkil etar edi. Dehqonlar krepostnoylik zulmini boshidan kechirardilar. Feodallar o'z daromadlarini oshirishga intilib, dehqonlar beradigan to'lovlarni har qanday yo'llar bilan oshirar, dehqonlardan yangi barshchinalar talab qilar, ularning chek yerlarini qirqib, jamoalarga qarashli o'tloqlar, bo'sh yerlar, o'rmon, ko'llarni o'z ixtiyorlariga o'tkazar edilar.

Bunday hollar dehqonlar ahvolinining yomonlashuviga olib keldi. Ko'pchilik dehqonlar yerlarini tashlab, tilamchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'ldilar. Hokimiyat daydi dehqonlar haqida qonunlar qabul qildi, shahar ko'chalarida sadaqa so'rash taqiqlandi, uni buzganlar ayovsiz jazolandi. Germaniyaning Kyoln shahrida uch marta «qonunsiz» sadaqa so'rashda qo'lga tushgan daydi dehqonlar osib o'ldirishga hukm qilinardi.

XV asrning oxiri — XVI asrning boshlarida Germaniya hali siyosiy jihatdan tarqoq mamlakat edi. Bu vaqtga kelib markazlashgan Angliya va Fransiya qarama-qarshi o'laroq, Germaniya hali ham ayrim feodal knyazliklar va erkin shahar federatsiyasi bor edi. Imperiyaning eng yirik knyazlari avstriyalik Gabsburglar edi. Ularga XVI asrda Yuqori va Quyi Avstriya, Tirol, Janubi-G'arbiy Germaniyaning bir qator hududlari,

Shtiriya, Karintiya va Krayna kabi slavyan yerlari qarashli edi. Shu davrdayoq Chexiya va Vengriyaning bir qismi qo'shib olinib, ko'p millatli Avstriya monarxiyasiga asos solindi.

Imperator Maksimilian I (1493—1519) Gabsburglarning meros yerlarini ancha kengaytirdi. Gabsburglar Avstriya, Shtiriya, Karintiya va Kraynadan tashqari yana Tirolni, Shvabiyadagi yerlarni hamda Maksimilian I Mariya Burgundskayaga uylanganda «sep» tariqasida berilgan Niderlandiyaga ham ega bo'ldilar.

Maksimilian Germaniyada markaziy muassasalar tuzib, yirik feodallarni ham o'z hokimiyati ostiga olishga urindi. 1495 yilda reyxstag umumimperiya sudini tuzishni lozim topdi, sud tarkibida knyazlar ham ko'pchilikni tashkil qilishi kerak edi, ya'ni umumimperiya qo'shini reforma natijasida knyazlarga tobe bo'lib qolishi lozim edi.

Maksimilian I ning nabirasi Karl V (1519—1555) ga juda katta yerlar meros tariqasida o'tgan edi. Bular quyidagilardir:

Otasi Filipp I dan — Burgundiya Niderlandiyasi, Lyuksemburg, Artua, Fransh-Konte;

Onasi Xuana I dan — Kastiliya, Leon, Andalusiya, Kanar orollari va Vest-Indiya;

Ona tomondan bobosi Ferdinand II Aragonskiydan — Aragon, Kataloniya, Valensiya, Russilyon, Neapol, Sitsiliya, Sardiniya, Bolear orollari;

Ota tomondan bobosi Maksimilian I dan — Avstriya, Shtiriya, Karintiya, Tirol.

Merosiy yerlardan tashqari u Geldern, Lombardiya, Tunis, Yangi Granada, Yangi Ispaniya, Peru va boshqa joylarni qo'lga kiritdi.

Yevropaning biror hukmdori uningchalik ko'p unvonga ega bo'lgan emas. Karl V bir vaqtning o'zida Leon, Kastiliya, Valensiya, Aragon, Galitsiya, Sevilya, Malyorka, Granada, Navarra, Sitsiliya, Neapol, Vengriya, Xorvatiya, Germaniya, Italiya va Burgundiya qiroli edi. U yana Quddus qiroli faxriy unvoniga ham ega edi. Uni Ispaniyada Karl I deb atashar edi. Unvoni ko'pligidan Karl V ni «yurti yo'q qiroli» deyishardi.

Karl V ko'plab davlatlarga qiroli bo'lgani sabab Germaniyaning ichki ishlariga ko'p e'tibor bermas edi, bu ishi uning obro'sini pasaytirdi.

Germaniyada reformatsiyaning boshlanishi. Katolik cherkovi boshqa Yevropa xalqlari kabi nemis xalqiga ham katta jabr-zulm yetkazdi. Mamlakatda cherkovga qarashli yerlar ko'p edi. Reyn daryosi qirg'oqlaridagi eng go'zal va unumli yerlar, ularda joylashgan o'nlab shahar va qishloqlar katolik cherkoviga qarardi.



Martin Lyuter

Qirol hokimiyati kuchli mamlakatlarda cherkovning Rimga yuboradigan to'lovlari cheklab qo'yilgandi. Imperator kuchsiz, kichik knyazliklardan iborat Germaniya aholisini katolik cherkovi talar edi. Germaniyada katolik cherkovi uchun don bilan «katta ushur», ko'p joylarda sabzavot bilan «kichik ushur» va chorva mollari uchun «qon ushuri» olinardi.

XVI asr boshlarida Germaniya aholisining barcha toifalari katolik cherkovidan norozi edilar. Germaniyada XVI asr boshida keskinlashib ketgan ichki ziddiyatlar katolik cherkovini isloh qilish g'oyasini vujudga keltirdi. Bu goya 1517 yilda Germaniyadagi Vittenburg universiteti professori Martin Lyuter

(1483—1546) tomonidan ilgari surildi.

1517 yil 31 oktabrda Martin Lyuter indulgensiya yorliqlarini sotishga qarshi cherkov eshigiga o'zining dindorlarga qarata yozgan mashhur «95 tezis» (grekcha «qoida», «isbot») deb atalgan xitobnomasini yopishtirib qo'yadi. Aslida faqat ilmiy munozara uchun mo'ljallangan ushbu tezislarda lotinchadan nemis tiliga o'girilib, butun Germaniyani to'liqlantirib yuboradi. Bu voqea Germaniyada Reformatsiyaning boshlanishini anglatar edi.

Reformatsiya (lot. «reformatio» — «o'zgarish») — XVI asrda Yevropada Rim-katolik cherkovining zo'ravonligi va mutlaq hukmronligiga qarshi qaratilgan ommaviy diniy-siyosiy harakatidir. Lyuter ruhoniylar ham uylana olishlari, odatdagi kiyimlarni kiyishi, oddiy odamlar qanday bo'lsa, shunday bo'lishi kerak, deb hisoblardi. Cherkov ham «arzon» bo'lishi, uzoq cho'ziladigan marosimlardan qutulishi, ruhoniylarning qimmatbaho kiyimdan voz kechmog'i, cherkovning knyazlar va imperatorlarga bo'ysunmog'i kerakligini uqtirardi. Bunday ta'limot knyazlarning ham qiziqishlarini ifodalardi.

Oldiniga Papa Lev X bu chiqishlarga e'tibor bermadi. 1519 yilda Leypsigdagi munozaralarda Lyuter, cherkov papasiz ham yashay oladi, degan fikrni ilgari surdi. U ruhoniylarning alohida bir uyushmaligini rad qildi va Tangri qoshida har bir xristian ma'lum darajada o'zi ruhoniydur, dedi. Shunda papa unga anafema e'lon qildi.



Karl V

Papa vakillari anafema bullasini Germaniya bo‘ylab tarqatib, Lyuter asarlarini yoqishni tashkil qildilar. Bunga javoban Lyuter 1520 yil 10 dekabrda universitet professorlari va talabalari oldida papaning farmonini universitet hovlisida olovda kuydirdi hamda «Dajjolning bullasiga qarshi» degan pamflet yozdi. Lyuter bu talabnomasida imperator Karl V ga murojaat qilib, Rimni papa qo‘lidan tortib olishni va German imperiyasidagi cherkov yerlarining hammasini musodara qilishni taklif etdi.

1521 yil boshida Lyuter va uning tarafdorlari cherkovdan haydaldilar. Lyuter Rim sudiga borishdan bosh tortdi va 1521 yilda uni Vorms shahridagi imperatorlik sudiga chaqirishdi.

1521 yil 25 may kuni Vorms shahrida imperator Karl V ishtirokida reyxstag ochildi. Imperator papani quvvatladi. Papa imperatorga Fransiya qarshi olib boriladigan urushda ittifoqchi sifatida kerak edi. Seymga chaqirib keltirilgan Lyuterga o‘z qarashlaridan voz kechish taklif etildi. Lekin u fikridan qaytmadi va: «Mendan hamma narsani kutinglar, faqat qochishni va voz kechishni emas. Men qochmayman va eng so‘nggi kunimgacha tan oladiganim, o‘z ta’limotimdan kechmayman!», dedi.

Reyxstag oz ishini yakunlagach, imperator farmon matniga Lyuterni yeretik deb e‘lon qilish, uning kitoblarini tarqatish va o‘qishni taqiqlovchi bandlarni kiritdi. Lyuter qamoqqa olinishi mumkin edi. Ammo Saksoniya kurfyursti Fridrix III (1463—1525) uning qochishiga yordam berdi, Lyuterni o‘zini qasrlaridan biriga yashirib qo‘ydi. U yerda Lyuter ritsar Georg nomi bilan yashab, 1522 yil martigacha, ya’ni edikt o‘z kuchini yo‘qotgunga qadar turdi va Injilni nemis tiliga o‘girdi.

Lyuteranlarga qarshi Vorms ediktida ko‘rsatilgan qattiq choralar amalda qo‘llanilmadi. Imperator Fransiya va turklar bilan urush olib borar ekan, mamlakat birligini saqlab qolish va aholi keng qatlamlarining, shu jumladan, Lyuterga xayrixoh bo‘lganlarning yordamini olishdan manfaatdor edi. Shu sabab, 1526 yilgi Shpeyer reyxstagi Vorms ediktini to‘xtatib qo‘yadi.

1529 yilda Shpeyer reyxstagi Vorms ediktini yana qayta kuchga kiritdi. Bu yerda hozir bo'lgan 5 nafar lyuteran knyaz va 14 ta erkin shahar vakillari «Shpeyer protestatsiyasi»ni qabul qildilar. «**Protestant**» (lot. «kelishmaslik», «qarshilik») atamasi ana shunday paydo bo'ldi. Cherkov islohotchilari «protestantlar» deb ataldilar.

Germaniyaning shimoli va shimoli-sharqiy yerlari, shuningdek, Markaziy Germaniyaning ayrim knyazliklari lyuteranlikni qabul qildilar, janub esa katolikligicha qolaverdi.

Lyuterning cherkovga qarshi chiqishi 2 ta siyosiy qo'zg'olonga sabab bo'ldi: birinchisi — 1522 yilda Frans fon Zikkingen (1481—1523) boshchiligidagi ritsarlar qo'zg'oloni; ikkinchisi — 1525 yilgi dehqonlar urushidir.

Ritsarlar qo'zg'oloni. XVI asr boshlariga kelganda Germaniya ritsarlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Qachonlardir mustaqil sanalgan ritsarlar vaqtlar o'tishi bilan o'z huquqlarini yo'qotib bormoqda edi. Knyazlar hokimiyatining kuchayishi ko'pgina ritsarlarni ularga qaram bo'lishiga olib keldi.

Endigi gal imperator bilan bog'liq bo'lgan ritsarlarga keldi. Imperator hokimiyati shunchalik kuchsiz ediki, u knyazlarning intilishlariga qarshi tura olmas edi. 1495 yili Vormsdagi imperiya seymida ritsarlar o'rtasidagi urushlar man etildi. Keyingi yili «Imperiya sudi» tuzilib, u ham knyazlar qo'liga o'tdi. Masalani qurol bilan hal qilishga o'rgangan ritsarlar uchun bunday sudning tashkil etilishi yoqimsiz edi, chunki tinchlikni buzganlik uchun jazo knyazlarni chetlab o'tib, asosan ritsarlarning bo'yniga tushardi. Karl V ga taklif qilingan saylov shartlarida ritsarlik ittifoqlari man etilar, imperiyada ritsarlar ishtirokisiz knyazlarning boshqaruviga ruxsat berilar edi. Tabiiyki, ularning barchasi ritsarlarning g'azabini kuchaytirar, ularning umumiy noroziligini uyg'otar edi.

Reformatsiya ritsarlarning chiqishlariga turtki bo'ldi. Ularga imperator Karl V ning maslahatchisi va bosh qo'mondoni Frans fon Zikkingen bosh bo'ldi. Zikkingen Germaniyani bo'lib tashlagan feodallarni tugatib, o'rnida bitta qirol hukmronlik qilishini istar edi. Shu bois u reformatsiya boshlanganda lyuterchilarni qo'llab-quvvatlagan edi.



Frans fon Zikkingen

Qolaversa, ritsarlar orasida uning izdoshlari ko‘p edi. Ana shularni hisobga olgan Zikkingen ritsarlarni feodallarga qarshi kurashga jalb etmoqchi bo‘ldi.

1522 yil avgustida Landau shahrida imperiya ritsarlarining yig‘ini bo‘lib o‘tdi. Unda ritsarlar 6 yil muddatga ittifoq tuzdilar. Ittifoqqa Frans fon Zikkengen yetakchi qilib saylandi. 1522 yil sentabrda Zikkengen 15 ming kishilik qo‘shin bilan Trir arxiyepiskopi Richardga qarshi yurish boshladi. Lekin Trirni olishga kuchi yetmadi. Besh marta hujumdan keyin Zikkengen chekinishga majbur bo‘ldi. Ortiga qaytayotganda Zikkengen buyrug‘i bilan barcha cherkov va monastirlar yoqib yuborildi.

Shundan keyin Zikkengenga qarshi Trir, Pfals va Gessen knyazlari birlashdilar. 1523 yil 7 mayida Zikkingen o‘z qasri uchun bo‘lgan jangda o‘ldirildi. Bu mag‘lubiyatdan keyin ritsarlar siyosiy mustaqillikdan mahrum etildilar.

Germaniyada dehqonlar urushi va uning tarixiy ahamiyati. 1524 yilga kelib katolik cherkoviga qarshi boshlangan harakat dehqonlarning krepostnoylik tuzumiga qarshi urushiga aylanib ketdi. Qo‘zg‘olonning yetakchisi ruhoniy Tomas Myunser (1490—1525) edi. Myunserning g‘oyalari o‘z ustози Lyuternikiga nisbatan ancha xalqchil bo‘lib, u oddiy odamlarning qiziqishlarini ko‘zlardi. Myunser reformatsiyaning asosiy ishi dinning yangi ko‘rinishini yaratish emas, balki dehqon va shahar kambag‘allari yordamida ijtimoiy-siyosiy to‘ntarish qilish deb tushunardi. Myunserning g‘oyalarida dehqonlarning kichik mulklarini yaratish, ularni feodallar zulmidan ozod qilish mujassamlashgan edi.

1524—1525 yillarga kelib, dehqonlar urushi Shvabiya, Frankoniya Tyuringiya, Saksoniyaga yoyildi. Bu qo‘zg‘olonga Tomas Myunser boshchilik qildi. Harakatning markazi Myulhauzen shahri bo‘ldi. 1525 yil fevralida Myunserning bu yerga kelishi bilan shaharliklar eski Kengashni tarqatib yuborib, yangi «Mangu Kengash» degan tashkilot tuzdilar. Myunser va uning shogirdi Pfeyfer 8 mingga yaqin qurolli qo‘shin tuzishdi. Myunserning o‘zi harbiy ishda tajribasiz edi.

Birlashgan knyazlar qo‘shiniga Filipp Gessenskiy bilan Saksoniya gersogi Iogann Qattiq boshchilik qildilar. Knyazlarning qo‘shinlari 1525 yil 16 mayda Frankengauzen shahriga yaqin joyda qo‘zg‘olonchilarni tor-mor keltiradilar. Myunser qo‘lga olinib, qatl qilindi. 25 may kuni Myulhauzen shahri ishg‘ol qilindi. Hammasi bo‘lib 100 mingga yaqin dehqon o‘ldirildi.

Qo'zg'olonchilarning yengilishiga birinchi o'rinda ularning uyushmaganligi va umumiy boshlig'i yo'qligida edi. Ularning harbiy tayyorgarligi sust, intizomi bo'sh edi. Dehqonlarning soddaligi va ishonuvchanligi feodallarga qo'l keldi. Dvoryanlarning hamma talablarni bajarish haqidagi va'dalariga ishongan dehqonlarning bir qismi taslim bo'lgan, boshqalari uylariga qaytib ketgan. Bundan foydalangan feodallar dehqon otryadlariga hujum qilib, ularni bittama-bitta yengib borgan.

Germaniyada dehqonlar qo'zg'oloni to'xtagani bilan tartib o'rnatilmagan edi. 1555 yilda Augsburgda Reyxstag chaqirildi, u Germaniyadagi diniy urushlarga chiziq tortdi. Unda qabul qilingan qarorga ko'ra, har bir knyazlikda hukmdor o'zi tanlagan dinni o'rnatish huquqiga ega edi. Bundan buyon imperiyada qonun oldida teng bo'lgan katolik va lyuteranlik dinlari tan olinadigan bo'ldi.

Muvaffaqiyatsizlikka uchragan Karl V umrining qolgan qismini ispan monastirlaridan birida tugatish uchun barcha unvonlaridan voz kechdi.

Reformatsiyaga turtki bergan indulgensiya savdosi 1567 yilda papa Piy V ning buyrug'i bilan to'xtatildi.

O'ttiz yillik urush. XVII asr boshlarida Gabsburglar Yevropaning eng kuchli monarxlariga aylandi. Ularning kuchi boshqa Yevropa davlatlarini qo'rquvga soldi. Bundan tashqari, Gabsburglar protestantlarni ta'qib qilar va katolik hukumatlarini kuch bilan o'rnatardilar. Oqibatda, Yevropada siyosiy va diniy kurash avj oldi. Bu holat urush boshlanishiga olib kelishi muqarrar edi.

O'ttiz yillik urushning boshlanishiga quyidagilar sabab bo'ldi:

—Protestantlar din erkinligi va katoliklar bilan teng huquqlar uchun kurashi;

—Katolik cherkovi «protestant yeretikligini» yo'q qilib, hokimiyatni yana o'z qo'lga qaytarishga intilishi;

—Avstriya va Ispaniyani nazorat qilgan Gabsburglar sulolasining Yevropada o'z kuchini oshirishga intilishi;

—Fransiyaning Gabsburglarni yetakchi mavqeidan surib chiqarmoqchi bo'lganligi;

—Niderlandiyaning Ispaniyadan mustaqillikka erishmoqchi ekanligi;

—Shvetsiyaning Boltiqbo'yini o'z ichki dengiziga aylantirib, shimolning barcha savdo yo'llarini nazorat qilishga harakat qilganligidir.

Bu qarama-qarshiliklarning barchasi XVII asrning boshlarida Yevropaning ikki lagerga bo'linishiga olib keldi. Bir tomondan, Gabsburglar bloki (Ispaniya, Muqaddas Rim imperiyasi, Avstriya) va ular tomonidan qo'llab-quvvatlangan katolik ligasi (aholisi asosan katoliklar

bo'lgan nemis shaharlari va knyazliklarning ittifoqi), ikkinchi tomondan, ularning raqibi sifatida Chexiya, Shvetsiya, Daniya, Fransiya, Gollandiya va Yevangeliya Ittifoqi (Germaniyadagi protestant shaharlari va knyazliklari ittifoqi) o'zaro urushga tortildilar.

O'ttiz yillik urush ishtirokchilariga qarab to'rtta davrga bo'linadi:

1. Chex davri (1618—1625);
2. Daniya davri (1625—1629);
3. Shved davri 1630—1635);
4. Frank-shved davri (1635—1648).

O'ttiz yillik urushning boshlanishi Chexiya poytaxtida sodir bo'lgan voqealar bilan bog'liqdir. 1618 yilda Avstriya hukumati Chexiyada protestantlarni ta'qib qilishni kuchaytirdi. Natijada Chexiyada qo'zg'olon boshlandi. Graf Yindrix Turn boshchiligidagi kuchlar Praga qirollik saroyini egallab olishdi va imperator ma'muriyati vakillarini derazadan uloqtirishdi. Bu voqea tarixga Praga defenestratsiyasi (lot. **de fenestradan** — «derazadan») nomi bilan kirdi.


Qo'zg'olonni bostirish uchun Muqaddas Rim imperiyasi hukumati Chexiyaga qo'shin kiritdi. Shu orada protestant qo'zg'olonchilari Yevangeliya Ittifoqidan yordam olib, Venani qamal qildilar. Ammo feldmarshal Karl Byukua qo'mondonligi ostidagi o'n besh minglik imperator qo'shini Vena qamalini olib tashlab, protestantlarni chekinishga majbur qildi.

1620 yilda imperatorga yordam berish uchun Ispaniyadan yigirma besh ming kishilik qo'shin keldi. Noyabr oyining boshida Gabsburglarning birlashgan kuchlari Belogorsk jangida protestantlarni mag'lub etdi. Chexiya Yevangeliya Ittifoqining yordamidan ajraladi, u ham tez orada bo'laklanadi.

1621 yili protestantlar tomonidan Chexiya qiroli deb e'lon qilingan Fridrix V taxtdan ag'darilib, surgunga jo'natildi. Chexiyaning ko'p qismi imperator Ferdinand II nazorati ostiga o'tdi.

Gabsburglarning g'alabasi uning raqiblarini birlashishga majbur qildi. 1624 yil 10 iyunda Fransiya va Niderlandiya qirollari Gabsburglarga qarshi qo'shma harbiy harakatlar olib borish to'g'risida Kompyen shartnomasini tuzdilar. 15 iyunda bunga Angliya, 9 iyulda Shvetsiya va Daniya ham qo'shildilar. Shu tariqa, urushning ikkinchi bosqichi boshlandi.. Protestantlarga xayrixoh nemis knyazliklarining otryadlari uning qo'shinlariga qo'shilishadi.

1625 yilda Daniya va Norvegiya qiroli Kristian IV Angliya va Gollandiyaning moliyaviy ko'magida Muqaddas Rim imperiyasiga



Belogorsk jangi

shimoldan hujum qilish uchun yigirma minglik qo'shin to'playdi. Biroq 1626 yil 25 aprelda imperator generalissimusi Albrect fon Vallenshteyn qo'shini protestantlarni Dessau shahri yaqinida to'xtatib, ularni chekinishga majbur qildi. 1626 yil 27 avgustda Lutter jangida, feldmarshal Tilli qo'shnlari Kristian IV ni qattiq mag'lubiyatga uchratdi. Buning natijasida daniyaliklar 4 ming kishini yo'qotdi, 2 ming askar, 22 top va 60 ta bayroq qo'lga olindi.

Bunday zarbadan o'ziga kelishga ulgurmay, Daniyaga imperator qo'shnlari yurish boshlaydi va 1627 yilda qirollikning materikdagi barcha mulklarini egallab olishadi. 1628 yil avgustda Kristian IV dengiz desanti yordamida bosib olingan yerlarni qaytarib olmoqchi bo'ldi, lekin yana Vallenshteyn tomonidan tor-mor etildi. Shundan so'ng Kristian IV urushdagi mag'lubiyatini tan oldi. Tuzilgan tinchlik bitimiga ko'ra, u imperiya ishlariga aralashmaslik sharti bilan qo'ldan ketgan yerlarini qaytarib oldi.

1629 yil 6 martda imperator Ferdinand II butun Muqaddas Rim imperiyasida lyuteranlik, kalvinizm va boshqa protestant e'tiqodlarini taqiqlovchi «Restitutsiya edikti»ni chiqaradi. Unga ko'ra, barcha protestant mulklari katolik cherkovi ixtiyoriga o'tdi.



O'ttiz yillik urush davri askarlari

«Restitutsiya edikti»ning qabul qilinishi Shvetsiyaning urushga kirishiga sabab bo'ldi. Urushning uchinchi bosqichi boshlanadi. 1630 yil 4 iyunda Shvetsiya qirol Gustav II Adolf Germaniyaning shimoli-sharqidagi Pomeraniya qirg'oqlariga qo'shin tushiradi. Shvetsiya bosqinini Gabsburglarning boshqa raqiblari — Fransiya va Gollandiya moliyalashtirdi. Protestant nemis knyazliklari va shaharlari qo'shinlari qirol Gustav armiyasiga qo'shildilar.

1631 yil davomida shvedlar ketma-ket g'alaba qozondilar. 18 sentabr kuni Shvetsiya-Saksoniya birlashgan kuchlari imperator feldmarshali Tilli qo'shinlarini mag'lub etdi va butun Shimoliy Germaniyani egallab oldi. Keyin Saksoniya qo'shinlari Chexiyaga yo'l olib Pragani egallaydi. Bu bilan Gustav II Adolf asosiy kuchlarini markaziy Germaniyaga olib borishga erishadi.

1632 yil bahoriga kelib, shvedlar Germaniyaning eng yirik shaharlari — Erfurt, Vyurtsburg, Mayndagi Frankfurt, Myunxenni egallab, talon-taroj qildilar. Shvetsiyaning g'alabasi muqarrardek bo'lib tuyular edi, biroq 1632 yil 16 noyabrda qirol Gustav II ning jangda o'ldirilishi vaziyatni o'zgartirdi. Germaniya Ispaniyadan uzoq kutilgan qo'shimcha kuchlarni oladi. Natijada, 1634 yilda Ferdinand II ning o'g'li, bo'lajak

qirol Ferdinand III qo'mondonligi ostidagi qo'shin Nyordlingen jangida shved qo'shinlarini yengadi.

Shu bilan birga, shvedlar tomonidan yetkazilgan zarar Ferdinand II ni yon berishga majbur qildi. 1635 yil 30 mayda u protestantlar bilan Pragada tinchlik bitimini tuzdi. Lyuteranlar va kalvinistlar bosib olingan yerlarni qaytarib oldilar va katoliklar bilan huquqlari tenglashtirildi.

Praga tinchlik bitimi Gabsburglarning siyosiy raqiblarini qoniqtirmadi. Urushning to'rtinchi bosqichi boshlandi. 1635 yil 21 mayda Italiyadagi ittifoqchilari ko'magiga tayangan Fransiya o'zining ashaddiy raqibi Ispaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Fransuzlar bir qator kichik g'alabalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar. Ammo 1636 yilda Gabsburglar janubdan va shimoldan bir vaqtning o'zida Fransiya bostirib kirdilar. Ularning yurishi Parijda Lyudovik XIII tomonidan to'xtatildi.

Urush yana bir necha yil davom etdi. Unda Markaziy Yevropa yerlari talon-taroj qilindi. Ko'pgina shahar va qishloqlarning aholisi qirib tashlandi. Urushda qatnashgan mamlakatlar aholisi janglar, epidemiyalar va qo'zg'olonlari tufayli qattiq toliqqan edi.

1643 yil 19 mayda bo'lib o'tgan Rokrua jangida fransuzlar g'alaba qozondilar. Ispanlarning 5 mingdan ortiq askari o'ldirildi va 28 ta to'p o'ljaga olindi. Bu mag'lubiyat ispanlarning yengilmasligi to'g'risidagi afsonalarga chek qo'ydi va Ispaniyaning sinishini belgilab berdi.

Ayni paytda Muqaddas Rim imperiyasi hududida shvedlar bilan kurash davom etmoqda edi. Imperator qo'shinlarining qattiq qarshiligiga qaramay, ular yana Chexiya va Bavariyani egallab, Avstriyaga bostirib kirishdi. Gabsburglarning ahvoli tobora xavfli bo'lib bordi.

Nihoyat, 1648 yil 24 oktabrda urushayotgan tomonlar Vestfaliyada tinchlik bitimini tuzdilar. Uni tuzishda 135 nafar delegat qatnashdi. Tinchlik bitimida quyidagi kelishuvlarga erishildi:

—Gabsburglar o'zlarining sharqiy mulklari, jumladan, Avstriya va Chexiyani saqlab qoladigan bo'lishdi.

—Muqaddas Rim imperiyasining chegaradosh Elzas va shimoli-g'arbdagi uchta yepiskopat yerlari Fransiya o'tdi. Shu tariqa fransuzlar Reyn daryosining g'arbiy tomonidagi chegaralarini mustahkamladilar.

—Shvetsiya Germaniya shimolidagi qirg'oqbo'yi yerlar — Pomeraniya, Bremen yepiskopati va Vismar port shahrini oldi, Boltiq dengizida hukmron kuchga aylandi va Germaniya shimolidagi barcha kema qatnaydigan daryolari ustidan nazoratni qo'lga kiritdi. Shuningdek, imperiya shvedlarga katta miqdorda tovon to'lashga majbur bo'ldi.

—Niderlandiya va Shveysariya mustaqil davlatlar sifatida tan olindi va Gabsburglar hukmronligidan ozod qilindi.

—Muqaddas Rim imperiyasi faqat rasmiy ravishda imperatorga bo'ysunadigan 300 dan ortiq kichik davlatlarga bo'ldi.

—Restitutsiya farmoni bekor qilindi, Muqaddas Rim imperiyasi hududida din erkinligi e'lon qilindi.

O'ttiz yillik urush Yevropa tarixidagi eng qonli to'qnashuv bo'lib qoldi. Urush yillarida Germaniya aholisining 40-75% qirib tashlangan. Chexiya aholisi 2,5 milliondan 700 ming kishiga kamaygan. Markaziy Yevropaning ko'plab yerlari uzoq yillar davomida bo'shab qoldi. Muqaddas Rim imperiyasidagi 2 mingga yaqin qasr va qo'rg'onlar, 1,5 mingdan ortiq shahar va 17 ming qishloq vayron qilingan. Juda ko'p odam yuqumli kasalliklardan o'lib ketgan.

O'ttiz yillik urushning eng muhim natijasi bu Yevropa mamlakatlari hayotida din ta'sirining pasayishi bo'ldi. Endi ularning munosabatlari asosan iqtisodiy va geosiyosiy manfaatlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Savol va topshiriqlar

1. Germaniyaning iqtisodiy tuzumiga qisqacha tavsif bering.
2. Germaniyada reformatsiyaning boshlanishiga nimalar sabab bo'ldi?
3. Germaniyada dehqonlar urushi va uning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat bo'ldi?
4. O'ttiz yillik urushning boshlanish sabablarini ko'rsating
5. Vestfaliya tinchlik bitimining natijalarini aniqlang.

29-§. XVI—XVII asr birinchi yarmida Rus davlati

Rossiyada markazlashuv jarayonining amalga oshirilishi. Rus yerlarining birlashish jarayoni XVI asrning boshida tugadi. Knyaz Vasiliy III Moskvaga Ryazan knyazligining ikkinchi yarmi va Pskovni qo'shib oldi, Smolenskni esa Litva knyazligidan ozod qildi. Shu tariqa, Moskva hokimligi barcha rus yerlariga tarqaldi. Uning tarkibiga mordvalar, chuvashlar, karellar, neneslar, udmurtlar va boshqalar ham kirdi. Ulardan ayrimlari aralashib ketdi.



Ivan IV Groznyi

1533 yilda Vasiliy III o'limidan keyin taxtga uch yoshli Ivan IV o'tirdi. Yosh bo'lganligi bois davlatni onasi Yelena Glinskaya, keyinroq boyarlar – aka-uka Ivan va Andrey Shuyskiylar boshqardilar. Boyarlar hukmdorni yosh sanab, hukumatda o'z mavqelarini oshirishga intildilar. Shu maqsadda ular tomonidan tez-tez fitnalar uyushtirilar va Ivan IV ning eng yaqin kishilari jazoga tortilar edi. Bu holat kelgusida Ivan IV da boyarlarni butunlay tugatish istagini vujudga keltirdi.

13 yoshidan boshlab Ivan IV boyarlarga o'z kuchini o'tkaza boshlaydi. O'shanda Andrey Shuyskiyni o'zboshimchalikda ayblab, qatl ettirdi. Oqibatda, boyarlar Ivandan qo'rqib, ehtiyotkorlik bilan muomala qiladigan bo'ldilar.

Saroydagi og'ir vaziyatga qaramay, Ivan IV ko'p o'qir va keyinchalik o'sha davrning eng o'qimishli hukmdori sifatida tanilgan edi. Ayni vaqtda Ivan hech kim tomonidan cheklanmaydigan mutloq hukmronlik orzusi bilan yashadi. Faqat 15 yoshida balog'atga yetishi munosabati bilan davlat ishlarini o'z qo'liga oldi.

1547 yil 16 yanvarida Moskvaning Uspenskiy soborida Ivan IV ga tantanali ravishda podsholik toji kiydirildi. Bu bilan yosh hukmdorning mavqei Yevropa qirollariniki bilan teng bo'lib qoldi. Bu fikr o'smirdan chiqishi mumkin emas edi. Bunda mitropolit Makariyning o'gitlari muhim rol o'ynaganlini ta'kidlamoq zarur.

Endigi vazifa: mamlakatda siyosiy islohotlarni o'tkazish va markaziy hokimiyatni kuchaytirish edi. Podsho yoniga ishonarli kishilarni yig'ib oldi. Ularning kengashi Saylanma rada deb ataldi. Shundan keyin 1549

yilda birinchi Zemstvo sobori chaqirildi. Yig'inda dehqonlardan tashqari barcha tabaqa vakillari qatnashdi. Rossiyada tabaqaviy-vakillik monarxiyasi shakllandi. Bunday bo'lishiga podsho hokimiyatining nisbatan kuchsizligi sabab bo'ldi. Chunki, mavjud sharoitda podsho samoderjaviya (bir kishining mutloq hokimiyati) o'rnatishga intilar, lekin hokimiyatni boyarlar bilan bo'lib olishga majbur edi. Boyarlarning saroydagi ta'sirini pasaytirish uchun davlat boshqaruviga dvoryanlar va shaharliklarning yuqori qismini jalb etish zaruriyati paydo bo'ldi.

1550 yilda yangi qonunlar to'plami — Sudebnik qabul qilindi. 100 moddadan tashkil topgan Sudebnik rus tarixidagi birinchi normativ-huquqiy akt bo'lib, huquqning birdan-bir manbai deb e'lon qilindi. Sudebnik mahalliy noiblarning nufuzini tushirib, markaziy davlat organlarining mavqeini ko'tardi.

Markaziy hokimiyatning ijtimoiy bazasini mustahkamlash uchun davlat xizmatchilarini xolop (qul) ga aylantirish man etildi. Hukumat dehqonlarning huquqlarini kengaytirib, ularni jamoat ishlariga jalb etdi. Dehqon jamoalarining saylanadigan vakillari tergov va sud ishlarida qatnashishlari shart edi. Noiblar jamoa boshliqlari yoki oqsoqollari ruxsatisiz birorta dehqonni qamoqqa olishi mumkin emas edi. Qonun dehqon jamoalariga o'z-o'zini boshqarish, soliqlarni yig'ish va tartib ustidan nazorat qilish huquqini berdi.

Sudebnik jamiyatning barcha a'zolarini himoya qilar, shu bilan birga haqorat qilganlik uchun belgilanadigan jarimalar farqlanar edi. Masalan, boyarni haqorat qilganlik uchun — 600 rubl, dyak (knyaz kotibi) uchun — 200 rubl, birinchi darajali savdogar uchun — 50 rubl, posadlar (shaharliklar) uchun — 5 rubl, dehqon uchun — 1 rubl belgilangan edi. Xotin-qizlarni «xafa» qilganlik uchun darajasidagi erkaklarga nisbatan ikki baravar ko'p jarima to'lanar edi.

1550 yilda dvoryanlaridan ming nafari Moskvadan 60-70 km masofada mulk oldilar. Dvoryanlarning podsho qo'shinidagi xizmati ajralmas va merosiy deb e'lon qilindi. Yana o'qotar qurollar bilan qurollangan yarim muntazam streleslar qo'shini tuzildi. 1555—1556 yillarda Ivan IV «Xizmat to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Votchina egalari pomeschchiklar bilan bir qatorda askarlarni qurol-yarog' bilan ta'minlagan holda olib kelishlari shart qilindi. Qo'shinlarni ta'minlash sohasida boshqa muhim o'zgarishlar ham amalga oshirildi.



Streleslar polki

Qurolli kuchlarni takomillashtirish masalasi mamlakat uchun suv va havodek zarur edi. Negaki, Rossiya sharqdan Qozon xonligi, janubdan Qrim xonligi, shimolda Shvetsiya, G'arbda Polsha va Livoniya ordeni bilan chegaradosh edi. Ularning barchasi Rossiyaga dushman ko'zi bilan qarar va ruslar ustidan o'z ta'sirini kengaytirishga harakat qilayotgan edi. Bunday sharoitda Rossiya davlati qo'shnilarining yerlarini egallash yo'lini tutdi.

XVI asrning birinchi yarmida Rossiya—Qozon munosabatlari keskinlashdi. Qozon xonlari Rusga 40 marta yurish qilgan bo'lib, buning natijasida ko'p yerlar bo'shab qolgan edi. Hujumlarni to'xtatish uchun rus qo'shinlari Qozonga 3 marta yurish qildilar. Faqat 1552 yilgi yurish muvaffaqiyatli yakunlandi. Qozon xonligi Rossiya tarkibiga qo'shib olindi.

Shundan keyin rus qo'shinlari janubga qarab siljidilar. 1556 yilda Ashtarxon xonligining bosib olinishi bilan rus yerlari Kavkazga qadar cho'zildi. Yangi yerlarni Qrim xonlari va Usmoniy turklardan qo'riqlash uchun podsho u yerga qurolli otryad va bir nechta ruhoniyni jo'natdi.

Endigi navbat Livoniya ordeniga qaratildi. Bu orden o'z vaqtida nemis ritsarlari tomonidan Boltiqbo'yini egallash maqsadida tashkil etilgan bo'lib, Tevton ordenining Livoniya bo'limi negizida vujudga kelgan edi. Rus davlatining Boltiq dengizida erkin savdo qilish uchun intilishi

Shimoliy german shaharlari va Livoniya ordenining qarshiligiga duch keldi. Ikki o'rtadagi raqobat qurolli to'qnashuvlarga sabab bo'ldi.

1558 yil yanvarida Livoniya urushi (1558—1583) boshlandi. rus qo'shinlari Narva, Derpt, Neygauz kabi shaharlarni egallashdi. 1559 yilga kelib Livoniya ordeni to'liq tugadi. Ruslar Livoniya shaharlari bilan savdo masalasida muzokara o'tkazayotgan vaqtda orden yerlari Polsha, Litva, Daniya va Shvetsiya tomonidan bo'lib olindi. Oqibatda bu urush cho'zilib ketdi va Rossiyaning mag'lubiyati bilan yakunlandi.

Oprichnina siyosati va uning natijalari. Markazlashtirish siyosatini olib borar ekan, Ivan IV boyarlarning kuchli qarshiligiga duch keldi. Ularni yengish uchun podsho jazo choralarini kuchaytira boshladi. Shu maqsadda 1565 yilda Ivan IV davlat yerlarining bir qismini ajratib, uni **oprichnina** deb atadi. Unga joylashgan kishilar oprichniklar deyildi. Oprichninaga eng yaxshi yerlar va 20 ta yirik shahar (Moskva, Vyazma, Suzdal, Vologda, Velikiy Ustyug va boshqalar) ajratildi. Oprichninaga kirmagan yerlar **zemshina** nomini oldi.



Oprichnik

«Oprichnina» qadimgi ruscha «опричь» so'zidan olingan bo'lib, «chetda», «tashqarida», «alohida», «bo'lakcha» kabi tushunchalarda keladi. Moskva knyazligida beva ayol, shu jumladan, ulug' knyaginyalarga eri o'lganidan keyin qoladigan merosga nisbatan ushbu atama qo'llaniladi. Bu meros shunday mulk ediki, unga hech qanday huquqiy an'ana ta'sir qilmagan. Binobarin, oprichniklar o'zlarini alohida kishilar sifatida bilishar va barcha sud javobgarligidan ozod qilingan edilar.

Oprichniklarga ishonchli, sadoqati isbotlangan kishilar kiritilgan. Oldiniga ularning soni ming nafar bo'lgan, keyinroq 6-7 ming kishiga yetgan. Oprichniklar cheklanmagan huquqlarga ega edi. Ularning tashqi ko'rinishi chindanam qo'rqinchli edi: ustiga qora chakmon yopingan, qora tusdagi egar-jabduq bilan bezalgan qora otlar har qanday odamning ko'ngliga g'ulg'ula solar edi. Egarga bog'lab qo'yilgan itning boshi bilan eski supurgi oprichniklarning asosiy belgisi bo'lgan. Bu belgi podshoga sotqinlik qilgan istalgan kishini itdek g'ajib, eski supurgi bilan shipirib tashlashni anglatar edi.

Podsho ularga tayanib, o'z dushmanlarini yo'q qilmoqchi edi. Aynan shu davrdan boshlab Rossiyada chinakam samoderjaviya tizimi qaror topa boshladi. Mamlakatda ommaviy terror siyosati o'tkazildi.

Oprichninaning birinchi qurbonlari ko'zga ko'ringan boyarlar bo'ldi. Oprichniklar yordamida boyarlar va knyazlarning mulklari tortib olinib, dvoryan-oprichniklarga o'tkazib berildi. Omadi chopgan boyarlarga tortib olingan mulklari o'rniga chekka o'lkalar, masalan Bolgabo'yidan yerlar ajratildi. Oprichninaga qarshi norozilik bildirgan boyarlar qatl qilindi.

Oprichnina siyosatining eng yuqori cho'qqisi Novgorodning tor-mor etilishi bo'ldi. Novgorodlik boyarlar Rossiyadan ajralib chiqib, Polsha qirolining hukmronligi ostiga o'tishga intilayotganligi podshoni xavotirga solib qo'ydi. Bundan tashqari, novgorodliklar Ivan IV ni ag'darib, o'rniga knyaz Vladimir Andreyevich Stariskiyni o'tkazish niyatlari borligini oshkor bo'ladi. Podsho taxtiga da'vo qilishi mumkin bo'lgan knyaz Stariskiyni, uning xotini va qizini og'u berib o'ldiradi. Keyinchalik knyazning onasi Yefrosinya Stariskayani boyarlar fitnasiga boshchilik qilganlikda ayblab qatl ettiradi.

1569 yil oxirida Ivan IV Novgorodga qo'shin tortdi. Bir oy davom etgan talon-tarojda oprichniklar minglab odamlarni o'ldirdilar. Undan keyin podsho Pskovga qarab yo'l oldi. U yerda boyarlar qattiq qiynoqlarga solinib o'ldirildi. Ularning izidan xotinlar va bolalardan iborat 60 kishi qatl etildi.

Moskvaga qaytishi bilan podsho yirik terror jarayonini uyushtirdi. 1570 yilning iyulida Moskvaning o'zida 200 kishi o'ldirildi. Mamlakatda sal shubha ostida odam o'ldirish odatga aylandi. Hech kim o'zini erkin va xavfsiz his qila olmas, ko'pchilik chet davlatlarga qochib ketishni afzal bilar edi. Mana shunday ommaviy terror siyosati tufayli podshoga «Grozniy», ya'ni «Qo'rqinchli» laqabi berildi.

Oprichnina siyosati Rossiya uchun kulfat keltirdi. Ko'pgina kishilar halok bo'ldi, xojalik izdan chiqdi. Taniqli qo'shin boshliqlarining qatl etilishi mamlakat mudofaa qobiliyatining susayishiga olib keldi.

1571 yilda Qrim xoni Davlat Girey I Moskvaga qo'shin tortdi. Xalqni talon-taroj qilishga o'rgangan oprichniklar Moskvani himoya qilgani kelmadilar. Zemshinadan 5 polk yig'ilgan holda oprichniklardan atigi bir polk keldi. Bu qo'shin jang qila olmadi. Moskva qrimliklar tomonidan egallanib, yoqib yuborildi. Yuz bergan qirginda o'n minglab moskvaliklar halok bo'ldilar.



Davlat Girey I.
XVI asr miniatyurasi

Magʻlubiyatdan soʻng Ivan Grozniy oprichniklarni jazolashga qaror qildi. Oprichniklarning barcha yetakchilari qirib tashlandi. Qoʻshinni mustahkamlashga alohida eʼtibor berildi. Vaqtida koʻrilgan choralar oʻzining ijobiy natijasini berdi.

1572 yilda Qrim xoni yana Moskvaga qarab qoʻshin tortdi. Davlat Girey 40 minglik qoʻshin toʻplagan, turk sultoni unga yordam uchun 7 minglik yanicharlar hamda noʻgaylar va cherkaslardan iborat katta kuchni yuborgan edi. 1572 yilning 29 iyulida xonning 60 ming kishilik jangchisi ruslarning 20 minglik qoʻshini bilan Moskvadan 50 km janubdagi Molodi qishlogida toʻqnashdi. Mixail Vorotinskiy va Dmitriy Xvorostin bosh boʻlgan rus qoʻshini xonga qaqshatqich zarba berdi. Xon qoʻshinidan faqat 15 ming kishigina

Qrimga qaytib keldi, xolos. Magʻlubiyatdan keyin Qrim xonligi oʻz harbiy salohiyatini vaqtincha yoʻqotdi. Ularning Rusga bosqini 20 yilga toʻxtab qoldi.

Erishilgan ulkan gʻalabadan keyin, Ivan Grozniy 1572 yilning kuzida oprichninani butunlay tugatdi. Mamlakat yerlarining ikkiga boʻlinishi ham toʻxtatildi. Podsho dushmanlarini qidirishda yordam bergan barcha oprichniklar yoʻq qilindi. «Oprichnina» soʻzini tilga olish oʻlim tahdidi ostida taqiqlab qoʻyildi. Xalq uchun oprichnina tugadi, lekin podshoning boyarlarga qarshi terrori davom etaverdi.

Rossiyada suronli yillarning boshlanishi va Romanovlar sulolasi hokimiyatining oʻrnatilishi. Ivan Grozniyning 50 yillik hukmronligi cheksiz urushlar, oprichnina, yalpi qirgʻinlar misli koʻrilmagan iqtisodiy tanazzulga olib keldi. 1580 yillarga kelib ilgari gullab-yashnagan yerlarning katta qismi boʻshab qoldi. Butun mamlakat boʻylab tashlandiq qishloqlar koʻpaydi, haydaladigan yerlar oʻrmonlar va begona oʻtlar bilan qoplandi. Uzoq davom etgan Livoniya urushi natijasida mamlakat gʻarbiy yerlarining bir qismini yoʻqotdi.

1584 yilda Rossiya taxtiga Ivan IV ning o'g'li Fyodor Ivanovich o'tirdi. Podsho Fyodor kasal bo'lganligi uchun davlat ishlari qaynisi Boris Godunov tomonidan olib borildi. 1598 yil 7 yanvarda Fyodor o'lganidan keyin Zemskiy Sobori qarori bilan Boris Godunov podsho qilib saylandi. Shunday qilib, u taxtni meros orqali emas, balki Zemskiy soborida saylovlar orqali olgan birinchi rus podshosi bo'ldi. Qariyb 7 asr hukmronlik qilgan Ryurikovlar sulolasi hukmronligi to'xtadi.



Boris Godunov

Godunov davrida mamlakatda keng ko'lamli qurilishlar avj oldi. Moskvada ilk bor suv quvuri o'tkazildi. Polsha hujumidan saqlanish uchun Smolensk qo'rgon devori qurildi. Moskvaning o'zida ham mustahkam mudofaa devorlari bunyod etildi.

Dehqonlar ahvolini yengillatish choralari ko'rildi. Qochoq dehqonni izlash muddati 5 yil etib belgilandi. Agar shu vaqt ichida topilmasa, u erkinlikka chiqar edi. Kambag'al pomeschchiklar yerga o'z qo'llari bilan ishlov bersa, soliqlardan ozod qilinar edi.

Tashqi siyosatda Godunov o'zini iste'dodli diplomat sifatida ko'rsatdi. Rossiya muvaffaqiyatsiz Livoniya urushi tufayli Shvetsiyaga boy berilgan barcha yerlarini qaytarib oldi. Rossiya va G'arb o'rtasida yaqinlashuv boshlandi. U chet elliklarni saroy xizmatiga taklif qila boshladi. Tashqi savdo uchun hokimiyat eng qulay rejimni yaratdi. Dvoryanlarni o'qish uchun G'arbga yuborishga qaror qilindi. Ammo bu natija bermadi. O'qishga ketganlarning hech biri o'z yurtiga qaytib kelishni istamadi.

Muvaffaqiyatli boshlangan Boris Godunovning hukmronligi qayg'uli yakunlandi. Boyarlarning bir qator fitnalari umidsizlikni keltirib chiqardi va tez orada chinakam falokat boshlandi. 1601—1603 yillarda mamlakatda 3 yil davom etgan uzluksiz ocharchilik bo'ldi. Nonning narxi 100 barobar oshdi. Boris nonni ma'lum narxdan yuqori sotilishini taqiqladi, hatto narxlarni oshirganlarni ta'qib ham qildi. Ochlikdan azob chekayotganlarga yordam berish uchun kambag'allarga pul tarqatdi. Ammo non qimmatlashdi va pul o'z qadrini yo'qotdi. Boris davlat omborlarini och qolganlar uchun ochishni buyurdi. Biroq, hatto ularning oziq-ovqatlari ham barcha ochlar uchun yetarli emas edi. Butun mamlakat bo'ylab

odamlar non izlab Moskvaga yo'l oldilar. Oqibatda birgina Moskvaning o'zida 127 ming kishi ochlikdan o'ldi. Ularni ko'mishga hamma vaqt ham ulgurmaganlar.

Vaziyatning keskin yomonlashuvi ommaviy tartibsizliklarga olib keldi. Og'ir vaziyat Rossiyada soxta podshoning paydo bo'lishi uchun sharoit yaratib berdi. El ichida shahzoda Dmitriyning mo'jiza bilan tirik qolganligi to'g'risida mish-mishlar tarqaldi. Shahzoda Dmitriy 1591 yilda sirli tarzda o'ldirilgan, aholi bu ishda Boris Godunovning qo'li bor deb ishonar va bo'layotgan ofatda uni ayblar edi.

1601 yilda Ljedmitriy (soxta, yolg'on Dmitriy) paydo bo'ldi. Uning chin ismi Grigoriy Otrepyev bo'lib, Chudov monastiridan qochib ketgan edi. Otrepyev Polshaga bordi va katoliklikni qabul qildi. Polsha hukumati uni qo'llab-quvvatladi. Buning evaziga taxtga o'tirgandan so'ng, Smolensk yerlarining yarmini va Chernigov-Seversk yerlari bilan birga Polshaga berishga, Rossiyada katolik dinini qo'llab-quvvatlashga so'z berdi. 1604 yil 16 oktabrda Ljedmitriy polyaklar va kazak qo'shinlari bilan Moskvaga qarab yurdi. 1605 yilda Boris Godunov qo'qqisidan vafot etdi. Xalq yordamida Ljedmitriy I Moskvaga tantanali ravishda kirib keldi. Boris Godunovning o'g'li va xotini o'ldirildi.

Ljedmitriyning Moskvadagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. Uning rus urf-odatlarini nazar-pisand qilmasligi, boshqaruv to'lig'icha chet elliklarga berilishi, ruslarning polyaklar tomonidan haqorat qilinishi xalqning joniga tegdi. Qolaversa, uning kimligi fosh etilgan edi. Unga qarshi tayyorlangan fitnaga Vasiliy Shuyskiy, Vasiliy Golisin singari rus boyarlari turdilar. 1606 yil 17 mayda Ljedmitriy I davlat to'ntarishi natijasida o'ldirildi. 19 may kuni taxtga Vasiliy Shuyskiy chiqarildi.

Mamlakatdagi ichki kurashlar, xalq qo'zg'olonlari, Polsha va Shvetsiyaning rus yerlariga bostirib kirishi vaziyatni keskinlashtirdi. Shu davrda Rossiya taxtiga da'vo qilgan Ljedmitriy II paydo bo'ldi. Ammo u muvaffaqiyatga erishmadi. Rossiya uchun og'ir bir sharoitda 1610 yil 27 iyul kuni boyarlar to'ntarish o'tkazib, Vasiliy Shuyskiyni taxtdan ag'dardilar. Hokimiyat 7 ta boyardan iborat guruh qo'liga o'tdi. Ular davlatga sotqinlik qilib, Polsha qiroli Sigizmund III ning 15 yoshli o'g'li Vladislavni pravoslaviyaga o'tish sharti bilan Rossiya taxtiga chiqarmoqch bo'ldilar. Lekin Sigizmund III o'g'lini jo'natmay, o'zi Rus taxtiga o'tirmoqchi bo'ldi.



Kuzma Minin va Dmitriy Pojarskiy

Rossiyada chet el bosqiniga qarshi keng ko‘lamli kurash avj oldi. Ryazan shahrida birinchi xalq qo‘shini shakllandi va mamlakatni ozod qilish harakatini boshladi. 1612 yil oktabrda knyaz Dmitriy Pojarskiy va Kuzma Minin boshchiligidagi ikkinchi xalq qo‘shini Moskvani ozod qilib, Polsha garnizonini taslim qildi.

1613 yil 6 yanvarda Moskvada Zemskiy sobori ish boshlandi. Unda xizmatkorlar va krepostnoylardan tashqari aholining barcha qatlamlari qatnashdi. Soborda rus podshosini saylash masalasi hal qilindi. Patriarx Filaretning 16 yoshli o‘g‘li Mixail taxtga munosib qilib ko‘rsatildi. Bu taklif Moskva boyarlari va shahar aholisi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Natijada 1613 yil 21 fevralda Zemskiy sobori Mixail Fedorovich Romanovni podsholikka sayladi. Uning taxtga chiqishi Rusda uzoq vaqt davom etgan keskinlikka chek qoydi va Romanovlar sulolasi hukmronligini boshlab berdi.

Savol va topshiriqlar

1. XVI asr I yarmida Rossiyaning ijtimoiy-siyosiy tuzumini tavsiflab bering.
2. Ivan IV tomonidan olib borilgan siyosatning mohiyatini ochib bering.
3. Nima sababdan Ivan IV mamlakatda oprichnina siyosatini o‘tkazdi?
4. Rossiyada soxta podsholarning taxtga kelish sabablarini ko‘rsating.
5. Romanovlar sulolasi hokimiyati qanday qilib o‘rnatildi.

30-§. O'rta asrlar davrida Yevropa madaniyati

O'rta asrlar davrida Yevropada ta'lim va maorif. O'rta asr Yevropa madaniyati cherkov g'oyalari bilan yaqindan bog'langan edi. Cherkov ta'siri o'rta asr madaniyatining turli sohalarida, chunonchi, fan, maktab, adabiyot va san'atda aks etdi. Kishilarning olam to'g'risidagi bilimlari mahalliy cherkov ta'limoti doirasi bilan cheklanardi. Boshqa mamlakatlar to'g'risida ma'lumotlar juda oz bo'lganligidan, yevropaliklar ancha vaqtlargacha olis yurtlar haqida har qanday uydirmalarni to'qishardi. Fan va texnika taraqqiyoti darajasi juda past bo'lganligidan, odamlar qurg'oqchilik, toshqin va kasalliklar oldida ojiz edilar.

Cherkov va monastirlar huzurida tashkil etilgan quyi maktablar o'z oldiga savodxon dindorlarni tayyorlashni maqsad qilib qo'ygan. Bu maktablarda lotin tili, ibodat va duolar o'qish tartiblarini o'rgatishga alohida e'tibor berilar edi. Diniy maktablarda sakkiz yoshli bolalar ham, o'smir yigitlar ham yoshiga qarab, sinflarga bo'linmasdan birga o'qitilgan.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining hammasidagi ta'lim muassasalarida o'sha vaqtda biron xalq gapirmaydigan lotin tilida o'qitilgan. Ko'pincha butun boshli maktabda bir dona kitob bo'lib, muallim uni navbat bilan bolalarga berib, ularning savodini chiqargan. Bolalarda o'qishga havas tug'dirishga harakat qilinmas, ammo itoatsiz talabalar qattiq savalanar edi.

IX asrda cherkov — yepiskoplik maktablari rivojlanib, keyinchalik ular asosida o'rta asr universitetlari vujudga kelgan. G'arbiy Yevropadagi ilk universitetlar XI asrda paydo bo'lgan. Universitet — lotincha «majmua» degan ma'noni anglatadi. Atama umumiylik ma'nosini berib, unda turli sohalar birlashtirilganligi aks etgan.

Bu vaqtga kelib jamiyatda ma'lum sohalar uchun mutaxassislar, masalan, huquqshunoslar, shifokorlar, o'qituvchilar tayyorlash uchun maxsus ta'lim tizimini tashkil qilish zaruriyati tug'ildi. Ilmiy darajalar (bakalavr, magistr, doktor) tizimi, umumiy va maxsus fanlarni uzviylikda o'qitish tartiblari ham o'sha davrlarda yaratilib, to bugungi kungacha takomillashib bordi. Darajalarning taqsimlanishi, o'z navbatida, universitet bosqichlarining paydo bo'lishiga olib keldi.

Ko'pchilik universitetlarda ilohiyot, huquqshunoslik va tibbiyot fakultetlari ochilib, ularda ta'lim 10 yil va undan ham ko'proq davom etgan. Universitet diplomlarini xalqaro miqyosda tan olish an'anasi ham o'rta asrlarda paydo bo'lgan. Ta'limning birinchi bosqichi 7 ta fanni o'z ichiga olgan ikki davrdan iborat edi:

I davr — trivium (grammatika, notqlik, mantiq);

II davr — kvadrium (arifmetika, astronomiya, musiqa, geometriya).

Oliy maktablar XIII asrda Boloniya, Monpele, Palermo, Parij, Oksford, Salerno va boshqa shaharlarda tashkil topdi. Umuman, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XV asrga qadar Yevropa davlatlarida 60 ga yaqin universitet ochilgan.

Universitetlar erkin boshqaruv va moliyaviy mustaqillik huquqlariga ega bo'lib, bu haqdagi yorliq qirol yoki Rim papasidan olingan. Universitetlar mustaqilligi uning ichki tartib-qoidalariga, intizomga qattiq rioya qilish bilan mujassamlashtirilgan.


Universitetda alohida fan o'qituvchilari yig'ilib, o'z birlashmalari— fakultetlarni tuzib, unga dekan saylaganlar. Universitet boshlig'i—rektor o'qituvchi va talabalarning umumiy yig'ilishida saylangan.

O'rta asrlardagi eng yirik universitet Parijda bo'lgan. Unga 1257 yili fransuz qirollik uyi ruhoniysi Rober de Sarbon asos solgan. Hozirgi kunda dunyoga mashhur Sarbonna universiteti shu tariqa tashkil topgan.

Universitetlar paydo bo'lishida talabalarning bilim va adolat izlab, ko'chib yurishlari ham katta ahamiyat kasb etgan. Masalan, 1168 yilda angliyalik talabalar Parij universitetida huquqlari poymol qilinayotganligi sabab Angliyaning Oksford shahriga ko'chib ketganlar. Shu tariqa Oksford universiteti vujudga kelgan. 1209 yilda ushbu universitet talabalarining g'alayonlari esa ularning ko'p qismini Kembrij shahriga ketishlariga va Kembrij universitetiga asos solinishiga sabab bo'lgan.

Germaniyada ham universitetlarning o'ziga xos tizimi shakllandi. Bu universitetlar, birinchidan, ta'lim berish, izlanishlar olib borish va bakalavr, magistr, doktor darajalarini berish huquqiga ega edilar. Bu huquq asosan diniy hokimiyat tomonidan berilgan. Ikkinchidan, ular mustaqillikka ega bo'lib, o'z nizomi va ichki tartib-qoidalari asosida faoliyat yuritganlar. Uchinchidan, ular o'z a'zolarini o'zlari sud qilganlar, ya'ni hududiy va shahar hokimiyati tomonidan berilgan imtiyozlarga muvofiq ularni turli soliq va to'lovlardan ozod qilish huquqiga ham ega edilar.

Shunday qilib, o'rta asrlarda universitetlar tizimining tashkil topishi va ularning faoliyati keyingi davrlardagi ilmiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun katta ahamiyat kasb etdi.



**Notr Dam la Grand cherkovi
Roman uslubi**

Maktab va universitetlarning ko‘payib borishi kitobga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Ilk o‘rta asrlarda kitob qimmatbaho buyum bo‘lib, u pergamentga — buzoq terisidan tayyorlangan maxsus varaqlarga xattotlar tomonidan yozilgan. XII asrdan boshlab alohida kitob chop etish ustaxonalarining ochilishi ularning birmuncha arzonlashuviga olib keldi. XIV asrdan qog‘ozning keng qo‘llanishi esa, uni yanada ko‘proq chiqarish imkoniyatini yaratdi. Qog‘oz Xitoydan Sharq

davlatlari, jumladan, Samarqand orqali Yevropaga kirib keldi. Ispaniyada ilk qog‘oz ustaxonalari XII asrdan ishga tushdi. Keyinchalik, XIV asrdan bu soha Italiyada ham rivojlandi. Yevropadagi ustaxonalarda ilk qog‘oz eski lattalardan tayyorlangan.

Germaniyada 1445 yil Iogann Guttenbergning kitob bosish uskunasi yasashi natijasida kitob ommaviy tarqalib, Yevropa madaniy hayotining yanada yuksalishiga olib keldi.

O‘rta asrlar davrida me‘morchilik va haykaltaroshlik. Yevropada qurilish-me‘morchilik sohasi XI asrdan boshlab tez rivojlandi. Oldinlari barcha binolar, hatto, feodal qo‘rg‘onlari ham yog‘ochdan qurilgan. O‘rta yer dengizi havzasidagi shaharlar qurilishida toshni ashyo sifatida ishlatish uchun bir necha asr kerak bo‘ldi.

Toshning yumshoq turlari bo‘lmagan mamlakatlarda, jumladan, Angliya va Polshada binolar pishiq g‘ishtdan qurilgan. Ibodatxonalar va monastirlar toshdan ko‘tarilgan.

X—XIII asrlarda G‘arbiy Yevropa qurilishida roman uslubi keng tarqaladi. «Roman» tushunchasi Qadimgi Rim madaniyatiga bog‘liq degan ma‘noni anglatadi. Bu qadimgi Rim san‘atining so‘nggi davriga xos uslublarga murojaat qilinganiga muhim ishora edi. Ushbu uslub yirik binolarning qat‘iy geometrik shakli va tuzilishining oddiyligi bilan ajralib turadi. Qurilishda ark, ravoqlardan keng foydalanilgan holda, eshik va derazalar tor qilinadi. Binoning tashqi ko‘rinishi aniqlik va oddiylilik, sovuqlik, ayrim hollarda qorong‘ulik bilan yo‘g‘rilgan, buyuklik va vazminlikni o‘zida gavdalantiradi.

Roman uslubi Fransiyada keng tarqaldi. Bunga Klyunidagi (XI asr) cherkov, Puatyedagi Notr Dam la Grand cherkovi (XI asr) misol bo'la oladi.

Bundan keyingi davrda gotika uslubi keng tarqaladi. «Gotika» atamasi shartli bo'lib, qadimgi Rimni qulatgan got qabilasi nomidan olingan. Mazkur uslubdagi binolar mumkin qadar tepaga cho'zib qurilgan. Buning sababi shundaki, aholi soni oshib

borgan, baland va mustahkam qo'rg'on devorlari bilan o'ralgan shahar maydonini kengaytirish oson bo'lmagan. Eniga o'sishga imkon topa olmagan binolar bo'yiga qarab o'stirilgan. Yarim doirali qubbali peshtoq o'rniga endilikda uchi nayzasimon peshtoq qilinadigan bo'ldi. Bu uchli peshtoq va gumbazlarni Yevropaga dastlab musulmon ustalari olib kirdilar. Gumbazlar sinch ustiga o'rnatilib, ibodatxonaning baland va ko'rkam ishlangan ustunlariga tayanib turardi. Shu tariqa, hozirgi zamon qurilishida ishlatiladigan temir-beton va po'lat karkaslar (sinchli) kabi qurilmalar paydo bo'ldi.

Gotika uslubida qurilgan eng yirik ibodatxonalar minorasining uchi 150 metrga yetadi. Fransiyaning Shartr shahridagi cherkovning balandligi — 115 metr, Strasburgdagisi — 142 metr, ya'ni 48 qavatli binoning bo'yiga tengdir. Ushbu yirik inshootlar ba'zan yuzlab yillar davomida qurilgan.

XII asrda Fransiyada, XIII asrda Italiya va Germaniyada gotika uslubi to'la hukmronlik qildi. Bu davrda me'morchilik san'atning butunlay yetakchi turiga aylanib, unda diniy inshootlar — cherkov va ibodatxonalar qurilishi ustuvor yo'nalishni tashkil etadi.

Gotikada devorlar asosiy rolni o'ynamaganligi uchun bino ichiga yorug'likning erkin kirishini ta'minlovchi keng eshik va derazalardan foydalanilgan. Bu xristianlik uchun katta ahamiyat kasb etgan. Negaki, u yorug'likka ilohiy, sirli hodisa sifatida yondoshadi.

Yevropa me'morchiligida roman va gotika uslublaridan tashqari Italiyada Vizantiya uslubidan (Venetsiyadagi Avliyo Mark cherkovi, qisman Dojlar saroyi va boshqalar) va Ispaniyada arab uslubidan ham foydalanilgan.



Shartr sobori. Gotika.

O'rta asrlarda haykaltaroshlik san'ati me'morchilik bilan bog'liq ravishda rivojlangan. Ibodatxona va cherkovlar payg'ambarlar, avliyolar, yepiskop va qirollarning yuzlab haykallari bilan bezatilgan. Haykallarning asosiy buyurtmachisi cherkov bo'lganligi bois, ular diniy mavzuda yaratilgan edi. Haykaltaroshlarni ayniqsa onaning bolaga bo'lgan mehr-muhabbatini ulug'lash qiziqtirgan. Bu hol Bibi Maryamning ko'plab haykallarida o'z aksini topgan. Yevropada uni «**madonna**», ya'ni «xonim», «bekam», deb ulug'lashgan.

Inson tanasining go'zalligini ulug'lagan antik davr san'atkorlaridan farqli o'laroq, o'rta asr ustalari odamlarning fikri, his-tuyg'usi va kayfiyatlarini, ya'ni ko'proq ichki dunyosini ifodalashga harakat qilishgan. Roman uslubidagi haykallarda odamlar aytarlik darajada jozibali tasvirlanmagan. Ustalar odamlarning ichki tuyg'u va kechinmalarini bo'rttirib aks ettirish niyatida haykallarni ko'p hollarda g'ayritabiiy ko'rinishda (ozg'in, xunuk) aks ettirganlar.

Gotika uslubidagi haykallarda odamlar qiyofasi birmuncha to'g'ri tasvirlangan. Ularning qaddi-qomatlari, kiyimlari burmalaridan ham bilinib turadi. Haykallarda ko'proq harakat holati ifodalangan.

Roman uslubida qurilgan ibodatxonalarining ichki devorlariga, shiftiga ko'p surat solinardi. Bu suratlarda aziz avliyolar, payg'ambarlar siymolari tasvirlanardi. Gotika uslubidagi ibodatxonalar devorlarida suratlar nisbatan oz bo'lgan. Ularning o'rniga katta derazalar, rangli oyna bo'laklaridan ishlangan vitrajlar, surat va manzaralar ibodatxona ichidagi ustunlarda, gumbaz va polda jilvalanib, unga juda go'zal hamda tantanali tus bergan.

Adabiy hayot. VIII—IX asrlar Yevropa adabiyotida jangovar she'riyat shakllandi. Jangovar dostonlar asosan ikki yo'nalishda, ya'ni tarixiy voqealarga va xayoliy tasavvurlarga, xalq ertaklari va afsonalariga mos ravishda yaratilgan.

Tarixiy jangnomalarga fransuz xalq og'zaki ijodining «Roland haqida qo'shiq» yoki ispan adabiyotiga oid «Sid haqida qo'shiq» asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Germaniyada yaratilgan «Nibelunglar haqida qo'shiq» dostoni esa tarixiy haqiqat va afsonalarni o'zida mujassamlashtirgan asardir.

O'rta asrlar madaniyatining eng yorqin sahifalari keyinchalik romantik tus olgan ritsarlar adabiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Uduumlarga binoan ritsar ko'plab fazilatlarga ega bo'lishi kerak edi. Dastlab ritsarlar jasurlik, saxiylik va olijanoblik kabi xususiyatlar haqida unchalik ko'p o'ylashmagan. Ularning hayotdagi ko'p an'analari yuzaki bo'lib, bular ko'z-ko'z qilish maqsadida bajarilgan. Ritsarlar g'olib bo'lish va shon-

shuhratga erishish yo'lida hech narsadan qaytmaganlar. Ularning qahramonliklari va ishqiy sarguzashtlari ham go'yoki odatiy holdek tasvirlangan. Ritsarlar hayoti aks ettirilgan muhabbat fojiasi «Tristan va Izolda» qissasida o'z ifodasini topgan.

Yevropada Uyg'onish davri madaniyati. «Renessans» so'zining ma'nosi o'rta asr jaholatidan voz kechish, antik (yunon-rim) madaniyat va san'at an'alariga qaytish, uning Uyg'onishi davridir. Shu bilan birga, Renessans badiiy uslub hamdir. Ikki yarim asr davomida Italiyada, so'ngra boshqa Yevropa mamlakatlarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Birinchi navbatda inson tafakkuri o'zgardi: odamlar koinotga, yerga, borliqqa, o'ziga boshqacha qaray boshladi. Ammo buni tushunish oson kechmadi. Bunda, ayniqsa, o'rta asr tafakkuri kishanlaridan xalos bo'lish lozim edi. Shu bois ham inson endilikda antik madaniyatning boy merosiga murojaat eta boshladi.

Uyg'onish madaniyatining asosiy va muhim xususiyati bu—gumanizm edi. Ushbu davr madaniyatida gumanistik (insonsevar), ya'ni, insonni ulug'lovchi g'oyalar birinchi o'ringa chiqdi. Hayotda faqat insonning ijodiy qobiliyatlarini, aqlni tan olish yerdagi baxtga intilish bilan almashindi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish o'tmish madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishni taqozo etardi.

Gumanistik g'oyalar o'rta asrlarning buyuk siymosi Dante Aligyeri (1265—1321) qalamiga mansub «Ilohiy komediya», «Ziyofat», «Monarxiya» asarlarida bayon etilgan. Dante xristian aqidalarini o'zgarmas haqiqat sifatida tan olgan holda, ilohiy va insoniy munosabatlarni yangicha talqin qiladi, ularni bir-biriga zid qo'ymasdan, har ikkalasini o'zaro birlikda deb biladi. Dante fikricha, inson o'z farovonligi uchun o'zi kurashishi lozim. Boylik yoki merosga asoslangan nufuz va obro' kishi taqdirida hal qiluvchi omil bo'lmaydi, aksincha inson o'zining shaxsiy fazilat va sifatlariga tayanib baxt saodatga erishmog'i lozim.

Italiyalik shoir Franchesko Petrarka (1304—1374) birinchi bo'lib antik davr madaniyatiga, Gomer va Vergiliylar ijodiga qaytish to'g'risida gapiradi. Petrarka xristianlikni rad etmaydi, ammo uning ta'limotida din o'zgacha, insonsevar yo'nalish kasb etgan. Shoir antik davr madaniyati va ma'rifatini o'tib ketgan oltin asr deb hisoblab, ushbu merosni zamondoshlariga aniq va tushunarli holda yetkazishga harakat qildi. «Mening sirim» nomli asarida Petrarka insonning eng chuqur ichki ziddiyatlari va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi.

Fransuz Uygʻonish davrining yorqin namoyandasi **Fransua Rable** (1494—1553) oʻzidan «Gargantuya va Pantragryuel» nomli satirik sarguzasht, fantastik roman qoldirdi. Maʼlum darajada utopik gʻoyalarni oʻzida mujassamlashtirgan bu roman tarbiya, urush va monastir hayoti mavzusiga bagʻishlangan boʻlib, unda Rablening jamiyat, uni rivojlantirish, inson huquqlari, kishilar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarga doir qarashlari aks ettirilgan.

Uygʻonish davri sanʼati. Uygʻonish davri sanʼatida buyuk daholar yetishib chiqdi. Ulardan Florensiyalik Leonardo da Vinchi (1452—1519) Italiyadagi uygʻonish davri madaniyatining eng buyuk arbobi edi. U yoshligidan yaxshi bilim oldi, yirik olim, isteʼdodli haykaltarosh, meʼmor, muhandis, shoir va rassom boʻlib yetishdi.

1482—1490 yillarda Leonardo umrining eng yaxshi davrini Milanda oʻtkazdi. Uning loyihasi bilan Milan shahrini ichimlik suvi bilan taʼminlaydigan katta kanal qurildi. Keyinchalik Venetsiya va Florensiyada yashagan paytlarda kanallar, uchar apparatlar loyihalarini chizdi. Olim, shuningdek, anotomiya, geologiya, gidravlika va mexanika sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib bordi. «Mona Liza» («Jokonda») surati Leonardo da Vinchini butun dunyoga tanitdi. «Mona Liza» — yosh xotin portreti bugungi kunga qadar rassomchilik sanʼatining eng mashhur asaridir. Rassom bu suratda yosh xotinning tashqi koʻrinishinigina emas, balki uning ichki dunyosi, kechinmalari va kayfiyatini ajoyib, sirli tarzda aks ettirib bergan.

Uygʻonish davrining buyuk arboblardan biri haykaltarosh, rassom, meʼmor, harbiy muhandis va shoir Mikelanjelo Buanarotti (1475—1564) edi. Mashhur rassom Vatikandagi Sikstin kapellasida 4 yil davomida mashaqqatli mehnat qilib, 1512 yili uni tantanali ravishda ochadi.

Mikelanjeloning haykaltarosh sifatida yaratgan eng buyuk ishlaridan biri Davud haykali edi. Marmartoshdan qilingan haykalning balandligi 5,5 metr boʻlib, zamondoshlari uni «gigant» deb ataganlar. Florensiyaning markaziy maydoniga oʻrnatilgan David haykali oʻsha vaqtdan buyon shaharning homiysi hisoblanib kelinadi.

Umrining soʻngida Mikelanjelo meʼmorchilik bilan shugʻullanadi. Rimda avliyo Pyotr Sobori qurilishini nihoyasiga yetkazadi. Sobor uygʻonish davrining eng katta namunasi.

Italiyaning buyuk rassomlaridan biri Rafael Santi (1483—1520) oʻzining qisqa, lekin mazmunli umrida insonni, uning goʻzal qalbi, aql-zakovati, olijanobligini tasvirlashga intildi.

Rafael Santi kichkina Urbino gersogligida saroy rassomi oilasida tug'ildi. 1504 yili Florensiyaga keldi. Shu yerda o'zining qator taniqli suratlarini chizdi. Oradan 4 yil o'tib Rafael Rimga boradi. Rassom Rim papasi Yuliy II ning buyurtmasiga binoan uning saroyidagi dam oladigan xonalarni bezaydi.

Rafael chizgan rasmlarning eng mashhuri «Sikstin madonnasi» bo'lib, Italiyaning Pyachense shahridagi Avliyo Sikstin monastiri uchun chizilgandi. «Injil»dan olingan ushbu sahna tasviri g'oyat kuchli sevgi ruhi bilan sug'orilgan. Rassom unda o'zining eng aziz va sevimli o'g'lini bag'riga bosib, ulug'lik va oddiylik bilan odamlar oldiga yurib kelayotgan onani tasvirlaydi.

Surat Avliyo Sikst monastirida saqlanishiga qaramay, ikki asr davomida uncha tanilmay turdi. Faqat Saksoniya knyazi Avgust III ning papa Benedikt XIV bilan muzokaralaridan so'ng 70 kg oltin evaziga Germaniyadagi Drezden shahriga olib ketildi. 1754 yildan buyon «Sikstin Madonnasi» Drezdendagi eski ustalar galereyasida saqlab kelinmoqda. Ushbu suratning kopiyasi italiyalik rassom Nogari (1699—1766) tomonidan bajarilgan bo'lib, endilikda Avliyo Sikstin ibodatxonasida saqlanmoqda.

Uygonish davrida ilm-fan. XVI—XVII asrlarda tabiatshunoslik fanlarining keskin yuksalishi boshlandi. Ishlab chiqarish, jumladan, texnikaning o'sishi ilmiy taraqqiyotga keng yo'l ochdi. Tabiatdagi voqea-hodisalarning amaliy tomonlarini tadqiq qilish yo'lga qo'yildi.

Fandagi burilish, eng oldin, astronomiya sohasida ro'y berdi. XVI asrga qadar G'arbiy Yevropada antik davrda yaratilgan **geosentrik g'oya** hukmron edi. Unga ko'ra koinot markazida doira shaklida harakatsiz Yer turadi. Yerning atrofida ma'lum masofada Oy, Quyosh va boshqa sayyoralar, yulduzli osmon aylanib turadi. Bu g'oyaning asosi Aristotel, Gipparx va Ptolemey davrida ishlab chiqilgan edi.

Olimlar orasida koinot tuzilishi haqidagi yangi geliosentrik ta'limotni yaratgan ulug' polyak olimi Nikolay Kopernik (1473—1543) eng oddiy asboblar yordamida osmon jismlarini 30 yildan ko'proq kuzatdi. Murakkab o'lchovlar yordamida olim Yerning Quyosh atrofida aylanib turishini aniqladi. Yangi ta'limot tufayli cherkov tomonidan ta'qib qilinishini oldindan sezgan Kopernik o'z kashfiyotini sir tutdi. Olimning «Kul ustida ziyofat», «Koinot va dunyoning cheksizligi haqida», «Pegas siri», «Osmon jismlarining aylanishi haqida» va boshqa asarlari uning o'limidan sal oldinroq nashr qilindi.

Xristian cherkovi tazyiqining birinchi qurboni **Jordano Bruno** bo'ldi (1548—1600). U Kopernik ta'limotini rivojlantirib: «Koinotning chegarasi yo'q. Olam beqiyos katta va cheksizdir», degan edi. Uning fikricha, Yer ham, quyosh ham koinotning markazi emas. Olam son-sanoqsiz yulduzlardan iborat bo'lib, ularning har biri bizdan uzoqda turgan quyoshdir. Mana shu quyoshning har qaysi atrofida o'zining aylanib turgan yo'ldoshlari bor. Jordano Brunoning fikrlari hozirgi kunda fanda to'liq tasdiqlandi.

Cherkovning doimiy tazyiqi ostida olim 16 yil davomida Fransiya, Germaniya, Chexiyada yurishga majbur bo'ldi. Yurtini sog'inib, Italiyaga qaytgan olimni cherkov vakillari ushlab, o'z g'oyalaridan qaytishga undadi. Sakkiz yillik qamoqdan so'ng Jordano Bruno olovda yondirildi. 1600 yil 17 fevralda Rimda uning haykali o'rnatilgan. Haykalga «U hamma xalqlar uchun fikr erkinligini talab qildi va shu talabi uchun qatl etildi», deb yozib qo'yilgan.

Katolik cherkovi yirik astronom va fizik Galileo Galileyni (1564—1642) ham butun umri davomida ta'qib qildi. Olim o'zi yaratgan oddiy, 30 marta kattalashtirib ko'rsatadigan birinchi tuba teleskop yordamida ko'plab yulduzlarni, oy ustidagi toqqa o'xshash jismlarni, Yupiterning 4 ta yo'ldoshini, Veneraning fazalarini, Quyosh dog'larini aniqladi. Galiley o'z asarlarida N.Kopernik va J.Bruno kashfiyotlarini to'liq tasdiqladi. Rim papasi 70 yoshli olimni inkvizitsiya sudiga berdi. Sud Galileyni o'z g'oyalaridan voz kechishga majbur qildi. U umrining oxiriga qadar cherkov nazoratida ishladi.

Rim papasi Ioann Pavel II tomonidan 1979—1980 yillarda Galileyni sud qilgan inkvizitsiya sudi hujjatlari qayta ko'rib chiqildi va olim gunohsiz deb topildi. Katolik cherkovi o'zining ko'p sonli «xatolari»dan birini tan olishi uchun 3 asrdan ko'proq vaqt kerak bo'ldi.

Savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, o'rta asrlar davri madaniyatining antik davr madaniyatining mantiqiy davomi ekanligi nimalarda namoyon bo'ldi?
2. Universitetlar paydo bo'lishining asosiy omillarini ko'rsatib bering.
3. Yevropa Uyg'onish davrini yuzaga keltirgan omillarni sanab bering.
4. Gumanist yozuvchilarning asosiy g'oyalari nimalardan iborat?
5. Uyg'onish davrining buyuk daholaridan kimlarning hayoti va ijodi haqida gapirib bera olasiz?

Atamalar lugʻati

Aymoq — turkiy xaqalarda oʻzaro qardosh boʻlgan qabilalarning birlashmasi.

Barshchina (ruscha) — qaram dehqonlarning oʻz mehnat qurollari bilan yer egasining dalasida ishlab berish majburiyati. Barshchina ish hajmi yoki mehnat kunlari hisobida oʻlchangan.

Baron (lotincha «baro» — «erkin kishi») — Garbiy Yevropada yirik yer egasi. Martabasi boʻyicha graf, gersog va markgraf (markiz) dan keyingi oʻrinda turgan.

Boykot (inglizcha «boycott») — siyosiy va iqtisodiy kurash shakli boʻlib, muayyan shaxs, tashkilot va korxona bilan barcha aloqalarni qisman yoki toʻliq uzishga nisbatan aytiladi. Boykotda ushbu korxonaning tovarini sotib olmaslik, yoki unga ishga kirmaslik kabi usullar qoʻllaniladi.

Byurokratiya (fransuzcha «bureau» — idora va grekcha «kratos» — hokimiyat) — ishga halaqit beruvchi, aholi manfaatlari uchun qaygʻurmaydigan, real voqelikdan yiroq boshqaruv tizimi. Byurokratlar — rasmiyatchilikka mukkasidan ketgan oliy boshqaruvga tegishli amaldorlar qatlami.

Dinor (lotincha «denarius» — «oʻndan iborat boʻlgan») — Rim imperiyasining kumush tangasi.

Drujina (slavyancha) — qadimgi slavyanlar va Garbiy Yevropada qabila boshligʻi, keyinchalik yirik feodal qoʻl ostida uyushgan qurolli kishilar guruhi. Feodal jamiyatining imtiyozli qatlami.

Dvoryanlar (ruscha) — «hukmdor uyi odami» yoki, «saroy kishisi» tushunchasida keladi. Hukmdorning turli topshiriqlarini bajaruvchi kichik feodal.

Duel (fransuzcha «duel», lotincha «duellum» — «kurash», «ikki kishining urushi») — ikki shaxs oʻrtasidagi qonli jang. Duel qaysidir tomon haqorat qilingani uchun chaqiriladi va qilich yoki toʻpponcha orqali amalga oshiriladi. Uning sharti sifatida oldindan vakillar (sekundantlar) tayinlanadi. Sekundantlar jangning toʻgʻri va teng olib borilishini nazorat qiladilar.

Dukat (lotincha «dicatos») — oʻrta asrlar davrida Germaniya, Fransiya va Ispaniyada chiqarilgan oltin yoki kumush tanga.

Gersog (nemischa «herzog» — «yetakchi») — qadimgi germanlarda saylab qoʻyiladigan qabila boshligʻi, keyinchalik Gʻarbiy Yevropada qirolidan keyingi oʻrinda turuvchi oliy feodal unvoni.

Graf (nemischa «graf») — ilk oʻrta asrlarda qirol tomonidan lavozimga tayinlanadigan mansabdor shaxs. Rivojlangan oʻrta asrlarda nasliy feodal unvoniga aylangan.

Grivna — Kiyev Rusida 200-250 gramm kumush qiymasiga teng boʻlgan asosiy pul va oʻlchov birligi.

Hoqon — turkiy xalqlarda yirik davlat boshligʻi, «imperator», «shahanshoh» unvonlariga toʻgʻri keladi.

Independentlik — Angliya va boshqa davlatlarda protestantizmning bir oqimi. Ular cherkov jamoalariga toʻliq mustaqillik berish tarafdorlari boʻlganlar, davlat bilan bogʻlangan har qanday cherkov tashkilotini rad etadilar.

Immunitet (lotincha «immunitas» — «daxlsizlik») — feodalning oʻz mulkida markaziy hukumatga xos ishlarni amalga oshirishi (sud, soliq yigʻish, askar toʻplash va hokazolar). Hukmdor tomonidan immunitet yorligʻini olgan feodalning mulkiga qirol va uning amaldorlari daxl qila olmaganlar. Immunitet huquqi tarqoqlikka sabab boʻlgan.

Iyerey (grekcha «ἱερέυς» — «kohin») — xristianlik ruhoniysi.

Iyezuitlar ordeni (lotincha Societas Jesu) — rasmiy nomi «Iso jamiyati». 1534 yilda Ignatij Loyola tomonidan reformatsiyaga qarshi kurashish maqsadida tashkil etilgan. Orden aʼzolariga dunyoviy hayot kechirishga ruxsat berilgan. Bu ularga oʻzlarining kim ekanliklarini yashirishga imkon bergan. Iyezuitlar ilm-fan, taʼlim va targʻibot ishlari bilan shugʻullanib, protestantlarni yana katolik diniga oʻgirishga harakat qilganlar.

Kalvinizm — XVI asr birinchi yarmida Fransiyada vujudga kelgan protestantlik oqimi. Jan Calvin tomonidan asos solingan. Calvinizm cherkovlarida ikonalar, haykallar, devoriy suratlar, mehrob va salib (krest) yoʻq. Calvinizm ibodatlari ham juda oddiy — sham yoqilmaydi, muzika eshitilmaydi, ruhoniylar maxsus kiyim kiymaydilar. Calvinist cherkovlarini maxsus idoralar – presviterianlar, yaʼni ruhoniylar va jamoa vakillari boshqaradilar. Calvinizmga kamchiqim cherkov gʻoyasi ilgari surilganligi sabab Shveysariya, Angliya, Fransiya va Niderlandiya aholisi tomonidan qoʻllab-quvvatlangan.

Knyaz — qadimgi slavyanlarda qabila yetakchisi, keyinchalik uncha katta boʻlmagan feodal davlatining boshligʻi. Uning funksiyasiga harbiy, sud va diniy ishlarni bajarish kirgan.

Krepostnoy (ruscha «крепость» — «qoʻrgʻon» soʻzidan olingan) — aynan «qoʻrgʻonda yashovchi» deb tarjima qilinadi. Feodalga shaxsan qaram dehqonlarga nisbatan aytilgan. Ularni sotish va sotib olish mumkin boʻlgan.

Kurfyurst (nemischa «kur» — «saylov» и fűrst — «knyaz», «saylovchi knyaz») — Muqaddas Rim imperiyasida XIV asrdan boshlab imperatorni saylashda qatnashadigan yirik feodal. Germaniyada jami yetti nafar kurfyurst boʻlgan.

Lord (inglizcha «ega, xoʻjayin, boshliq») — Angliyada feodal yer egalari qatlamining umumiy nomi. Xotin-qizlar nisbatan «ledi» atamasi ishlatiladi.

Magnat (lotincha «magnates» — «taniqli kishilar») — Yevropa mamlakatlaridagi yirik feodal, katta boylik egasi, oqsuyak.

Markgraf (nemischa «markgraf»; fransuzcha «marquis») — ilk oʻrta asrlar Yevropasida marka boshligʻi. Oʻz yerlarida gersog darajasidagi vakolatlarga ega boʻlganlar. Lekin harbiy yurishlar vaqtida gersoglar bayrogʻi ostida harakatlanganlar.

Mirra (grekcha «μύρρα», arabcha «murr» — achchiq) — Afrika va Arabistondagi «Commiphora myrrha» turidagi daraxtlardan olinadigan saqich qatroni.

Obrok (ruscha) — krepostnoylik huquqida dehqonning oʻz xoʻjayiniga mahsulot bilan beradigan oʻlponi.

Oqsuyak — urugʻ-qabilaning boy-badavlat qatlami, aristokrat, zodagonlarga mansub kishi.

Pamflet — mavjud tuzum, siyosiy guruh, jamoat tashkiloti, hukumat va partiyani toʻliq yoki qisman tanqid qilishga qaratilgan asar.

Prelat (lotincha «praelatus» — «yuqoriga qoʻyilgan») — Rim papasi saroyida mansabga ega boʻlgan oliy katolik ruhoniysi

Presviter (grekcha «πρεσβύτερος» — «oqsoqol, jamoa boshligʻi») — xristianlikdagi ikkinchi darajali ruhoni.

Provinsiya (lotincha «provincia») — muayyan davlatdagi maʼmuriy-hududiy birlik. Unda yashovchi aholi «provinsial» deb atalgan.

Reglament (fransuzcha. «reglement», «regle» — qoida) — muayyan ish-harakatni olib borish qoidasi. Yigʻilishlarda vaqtni tartibga solish maqsadida ishlatiladi.

Renta (lotincha «reddita» — «qaytarilgan») — yer egasining ishbilarmonlikka aloqasi boʻlmagan doimiy daromadi. Oрта asrlar davrida majburiyat tushunchasida ham keladi. Feodal rentasining uchta turi boʻlgan: 1. Barshchina — ishlab berish; 2. Obrok — xoʻjalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlardan berish; 3. Pul berish.

Sasebaron — 1. graflik sudlarida qonun va udumlar bajarilishini nazorat qiluvchi amaldor. 2. qirol yoki graf foydasiga sud jarimalarini yigʻuvchi agent.

Singa — asosan dengizchilarda uchraydigan hamda S vitamini yetishmovchiligi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Bunda qon ketishi milklarning bo‘rtib chiqishi, terining buzilishi kuzatiladi.

Solid — imperator Konstantin tomonidan milodiy 314 yilda chiqarilgan Rim oltin tangasi. Bir necha asr mobaynida Yevropada asosiy pul-sanoq birligi sifatida ishlatilgan.

Vassal (fransuzcha «xizmatkor») — o‘zidan kattaroq feodalga qaram bo‘lgan yer-mulk egasi.

Votchina (ruscha «ota») — merosiy mulk. Votchina yerga, binolarga, jihozlarga va qaram dehqonlarga egalik huquqlarini birlashtirgan.

Testlar

1. Xalqlarning buyuk ko'chishini qaysi qabila birinchi bo'lib boshlab bergan?
A) gotlar; B) sarmatlar; C) xunnlr; D) franklar;
2. Ostgotlar Rim imperiyasining qaysi provinsiyasini bosib olishgan edi?
A) Ispaniyani; B) Galliyani; C) Britaniyani; D) Italiyani;
3. Angl-sakslar qayerda o'rinishib olganlar?
A) Italiyada; B) Galliyada; C) Britaniyada; D) Ispaniyada;
4. Xlodvig qachon Galliyani bosib oldi?
A) 486 yilda; B) 480 yilda; C) 476 yilda; D) 490 yilda;
5. Qirol Xilperik qanday qonunni chiqargan?
A) «Sali haqiqati»; B) «Allod qonuni»;
C) «Rim kodekslari»; D) «Varvar haqiqati»;
6. Buyuk Karl Franklar davlatini necha yil boshqargan?
A) 46 yil; B) 48 yil; C) 50 yil; D) 52 yil;
7. Avar hoqonligi tugatilgach, o'rnida qanday ma'muriy-hududiy birlik tashkul topgan?
A) Sharqiy marka; B) Ispan markasi;
C) Italiya qirolligi; D) Saksoniya gersogligi;
8. Angliya tarixidagi «yetti qirollik davri» tarixda qanday nom olgan?
A) frida; B) geptarxiya, C) gayda; D) boklend;
9. 871—899 yillarda Angliya qirolligini kim boshqargan?
A) Alfred; B) Egbert; C) Etelred; D) Edgar;
10. Germaniyada karolinglardan keyin qaysi sulola hukmronligi boshlandi?
A) gabsburglar; B) frankoniyaliklar; C) kapetinglar; D) saksoniyaliklar;
11. Muqaddas Rim imperiyasiga kim asos solgan?
A) Genrix I; B) Konrad II; C) Otton I; D) Genrix III;
12. Vizantiya imperiyasi kimning davrida o'z qudratining cho'qqisiga erishdi?
A) Yustin I davrida; B) Yustin II davrida;
C) Yustinian davrida; D) Foka davrida;
13. Fokadan keyin kim Vizantiya imperatori bo'ldi?
A) Yustin II; B) Herakliy; C) Konstantin IV; D) Roman IV Diogen;
14. Birinchi slavyan davlatini aniqlang?
A) Samo; B) Polsha; C) Chexiya; D) Bolgariya;
15. «Bolgaroboysa» laqabini kim olgan?
A) Simeon; B) Vasiliy II; C) Yustin I; D) Herakliy;

16. «Rus haqiqati»ni kim tomonidan qabul qilingan?
A) Yaroslav tomonidan; B) Svyatoslav tomonidan;
C) Vladimir tomonidan; D) Oleg tomonidan;
17. Qadimgi Rus davlatida qullar nima deb atalgan?
A) zakup; B) kolon; C) xolop; D) smerd;
18. Milodiy 226 yilda sosoniy Ardasher I poytaxtni qayerga ko‘chirdi?
A) Ktesifonga; B) Bobilga; C) Xarranga; D) Marvga;
19. Sosoniylar sulolasining so‘nggi hukmdorini aniqlang?
A) Yazdigard III; B) Xisrov I; C) Shopur II; D) Peroz;
20. Hijrat nechanchi yilda sodir bo‘lgan?
A) 622 yilda; B) 624 yilda; C) 626 yilda; D) 628 yilda;
21. Qaysi xalifa davrda yangi musulmon yil hisobi – hijriy kalendari joriy etiladi?
A) xalifa Abu Bakr; B) xalifa Umar; C) xalifa Usmon; D) xalifa Ali;
22. Guptalar davlatining poytaxtini aniqlang?
A) Indraprastha; B) Pataliputra; C) Dehli; D) Magadha;
23. Quyidagilardan taniqli hind matematigini aniqlang?
A) Harshavardhana; B) Aryabxata; C) Chandragupta; D) Yasadxarma;
24. Suy imperatori Yan Guan qaysi davlatga qarshi 3 marta yurish uyushtirgan?
A) Pekchega; B) Yaponiyaga; C) Koguryoga; D) Sillaga
25. Tan imperiyasiga kim asos solgan?
A) Vendi; B) Tayszun; C) Li Yuan; D) An Lushan;
26. Ratusha nima?
A) sex binosi; B) shahar kengashi binosi;
C) qirol saroyi; D) shahar cherkovi;
27. Yevropada shahar boshlig‘i nima deb atalgan?
A) byurger; B) siti; C) mer; D) kommuna;
28. Shogirdning ustalikka o‘tishi uchun yasaydigan namunali ishi nima deb ataladi?
A) shedevr; B) miniatyura; C) gravyura; D) antikvariat;
29. Birinchi banklar qayerda paydo bo‘ldi?
A) Shampanda; B) Burgundiyada; C) Lombardiyada; D) Shvabiyada;
30. Ispaniyadagi inkvizitsiya nima deb ataladi?
A) interdikt; B) selebat; C) autodafe; D) indulgensiya;
31. Inkvizitsiya qaysi papa davrida rasman joriy etildi?
A) Grigoriy I davrida; B) Innokentiy III davrida;
C) Lev I davrida; D) Bonifatsiy VIII davrida;

32. Salib yurishini qaysi papa boshlab bergan?
A) Urban II; B) Grigoriy VII; C) Yuliy I; D) Bonifatsiy V;
33. Ioanniylar ordeni yana qanday nom bilan atalgan?
A) Tevton; B) hospitalyerlar; C) xramovniklar; D) tampliyerlar;
34. Gastings jangi vaqtida Angliya qiroli kim bo'lgan?
A) Vilgelm I; B) Garold; C) Buyuk Alfred; D) Artur;
35. Angliya tarixida ilk bor aholi royxatini o'tkazgan qirolni aniqlang?
A) Genrix I; B) Eduard I; C) Ioann; D) Vilgelm I;
36. Filipp IV qaysi Rim papasi bilan kurash olib borgan?
A) Grigoriy IX bilan; B) Ioann XII bilan;
C) Lev III bilan; D) Bonifatsiy VIII bilan;
37. Kapetinglar xonadonining vorisi etib qaysi oila tan olinadi?
A) burbonlar; B) karolinglar; C) plantagenetlar; D) valualar;
38. 3 kun davomida Kanossa qasri oldida papadan kechirim so'ragan german qirolini aniqlang?
A) Rudolf; B) Barbarossa; C) Karl IV; D) Genrix IV;
39. Germaniyada tabaqaviy-vakillik mahkamasi nima deb atalgan?
A) Landtag; B) Podesta; C) General shtatlar; D) Infanteriya;
40. Pireneya yarim orolining arablardan qaytarib olinishi tarixiy adabiyotda qanday nom olgan?
A) deputatsiya; B) rekonkista; C) renegatos; D) kortes;
41. Ispaniyada xristianlikka o'girilgan mavrlar qanday nom bilan atalganlar?
A) marranlar; B) begetriyalar; C) ermandadlar; D) moriskalar;
42. Aleksandr Nevskiy qayerda knyazlik qilgan?
A) Novgorodda; B) Moskvada; C) Chernigovda; D) Kiyevda;
43. Kulikovo jangida Oltin O'rda qo'shinlariga kim boshchilik qildi?
A) Botuxon; B) Olg'uxon; C) Jebe; D) Mamay;
44. Saljuqiylar davlatiga kim asos solgan?
A) To'g'rulbek; B) Alp Arslon; C) Malikshoh; D) Sulton Sanjar;
45. «Ikki muqaddas shahar xizmatchisi» faxriy unvonini qaysi turk sultoni birinchi bo'lib qabul qilgan?
A) Boyazid I; B) Salim I; C) Sulaymon; D) Mehmet II;
46. «Chingiz» so'zining lug'aviy ma'nosini toping?
A) tosh; B) tog'; C) kuchli; D) bulut;
47. Botuxon asos solgan davlat rus manbalarida qanday atalgan?
A) Jo'ji ulusi; B) Oltin O'rda; C) Oq o'rda; D) Tatar ulusi;
48. Xubilayxonning Xitoyda asos solgan sulolasi nima deb ataladi?
A) Sun; B) Tan; C) Yuan; D) Min;

49. Dehli sultonligining asoschisini aniqlang?
A) Mahmud; B) Muhammad Tug‘laq;
C) Shamsiddin Eltutmish; D) Qutbiddin Oybek;
50. Paolo Toskanelli yerning ekvator bo‘ylab uzunligini aniqlashda necha km adashgan edi?
A) 11000 km; B) 12000 km; C) 13000 km; D) 14000 km;
51. Yangi dunyo «Amerika» deb atalgan birinchi globus qachon va qayerda yaratilgan?
A) 1512 yili Italiyada; B) 1514 yili Angliyada;
C) 1515 yili Germaniyada; D) 1517 yili Portugaliyada;
52. Ingliz lordlarining dehqonlarini yerdan mahrum etish jarayoni qanday nom oldi?
A) g‘ov tutish; B) konversiya; C) statut; D) puritanlik;
53. Dengiz qaroqchiligidan o‘z faoliyatini boshlagan admiralni aniqlang?
A) Robert Ket; B) Eduard Seymur; C) Vilyam Ket; D) Frensis Dreyk;
54. Fransiya qirol Karl IX diniy urushlarni to‘xtatish uchun nima qildi?
A) Chet davlatlardan yordam so‘radi;
B) gugenotlarga o‘z davlatlarini tuzishlariga ruxsat berdi;
C) Gugenotlarni qirg‘in qilishga qaror qildi;
D) gugenotlar yetakchisi Genrix Burbonga o‘z singlisi Margaritani uzatishga qaror qildi;
55. Nechanchi yilda Nant edikti imzolangan?
A) 1590 yilda; B) 1598 yilda; C) 1600 yilda; D) 1610 yilda;
56. Martin Lyuterning xitobnomasi qaysi dasturda o‘z aksini topgan?
A) 12 jadval; B) 17 modda; C) 95 tezis; D) 5 modda;
57. Rossiyada oprichnina qachon joriy etilgan?
A) 1560 yilda; B) 1565 yilda; C) 1569 yilda; D) 1570 yilda;
58. 1445 yilda...
A) Yuz yillik urush tugadi;
B) Parij universiteti ochildi;
C) I. Gutenberg birinchi bosma kitobni nashr etdi;
D) Rojer Bekon tug‘ildi;
59. Dojlar saroyi qaysi shaharda qurilgan?
A) Venetsiya; B) Parij; C) London; D) Varshava;
60. Yevropada Bibi Maryam haykallari nima deb ataladi?
A) Magdalena; B) Madonna; C) Barokko; D) Kruska;

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Salimov T. O'rta asrlar tarixi. –Toshkent, 2006.
2. Semenov V.P. O'rta asrlar tarixi. –Toshkent: O'qituvchi, 1973.
3. Kurbangaliyeva R.R. O'rta asrlar tarixi. O'quv metodik qo'llanma. –Toshkent: Uchpedgiz, 1991.
4. Англосаксонская хроника / Перевод с древнеанглийского З.Ю.Метлицкой. — СПб.: Евразия, 2010.
5. Балакин В.Д. Творцы Священной Римской империи. –Москва: Молодая гвардия, 2004.
6. Глебов А. Г. Альфред Великий и Англия его времени. –Воронеж, 2003.
7. Глебов А. Г. Англия в раннее Средневековье. –СПб, 2007.
8. Головкин А.Б. Древняя Русь и Польша в политических взаимоотношениях X — первой трети XIII вв. –Киев: Наукова думка, 1988.
9. Дашков С.Б. Цари царей — Сасаниды. История Ирана III—VII вв. в легендах, исторических хрониках и современных исследованиях. –Москва: СМИ-АЗИЯ, 2008.
10. Древние германцы. Сборник документов. –Москва, 1987.
11. История средних веков. Под редакцией З.В.Удалцовой и С.П.Карпова. 1-2 ч. –Москва: Высшая школа, 1991.
12. История средних веков. Под редакцией С.П.Карпова. часть II. –Москва: МГУ, 2001.
13. Карпов А.Ю. Ярослав Мудрый. — 3-е изд. –Москва: Молодая гвардия, 2010.
14. Ли А. Б. Альфред Великий, глашатай правды, создатель Англии / Пер. с англ. –СПб., 2007.
15. Лебек С. Происхождение франков. V – IX века. –Москва, 1993.
16. Мишин Д. Е. Хосров I Ануширван (531–579), его эпоха и его жизнеописание и поучение в истории Мискавейха. –Москва, 2014.
17. Нефёдов С. История средних веков. –Москва: Владос, 1996.
18. Острогорский Г.А. История Византийского государства. –Москва: Сибирская Благозвонница, 2011.

19. Поляк Г.Б., Маркова А.Н. Всемирная история. –Москва: Вече, 2001.
20. Рыжов К. В.. Сасаниды // Монархи. Древний Восток. –Москва: Вече, 2006.
21. Тодд М. Варвары. Древние германцы. Быт, религия, культура. – Москва: Центрполиграф, 2005.
22. Штокмар В.В. История Англии в Средние века. –СПб.: Алетейя, 2005.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I bob. Ilk oʻrta asrlar davri

1-§. Varvar qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti.....	4
2-§. Franklar davlati.	14
3-§. Buyuk Karl davlati.....	25
4-§. Ilk oʻrta asrlarda Angliya.....	31
5-§. IX—XI asrlarda Germaniya.....	36
6-§. Vizantiya imperiyasi.....	41
7-§. Slavyan davlatlarining tashkil topishi.....	47
8-§. IX—XI asrlarda Kiyev Rusi.....	52
9-§. Ilk oʻrta asrlarda sosoniylar Eroni.....	58
10-§. Arab xalifaligi.....	63
11-§. Ilk oʻrta asrlarda Hindiston.....	71
12-§. Ilk oʻrta asrlarda Xitoy.....	77

II bob. Rivojlangan oʻrta asrlar

13-§. XI—XIII asrlarda Yevropada ishlab chiqarishning oʻsishi. Oʻrta asr shaharlarining vujudga kelishi.....	85
14-§. Oʻrta asrlar hunarmandchiligi.....	94
15-§. Xristian cherkovi.....	103
16-§. Salib yurishlari.....	111
17-§. XI—XV asrlarda Angliya.....	122
18-§. XI—XV asrlarda Fransiya.....	130
19-§. XI—XV asrlarda Germaniya.....	142
20-§. XI—XV asrlarda Pireneya yarim oroli davlatlari.....	148
21-§. XI—XV asrlarda Rus knyazliklari.....	154

22-§. Saljuqiylar va Usmoniylar davlati.....	160
23-§. XIII—XV asrlarda mo‘g‘ullar imperiyasi.....	166
24-§. XI—XVI asrlarda Hindiston va Xitoy.....	171

III bob. So‘nggi o‘rta asrlar

25-§. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning ahamiyati.....	186
26-§. XVI—XVII asr birinchi yarmida Angliya.....	197
27-§. XVI—XVII asr birinchi yarmida Fransiya.....	208
28-§. XVI—XVII asr birinchi yarmida Germaniya.....	216
29-§. XVI—XVII asr birinchi yarmida Rus davlati.....	228
30-§. O‘rta asrlar davrida Yevropa madaniyati.....	237
Atamalar lug‘ati.....	246
Testlar.....	250
Adabiyotlar ro‘yxati.....	254

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

Tursunov Saypulla Narzullayevich
Umarov Ikromjon Ibragimovich
Tursunov Anvar Saypullayevich

JAHON TARIXI

(OʻRTA ASRLAR DAVRI)

DARSLIK

Muharrir: T.R.Pardayev

Musahhah: B.Botirov

Texnik muharrir: A.Boʻriyev

Kompyuterda sahifalovchi: M.Qoʻshoqova

Terishga 08.10.2022-yilda berildi.

Bosishga 02.11.2022-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Hajmi 16,25 bosma taboq.

Buyurtma №194 Times New Roman garniturasida.

Ofset usulda chop etildi. 100 nusxada. 260 bet.

Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti.

Termiz davlat universiteti NMM bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Termiz shahri, “Barkamol avlod” koʻchasi, 43-uy.